



USMON QORABOYEV  
G'AYRAT SOATOV

# O'ZBEKISTON MADANIYATI

Familiyasi \_\_\_\_\_ Ismi \_\_\_\_\_

63.3 (60<sup>2</sup>)

Q-59

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Usmon Qoraboyev  
G'ayrat Soatov

# O'ZBEKISTON MADANIYATI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
ta'lif muassasalarining talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etilgan*

«TAFAKKUR-BO'STONI»  
TOSHKENT – 2011

БИБЛИОТЕКА  
РУС. ТУР. АДП

**63.3 (50°)**

**Q59**

**UDK: 008(575.1)(075)**

**BBK 63.3(50°)-7ya7**

Mas'ul muharrir:

**A. SA'DULLAYEV,**  
*tarix fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar:

**A. MAVRULOV**  
*tarix fanlari doktori, professor*

**A. ASHIROV**  
*tarix fanlari doktori*

**Qoraboyev, Usmon.**

O'zbekiston madaniyati / U. Qoraboyev, G'. Soatov; mas'ul muharrir A.Sa'dullayev; O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. — 196 b.

**I. Soatov, G'ayrat.**

**BBK 63.3(50°)-7ya7**

O'quv qo'llanmada o'zbek madaniyatining nazariy asoslari, tarixi va Mustaqillik davridagi yantuqlari o'z ifodasini topgan. Unda madaniyat tushunchasi va uning mohiyati, turlari, funksiyalari, ma'naviy meros, sivilizatsiya masalalari, tariximizning turli davrlarida yaratilgan madaniy boyliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, tajribalari yangicha yondashuvlar asosida yoritilgan. Ayniqsa, Mustaqillik davri madaniyatiga, jumladan, madaniy islohotlar, milliy g'oya, an'anaviy madaniyatning tiklanishi, O'zbekiston badiiy madaniyati yantuqlari, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatiga alohida e'tibor berilgan.

Kitob o'quv yurtlari talabalari, soha mutaxassislari va o'zbek madaniyati bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.

ISBN 978-99-362-26-0

© «Tafakkur bo'stoni», 2011.

## KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh yo‘nalishlardan biri kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ta‘lim tizimi o‘quv rejalarida bo‘lajak mutaxassislar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida talabalarni milliy va umumbashariy madaniyat yutuqlari bilan tanishtirish ko‘zda tutilgan. Zero, insoniyatning kelajagi uning madaniyatlichkeit darajasiga bog‘liq bo‘lmoqda. Chunki insoniyatning keyingi hayotini qurolli to‘qnashuvlar, tajovuz va zo‘ravonliklar emas, balki har bir shaxsnинг madaniyatlichkeit saviyasi belgilab beradi. BMTning XXI asri insonparvarlik asri, jamiyatni insoniylashtirish, ya’ni madaniylashtirish asri deb e’lon qilishi ham bejiz emas. Shu sababli keyingi paytlarda jahon miyosida, ayniqsa, Respublikamizda milliy madaniyat masalalariga alohida e’tibor berilmokda.

Madaniyat ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijodi va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatining mahsuli bo‘lib, minglab yillar davomida yaratilgan tajribalarni o‘ziga singdirib, takomillashib borgan. Madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma’naviy qiyofasi ham shakllangan.

Yurtimizning har bir fuqarosi, eng avvalo, Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz ma’naviy merosidan yaxshi xabardor bo‘lishi shart. Chunki ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni bilmagan kishi Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo’shaolmaydi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”. Ayniqsa, ajdodlarning ma’naviy merosini bilish millatning yosh avlodni uchun juda muhim. Chunki milliy madaniyat tarixini bilmasdan, o‘rganmasdan turib, o‘zlikni anglash va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish, millatning haqiqiy vakili bo‘lishi mumkin emas.

Millatning kelajagi bo‘lmish yoshlar, eng avvalo, madaniyat, uning tarkibiy qismi, ma’naviy meros, sivilizasiya, ajdodlar tajribasi (ibtidoiy davrdan hozirgacha qo‘lga kiritilgan yutuqlar)ini bilishi va ulardan ijodiy foydalanishi talab qilinadi.

Ikkinchidan, yoshlar umumbashariy madaniyatdan ham xabardor bo‘lishi zarur. Chunki boshqa xalqlar madaniyati, uning yaratilish jarayoni, madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sir etishi jarayonidan xabardor bo‘lgan kishigina o‘z ajdodlarining ma’naviy boyliklarining qadriga yetadi, ularni asrab-avaylab, keyingi avlodlariga yetkazishga o‘z hissasini qo’sha oladi. Xullas, Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «jahon fani va madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib oladigan yangi avlodni

kamol toptirish» o'ta muhim vazifadir. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida uyg'unlashtirgan yosh avlodgina millatning haqiqiy kelajagi bo'la oladi.

«O'zbekiston madaniyat» nomli o'quv qo'llanmasi yoshlarga madaniyat ilmi va o'zbek madaniyat tarixi haqida bilim berish maqsadida yaratilgan.

Ma'lumki, madaniyat ilmining «kalit» tushunchalari haqida tasavvurga ega bo'lmasdan turib, madaniyatimiz tarixini anglab bo'lmaydi. Shu sababli mazkur o'quv qo'llanmada dastlab madaniyat nazariyasiga, ya'ni madaniyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linishi, bu ikki qismning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi va farqli jihatlari, madaniyat va sivilizasiya, madaniyat va madaniy meros, madaniyatning jamiyat hayotida bajaradigan vazifalari kabi masalalar yoritiladi.

Qo'llanmaning asosiy qismi – ajdodlarimizning ibtidoi davridan to hozirgi kungacha bo'lgan madaniy taraqqiyotini o'z ichiga oladi. Unda milliy madaniyatimizning yaratilish tarixini yoritishda qadimgi davr madaniyat, milliy davlatchilikning vujudga kelishi, Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So'g'diyona davlatlarining madaniy hayotiga to'xtaladi. Sulolalar davlatchiligi, ya'ni kushonlar, estalitlar va turk xoqonligi davrlari madaniyatiga, so'ngra qadim ajdodlarimizning azaliy diniy e'tiqodi hisoblangan Zardushtiylik dini va uning yozma yodgorligi bo'lgan «Avesto»ga to'xtalindagi.

O'quv qo'llanmada islom dinining yurtimizga kirib kelishi, uning milliy madaniyatimizga ta'siri (ilk Uyg'onish davri madaniyat), Temur va temuriylar, XVI-XIX asrlar hamda mustamlakachilik va qaramlik sharoitida (Rossiya imperiyasi va sobiq sho'rolar davrlari) milliy madaniyatimiz haqida fikr yuritiladi.

Mustaqillik davri madaniyatiga, jumladan, madaniy islohotlar, milliy g'oja, an'anaviy madaniyatning tikanishi, O'zbekistonda ko'p millatli va diniy bag'rikenglik madaniyat, O'zbekiston badiiy madaniyati yutuqlari, madaniyma'rifiy muassasalar faoliyatiga alohida e'tibor berilgan.

O'quv qo'llanmada tarixiy jarayonlarga tadrijiy yondashilib, har bir davr madaniyati iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotga bog'liq holda, milliy madaniyatimiz umuminsoniyat madaniyatining ajralmas qismi sifatida o'rganiladi.

O'zbek madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri, o'z navbatida, Eron, Yunon, Arab, Hind, Yevropa va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari madaniyatining milliy madaniyatimizga ta'siri tahlil qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirishda tarix, arxeologiya, etnografiya, falsafa, tilshunoslik, sotsiologiya, san'atshunoslik va boshqa fanlarning mazkur mavzuga oid faktik materiallardan foydalanildi. Mazkur mavzuni o'rganishda: maxsus ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalarni o'rganish, qiyosiy tahlil, kuzatuv kabi metodlar qo'llanildi. Kitobdan Madaniyatshunoslik, Ma'naviyat asoslari, Etika, Estetika, Etnologiya kabi fanlarni o'qitishda ham foydalansa bo'ladi.

## I QISM. MADANIYAT NAZARIYASI

### I BOB. MADANIYAT TUSHUNCHASI

Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati. Yuzaki qaralganda, kundalik hayotda “madaniyat” so‘zidan insonning faoliyat tarzini va jamiyatning qay darajada rivojlanganligini aniqlovchi ko‘rsatkich sifatida foydalilanligandek tuyuladi. Lekin madaniyat so‘zining mazmun-mohiyatiga chuqurroq e’tibor beradigan bo‘lsak, bu atama tabiat, jamiyat va insonlar o’rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi ko‘plab qarashlar, nazariyalar va g‘oyalarga, tushuncha va tasavvurlarga nisbatan qo‘llanilishini ham anglab yetamiz.

XX asrning 50-yillari boshida amerikalik madaniyatshunos olimlar Alfred Kreber va Klayd Klakxonlar o‘zlarining «Madaniyat: tushuncha va ta’riflar» nomli asarida madaniyatning 164 ta ta’ifi mavjud ekanligini ko‘rsatib o‘tadilar. Hozirgi paytda «madaniyat» atamasining 400 dan ortiqroq ta’ifi mavjud. Agar ularga e’tibor bersak, madaniyat tushunchasi keng qamrovli hayotning deyarli barcha va hatto bir-biriga zid bo‘lgan sohalarini ham qamrab oluvchi tushuncha ekanligini ko‘ramiz. Shu boisdan ham madaniyat tushunchasiga insonning aqliy faoliyati va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi tushuncha sifatida ta’rif berish juda mushkul.

Madaniyatshunoslikka oid adabiyotlarga nazar tashlasak, madaniyatning turlicha ta’rifu talqinlari mavjudligini ko‘ramiz, chunonchi: «inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar yig‘indisi»; «moddiy va ma’naviy qadriyatlar»; «inson tomonidan yaratilgan ikkinchi tabiat»; «insoniy faoliyat mahsuli»; «ijodiy faoliyat»; «ijodiy faoliyat mahsuli»; «jamiyatning ma’naviy hayoti»; «insonning ma’naviy dunyosi»; «insonning axloqiy fazilatlar»; «insonning ichki va tashqi olami»; «axloqiy sifatlar yig‘indisi»; «jamiyat faoliyati»; «shartli belgilar tizimi yig‘indisi»; «shartli tasvirlar»; «ramziy ishora va belgilar»; «me’yor va andazalar» va shu kabilar.

«Kultura» atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, uni birinchi marta fanga 1871- yili tarixchi va etnograf olim E.Taylor kiritgan. Uning ko‘rsatishicha, o’sha paytda bu tushunchaning bor-yo‘g‘i 7 tagina ta’ifi bo‘lgan.

Aslida madaniyat keng qamrovli va murakkab tushuncha. Shu boisdan ham yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, uning 400 dan ortiq ta’ifi mavjuddir.

E.Taylor o‘zining «Ibtidoiy madaniyat» nomli asarida «kultura» («madaniyat») tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: «kultura yoki sivilizatsiya keng ko‘lamli etnografik tushuncha shaklida insonning jamiyat a’zosi sifatida

egallab olgan bilimlari, diniy e'tiqodlari, san'ati, axloqi, huquqi, marosimlari va boshqa odatga aylangan qobiliyatları yig'indisidir». Albatta, bu ta'rifda E.Taylorning «kultura» («madaniyat») tushunchasiga etnograf sifatida yondashuvi ko'zga tashlanadi.

Arxeologlar, faylasuf va madaniyatshunoslar «kultura» («madaniyat») tushunchasiga ta'rif berishganida, E.Taylor singari madaniyatni ma'naviy hodisa sifatida olib qarash bilan birgalikda moddiy predmetlar, narsalar va boyliklar, shuningdek, inson tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayonlarini ham nazarda tutadilar.

Madaniyat haqidagi fikrlar insonning paydo bo'lishi bilan bir vaqtida, ya'ni oddiy tosh qurollardan foydalanib ov qilish, o'lja va mevalarni terib iste'mol qilish, ilk dehqonchilik bilan shug'ullanigan va ilk shahar madaniyatini vujudga keltingan davrlardayoq paydo bo'lmagan. Madaniyat tushunchasi dastlab atama sifatida vujudga kelgani bilan hali jamiyatning moddiy va ijtimoiy hayotini, odamning ongli mavjudot sifatidagi insoniylik qiyofasini anglatmas edi. Inson bunyodkorlik faoliyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'mini anglab yetish, inson qiyofasini shakllantirish, ya'ni uning ongi va tafakkuriga ta'sir etish orqali jamiyat manfaatlariga mos keladigan insonni shakllantirish zaruriyat paydo bo'lgan davrlarga kelib «madaniyat» va «kultura» atamalarining mazmun-mohiyati o'zgaradi.

Agar «madaniyat» va «kultura» atamalarining qo'llanish tarixiga e'tibor bersak, «madaniyat» arabcha «madina» so'zidan olinganligi va «shahar» degan ma'noni anglatishini ko'ramiz. «Kultura» so'zi esa yuqorida yozganimizdek, lotinchadan olingen bo'lib, «ishlov berish, parvarishlash» ya'ni tuproqqa va yerga ishlov berish kabi ma'nolarni anglatgan. Keyinchalik mazkur atamalarning mazmun-mohiyati o'zgarib borgan.

Kishilik jamiyatidagi beqiyos o'zgarishlar, davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarning murakkablasha borishi, jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi tub o'zgarishlar, inson imkoniyatlarining yuzaga chiqqa borishi, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasida inson o'mining orta borishi, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti, kishilarning turmushi, o'zaro munosabatlarga oid umumlashtiruvchi tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj madaniyat tushunchasi mohiyatining o'zgarishiga olib keldi.

«Madaniyat» so'zining etimologiyasiga e'tibor bersak, so'zning kelib chiqishida arablar turmush tarzi muhim rol o'yaganligini ko'ramiz. Chunki qadimda Arabiston yarimorolida yashovchi qabilalar ikki xil turmush tarziga ega bo'lganlar. Cho'l hududlarida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar «badaviy»lar deb nomlangan bo'lsa, o'troq hayot, ya'ni shaharlarda muqim yashovchi aholi «madaniy»lar («shaharliklar») deb yuritilgan. Bundan ko'rindaniki, «madaniyat» so'zining kelib chiqishida faqatgina shaharlarda yashovchi aholi, ularning hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan kun kechirishi, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlovchi qabila va xonardonlarning turmush

tarzi muhim rol o'ynagan. Chunki «madaniy»lar, birinchidan, o'troq tur mush tarzi, hayot shart-sharoitlari; ikkinchidan, ong va tafakkur taraqqiyoti; uchinchidan, muayyan kasb-hunar bilan shug'ullanishi, ma'rifat, bilimga intilishi; to'rtinchidan, davlat boshqaruvidagi faolligi, uyushqoqligi va boshqa tomonlari; beshinchidan, o'zga xalqlar, ularning ishlab chiqarish va tur mush sharoitlari va boshqa dinlar bilan tanishligi jihatidan «badaviy»larga nisbatan ancha oldinda bo'lganlar. Shu boisdan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchilar shaharliklarni «madaniylar» deb ataganlar.

**Markaziy Osiyo mutafakkirlarining madaniyat haqidagi qarashlari.** Markaziy Osiyolik buyuk tafakkur egalari madaniyatlilik masalasiga insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti, ong va tafakkur taraqqiyoti, fozil jamiyat va komil insonlar masalasi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashadilar.

Sharq mutafakkirlari madaniyat masalasini insonning ma'naviy-aqliy barkamolligi shaklida, baxt-saodatga erishuvli tarzida tushunadilar. Bu an'anaviy tushuncha keyingi avlodlar tafakkuridan mustahkam joy olgan. Shu sababli «madaniyat» deganda ko'proq insonning ma'naviyati, uning ichki kechinmalari va tashqi qiyofasining mushtarakligini ko'z oldimizga keltiramiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, «madaniyat» so'zi arabcha «madina» so'zidan olingan bo'lib, «shahar» degan ma'noni anglatadi. Demak, «madaniyatli» so'zining lug'aviy ma'nosini «shaharlik» ma'nosini bildiradi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, madaniyatlilik – bu fozillik, aqliy kamolotga erishmoqlikdir. Shuningdek, Forobi madaniyatlilik deganda, har bir kishisi kasb-hunarli, teng huquqli, ular o'rtasida farq bo'lmaydigan, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan shahar (jamiyat)ni tushungan. U madaniyatlilik deganda, ideal jamiyat tushunchasini ilgari suradi.

«Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunardan ozod, hamma bab-baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosini bilan ozod bo'ladilar. Biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi», deb yozadi Forobi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, Forobi o'z asarlarida madaniy bilim haqida ham fikr yuritadi. Uningcha, madaniy bilim, «shunday narsalarni o'rgatuvchi ilmki, uning yordamida shahar xalqlari va shaharlik bo'Imagan xalqlarni o'z ichiga olgan... insonlarga xos bo'lgan barcha xislatlarni birlashtiriladi.

Forobi o'z asarlarida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida fikr yuritar ekan, eng avvalo, madaniyatli jamiyatning ko'pgina

<sup>1</sup> Forobi. Fozil odamlar shahri: – T. 1993. 190-bet.

tomonlari: davlatni boshqarish, ta'lim va tarbiya, axloq va ma'rifat, iymon va e'tiqod, urush va tinchlik, mehnat va boshqalarga alohida e'tibor beradi.

Bu davrda yashagan mutafakkirlarning ko'pchiligi insonning madaniyatligini fozillikda va donishmandlikda, uning asosi hisoblanuvchi ma'rifatlilik va bilimdonlikda deb biladi. Masalan, Beruniy: «Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi», deb ta'kidlasa, Ahmad Yugnakiy: «Bilimli kishi vafot etsa-da, o'z nomini abadiylashtirib ketadi», — deb yozadi. Imam G'azzoliy esa, «Inson moddiy boyliklar bilan emas, balki ma'naviy fazilatlari bilan o'z abadiyligini yaratadi», deb hisoblaydi.

Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Abdullohh Marvaziy, Ibn Sinolar insonning tashqi tabiat va o'zi yashayotgan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilish, o'rganish va tahlil qilish orqali axloqiy kamolotga (madaniyatlilikka erishishi mumkinligi g'oyasini ilgari suradilar.

Beruniy o'z asarlarida nafaqat insonning madaniyatligi, ya'ni insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirishi masalasini, balki turli xalqlar madaniyatlarining o'zaro aloqadorlikda bo'lishi va bir-biriga ta'sir etishi natijasida rivojlanib, boyib borishini yoritib beradi.

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va Nosir Xusrav kabi buyuk siymolar esa ma'naviy-madaniy tubanlikni keltirib chiqaruvchi jaholatparastlikdan bilim olish orqali qutulish mumkin, deb hisoblaydilar.

Temur va temuriylar davri mutafakkirlari ham o'zlaridan oldin yashagan buyuk siymolar, allomalarining an'anaviy qarashlariga sodiq qolgan holda insonning madaniyatligi masalasiga bilimdonlik, ma'rifatlilik, yetuk axloqlilik, ruh sofligi, iymon butunligi, ya'ni haqiqiy insonparvarlilik nuqtayi nazaridan turib yondashadilar.

Masalan, mashhur faylasuf Ali Husayn Jurjoniy o'z asarlarida insonning madaniylashushi, ya'ni inson ma'naviy dunyosining moddiylashushi ruhiy munosabatlarining inson xatti-harakati, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida moddiylashib kelishi masalalarini yoritib beradi.

Abdurahmon Jomiy ham insonning madaniyatligini donishmandlik, fozillik va bilimdonlikda deb biladi. Uning nazdida ilm kishini irodali qiladi. Madaniyatsizlik belgilari hisoblanmish nochorlik, jaholat, munofiqlik, xiyonat va hasaddan qutqazadi. Uningcha, ma'naviy-madaniy komillik darajasiga erishgan kishi nafaqat bilim oladi, balki boshqalarga ham ilm ulashadi.

Abdurahmon Jomiy o'zining «Lujjat ul-asror» asarida o'zidan oldin yashagan mutafakkirlarning fikrini davom ettirib, insonning mukammalligi (madaniy-ma'naviy komilligi) uning halol va pok yashashi biror-bir kasb etagidan tutishi, o'z mehnati evaziga kun ko'rishida, deb biladi.

Jomiying musiqaga oid «Risolayi musiqiy» asarida musiqaning insonning kamol topishi, unga ma'naviy ozuqa berishi, uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati haqidagi fikrlari o'ta muhimdir.

Alisher Navoiy esa yetuk axloqlilik, ma'rifatga intilish va adolatparvarlikni, ya'ni buyuk insoniy ideallarni qamrab oluvchi insonparvarlikni madaniyatlilik tarzida tushunadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida madaniyat masalasini ijtimoiy va axloqiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqlikda, deb biladi. Insonning madaniy-ma'naviy qiyofaga ega bo'lishi faqtigina adolatli jamiyatdagina amalga oshadi, deb hisoblaydi.

Jaloliddin Davoniy o'zining «Axloqi Jaloliy» asarida Forobiy singari fozillar shahrini madaniy shahar tarzida tushunadi. Uningcha, fozil shahar «shunday shaharki, uning qoidasi baxt-saodatga erishuvidan va baxtsizlikka olib boradigan hodisalarни bartaraf qilishdan iborat». Davoniy ham kishilarni ma'rifatli bo'lishga, kasb-hunar egallashga chaqiradi.

Keyingi davr mutafakkirlari, ayniqsa, Turkiston ma'rifatparvarlik harakati vakillari madaniyat tushunchasini xalqni savodli, ilmli, ma'rifatli qilish g'oyasi bilan birlashtirdilar. Ular shaxs, millat, davlat va jamiyatning madaniylik darajasini shaxs va xalqning o'z-o'zini va milliy o'zligini anglashida, deb bildilar. Ma'rifatparvarlik harakati vakillarining aksariyat qismi jamiyat va insonning ma'naviy-madaniy rivojlanishini madaniy taraqqiyotda Osiyoga nisbatan ancha ilgarilab ketgan Yevropaning ilg'or madaniy yutuqlarini o'zlashtirishda ko'rdilar.

«Kultura» so'zi ma'nosining rivojlanish bosqichlariga to'xtaladigan bo'lsak, dastlab u lotincha «cultura» so'zidan olingan bo'lib, yerga, tuproqqa ishlov berish ma'nolarini anglatgan. Rimning mashhur huquqshunosi, notig'i va publisisti Mark Tulliy Sitseron (eramizdan avvalgi 106-43- yillard) o'zining «Tuskulan suhbatlari» nomli asarida, mashhur shoir Kvint Goratsiy Flakk (eramizdan avvalgi 65-8-yillard) o'zining «Satiralar» nomli asarida birinchi marta «kultura» so'zini «cultura anima» — «Ruh (jon)ni takomillashtirish» tarzida qo'llaydilar. Shuni unutmaslik kerakki, «kultura» so'zi dastlab moddiy ishlab chiqarishga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, birmuncha keyinroq ruhiyatga tegishli atama sifatida qo'llanila boshlangan.

Darhaqiqat, madaniyatshunoslik fani madaniyat tushunchasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etuvchi falsafiy ta'lilotdir. Shuning uchun ham bu fan madaniyatning paydo bo'lishi va ijtimoiy-tarixiy jarayonda rivojiana borishining o'ziga xos qonunlarini o'rgana borib, uning ijtimoiy hodisa sifatidagi mazmuni va mohiyatini hamda xususiyatini ochib berishga kirishadi.

Muayyan xalqning madaniyati dastavval ushbu xalqning har bir ijtimoiy tarixiy davrda yaratilgan moddiy va ma'naviy faoliyatining o'ziga xos tomonlari, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi bilan belgilanadi.

Insoniyat tomonidan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiydan murakkablikka, alohidalikdan umumiylikka ega bo'luvchi o'ziga xos uzlusiz jarayon hisoblanib, uning o'tmishi va hozirgi ko'rinishi o'rtasida dialektik birlik mavjuddir. Madaniy boyliklarning

yaratilishi jarayonidagi barcha bosqichlar doimo bir-birini to'ldirib borgan. Ibtidoiy davrda insoniyat tomonidan yaratilgan eng oddiy tosh qurollar bilan hozirgi zamonaviy mehnat qurollari o'rtasida ham o'ziga xos bog'liqlik mavjuddir. Chunki, birinchidan, agar ibtidoiy tosh qurollari mavjud bo'limganida edi, hozirgi zamon qurollari ham vujudga kelmagan bo'lardi, ikkinchidan, ibtidoiy qurollarning ham, zamonaviy qurollarning ham bajaradigan vazifasi bir xil.

Ma'naviy madaniyat haqida ham shu fikrni aytish mumkin.

Lekin insoniyat tarixining muayyan bosqichida yaratilgan madaniyat o'zidan oldingi bosqichlarda yaratilgan madaniyatdan farq qiladi va o'zgargan holda vujudga keladi. Jamiyat o'zidan oldingi madaniy boyliklarni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, balki ularni ijobji tomonidan o'zgartiradi.

Madaniyat har bir davr ehtiyojlarga moslangan tarzda yaratiladi. Agar moddiy va ma'naviy madaniyatlarning o'zaro ta'siri masalasiga e'tibor bersak, insoniyat tomonidan dastlab moddiy madaniyat elementlari yaratilganligini, so'ngra u (moddiy madaniyat)ning bir necha elementlarini o'zida birlashtirgan (albatta, turli xil vazifalarni bajaruvchi) birmuncha murakkabroq turlari paydo bo'lganligini ko'ramiz. Boshqacha qilib aytganda, insoniyat dastlab o'zining moddiy-biologik ehtiyojlarini qondiruvchi moddiy boyliklarni, so'ng ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi ma'naviy boyliklarni yaratganliklarini anglab yetamiz. Shu bilan birga moddiy madaniyat har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasining bazasi — oddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi va jamiyatning ustqurmasi ma'naviy hayotini belgilab beradi. Moddiy ehtiyoj ma'naviy ehtiyojni belgilab bergenidek, moddiy madaniyat ma'naviy madaniyatning shakllanish va rivojlanish jarayonini belgilab beradi.

Ammo bu ma'naviy madaniyat moddiy madaniyatga butunlay tobe, degan ma'noni anglatmaydi. Ayrim tarixiy davrlar, bosqichlar va jarayonlarda ma'naviy madaniyat nisbiy mustaqillikka ega bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot qonuniyatları va jarayonları shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda madaniyat jamiyatning umumiy taraqqiyotidan ilgarilab ketadi, ayrim hollarda esa orqada qoladi. Masalan, Yevropadagi Uyg'onish davrida ma'naviy madaniyat umumijtimoiy taraqqiyot jarayonidan ancha ilgarilab ketgan. Buyuk kashfiyotlar amalga oshirilgan. Ilg'or g'oyalar va nazariyalarning vujudga kelishi ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan diniy mutaassiblik (fanatizm)ni yengadi va yangi ishlab chiqarish usuli — kapitalistik ishlab chiqarish usuli elementlarining ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga, fan va texnika taraqqiyotiga yo'l ochiladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyat yagona birlik va umumiylidka mavjud bo'ladi. Ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, insonning o'zi biologik va ijtimoiy omillardan iborat bo'lib, biologik mavjudot sifatida o'zida moddiy ehtiyojlar bilan birgalikda ma'naviyatga bo'lgan ehtiyojlarini ham birlashtiradi.

Inson dastlab o'zidagi biologik ehtiyojlarni qondirish uchun turli xil moddiy boyliklarni, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, turli-tuman uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqaradi. Bu iste'mol vositalarini ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari (mehnat predmeti va mehnat vositalari)ni yaratadi. Albatta, moddiy boyliklar insonning muayyan qobiliyat, tajriba, ko'nikma va malakalarisiz vujudga kelmaydi.

Demak, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan barcha elementlar: mehnat vositalari, ishlab chiqarish qurorollari, insoniy qobiliyat, malaka, ko'nikma va tajriba, shuningdek, iste'mol vositalari – moddiy madaniyatning asosiy elementlarini tashkil etadi.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida ma'naviy ehtiyojlarini ham qondirishga harakat qiladi. Insonning ijtimoiy mavjudotligi ijtimoiy ongingin turli shakllari: ilmiy, badiiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa qarashlari bilan bevosita bog'liqdir. U o'zining bu qarashlarini insoniyat tomonidan yaratilgan fan, san'at, huquq, axloq va diniy e'tiqod kabilalar orqali ifodalaydi. Kishilar o'zlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, obyektiv borliqni va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan barcha ma'naviy boyliklari o'zlashtirish jarayonida o'z ma'naviy qiyofalarini ham o'zgartira boradilar. Boshqacha qilib aytganda, inson ma'naviy boyliklar yaratish jarayonida o'z qiyofasini o'zgartirib, ijodiy kuch va qobiliyatlarini rivojlantiradi, aqliy, axloqiy va badiiy-estetik jihatdan takomillashadi.

## II BOB. MODDIY VA MA'NAVİY MADANIYAT

Madaniyat tushunchasi keng va tor ma'nolarga ega. Keng ma'nodagi madaniyat tushunchasi o'ziga butun inson amaliy faoliyati natijasida bunyod etilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni qamrab oladi. Madaniyat bu insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi jarayonida, ya'ni tabiat va jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan mehnat faoliyati jarayonida vujudga keltirilgan barcha boyliklar majmuyidan iboratdir.

Tor ma'nodagi madaniyat tushunchasi insoniyat ma'naviy hayoti sohasini qamrab oluvchi barcha sohalarga nisbatan ishlatalidi.

Madaniyat, birinchidan, insonning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi iste'mol vositalari shaklida, ikkinchidan, ishlab chiqarish faoliyati mahsuli sifatida olib qaraladi va ikkiga: moddiy hamda ma'naviy madaniyat kabi turga ajratiladi.

Moddiy madaniyat – bu, eng avvalo, mehnat qurorollari, transport, aloqa vositalari, uy-joylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar, har xil buyumlar, xullas, insoniyatning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha narsalar hamda kishilarning ishlab chiqarish tajribalari, ko'nikmalari va mahoratlaridir.

Ma'naviy madaniyat esa kishilarning bilimlari, tajribalari, urf-odatlari, xulq-atvorlari, fan, adabiyot, san'at, falsafa, axloq, huquq, ilmiy dunyoqarash, diniy e'tiqodlari, ta'lim-tarbiya, matbuot, xullas, insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha ma'naviy boyliklardir.

Madaniyat o'z taraqqiyoti jarayonida ayrim tarmoqlarga ham bo'linib boradi. Masalan, ma'naviy madaniyat, badiiy madaniyat, estetik madaniyat, axloqiy madaniyat, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati va boshqalarga bo'linsa, moddiy madaniyat texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, qurilish madaniyati, turmush madaniyati kabi tarmoqlarga ajraladi. O'z navbatida, bu tarmoqlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli-tuman tushuncha va xatti-harakatlarni qamrab oladi. Masalan, turmush madaniyati uy-joy qurilishidagi ko'rakmlik, kiyim-kechak, poyafzal, oshxona, uy jihozlari, ozodalik, pazandalik, oila va jamiyatda maishiy xizmat va dam olishni tashkil etishni qamrab olishini tushunamiz.

Madaniyat dunyoni o'zlashtirish jarayonidir. Inson dunyoni o'zlashtira borib, o'zining ijodiy kuch-quvvati va qobiliyatini namoyon eta boradi, o'zi yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda o'z mohiyatini moddiylashtiradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlarni bir-biridan ajralgan, alohida holda tasavvur qilish mumkin emas. Aslida, moddiy madaniyat ham, ma'naviy madaniyat ham insoniy faoliyat natijasidir. Lekin har qanday insoniy faoliyat ma'naviy boylik bo'la olmaydi. Shu sababdan ham madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi.

Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish yagona ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni hisoblanib, bu jarayonda moddiy ishlab chiqarish belgilovchi rol o'ynaydi. Chunki moddiy ne'matlar ishlab chiqarish muayyan jamiyatning barcha tomonlarini, shu jumladan, ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini ham belgilab beradi. Aslida ma'naviy ishlab chiqarish – bu ijtimoiy ong shakllarini tashkil etuvchi davlat, oila, mafkura, huquq, axloq, fan, san'at, diniy e'tiqodlar va boshqalarni ishlab chiqarishdir.

**Moddiy madaniyat.** Moddiy boyliklarni yaratishda kishilar ishlab chiqarish vositalari, eng avvalo, mehnat qurollaridan foydalanadilar. Har bir davr moddiy madaniyatining taraqqiyotini o'sha davrda foydalilanilgan ishlab chiqarish vositalariga qarab aniqlash mumkin. Masalan, faqat qo'l mehnatidan foydalilanilgan davr moddiy madaniyati, undan ko'ra avtomatlashgan davr va so'ngra, kompyuterlardan foydalilaniladigan hozirgi zamon moddiy madaniyati avvalgi davrlar moddiy-teknika taraqqiyotidan ancha yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Insoniyat ilmiy tafakkuri taraqqiyotining turli davrlariga e'tibor bersak, XIX asrgacha madaniyat tushunchasi faqat ma'naviy madaniyatga nisbatan ishlatalib kelinganligini ko'ramiz. Asosiy e'tibor moddiy boyliklarni yaratuvchi inson, uning diniy e'tiqodlari, axloqiy xatti-harakatlari, ilm olishga intilishi,

ijodkorlik salohiyatiga qaratilgan. Ishlab chiqarish jarayoni, ya'ni tabiatga ta'sir ko'rsatib, moddiy boyliklar ishlab chiqarish diqqat-e'tibordan chetda qolgan. Go'yo ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi tabiiydek ko'ringan. Bu esa nafaqat insonning moddiy-madaniy boyliklarni yaratishdagi o'rnini, balki jamiyatning moddiy hayotini o'rganishni ham e'tibordan chetda qoldirdi.

Asosan XIX asning ikkinchi yarmidan boshlab kishilarning moddiy boyliklarni ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni, undan oladigan ulushi, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sisfatidagi qadr-qimmati, huquqlari, burch va majburiyatlar, moddiy manfaatdorligi, farovon hayot kechirishi masalasi, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'lgan tajriba, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor berila boshlandi.

Kishilarning moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayoni moddiy madaniyatning ko'plab tarmoqlari vujudga kelishiga olib keldi. Odamlarning tabiatga ongli ta'sir ko'rsatishi dastlab dehqonchilik madaniyatini vujudga keltirdi. Agrar sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish jarayonida kishilar yerga ishlov berish madaniyatini egalladilar. Hunarmandchilikning taraqqiy etishi esa turli xil kasbiy madaniyatlarning shakllanishiga, ishlab chiqarishga texnikaning kirib kelishi ishlab chiqarish texnika madaniyati kabi moddiy madaniyatning turli sohalarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Kishilar turmush shart-sharoitlarining yaxshilana borishi o'zida ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatni birlashtiruvchi turmush madaniyatining vujudga kelishiga olib keldi.

Hozirgi paytda zamona naviy texnika yutuqlari jamiyat moddiy madaniyatining asosini belgilab beruvchi kuchga aylandi.

Moddiy madaniyatning tarkibiy tuzilishiga nazar tashlasak, u uch xil unsurdan: ishlab chiqarish vositalari, iste'mol vositalari va yaratuvchanlik faoliyati kabi unsurlardan tashkil topganligini ko'ramiz.

Ishlab chiqarish vositalari tarkibiga mehnat qurollari va ular bilan ta'sir ko'rsatiladigan mehnat manbayi, transport va aloqa vositalari, ishlab chiqarish jarayonida foydalilaniladigan turli xil sun'iy inshootlar kiradi.

Uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlari iste'mol vositalarining tarkibiga kiradi. Ishlab chiqarish va iste'mol vositalarining qay tarzda shakllanganligiga qarab muayyan xalq, elat yoki millatning umummadaniy taraqqiyotiga baho berish mumkin. Masalan, birgina iste'mol vositalarini o'rganish xalqning ehtiyojlari ko'lami qay darajadalogini ko'rsatadi, chunki ehtiyojlarning keng ko'lamliligi moddiy- madaniy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Moddiy madaniyatning uchinchi unsuri moddiy boyliklarni yaratish, rivojlantirish, boyitish va ularidan foydalanan kabilarni o'z ichiga oladi. Yaratuvchanlik faoliyati jarayonida kishilarning bilimlari, malakalari, ko'nikma, ijodiy salohiyati va kasbiy tajribalari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ko'chadi va moddiylashadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning moddiy madaniyati, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalari va ularning natijalarini o‘z ichiga oladi. Moddiy madaniyat kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirish, yuqori darajadagi farovonlikni ta’minlaydigan shart-sharoitlarini yaratish jarayonidir.

**Ma’naviy madaniyat.** Ma’naviy madaniyat bu ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini vujudga keltirish sohalaridir.

Ma’naviy madaniyat haqida fikr yuritishdan avval, uning jamiyat ma’naviy hayoti tushunchasidan farqini aniqlab olish zarur. Jamiyatning ma’naviy hayoti tushunchasi kishilar, jamoa, elat, millat, sinflar hayoti ma’naviy jarayonlarini xarakterlovchi umumiy tushuncha hisoblanadi. Bizningcha, ma’naviy madaniyat muayyan jamiyatning mafkura sohasi, ijtimoiy psixologiya, axloq, san’at, diniy e’tiqodlar kabi tomonlarini tashkil etadi. Ma’naviy madaniyat tushunchasi tarixiy jihatdan yo‘lga qo‘yilgan ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol (foydalananish) jarayonlarini ham qamrab oladi. Ma’naviy madaniyat ijtimoiy ong shakllarining u yoki bu yig‘indisi emas, balki muayyan g‘oyalar, qarashlar, tasavvurlar, tushunchalar va boshqalarni vujudga keltiruvchi ijodiy faoliyatdir. Hozirgi zamon madaniyatshunoslaridan V.M. Mejuyev, S.N. Artanovskiy, A.I. Arnoldov, E.A. Baller, E.V. Sokolov, M.Xayrullayev, S.Shermuhamedov, U.Qoraboyev, A.Erkayev, K.Xonnazarov, A.Eshonqulov, M.Abdullayev va boshqalar ko‘rsatib o‘tishganidek, ma’naviy madaniyat bu – ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish, unga mos bo‘lgan munosabatlarni birlashtiruvchi kishilar hayotiy faoliyatining ijodiy mazmunidir.

Shuningdek, ma’naviy ishlab chiqarish kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ham, ijtimoiy ong shaklini shakllantirishga yordam beruvchi turli xil vositalar, muassasalar, tashkilotlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish o‘ziga insoniy his-tuyg‘ularni, sezgi va idrokni, mantiqiy va badiiy tafakkurni, estetik kechinmalar, ideal tushuncha va orzu-havaslarni, nazariyalar va qarashlarni, mulohaza va boshqalarni birlashtiruvchi insoniy faoliyat hamdir.

Turli xil tasavvurlar, g‘oyalar, nazariyalar, ta’limotlar, ilmiy bilimlar, san’at asarlari, axloqiy va huquqiy me’yorlar, falsafiy va siyosiy qarashlar, mifologiya va din ma’naviy madaniyatning asosiy unsurlari hisoblanadi.

Ma’naviy madaniyatning ayrim elementlar (tarkibiy qismlar) i muayyan normativ (me’yoriy) vazifani bajaradi. Masalan, siyosiy, huquqiy, axloqiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy qadriyatlar hisoblanuvchi urf-odatlar, marosimlar, rasm-rusum va udumlar kishilarda muayyan me’yoriy xatti-harakatlarga amal qilishni talab qiladi. Ma’naviy qadriyatlar o‘zida ko‘proq axloqiy me’yorni birlashtirib, kishilarning axloqiy xatti-harakatlarini nazorat ostiga oladi.

**Moddiy va ma'naviy madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlari.** Moddiy va ma'naviy madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi kishilarning ehtiyojlari, qobiliyatları, maqsadlarining moddiy ko'rinishga aylanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, madaniy qadriyatlarda ehtiyojlar, qobiliyatlar, maqsadlar ham ma'naviy ko'rinishda, ham moddiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Yoki xalqimiz tarixiga oid muzeysiga qo'yilgan eksponatlarni tomosha qilar ekanmiz, ularda o'tmish ajdodlarimizning didlari, dunyoqarashlari, intilishlari va orzu-umidlari, tabiatga bo'lgan munosabatlari, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatları, ya'ni ma'naviy dunyosining qay darajada shakllanganligini anglab yetamiz. Shuningdek, kiyimlarimiz, turli xil binolar, oziq-ovqatlar, transport vositalari, turfa uy-ro'zg'or buyumlarimiz va boshqalar aslida moddiy-madaniy boyliklar hisoblansa-da, ularda kishilarning dunyoqarashi, didi, orzu-umid va histuyg'ulari, intilishlariyu ruhiy holatlari, bilimlariyu tajribalari o'z ifodasini topgan.

Biz yashab turgan duniyoda moddiy va ma'naviy madaniyatning unsurlari bir butunlik va o'zaro ta'sir doirasida mavjud bo'ladi. Masalan, moddiy va madaniy boyliklarni yaratishda mehnat qurollari: ish qurollari, texnika, texnologiya, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar moddiy madaniyatdagi; so'z, xatti-harakat, bo'yoq, loyiha, qog'oz, yozuv qurollari va boshqalar ma'naviy madaniyatdagi asosiy mehnat qurollari hisoblanadi.

Moddiy boyliklar: kiyim-kechak, turarjoy, oziq-ovqat, transport va aloqa vositalari, yordamchi inshootlar; ma'naviy boyliklar: me'moriy yodgorliklar, musiqa, kino, haykaltaroshlik, teatr tomoshalari, adabiy va ilmiy asarlar, matbuot va televide niye faoliyati va boshqalarini yaratish mehnat jarayonisiz vujudga kelmaydi. Mehnat mahsulotlарining yaratilishi qachonki ma'naviy-madaniy boyliklar o'zlarining yaratuvchilari tomonidan idrok etilgan taqdirdagina moddiy-madaniy boyliklarga aylanadi, moddiylashadi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar nafaqat o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi, balki ularni bir-biridan ajratib turuvchi farqli jihatlar ham ko'zga tashlanib turadi. Bu farq, birinchidan, ma'naviy madaniyatning ikki shaklda – predmetlar va faoliyatning mahsuli sifatida mavjud bo'lishida ko'zga tashlanadi. Kitoblar, tasviriy va haykaltaroshlik san'ati asarlari, me'moriy yodgorliklar, kinofilmlar, televide niye va boshqalar ma'naviy madaniyatning moddiy, ya'ni predmet shaklidagi ko'rinishlaridir. Sozanda, xonanda, raqqos, aktyor, suxandon, pedagoglarning va targ'ibotchilarning ijro hamda mahoratlari faoliyatning mahsullari hisoblanadi.

Moddiy madaniy boyliklar vaqt o'tishi bilan eskiradi, vayron bo'ladi, buziladi, xizmat vazifasini o'tab, nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy madaniy boyliklar esa asrlar o'tsa-da, keyingi avlodlar ongi va ko'z o'ngida milliy qadriyatlar shaklida saqlanib qoladi. Ulardagi asosiy mazmun, g'oyalar, tamoyillar, me'yorlar avlodlardan avlodlarga o'tadi, abadiy yashab

qoladi. Ular har bir tarixiy-madaniy jarayonda ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar o'rtasidagi ikkinchi farqli jihat insonning moddiy ehtiyojlari – oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalarga bo'lган ehtiyojlari ma'lum darajada cheklangan bo'ladi. Ma'naviy ehtiyojlari, ya'ni bilim olish, san'at asarlarini tomosha qilish yoki tinglashi, fan sohalarini o'rGANishi, kishilar bilan muloqotda bo'lishi, urf-odatlar, marosimlarni tashkil etishi yoki undagi ishtiroki hamda aqliy faoliyatning boshqa turlariga ehtiyoji doimo va to'xtovsiz ravishda oshib boradi.

Uchinchidan, moddiy va ma'naviy madaniyat o'rtasidagi farqlardan yana biri shuki, moddiy qadriyatlar (moddiy madaniyat) ko'proq iste'molga mo'ljallangan bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar (ma'naviy madaniyat) inson shaxsini shakllantirishga, uni kamol toptirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, moddiy madaniyatning turli elementlari aniq ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, mehnat qurollari faqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga, oziq-ovqat faqat tirik organizmning moddalar almashinuvi ehtiyojini qondirishga, kiyim-kechaklar tabiat hodisalari ta'siridan saqlanishga xizmat qiladi. Shuningdek, transport va aloqa vositalarining, uy-ro'zg'or buyumlarining ham aniq bir vazifalari mavjud. Ma'naviy madaniyatning har bir unsuri ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni o'zida boshqa elementlar (tarkibiy qismlar)ning vazifalarini birlashtiradi. Masalan, san'atni olib qarasak, u nafaqat badiiy estetik, balki siyosiy, axloqiy, mafkuraviy, diniy mazmunga ham ega bo'ladi. Yoki huquq o'zida axloqiy, siyosiy, mafkuraviy va hatto, diniy mazmun-mohiyatni birlashtiradi. Ma'naviy qadriyatlarda ham siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, estetik, diniy mazmun birlashib keladi.

### III BOB. MADANIYATNING VAZIFALARI

Madaniyat ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida jamiyatning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu ta'sir madaniyatning jamiyat hayotida bajaradigan vazifalarida o'z ifodasini topadi. (Biz madaniyatning funksiyalarini tahlil qilishda «Falsafa»<sup>1</sup> o'quv qo'llanmasida berilgan funksiyalarga asoslanamiz).

1 Madaniyat, eng avvalo, *bilish funksiyasi (vazifasi)*ni bajaradi. Kishilar turli tarixiy davrlarda o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilganlar. Natijada o'zlariga ta'sir ko'rsatuvchi tabiatning voqeja va hodisalari, tabiatdagi narsalar va predmetlarning xususiyatlari hamda ichki qonuniyatlarini bilishga intilganlar. Ularning noma'lum jihatlarini ocha

<sup>1</sup> Falsafa. – T. «Sharq». 1999.

borganlar. Ayimlarini bo'yusundirib, ayimlariga moslashganlar, turli xil xulosalarga va to'xtamlarga kelganlar. Natijada o'zlarining bilim darajalarini oshira borganlar, ya'ni o'zlar egallagan bilimlarini o'zlar yaratgan madaniy boyliklarda moddiylashtirganlar. Demak, madaniyat insonning ijtimoiy voqelikni bilib olishidir. Inson atrof-muhitni bila borib, o'z-o'zini moddiy boyliklarning haqiqiy yaratuvchisi ekanligini, jamiyatdagi o'z o'rni va mavqeyini anglay boradi.

2 Madaniyatning *axborot berish (informativ) vazifasi*. Inson o'zini qurshab turgan moddiy dunyo va ijtimoiy muhitni o'zlashtirib hamda anglab borishi natijasida muayyan darajadagi bilim, tajriba, malaka va ko'nikmalarga ega bo'la boradi. Ularni boshqa kishilarga, guruh yoki tabaqalarga, o'zidan keyin kelayotgan avlodlarga yetkazib berish ehtiyojiga ega bo'ladi. Insoniyat hayotining dastlabki davrlarida, ya'ni yozuvning kashf etilguniga qadar kishilar o'zlarining bilimlari, tajriba, malakalarini og'zaki yo'l – xalq og'zaki ijodi namunalari orqali, so'ngra yozuv orqali yetkazib bergenlar.

Hozirgi kunda madaniyatning axborot berish vazifasini ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi, fan va adabiyot, san'at va qadriyatlar bajarmoqda. Bu vositalar yordamida ham o'tmishda to'plangan, ham bugungi kundagi tajribalar o'zlashtirila boshlandi. Shu boisdan ham biror xalqning madaniyatda erishgan yutug'i boshqa xalqlar tomonidan qabul qilinadi. Demak, madaniyatning ana shu vazifasi tufayli hech qaysi xalq o'z madaniyatini yana qaytadan boshlamaydi.

3 Madaniyatning *aloqa bog'lashlik (kommunikativ) vazifasi*. Yaratilgan va yaratilayotgan har qanday madaniyatni kishilar, guruhlar, tabaqalar, xalqlar, elat yoki millatlarning o'zaro aloqa-muloqotisiz tasavvur qilish qiyin. Ikkinchи tomonidan esa madaniyat insonning o'zaro aloqasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Madaniyatning mazkur vazifasi nafaqat zamonamizning asosiy aloqa bog'lovchi vositasi hisoblanadi, balki o'tmish ajdodlarimiz, boshqa xalqlar, elat va millatlarning o'tmish buyuk siymolari bilan bevosita aloqa bog'lashimizga yordam beradi. Masalan, biz nafaqat Forobiy, Ibn Sino, Beruniy yoki boshqa o'tmish ajdodlarimizning, balki, dunyo xalqlari va ularning ko'plab ulug' siymolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari va turmush tarzi haqidagi tasavvurlarga ham ega bo'lamiz.

Shuni unutmasislik kerakki, madaniyatning bu vazifasi kishiga ikki xil – ham ijobji, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, Sharq xalqlarining tabiatni va ruhiyatiga, axloqiy va estetik qarashlariga yot bo'lgan begona madaniy tuzumlar kishilarimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin umuminsoniyat tomonidan qadrlanadigan umumaxloq, huquq, badiiy tafakkur, iyemon-e'tiqod me'yirlari kishilarga ijobji ta'sir ko'rsatib, komil insonni shakllantirishga yordam beradi.

4. Madaniyatning *tartibga solish (regulativ) vazifasi*. Kishilarning tabiat, jamiyat va boshqa kishilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari jamiyat ustqurmasining asosiy elementlari hisoblanuvchi davlat tashkilotlari, ular olib boruvchi siyosat, uni mustahkamlovchi va tarqatuvchi huquq hamda mafkura, axloq, san'at, ijtimoiy-gumanitar fanlar va din tomonidan tartibga solib turiladi. Ijtimoiy hodisa hisoblanuvchi turli xil marosimlar va urf-odatlar ham madaniyatning tartibga soluvchilik vazifasini bajaradi. Kishilarning atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlari natijasida axloqiy, estetik, diniy, siyosiy va huquqiy me'yorlar vujudga keladi.

5. Madaniyatning *baholash funksiyasi (vazifasi)*. Inson tomonidan yaratilgan va hozirgi kunimizgacha asrab-avaylanib, qadrlanib va saqlanib kelinayotgan barcha madaniy qadriyatlar turli davrlarda yashagan kishilarning bergan baholari tufayli bizgacha yetib kelgan. Chunki turli davrlarda yaratilgan madaniy boyliklar har doim ham jamiyat taraqqiyoti uchun ijobjiy rol o'ynab kelmagan. Madaniy boyliklarga baho berishda har bir davr kishilarining o'z qarashlari va qadriyatlari muhim o'rinn tutadi. Xulosa qilib aytganda, shakllangan va barqaror holatga kelgan qadriyatlargina madaniyatning boyishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, salbiy hodisalarning jamiyat taraqqiyotiga va kishilar manfaatiga zid bo'lgan me'yorlarning jamiyat hayotidan joy olishiga yo'l qo'ymaydi.

Madaniyatning aynan baholash vazifasi tufayli eng nodir, eng qimmatli madaniy boyliklar tanlanadi, ularni yaratish jarayonidagi barqarorlik, davomiylik va vorislik ta'minlanadi.

Madaniyatning yuqorida sanab o'tilgan barcha vazifalari bir-birlari bilan uziyil aloqadorlik va bog'lanishda bo'ladi. Ular bir-birini to'ldiradi, boyitib boradi va pirovard natijasida ijtimoiy taraqqiyot hamda shaxs kamolotiga xizmat qiladi.

#### IV BOB. MADANIYAT VA MADANIY MEROS

XX asrning so'nggi choragi nafaqat texnik taraqqiyotning yuqori darajaga ko'tarilganligi, balki milliy madaniylarning yuksalishi, turli etnik guruhlar va millatlarning o'zligini anglashi, o'z milliy madaniy qadriyatlari va merosini tiklashga bo'lgan intilishlarining kuchayganligi bilan ham xarakterlanadi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni sobiq sotsialistik lager va sobiq sho'rolar davlatining parchalanishi tufayli yanada tezlashdi va yaqqolroq ko'zga tashlana boshladi. Milliy va mafkuraviy istibdod iskanjasidan ozod bo'la boshlagan turli etnik guruhlar o'zlarining unutilayotgan azaliv va madaniy merosini tiklay boshladilar. Bu jarayonni 130 yil mustamlakachilik iskanjasida bo'lgan xalqimizning o'zligiga qaytishi va madaniy merosni qaytdan tiklashdag'i intilishida ham ko'rsak bo'ladi. Ayniqsa, jamiyatni isloh qilish jarayonida madaniy merosga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi.

Bu xususda Prezidentimiz Islom Karimov birinchi chaqiriq Oliy Majlis'ning IV sessiyasida so'zlagan nutqida: «Jamiyatimizni isloh qilish va yangilash boshlangani tufayli inson ma'naviyati, yuksak axloqi va madaniyatining qudratli qatlamlari ochildi, go'zal milliy an'analar tiklandi, jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosiga murojaat etish boshlandi», degan edi.

Madaniy meros deganda biz nimani tushunamiz? Madaniy merosni tiklashdan ko'zlangan maqsad nima? Madaniy merosni tiklashda qaysi mezonlarga amal qilinadi?

Madaniy meros tushunchasini aniqlab olish uchun, umuman, meros, madaniy meros va ma'naviy meros tushunchalarini bir-biridan farqlay olishimiz zarur.

«Meros» tushunchasi keng ko'lamli tushuncha bo'lib, u o'ziga madaniy va ma'naviy meroslarni ham birlashtiradi. Meros – bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan va keyingi avlodlargacha yetib kelgan moddiy va madaniy boyliklar yig'indisidir. Madaniy meros esa o'tmish ajdodlarning o'z avlodlariga vorisiylik asosida yetkazib berilgan, asrlar, dolg'ali davrlar, buhronli kunlar sinovlaridan o'tib kelgan, insoniyatning hozirgi va keyingi davrlari taraqqiyotiga yordam beruvchi moddiy va ma'naviy boyliklari majmuyidir. Ma'naviy meros esa, o'tmish ajdodlarning hayotiy tajribalari, dunyoqarashi, axloq-odobi, iymon-e'tiqodi, badiiy-estetik, ilmiy, falsafiy, siyosiy-huquqiy qarashlari va milliy-ma'naviy qadriyatlari yig'indisidir.

«Madaniy meros» aslida madaniyatshunoslik («madaniyat tarixi va nazariyasi») fanining asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi.

Madaniy meros, umuman, merosning, ma'naviy meros esa madaniy merosning doirasiga kiradi. O'tmishdan bizga yetib kelgan barcha narsalar umumiy merosni tashkil etsa-da, faqat uning madaniy qadriyatlar darajasiga chiqqan qismigina madaniy meros hisoblanadi. Masalan, sobiq sho'rolar davrida yaratilgan, uning siyosati va mafkurasiga xizmat qilgan va uni targ'ib etgan, endilikda mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmay qo'ygan ayrim badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr va musiqa, haykaltaroshlik va tasviriy san'at asarlari, inqilob, quloqlashtirish, bosmachilik harakati va ularga qarshi kurashganlar haqidagi asarlar madaniy meros bo'la olmaydi. Ularni faqat tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin, xolos.

Madaniy va ma'naviy meros o'rtasiga «buyuk Xitoy devori»ni qo'yib bo'lmaydi. Sababi, ma'naviy faoliyatning ma'naviy-ruhiy bilimlar, qobiliyatlar, iste'dod va salohiyat, aql-farosat, ilmiy va amaliy bilimlar, tajriba, malaka va ko'nikmalar kabi elementlari madaniy merosning yaratilishida bevosita ishtirok etadi. Boshqacha qilib aytganda, insonning ma'naviy-ruhiy holatlari natijalari madaniy merosda moddiylashadi.

Madaniy va ma'naviy meroslar, birinchidan, umumiylar va xususiy jihatlar (madaniy merosda umumiylilik, ma'naviy merosda xususiylik)ning ustunlik qilishi, ikkinchidan, madaniy meros, umuman, madaniyat yutuqlarini, ma'naviy meros esa faqat ma'naviy madaniyat yutuqlarini qamrab olishi jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ma'naviy merosga nafaqat madaniyatning moddiylashgan shakllari (arkitektura, kinofilm, sahna asarlari, badiiy asarlari va boshqalar), balki ilm-fan, falsafiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy g'oyalar, tushunchalar, tasavvurlar va boshqalar ham kiradi. Ma'naviy meros zamонлар о'tsa-da, о'з qadrini yo'qotmaydi, barcha davrlarda kishilarining ongi va his-tuyg'usiga ta'sir etib, ezhulikka chorlaydi. Ma'naviy meros kishilarining umumsaviyasi kengaytiruvchi bilimlarning bitmas-tuganmas manbayi hamdir.

Albatta, o'zligini angloyotgan har bir xalq, millat yoki elat o'z ajdodlarining madaniy merosini tiklash, asrab-avaylash, rivojlantirish, boyitishga, keyingi avlodlarga yetkazib berishga harakat qiladi. O'zbek xalqining bundan ko'zlagan maqsadi, avvalo, unutilayotgan milliy-madaniy merosimizni qaytadan tiklash, o'zligimizni saqlab qolish va hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyotiga javob beradigan komil insonni vujudga keltirishdir.

Albatta, o'tmishtan madaniy merosini tiklash va uni o'rganishda unga tobe bo'lib qolmaslik o'ta muhim. Hozirgi kunda o'tmishtan madaniy merosiga jamiyatimizni isloh qilish nuqtayi nazaridan turib, ayrimlariga yangicha mazmun bag'ishlagan holda yondashish talab qilinadi. Masalan, islam madaniy merosiga mutaassiblik va aqidaparastlik nuqtayi nazaridan emas, aksincha, umuminsoniy madaniy boylik, iymon-e'tiqod pokligiga, umuminsoniy axloq me'yorlari, ma'naviy hayotimizni boyituvchi azaliy qadriyatlarimizni mustahkamlovchi, milliy qiyofamizni namoyon qiluvchi asosiy manba sifatida yondashishimiz zarur.

Madaniy merosga baho berganda uning qay darajada milliy madaniyatimiz ravnaqiga xizmat qila olishini, xalqimiz ma'naviy hayotini shakllantirishi va mustahkamlashi, kishilarimizni ezhulik va poklikka chorlay olishini, yovuzlik, tubanlik, noplilik va axloqsizlikqa qarshi kurasha olishini asosiy mezon qilib olish zarur.

Milliy madaniy merosimizga yondashishda quyidagi umuminsoniy mezonlarga suyanishimiz maqsadga muvosiqidir: a) insonparvarlik; b) vatanparvarlik; c) xalqchillik; d) taraqqiyparvarlik.

Umuman olganda, madaniy merosga inson, vatan, xalq va umumjamiyat taraqqiyoti manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashiladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, ota-bobolarimizdan bizga boy ma'naviy meros qolgan. Endi biz o'sha ulkan ma'naviy salohiyatni yanada yuksaltirishimiz, farzandlarimizga, kelajak avlodga munosib meros qilib qoldirishimiz kerak.

## V BOB. MADANIYAT VA SIVILIZATSIYA

Falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslikka oid fan sohalarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalariga ilmiy yondashuv mavjud bo'lib, ikkala tushunchaning mazmun-mohiyati va bir-biridan farqli jihatlarini tahlil qilib berish o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki ikkala atama ham bir xil mazmunga egadek bo'lib ko'rindi. To'g'ri, hozirgi paytda ko'pgina xalqlarda sivilizatsiya atamasi madaniyatning sinonimi sifatida qo'llaniladi. Ayrim xalqlar, masalan, fransuzlar madaniyat so'zi o'mriga sivilizatsiya so'zini qo'llashsa, nemislar dastlab madaniyat, so'ngra sivilizatsiya, ruslar esa avval sivilizatsiya, so'ngra madaniyat so'zini ishlatalishadi. Ikkala atama bir xil ma'noni anglatadimi? Bu savolga javob berish uchun, eng avvalo, sivilizatsiya atamasining lug'aviy ma'nosi va mazmun-mohiyatini bilib olishimiz zarur. («Madaniyat» so'zining lug'aviy ma'nosi va mazmun-mohiyatini oldingi mavzularimizda ko'rib o'tgan edik. Shu boisdan «madaniyat» so'zining lug'aviy ma'nosiga qaytadan to'xtalmaymiz).

«Sivilizatsiya» lotincha (*civilis*) so'z bo'lib, «grajdanlik» (*fuqarolik*), «grajdanlikka oid», «davlatga oid» degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi kunda madaniyatshunoslikka oid fanlarda «sivilizatsiya» so'zidan muayyan jamiyat rivojlanishining ma'lum bir taraqqiyotga erishgan davrini ifodalash uchun qo'llash keng tarqalgan.

“Sivilizatsiya” atamasini dastlab shotlandiyalik tarixchi va faylasuf A.Fergyusson (1723-1816) o'z asarlarida qo'llagan. Uning fikriga ko'ra, jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichi sivilizatsiyadir.

Fransuz ma'rifatparvarlaridan Monteske, Volter va boshqalarning asarlarida adolat va aql-idrokka asoslangan jamiyat haqiqiy sivilizatsiyalashgan jamiyatdir. Chunki adolat va aql-idrokka asoslangan jamiyatgina kishilarga haqiqiy baxtsaodat olib keladi. Adolatsiz va bilimsizlikka asoslangan jamiyat kishilarga kulfat va nadomat keltiradi, insoniyatni ma'naviy-ma'rifiy tanazzulga olib keladi.

Agar insoniyat tarixining eng dastlabki davri — ibtidoi jamoa tuzumi davriga e'tibor bersak, o'sha davrda yashagan turli xil qabilalar hozirgi davrda nazarda tutiladigan madaniy taraqqiyot — sivilizatsiyaga erishmag'anlar. Eramizdan taxminan 5 ming yillar avval yer yuzining ayrim mintaqalari, ayniqsa, Sharq (qadimgi Shumer, Misr)da sivilizatsiyalar vujudga kela boshladi. Chunki hali ibtidoi jamoa tuzumi davrida sivilizatsiya me'yorlari hisoblanuvchi na moddiy va na ma'naviy boyklarlari yarata olmag'anlar.

Nemis faylasufi O.Shpengler o'zining 1918-yilda yozgan «Yevropaning so'nishi» asarida sivilizatsiyaga «texnik-mexanik elementlarning umumiy yig'indisi», degan ta'rifni bersa, madaniyatni «xalqning umum qalbini aks ettiruvchi va muayyan hayotiy jarayonni yashovchi biqiq organizm», deb atadi.

Uningcha, sivilizatsiya individual taqdirga ega bo'lgan, tug'ilish, ravnaq topish va o'lish davrlaridan iborat bo'lgan ayrim jamiyatdir.

Faylasufning fikriga ko'ra, madaniyat vaqtida cheklangan. Sivilizatsiyaning, ya'ni texnik taraqqiyot va sanoatning yuksalishi, yirik shaharlarning tezlikda ko'payishi, siyosat, fan va iqtisodiyot sohasidagi eng yirik muammolarning paydo bo'lishi madaniyatning halok bo'lishini anglatadi. Madaniyat inqirozi jamiyat, xalq va millatni albatta halokatga olib keladi. Demak, uning fikriga ko'ra, sivilizatsiya jamiyatni maqtanarli holatga olib kelmaydi, balki jamiyatni mushkul ahvolga solib qo'yadi. Shuning uchun ham sivilizatsiya har qanday madaniyatning tugallanuvchi bosqichi hisoblanadi.

Ingliz faylasufi Arnold Toynbi esa sivilizatsiya atamasidan o'ziga xos boshqa jamiyatlar va davrlardan ajralib turuvchi cheklangan yopiq jamiyatni ifodalash uchun foydalangan. U insoniyat madaniy-tarixiy jarayonini 21 ta sivilizatsiyaga ajratadi. Uning fikricha, har bir sivilizatsiya vujudga kelish, o'sish, tanazzul va yemirilish bosqichlarini bosib o'tadi.

Nomlari yuqorida keltirilgan olimlarning sikrlarini umumlashtirib aytadigan bo'lsak, sivilizatsiya, birinchidan, insoniyatning farovonligini ta'minlaydigan, adolat haqidagi azaliy orzularini ro'yobga chiqaradigan jamiyat bo'lsa, ikkinchidan, insoniyatni halokatga olib boruvchi, axloqsizlik,adolatsizlik va yovuzlik hukmron bo'ladigan, insonni insoniylik qiyofasidan mahrum etuvchi jamiyatdir. Albatta, bu ikkala qarash madaniyat va sivilizatsiyalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish hisoblanadi.

Hozirgi kunda ko'plab olimlarning asarlari, ilmiy va ma'lumotnomha shaklidagi adabiyotlarda sivilizatsiya jamiyat rivojlanishining ma'lum bir bosqichini, ya'ni sivilizatsiyalashmagan jamiyatdan o'zining madaniy taraqqiyoti bilan ajralib turuvchi muayyan jamiyatni ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Sivilizatsiyalashgan jamiyatni sivilizatsiyalashmagan jamiyatdan farqlash uchun quyidagi belgilarga alohida e'tibor beriladi:

1 Jamiyatning xo'jalik, harbiy, huquqiy va boshqa hayotiy faoliyat sohalarini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv tizimi va tashkilotlarga ega bo'lgan davlatning mavjudligi.

2 Boshqaruv va xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan yozuvning mavjudligi. (Sivilizatsiyalashgan jamiyatlarda qonunlar yozuv orqali mustahkamlanib borgan. Chunki yozma qonunlar sivilizatsiyalashgan jamiyatning, urf-odatlar esa sivilizatsiyalashmagan jamiyatlarning asosiy belgilari hisoblanadi).

3 Ajdodlardan o'tib kelayotgan an'anaviy qonun-qoidalar va huquqiy norma (me'yor)lar yig'indisining mavjudligi, ya'ni jamiyatda qonunlar tizimining qaror topishi. (Sivilizatsiyaga erishgan jamiyatda mavqeyi, e'tiqodidan qat'yi nazar aholining barcha qatlamlari qonunlar tizimiga qat'iy bo'ysunadi).

Albatta, sivilizatsiya belgilarining barchasi birdaniga yuzaga kelmasligi, biri ertaroq, ikkinchisi birmuncha keyinroq vujudga kelishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilarning bo'lmasisligi esa jamiyatni tanazzulga olib keladi.

Sivilizatsiyalashgan jamiyatda, eng avvalo, insonga alohida e'tibor beriladi, uning haq-huquqlari hisobga olinadi. Bunda jamiyatning siyosiy va xo'jalik yuritish mexanizmi bekamu-ko'st ishlaydi, insonning yaratuvchilik faoliyati uchun mo'tadil imkoniyatlar yaratiladi. Qaysiki davrda inson omiliga, insonning buyuk bunyodkorlik salohiyatiga e'tibor berilgan bo'lsa, o'sha davrda jamiyat taraqqiyoti, uning moddiy va ma'naviy hayoti eng yuqori daraja – sivilizatsiyaga ega bo'lган. Misol tariqasida qadimgi Yunon va Rim, VIII-IX asrlardagi Xitoy, IX -XII asrlardagi Markaziy Osiyo, XIV - XVII asrlardagi G'arbiy Yevropa sivilizatsiyalarini olib ko'rish mumkin.

Sivilizatsiya – bu, eng avvalo, madaniy taraqqiyotdir. Sivilizatsiyalar turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Sivilizatsiya bir davlat hududida yoki bir davlatning ikkinchi bir davlatda o'z hukmronligini o'rnatish orqali, shuningdek, sivilizatsiyalar bir vaqtning o'zida bir nechta mintaqada birin-ketin yuzaga kelishi ham mumkin.

Sivilizatsiya haqida ilgari surilgan barcha tushunchalarni tahiil qilsak, ularning mazmun-mohiyati muayyan jamiyatning ijtimoiy va moddiy taraqqiyotga erishganlik darajasini bildirishini anglab yetamiz.

## **II QISM. O'ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI**

### **I BOB. IBTIDOIY MADANIYAT**

#### **1-§. Paleolit davri madaniyati**

Respublikamiz hududida turli davrlarda, ayniqsa, XX asrning birinchi yarmi, so'nggi choragida olib borilgan tadqiqotlar mamlakatimiz madaniyatini umuminsoniy madaniyatning bir tarkibiy qismi bo'lganligini, turli davrlarda ikki qit'a – Osiyo hamda Yevropa madaniyatlari va manfaatlari to'qnashadigan joy bo'lganligini ko'rsatadi. Bir tomondan, hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati qadim-qadim davrlardan buyon bir-biri bilan bog'liq holda shakllanib taraqqiy etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qo'shni davlatlar va mintaqalar xalqlari madaniyatidan ta'sirlangan va aksincha, aks ta'sir etgan.

O'zbek xalqi madaniyati tarixiga e'tibor bersak, qadim-qadimdan to sho'rolar zamoni davrlarigacha O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Afg'oniston va Sharqiy Turkiston xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniyayoti bir-biriga ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, hozirgi kunimizda O'rta Osiyoda yashayotgan o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman va qoraqalpoq xalqlarining ham taqdiri bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning tillari, turmush tarzi va mafkurasi bir xil geografik, iqlim va tarixiy muhit ta'sirida shakllangan. Mazkur xalqlar madaniyatining shakllanish jarayoni ibtidoiy davrlardayoq o'zaro aloqada bo'lgan.

Agar umumjahon miqyosida insoniyat tarixi, shu jumladan, madaniyati tarixining vujudga kelishi jarayoniga e'tibor bersak, bu jarayonning eng katta qismi ibtidoiy davrga to'g'ri kelishini ko'ramiz. Ibtidoiy davri madaniyatini insoniyat tarixining 99 foizini tashkil etadi. Ibtidoiy jamiyat *paleolit* (qadimgi tosh), *mezolit* (o'rta tosh), *neolit* (yangi tosh) va *eneolit* (tosh-mis) davrlariga bo'linadi. Qadimgi tosh asrining o'zi ilk (ashel), o'rta (muste) va so'nggi tosh davrlariga bo'linadi. Arxeolog olimlarning ta'kidlashlaricha, ilk tosh davri eng katta davr bo'lib, taxminan bundan 2,5 million yillardan 100 minginchи yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ilk paleolit davrida eng qadimgi odamlar moddiy madaniyatning dastlabki namunalarini: toshdan yasalgan qo'pol mehnat qurollarini yarata boshlaganlar, tabiiy olovdan foydalanishni o'rganganlar, asosan, g'orlarda yashaganlar, asta-sekin oddiy turarjoylar (shox-shabba va qamishlardan qurilgan chaylalar, yerto'lalar va boshqalar) qurishib, tasavvurlarning shakllanish jarayoni sodir bo'ladi.

Arxeologlarning ko'rsatishicha, O'zbekiston hududida odamlar bundan taxminan million yillar oldin yashay boshlaganlar. Masalan, arxeolog U. Islomov Farg'ona vodiysi Selungur g'oridan topgan odamlar qoldiqlari (Fergantroplar) bundan taxminan bir million yillar ilgari yashagan odamlarniki ekanligini ta'kidlaydi.

Ilk paleolitning oxirgi davrlari «muste» (Fransiyadagi qishloq va g'or nomidan olingan) davri deb atalib, bu davrda neandertal (Germanianing Neandertal vodiysi nomidan olingan) odamlari yashagan. Neandertal odamlarning qoldiqlari dastlab O'zbekistonning Teshiktosh g'oridan topilgan. Shuningdek, Respublikamiz hududidagi Omonqo'ton, Zirabuloq (Samarqand viloyati), Obirahmat, Ko'lbuluoq (Toshkent viloyati), Uchtut (Navoiy viloyati) kabi hududlardan ham o'sha davrga oid bo'lgan madaniyat qoldiqlari ochib o'rganilgan.

Neandertal odamlarning hayoti albatta ancha og'ir kechgan. Ularning moddiy madaniyatlari namunalari hisoblangan tosh qurollari o'ta qo'pol ko'rinishda, tasavvurlari esa juda sodda bo'lgan. Neandertal odamlar qabrlari atroflarining hayvon shoxlari bilan to'sib qo'yilishi ularda ilk diniy dunyoqarash paydo bo'la boshlaganligini ko'rsatadi. Buni Teshiktosh g'orida yashagan odamlarning qabrlaridagi izlar ham tasdiqlaydi. Neandertal odam vafot etgandan so'ng uni qabrga ko'mib, qabr atrofini hayvon shoxlari bilan to'sib qo'yganlar. Ularning tasavvuriga ko'ra, hayvonning butun kuch-quvvati, o'zidan kuchli va ayyorroq bo'lgan yirtqich hayvonlarning hujumini qaytaruvchi shoxiga to'plangan. Ikkinci tomonidan esa odam uchun hayvon asosiy oziq manbayi hisoblangan. Shu boisdan ham hayvonlarga e'tiqod qilish — ilk totemistik tasavvurlar ham muste davrida vujudga kelgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

So'nggi paleolitning dastlabki davrlariga kelib, zamonaviy aqli odam (*homo sapiens*) shakllanadi.

Demak, ibridoit to'da davridan urug'chilik tuzumi (jamiyati)ga o'tish, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasida vujudga kelgan o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ibtidoiy ajodolarimiz tomonidan yaratilgan tosh qurollar «qo'l cho'kichi», «qo'l chopqisi» va «qo'l boltasi» vazifasini bajargan.

Urug'chilik davriga kelib, mehnat qurollari birmuncha takomillashib, tosh qurollari ixchamlashgan. Suyak va hayvon shoxlaridan turli xil buyumlar: igna, bigiz, qarmoq, kamon o'qi va turli bezaklar yasalgan.

Bu davrda tasviriy san'at o'ta sodda ko'rinishda bo'lsa-da, birmuncha rivojlangan, ya'ni qoya toshlar hamda g'or devorlariga ov manzaralari, hayvonlar va odamlarning eng sodda tasvirlari tushirilgan. Bunga Surxondaryodagi Zarautsoy toshlaridagi, Chodakdag'i (Namangan viloyati) g'or devoriga chizib ishlangan rasmlar hamda suyaklarga hayvon va odamlar qiyofalarining o'yib ishlanganligi misol bo'la oladi. Urug'chilik davriga kelgach,

suyakdan tasviriy va xalq amaliy san'atining ilk va eng sodda asarlari yaratilgan, ya'ni suyakdan turli xil taqinchoqlar yasaganlar, suyak ustiga turli rasmlar chizilgan, ona timsolini aks ettiruvchi nomukammal haykalchalar yaratilgan. Ibtidoiy rassom va haykaltaroshlar, eng avvalo, insonga hayot baxsh etuvchi homilador ayollar rasmini chizib, haykalchalar yaratganlar. Ov qilinadigan yirik hayvonlar rasmini va ov manzaralarini tasvirlaganlar. Xullas, O'zbekiston hududidagi Zarautsoy, Molguzar va Nurota tog'laridagi, Qoratog'ning Uchtut darasidagi, Xo'jakent darasidagi, Teraklisoy va boshqa joylardagi ibtidoiy san'at asarlari tasviriy san'atning yuqori paleolit davridayoq rivojlanganligini ko'rsatadi.

Mezolit davrida esa ibtidoiy rassomlar tabiatning u yoki bu kuchlariga bo'lgan munosabatlarini, dunyoqarashlarini – u diniymi yoki dunyoviyimi, bundan qat'yi nazar, qoyalarga chizilgan rangli suratlari orqali ifodalab bergenlar. Masalan, Zarautsoy qoya toshlaridagi suratlarning bir qismi qizil rang bilan ishlangan. Qoya suratlari orasida yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi diqqatga sazovor. Ba'zi bir ovchilar o'z ustlariga chaylasimon yopinchiq yopib olganlar. Ular o'q-yoy va palaxmonlar bilan qurollanganlar. Boshqa bir qoya toshda ikki guruh ovchilarning yovvoyi buqani o'rabi olish manzarasi chizilgan. Xulosa qilib aytganda, Zarautsoy qoyalaridagi rasmlar orqali o'rta tosh davri rassomlarining fikr doirasi, diniy tasavvurlari qay darajada rivojlanganligini bilib olsa bo'ladi.

Til va ongning asta-sekin paydo bo'lishi natijasida obyektiv vogelik va uning turli xil hodisalar haqida tushuncha va tasavvurlarda o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Ibtidoi kishilarning eng sodda ko'rinishdagi diniy va badiiy dunyoqarashi shakllana boshladи. Ibtidoi kishilar o'zlarining tabiat va uning hodisalariga bo'lgan munosabatlarini turli xil vositalar – qoya toshlar, g'or devorlariga chizilgan eng sodda ko'rinishdagi suratlarda mehnat ritmi bilan bog'liq bo'lgan raqslarda ifodalay boshlaganlar.

Demak, ibtidoi davr, moddiy ishlab chiqarish jarayonining takomillashuvima'naviy madaniyat elementlarining shakllanishini tezlashtirgan.

O'rta tosh (mezolit) asrining eng katta yutuqlaridan biri, kishilar tomonidan o'q-yoyning kashf etilishi bo'lgan. Bu ovchilikning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ovchilikning rivojlanishi, o'z navbatida, ayrim hayvonlarni qo'lga o'rgatishga olib kelgan. Xonakilashtirilgan hayvonlar kishilar turmushini birmuncha yaxshilagan. Masalan, it odamlarga ham ovda, ham xarf-xatardan saqlanishda katta yordam bergen. Xonakilashtirilgan hayvonlar esa inson uchun ham go'sht, ham teri, ham jun, ham yog', ham suyak, ham o'g'it manbayi bo'lgan.

Bu davrga oid Machay g'ori (Surxondaryo viloyati) topilmalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi mezolit davriga kelib kishilar tosh qirg'ichlar, pichoqlar, suyakdan bigiz va ignalar yasaganlar. Bu esa hayvon terilaridan kiyim tikib kiyish va turarjoy atroflari hamda tepasini terilar bilan bekitish imkonini bergen.

## 2-§. Neolit davri madaniyati

(Eramizdan avvalgi VI - IV ming yilliklar)

Mintaqamizning iqtisodiy-geografik joylashuvi, tarixiy manbalar va asarlarda ko'rsatilishicha, eramizdan avvalgi VI- IV ming yilliklar oralig'ida Markaziy Osiyo geografik joylanishuvi va iqlim sharoitiga ko'ra ikkita yirik madaniy-tarixiy hududga bo'lingan. Mazkur bo'linish o'sha davr kishilarining xo'jalik yuritishida, turmush tarzi va o'zaro madaniy aloqalari hamda san'atida o'z aksini topgan.

Janubi-g'arbiy hududlarda (hozirgi Turkmanistonning janubiy hududlarida) dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalar yashagan bo'lsa, shimoliy hududlarda ovchilik, baliq ovlash va yig'uvchi-terimchilik bilan shug'ullanadigan kishilar istiqomat qilganlar. Ular o'rtaida tosh qurollardan foydalanish uzoq davrlargacha saqlanib qolgan. Albatta, xo'jalik yuritishning cheklanganligi shirmolda yashovchi turli qabilalar madaniyati va san'atining janubiy hududda yashovchi qabilalar madaniyatidan orqada qolishiga sabab bo'lgan. Faqat eramizdan avvalgi II ming yillikka kelibgina shirmolda yashovchi kishilar dehqonchilik bilan shug'ullanishni yo'lga qo'ya boshlaganlar, o'troq hayot kechirishga o'tishgan, metall (bronza)dan mehnat qurollari yasashgan. Albatta, mazkur o'zgarishlar ma'naviy madaniyat, ayniqsa, uning tarkibiy qismi hisoblangan san'atda o'z ifodasini topa boshlagan.

Dehqonchilik bilan shug'ullanish qo'shni hududlarda yashovchi turli qabilalar bilan madaniy aloqalar o'rnatishga olib kelgan. Ularning ma'naviy madaniyati Bolqon yarimorolidan Hindistongacha cho'zilgan ulkan hududda birmuncha ertaroq shakllangan.

Neolit davri Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga qadimgi Sharqning yuksak madaniyatga erishgan Elam (Eronning tog'li hududlari. Eramizdan avvalgi III ming yillikdan VI asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrini o'z ichiga olgan davlat. Eramizdan avvalgi XIII-XII asrlarda davlatchilik va madaniyat gullab-yashnagan) va Shumer, qadimgi Misr va buyuk Hind sivilizatsiyasi hisoblangan Moxinjondora (hozirgi Pokistondagi Sind viloyati hududida eramizdan avvalgi III va II ming yilliklardagi buyuk shahar madaniyati) va Harrapa (hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyati, eramizdan avvalgi III va II ming yillikning birinchi yarmida yuksalgan shahar madaniyati) sivilizatsiyalari o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Eramizdan avvalgi V ming yillikda yashagan qabilalar madaniyatining asosiy xususiyati diniy qarashlarning vujudga kela borganligi va bu bilan bog'liq bo'lgan terrakota haykalchalarining ko'proq ona timsolini tasvirlaganligidir.

Qo'lda yasalgan sopol idishlarga qizg'ish-qora rangdagi tabiiy bo'yoqlar bilan turli geometrik shakllar chizilgan. Ayniqsa, uchburchak, to'rsimon, o'simlik shoxlari ko'rinishidagi va bir-birini kesib o'tuvchi chiziqlardan keng foydalanilgan.

Ayrim idishlarning tashqi tomonlariga hayvonlarning ko'proq, tog' echkisining suratlarini tushirish rasm bo'la borgan. Bu esa dehqonchilik madaniyati bilan shug'ullanuvchi qabilalar o'rtasida totemistik qarashlarning kurtaklari paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Neolit davri (eramizdan avvalgi VI-IV ming yilliklar oralig'i) insoniyatning tayyor mahsulotlardan foydalanishi, mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu davarga kelib chorvachilik va dehqonchilik paydo bo'ladi. tosh qurollar yanada takomillashtirilib, kulolchilik va qurilish ishlari rivojlanadi, to'qimachilik va hayvon terilaridan buyumlar ishlab chiqarish vujudga keladi.

Hayot kechirish manbalarining ko'payishi, kishilarning yashash uchun yangidan yangi hududlarga ko'chib o'tishi kengayadi. Bu esa qabilalar o'rtasida hosildor yerlar va ov qilinadigan maskanlarni egallash uchun kurashlarni vujudga keltiradi. Mazkur o'zgarishlar kishilarning tabiat bilan o'sha davr madaniyatining rivojlanishida o'z ifodasini topgan, ya'ni kishilarning dunyoqarashi, ishlab chiqarish munosabatlarni, hayot shart-sharoitlarida tub o'zgarishlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Mehnat taqsimotining osha borishi, qabilaviy munosabatlarning kuchayishi va mustahkamlanishi, matriarxat davridan patriarxat davriga o'tish kishilar o'rtasidagi munosabatlarni yanada murakkablashtirgan. Magik qarashlar kuchaygan. Dehqonchilikka oid afsonalar rivojlangan.

Shunga qaramasdan, neolit davri san'atida kishilarning mehnat faoliyatini aks ettirish asosiy mavzuligicha qolgan.

Loydan turli xil kichik haykalchalar yashash, o'ta sodda badiiy hunarmandchilik va naqqoshlikning rivojlanishi amaliy-dekorativ (bezak) san'atining paydo bo'lishi neolit davri madaniyatining xarakterli xususiyati hisoblanadi. O'sha davr badiiy hunarmandchiligidagi kishilar mehnat jarayonlarida estetik tomonlarni his qila boshlaganligi ko'zga tashlanadi. Ularning obyektiv dunyo qonuniyatlarini qanchalik darajada anglab borganligi ham turmushda ishlatilgan ko'plab buyumlar va amaliy bezak san'atida o'z ifodasini topgan. Predmetlarda aks etgan naqshlar, o'z xarakteriga ko'ra, turli xil: parallel chiziqlar, qo'sh spiral, egri chiziqlar, doira va boshqa shakllarda bo'lgan.

### 3-§. Bronza davri madaniyati

Markaziy Osiyoda bronza davri taxminan eramizdan avvalgi III ming yillik o'rtalaridan to I ming yillik boshlariga qadar davom etgan. Bronza davrida cho'l va adirlarda chorvachilik madaniyati rivojlangan bo'lsa, janubiy hududlarda hunarmandchilik madaniyati ravnag topgan. Shu bilan birga, janubiy hududlarda dehqonchilik taraqqiy etib, shaharlarning vujudga kelish jarayoni kechgan.

Ilk bronza davrida kulolchilik buyumlariga bir xil geometrik naqsh berish odatga aylangan. Oltintepa (Janubiy Turkmaniston)da olib borilgan qazishmalar

shuni ko'rsatadiki, bu davrda muhtasham ibodatxona saroy ti pidagi monumental inshootlar qurish birmuncha rivojlanib borgan.

Bronza davrida respublikamizning janubiy hududlarida dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga ibtidoiy shahar madaniyati ham taraqqiy eta borgan. Akademik A. Asqarov rahbarligida Sopollitepada (Surxondaryo viloyati hududida) olib borgan qazishmalar bronza davrida shahar madaniyati va hunarmandchilikning qanchalik rivojlanganligini ko'rsatib beradi. Qal'a ichkarisidagi uylar yirik xom g'ishtlardan qurilgan bo'lib, devorlar va pol sonon suvoqda suvalgan. Ko'pchilik uylarning ichiga odam ko'milgan bo'lib, qabrlardan sopol idishlar, bronza, kumush, oltin va turli qimmatbaho toshlardan ishlangan bezaklar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va pardoz buyumlari, tabiiy i pakdan tikilgan kiyim qoldiqlari topilgan. Qal'a maydonida 20 ga yaqin sopol pishiradigan xumdonlar bo'lib, ularda 40 dan ortiq sopol idishlar: vazalar, qadahlar, ko'zalar, xurmacha, choynak, piyola, kosa, tog'ora, xum, lagan, barkash va boshqalar pishirilgan. Shuningdek, Sopollitepada yuzlab metall buyumlar — oddiy uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib, harbiy qurollargacha, ayollar pardoz-andozi uchun xilma-xil idishchelargacha ishlanganligi aniqlangan. Oltin va kumushdan turli xil munchoq va taqinchoqlar ishlangan. Jez oynalar, to'g'nag'ichlar va hayvon ma'budalari, urug' jamoasining naqshinkor muhrлari va tamg'alari ham metalldan yasalgan<sup>1</sup>.

Bronza davri moddiy madaniyati va unga singdirilgan badiiy tafakkurning qay darajada ekanligini Farg'ona shahri yaqinidan topilgan eramizdan avvalgi III ming yillikka oid bronza to'g'nag'ichlar, Chirchiq daryosi yuqori irmog'idan topilgan eramizdan avvalgi II ming yillikka tegishli bronza bilaguzuk, Chust madaniyati manzilgohidan topilgan turli xil taqinchoqlar, idishlar ko'rsatadi.

Ibtidoi-diniy tasavvurlarning vujudga kelishi badiiy tafakkur namunalarida ham o'z ifodasini topgan. Ibtidoi davrga oid tasviriy san'at namunalariga e'tibor bersak, ularda diniy va badiiy tafakkur hamda tabiat hodisalariga bo'lgan munosabatlar umumlashib kelganligini ko'ramiz. Masalan, Saymalitosh g'ori (Farg'ona viloyati)dagi suratda qo'lini yuqoriga ko'tarib, quyosh xudosiga topinayotgan va iltijo qilayotgan kishilar tasviri berilgan. Shuningdek, bu suratda doira chalayotgan odam va qo'lini yuqori ko'tarib juft-juft bo'lib raqsga tushayotgan kishilar tasviri berilgan, degan xulosaga ham kelish mumkin.

Saymalitosh rasmlari orasida arxarlar, tog' echkilari, kiyiklarni ovlash jarayoni tasvirlangan.

Mazkur suratlarda ibtidoi davr kishilarining tabiat hodisalariga nisbatan munosabatlari ifodalab berilgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo hududidagi ko'pgina qoya tosh suratlarida tog' echkisi tasvirlarining uchrashi qadimgi turk qabilalarining arxarlar (yovvoyi

1. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. — T.: «O'qituvchi», 1994, 73-bet.

tog‘ echkisi) bilan qarindoshligi haqidagi afsonalar bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Qadimgi turkiy qavmlar yashagan hududlardan bu jonivorlarning suratlari tushirilgan tamg‘alarming topilgani bu fikrimizning dalili bo‘lishi mumkin.

Hayvonlar va odamlar tasvirining kengayishi, ov va diniy mavzularning tasvirlanishi ibtidoiy odamlar tafakkurining kengayib borganligini ko‘rsatadi.

Ibtidoiy davrning ham moddiy, ham ma’naviy madaniyati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida takomillasha borgan. Ibtidoiy davr ma’naviy madaniyatining vujudga kelishida, birinchidan, mehnat qurollarining takomillashib borishi, ikkinchidan, ibtidoiy odam nutqi va ongining ta’siri benihoya katta bo‘lgan. Chunki ibtidoiy odam mehnat qurollari orqali, avvalo, o‘zining oziq-ovqatlarga bo‘lgan biologik ehtiyojini qondirgan bo‘lsa, so‘ngra ana shu qurollarni ishlatish natijasida o‘zini qurshab turgan tabiat sirlariga chuqurroq kirib borgan. Tabiat sirlarini bila borish esa tafakkur taraqqiyoti uchun yo‘l ochib bergen. Dastlab poda, so‘ngra urug‘ jamoasi a‘zolari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy hodisalarining shakllana borishi hamda tabiat hodisalarini turli xil vositalar orqali aks ettirishning takomillashuvi ham, sodda ko‘rinishdagi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liq bo‘la borgan.

Ilk paleolit davrida ibtidoiy odamlarning obyektiv voqelevi haqidagi tasavvurlari birmuncha aniq, hatto o‘zлari yovvoyi odam, guruh, aralash oila haqida ham muayyan tasavvurlarga ega bo‘lgan. Natijada tartibsiz jinsiy munosabatlar tartibga tusha boshlagan. Turli xil oilaviy an‘analar, rasmlar, rusumlar, udumlar shakllana borgan.

So‘nggi paleolit davridan boshlab odamlar atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatib, o‘z tabiatini ham o‘zgartira borganlar. Natijada yangidan yangi mehnat malakalari, yangidan yangi madaniy boyliklar yaratila boshlangan.

So‘nggi paleolitdan boshlab jamoa turarjoylari o‘zgargan. Endi kishilar yerto‘la, yarim yerto‘la va yer ustiga chaylalar qurib yashay boshlaganlar.

Bronza davriga kelgach, diniy tasavvur va tushunchalar murakkablasha borgan. Tabiat hodisalarini boshqarib turuvchi g‘ayritabiyy kuchlar haqidagi tasavvurlar paydo bo‘lgan. Ikkinchi tomondan esa yirik qishloqlar va hatto eng dastlabki shaharlar (ayniqsa, hunarmandlar to‘planib yashaydigan shaharlar), qo‘rg‘onlar, diniy e‘tiqod markazi hisoblangan ibodatxonalar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoning ilk bronza davriga oid arxeologik izlanishlar va topilmalar dehqonchilik madaniyati shakllanib, ya’ni chorvachilikdan dehqonchilik ajralib, o‘z navbatida, hunarmandchilik ishlab chiqarishining kuchaya boshlaganligini ko‘rsatadi.

Bu davrda sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati qo‘sishmcha mahsulot va xususiy mulkning ko‘payishiga olib kelgan. Sopollitepa, Jarqo‘ton, Kuzamshir, Afrosiyob, Dalvarzin va Chust madaniyatları hozirgi O‘zbekiston hududida metall qurollar va buyumlar ko‘plab ishlab chiqarilganligidan darak beradi. Metalldan yasalgan mehnat qurollari mehnat unumdorligining oshishiga, kishilar turmush madaniyatining o‘zgarishiga olib kelgan.

Eramizdan avvalgi III-II ming yilliklar davrida hunarmandchilikning asosiy bo‘g‘inlaridan biri — kulolchilik rivojlanib, kulolchilik charxi keng yoyilgan. Shahar madaniyati va davlatchilikning mustahkamlanishida muhim rol o‘ynagan savdo-sotiqt nafaqat mintaqa, balki boshqa hududlar va davlatlar bilan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqaning asosiy vositasiga aylangan. Albatta, davlatchilik asoslarining shakllanishi va shahar madaniyatining yuksalishida nafaqat ishlab chiqarish munosabatlari (dehqonchilik va hunarmandchilik)dagi o‘zgarishlar va savdo-sotiqtning rivojlanishi, balki mintaqamizning tabiiy-geografik joylashuvi hamda g‘arbiy-strategik (Sharq va G‘arb manfaatlarining to‘qnashuvi) ahamiyati ham muhim rol o‘ynagan. Mazkur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar hamda ilk davlatchilikning vujudga kelishida eng qadimgi shaharlar: Sopollitepa, Jarqo‘ton (Surxondaryo), Yerqo‘rg‘on, Uzunqir (Qashqadaryo), Kuxatepa, Afrosiyob (Samarqand) va boshqa ko‘hna shaharlar muhim rol o‘ynagan.

## II BOB. QADIMGI DAVR MADANIYATI

### 1-§. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati haqida

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar-qal’alarning paydo bo‘lishi, yirik sug‘orish va mudofaa inshootlarining qurilishi, siyosiy tashkilotlar — davlatlarning tarkib topishiga zamin yaratib beradi.

Qadimgi fors va yunon manbalari eramizdan avvalgi VIII – VII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo hududida Baqtriya va Xorazm singari quldonlik davlatlari paydo bo‘lganligi haqida xabar beradi. Persepol saroyidagi tosh qabrlarga bitilgan rasmlar, Naqshi Rustam dasasidagi shoh Doro qabriga bitilgan bezakli tasvirlar, «Avesto», qadimgi yunon, rim va xitoy mualliflarining asarlarida hozirgi markaziy osiyoliklarning moddiy va ma’naviy madaniyati haqidagi muayyan ma’lumotlar berilgan.

Mustaqil oilalarning urug‘ jamoasidan ajralib chiqishi ibtidoiy jamoa tuzumini inqirozga olib keldi va ijtimoiy munosabatlarning yangi bir ko‘rinishi — sinfiy jamiyatning paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. Ishlab chiqarish jarayoni mustaqil oila jamoalarini birlashtirib turuvchi asosiy omilga aylandi. Ishlab chiqarishga asoslangan oilalarning ko‘payishi ayrim oilalarda ortiqcha mahsulotlarning paydo bo‘lishi va mahsulot ayirboshlashni vujudga keltirdi.

Oila jamoasidagi ortiqcha daromad va ayirboshlash eng dastlabki mehnat taqsimotini keltirib chiqardi. Oilalar o‘zлari uchun qulay bo‘lgan ishlab chiqarish sohasini tanlay boshladilar. Oilalarda to‘plangan ortiqcha boylik — xususiy mulk urug‘larning iqtisodiy tabaqalanishiga sabab bo‘ldi.

Markaziy Osivoda temir davrining boshlanishi taxminlarga ko‘ra eramizdan avvalgi 1 ming yillikning dastlabki choragiga to‘g‘ri keladi. Temirdan mehnat,

ov va jang qurollari ishlab chiqarila boshlanadi. Natijada jamiyatning tabaqlanish jarayoni tezlashib ketadi va ikkinchi mehnat taqsimotini vujudga keltiradi, ya'ni dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqadi. Yirik ishlab chiqarish markazlari –shaharlar paydo bo'la boshladi.

Temirni qayta ishslashning vujudga kelishi ajdodlarimizning eng katta kashfiyotlaridan biri edi. Temirdan mehnat qurollari yaratish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotida tub burilishlar yasadi.

Hozirgi o'zbek xalqining qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda ravnAQ topgan. Milliy madaniyatimizning rivojlanish jarayoniga e'tibor bersak, xalqimiz milliy ongining rivoji va umuminsoniy madaniyatlarning o'zaro ta'siri ostida ro'y bergenligini ko'ramiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojida «Buyuk ipak yo'lli»ning roli benihoya katta bo'lgan.

Eramizdan avvalgi II ming yillikning oxiri va 1 ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoda Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm kabi madaniy jihatdan rivojlangan davlatlar paydo bo'ldi. Mazkur davlatlarning qadimgi davr madaniy taraqqiyoti boshqa bir qator xalqlar: Eron, Xitoy va Hind madaniyatlarining ta'siri ostida ro'y bergen. Masalan, taxminan eramizdan avvalgi 1 ming yillik o'rtalariga kelib Baqtriyha Hindiston bilan bo'ladijan savdo-sotiqning asosiy markaziga aylandi. Savdo-sotiqning yuksalishi natijasida mustahkam qilib qurilgan qal'alar xalqning keng iste'mol va tashqi savdoga olib chiqiladigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan iqtisodiy va madaniy markazlariga aylana boshladi. Yirik iqtisodiy markaz – shaharlarning vujudga kela borishi uchinchini mehnat taqsimotining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jismoniy va aqliy mehnat bir-biridan ajrala bordi. Shaharlarda nafaqat moddiy va madaniy boyliklarni yaratuvchi tabaqalar, shuningdek, ma'naviy-madaniy boyliklar, ma'naviy qadriyatlarni yuzaga keltiruvchi tabaqa – aqliy mehnat ahli shakllana boshladi.

Ayniqsa, hunarmandchilik taraqqiy etgan shahar-qal'alarda aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ruhoniylar, san'atkorlar, shoirlar boy-badavlat kishilarning farzandlariga G'arb san'ati va sodda ko'rinishdag'i fanlar sohalaridan ta'lim-tarbiya beruvchi ziyoli tabaqalari vujudga kela bordi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar-qal'alarning paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishi, ma'muriy boshqaruva tizimi – davlatlarning tarkib topishiga zamin yaratib berdi.

\* \* \*

Eramizdan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida yaratilgan «Avesto» matnlariiga e'tibor bersak, qadim ajdodlarimiz o'sha davrlardayoq dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni rivojlantira olganligini ko'ramiz. «Avesto»ning «Yasna» va «Vandidod» kabi qismlarida Ahuramazdaning eng yaqin yordamchilari, ya'ni buyuk kuch-qudratga ega bo'lgan ilohlardan biri – Xshatra Varya ma'danlardan turli xil buyumlar yasovchi hunarmandlar homisiyasi sifatida

talqin qilinadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, eramizdan avvalgi I ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik madaniyati ancha rivojlanib, mehnat taqsimoti tugallanib ulgurgan, ijtimoiy tabaqalanish amalga oshib, davlat hokimiyyati o'rnatilgan va mustaqil davlatchilikning tamal toshi qo'yilgan.

Ayniqsa, Qadimgi moddiy va ma'naviy madaniyatimiz haqidagi ma'lumotlarni, eng avvalo, «Avesto»dan, shuningdek, yunon tarixchilar Gerodot, Kvint Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor, Strabon, Pompey Trog, Yustin asarlaridan olish mumkin. Masalan, Strabon xorazmiylarni sak-massagetlar turkumiga kiritadi, qadimgi so'g'dlar va baqtriyaliklar turmush tarzi va xulq-atvori bilan o'zaro farqlanmaydi, deydi. Tarixiy va arxeologik manbalarga ko'ra xorazmiylar, baqtriyaliklar va so'g'diyalar o'z kiyim-kechaklari, bosh kiyimlari, qurol-aslahalari bilan saklardan farq qilmaganlar. Vohadagi elatlар saklar bilan deyarli bir tilda gaplashganlar. Etnik jihatdan dehqonchilik vohalarida joylashgan elatlarda Amudaryoning yuqori havzasidagi xorazmiylar, Gurgan quyi oqimidagi girkanlar, Kopetdog etaklaridagi umumiyl nomdagi parfianlar, Murg'ob havzasidagi marg'yonlar, Zarafshon, Qashqadaryo vohalaridagi so'g'dlar, Surxondaryo vohasidagi baqtriyaliklar va parkana (Farg'ona)liklar tarixiy manbalarda tilga olinadi. Yuqori Amudaryoning ikki sohilidagi barcha elatlар eramizdan avvalgi I ming yillik o'ttalarida yuksak madaniyatga ega bo'lib, irrigatsiya va qurilish inshootlarini, hunarmandchilik va G'arb san'ati sirlarini egallagan, zo'r ma'naviy qadriyatlarni yaratgan etnik guruhlar, hatto qo'shni davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazganlar!

Har qanday xalq yoki elatning dovrug'i o'z madaniyatining o'ta rivojlangan, ishlab chiqarishdagi yutuqlari va xalq og'zaki ijodi namunalarining keng qamrovgili bilan boshqa xalqlarga yetib boradi. Qadimgi yunon va rim tarixchilar o'z asarlarida avlod-ajodolarimizning turush-turmushi, hayot kechirishi, mashg'ulot turi, qo'shni xalqlar bilan bordi-keldisi — iqtisodiy va madaniy aloqalari, xarakteri va intilishlari haqida so'z yuritadilar. Yunon solnomachisi Diodor o'zining «Tarixiy kutubxona» asarida Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari: skiflar, saklar, massagetlar, arimasplar haqida qisqacha bo'lsa-da to'xtalib o'tadi.

Hozir biz yashab turgan hududlarda qadim-qadimda skiflar va ularning turli qabilalari — shak (sak), massaget va boshqalar yashaganlar. Keyinchalik skiflar hozirgi Volga, Don, Dunay daryolari bo'yilarigacha bo'lgan hududlarni bosib olganlar. «Skiflar Markaziy Osiyodan tarqalgan edi», — deb yozadi rus olimi A.B.Ditmar o'zining «Skifiyadan Elefantingacha» nomli asarida. Demak, turli sabablarga ko'ra (bizningcha, o'zaro qabilaviy kelishmovchiliklar

<sup>1</sup> Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T. 1994, 60-bet.

natijasida) Markaziy Osiyo hududlaridan ketib qolgan skiflar Yevropaning ancha ichkarisigacha cho'zilgan bepoyon o'lkalarga kirib borib yashaganlar va u yerlarda o'ziga xos madaniyatni yaratganlar.

Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning ta'kidlashicha, skiflar quyidagi xudolarga sig'inganlar: «Tabiyati – ma'budalar ma'budi (yunonlarda Gestiya), Papey – osmon xudosi (yunonlarda Zevs), Api (Geya), Taytosir (Appolon) – cho'ponlar, keyinchalik poklik xudosi, Argimpasa (Afrodita) – sevgi, muhabbat va go'zallik xudosi, Fagimasad (Poseydon) – dengiz xudosi. Skiflarda urush xudosidan boshqa xudolarga haykal o'matish, ibodatxona va mehrob qurish odat emas, – deb yozadi tarixchi.

Gerodot sanab o'tgan yetti xudo ma'bud zardushtiyarlarning yetti ma'budlari – Ahuramazda va Olti Amesha Spentalarli Voxu Manna (ezgu-niyat), Atavaxishta (to'g'rilik, rost so'zlash), Xshatra Varya (umid va qudrat), Spenta Armaeti (komilllik, mukammallik), Xaurvatat (salomatlik), Ameretat (umrboqiyilik) hamda borliq haqidagi tushunchalariga muvofiq – yetti qavat osmon, yetti qavat yer, yetti sayyora haqidagi tushunchasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qadimgi skiflarning diniy tushunchasi va tasavvurlari hamda xudolari yaxlit, muayyan tizimga ega bo'lган, ya'ni har bir ma'buda hayotning muayyan bir sohasini boshqaradi, yuqoridaan quyiga, asosiydan ikkinchi darajalilari bilan uzviy bog'liq tarzda tasavvur qilingan. Skiflar borliqni uch qism: osmon, o'rtalik va yerdan iborat deb bilganlar. Olov – esa ana shu uch qismni bir-biri bilan bog'laydi. Olov – ilohiy kuch, u Tabiti nomi bilan bog'liq. Tabiti skif xudolari panteonida birinchi o'rinda turgan. U – asosiy xudo. Xonadon, oila, o'choq xudosi hisoblangan. Shu sababli skiflar «shoh Tabiti nomi bilan» deb qasam ichganlar. Tabitining bosh xudo sifatida e'zozlangani bejiz emas, chunki olov ko'chmanchilar hayotining manbayi, oilaning hamrohi, farovonligi va sihat-salomatlighining asosiy omili bo'lган. Har bir xonadonda o'choqning mavjudligi (keyinchalik olovxonaning paydo bo'lishi) urug'-aymoq birligining timsoli hisoblangan. Bundan ko'rindiki, skiflardagi muqaddas yettilik va uchlik raqamlari dastlab olovga sig'inuvchi ajdodlarimiz ilmiy, badiiy hamda diniy dunyoqarashlari, rasm-rusum, udum va marosimlarida, so'ngra Markaziy Osiyoda yashovchi turli qabila, elat va millatlar turmush tarzidagi muqaddas sonlar shaklida saqlanib kelingan.

Qadimgi yunon va rim tarixchilarining asarlaridan yana shuni bilib olish mumkinki, Markaziy Osiyodagi madaniyat qadimgi yunon va rim madaniyatidan hech ham qolishmagan. Masalan, Plutarxning «Aleksandr», Polienning «G'arbiy hiylalar» nomli asarlarida bu o'lkadagi mustahkam devorlar bilan o'ralgan muhtasham shaharlar grek-makedonlarni hayratda qoldirgan. Chunki Markaziy Osiyo o'sha davrdayoq «Shaharlar o'lkasi» nomini olgan. Arrianning ko'rsatishicha, So'g'diyonadagi deyarli barcha shahar va qishloqlar mustahkam devor bilan o'rab olingen edi. Aleksandr Makedonskiy bu shahar va qishloqlarni faqat o'zining toshotar qurollari bilangina ishg'ol qilgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning temirdan yasalgan qurollari nihoyatda chidamli va bejirim bo'lgan. Oltin idishlardan buyum o'rniда foydalanganlar. Oltin ular uchun qimmatli ahamiyatga ega bo'limgan. Yustin o'zining «Pompey Trog epitomi» nomli asarida skiflarning kumush va oltindan hazar qilishlarini yozadi.

Strabon esa o'zining mashhur «Geografiya» asarida turkiy qabilalardan yana biri – qadimgi saklarning urf-odatlari, bayramlari va diniy qarashlariga qisqacha to'xtalib o'tadi. Uning yozishicha, «Saklar o'zлari e'tiqod qiladigan ma'budalarga atab mustahkam devoril butxona (ibodatxona) quradilar va bu butxonada «Sakalya» nomli bayramlarini nishonlaydilar».

Shuningdek, Yustin o'z asarida qadim ajdodlarimizning ko'chmanchi hayot kechirishi natijasida tabiatning turli hodisalariga duch kelib, osmon jismlarining o'zgarishi, fasllar almashinuvi, inson hayoti va tabiat o'rtasidagi o'zarо aloqadorlik sirlarini bilishlarini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, skiflar tug'ma donishmand bo'lishgan. «Juda qiziq holatga duch kelasan, yunonlar uzoq yillar o'qib o'rgana olmagan donishmandlik va falsafiylikni skiflarga tabiatning o'zi in'om qilgan», – deb yozadi Yustin.

Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo hududlarini zabit etishi natijasida yunonlar bilan mahalliy xalqlar, Yevropa bilan Osiyo o'rtasida o'zarо iqtisodiy-madaniy aloqalar vujudga kelgan. Yunonlar osiyoliklarning madaniyatiga, osiyoliklar esa yunonlar madaniyatiga qiziqish bilan qaray boshlaganlar. Makedonskiy qo'shnirlari bilan bosqinchilik va qирг'in urush dahshatlari kirib kelgan bo'lsa, shu bilan birga, o'ziga xos yunon madaniyati ham kirib kelgan. Yunon tili davlat tili hisoblangan. Yunon yozuvi hatto islam dini kirib kelgunga qadar ham muomalada bo'lgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari va shimolda yashovchi turkiy qavmlarning diniy qarashlarida yagonalik mavjud bo'lgan. Buni qadimgi yunon, xitoy, arman tarixchilari va «Avesto» matnlari orqali aniqlash mumkin. Masalan, yunon tarixchisi Gerodot o'zining «Tarix» kitobida «massagetlar ichida ulug'langan yagona xudo – bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurbanlik qiladilar, chunki xudoga dunyodagi eng uchqur jonliqni qurban qilish lozim deb o'yaydilar», deb qayd etgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da ham (ayniqsa, Yasna va Yasht kitoblarida) ilohiy kuch-qudratga ega bo'lgan Quyosh barcha narsalarga jon va kuch-quvvat beruvchi oliy iloh ekanligi ta'kidlanadi:

*Biz Quyoshga sig'inamiz,  
Bezavol Nurga,  
Uchqur uning tulporlari.  
Qachon Quyosh nur taratadir,  
Qachon ilitadi Quyosh,*

*Doim turar yuz ming adad  
 Ma 'budlar,  
 Tanlaydirlar baxtni shunda ma 'budlar  
 Taqsimlaydir baxtni shunda ma 'budlar.  
 Qutlug' Mazda xalq aylagan bu Zaminga,  
 Olamlarga nur etadir baxsh,  
 Haqiqatga rushdu rivoj.*

«Avesto»da Quyosh xudosi Xurshid nomi bilan yuritiladi va unga nisbatan «abadiy», «barhayot», «shukuhli» sifatlari beriladi.

Turkiy asotirlarda ham Quyoshga sig'inish, unga atab qurbanliklar qilish, turli xil marosimlar o'tkazish haqida ma'lumotlar uchraydi.

Eramizdan avvalgi 1 ming yillikning o'talaridan boshlab Markaziy Osiyo hududlariga turkiy qabilalarning tez-tez ko'chib kelishlari natijasida, bu yerlarda turli xil tillarning shakllanish jarayoni ro'y beradi. Masalan, eramizdan avvalgi II-I asrlarda Sirdaryo va Yettisu cho'llariga shimoldan xunnnlar ko'chib kelib, o'zlarining yirik qabila ittifoqini tashkil qildilar. Ular Oltoy oilasining turkiy guruhiга kiruvchi tillarda so'zlashganlar. Xunnnlar vaqt o'tgach, so'g'diyonaliklar bilan chatishib ketganlar. Xuddi shu davrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida turkiy tilda so'zlashuvchi etnik guruhlarning ta'siri kuchaya boradi. Turkiy tillar, ayniqsa, turk xoqonligi davrida (eramizning VI-VIII asrлари) Shimoliy Enasoy (Yenisey)dan Mo'g'ulistonqa qadar cho'zilgan keng hududlarda asosiy tillarga aylanadi.

Xullas, Markaziy Osiyoning ko'pgina hududlarida forsiy va turkiy xalqlar tillari vujudga kelgan. Bu tillarda so'zlashuvchi turli etnik guruhlarning iqtisodiy-madaniy aloqalari natijasida urf-odatlari, marosimlari, yashash tarzi, ma'naviy madaniyati bir-biriga o'xshash bo'lgan hozirgi Markaziy O'rta osiyoliklarning qadimgi ajoddlari shakllangan.

## **2-\$. Qadimgi xorazmliklarning madaniyati, san'ati va diniy qarashlari**

Ko'plab qadimgi yozma manbalar Markaziy Osiyo hududidagi dastlabki madaniy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar er. av. 1 ming yillikning 1-yarmi oxirlaridayoq paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, er. av. VI asrda eronlik Ahamoniylar (Kir)ning massagetlar yurti (ko'hna Xorazm davlati)ni bosib olishga bo'lgan harakati, mustaqil va iqtisodiy-madaniy jihatdan rivojlangan Xorazm davlati «Avesto» tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, qadimgi yunon tilida Xorasmiya deb atalishi buning dalilidir. Xorasmiy, sakaravak, debik, dax, yaksart kabi ko'plab qabilalarni birlashtirgan qadimgi Xorazm davlati er. av. VI asrga kelib ahamoniylar (eron) davlatiga bo'ysungan.

Olib borilgan arxeologik qazishmalar hamda qadimgi yunon va xitoy

tarixchilarining asarlari qadimgi Xorazm madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Qadimgi Xorazm davlatining yuksak madaniy taraqqiyotga erishishida bir tomondan, Yaqin Sharq, Xitoy va Shimoliy Hindiston bilan, ikkinchi tomondan, Sharqiylar va Janubiy Yevropa (ko'proq Volga daryosi bo'yllari) xalqlari bilan olib borgan madaniy-iqtisodiy aloqalar muhim rol o'yagan.

Qadimgi Xorazm hukmdorlari mamlakatning iqtisodiy-madaniy jihatdan yuksalishi uchun ko'plab tadbirlarni: tangalar zorb qilish, boshqa davlatlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish, sug'orma dehqonchilikni kengaytirish ishlarini olib borganlar. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ko'plab shaharlar, qal'alar, qasrlar va istehkomlar qurilishida o'z aksini topgan. Ko'hna xarobalarini tekshirish bu o'lkada yirik suv inshootlari, qal'alar, ko'plab karvonsaroylar mavjud bo'lganligini, shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq gurkirab rivojlanganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Xorazm ma'nnaviy madaniyatining qay darajada rivojlanganligini Xorazm yozuvni va diniy dunyoqarashning mavjud bo'lganligidan, bu vohada hozirgi kunimizgacha saqlanib kelinayotgan xalq og'zaki ijodi: afsonalar, rivoyatlar, doston va qo'shiqlardan ham bilsak bo'ladi.

Qadimgi Xorazm tarixi, davlatchiligi, afsonaviy qahramonlari haqida ko'plab afsonalar to'qilgan. Masalan, «Ayozqal'a» afsonasida Orol dengizining paydo bo'lishi va Xorazmning vujudga kelishi haqida so'z yuritiladi. Afsonaga ko'ra dastlab Orol dengizi bo'Imagan. Uning o'rniда berahm va munofiq hukmdor Fosilxon hukmronlik qilgan adax xalqi yashagan. Fosilxon o'zining dahshatli jinoyatlari va bir avliyoning qizi nomusini toptaganligi uchun avliyoning qarg'ishiga uchraydi. Natijada Amu va Sir daryolar o'z o'zanlarini o'zgartirib, Fosilxon podsholigi hududiga – hozirgi Orolga quyila boshlaydi va podsholik suv ostida qoladi. Dono va adolatpesha Ayozxon boshchiligidagi Boysun aholisi esa Xorazmga ko'chib kelib, Urganch podsholigiga asos soladi.

Firdavsiyning «Shohnoma» dostonida «Avesto»da tilga olingan dastlabki Xorazm sulolasining asoschisi Siyovush haqida so'z yuritiladi.

«Siyovush haqidagi afsona»da esa turonlik go'zal qizdan tug'ilgan Siyovushning yoshlikda yaxshi tarbiya olganligi, o'gay onasining tuhmati tufayli nohaq ayblanishi, o'z obro'sini qayta tiklash uchun suyukli oti bilan katta olovdan beshikast o'tib olishi, uning Turon o'lkasiga yurishi, urushdan so'ng Afrosiyob huzuriga borib, uning qiziga uylanishi, qaynotasi in'om qilgan yerda Siyovushning qasrini qurbanligi, tuhmatga uchrab, o'z qaynotasi Afrosiyob tomonidan o'ldirilishi hamda Siyovushning o'g'li bobosi Afrosiyobni jangda yengib, birinchi Xorazm sulolasiga asos solganligi hikoya qilinadi.

Qadimgi Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Jonbosqal'a, Tuproqqa'l'a, Ayozqal'a, Bozorqal'a, Qangaqal'a, Qirqqiz kabi ko'plab qal'alarda olib borilgan arxeologik izlanishlar qadimgi Xorazmning nafaqat moddiy madaniyati, balki arxitektura

va amaliy bezak san'ati ham yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Birgina Tuproqqa'l adagi izlanishlarning o'zi qadimgi Xorazm shaharlarining puxta reja asosida qurilganligini, qurilish san'ati yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Qal'adagi saroy nihoyatda mahobatlari va go'zal bunyod etilgan. Saroy ichida joylashgan «Podsho zali», «Askar zali», «Raqqoslar zali», «G'alaba zali» kabi ko'plab zallarning har biri o'ziga xos tarzda bezatilgan.

Xorazm vohasidagi ko'plab qadimiy qal'alar o'z qa'rida xorazmliklarning badiiy dunyoqarashi namunalarini saqlab kelgan. Mashhur arxeolog S.P.Tolstov Jonbosqal'a va Tuproqqa'l xarobalarini o'rganib, Jonbosqal'adan ko'plab terrakota haykalchalari, Tuproqqa'l'adan esa qadimgi xorazm hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalarni topadi. Shu boisdan ham S.P.Tolstov Jonbosqal'ani «Haykallar muzeyi», Tuproqqa'l'ani esa «Behisob tangalar muzeyi» deb atagan<sup>1</sup>.

Qal'alar (masalan, Qo'yqirilganqal'a) ichidan topilgan turfa ashylar Qangyuy davrida (er. av. IV-I asrlarda) qal'a aholisining madaniy hayoti, dunyoqarashi, turmush tarzi qanday bo'lganligini ko'rsatadi. Sopoldan yasalgan suvdonlarning tashqi bezaklari, og'zi odam shaklida ishlangan kichik idishlar, ot va grifonlar surati tushirilgan turli xil rangdagi sopol ritonlar, kichik hajmdagi sopol haykalchalar, dastasi fil yoki ot boshiga o'xshatib yasalgan ko'zalar qadimgi Xorazm haykaltaroshligi va amaliy bezak san'ati haqida ma'lumot beradi. Bo'rtma tasvirlar orasida sharob ko'targan keksa bog'bon, jimgima jiyakli kamzul va burmali ko'ylik kiyib olib, bir qo'lida ko'zacha, ikkinchisida qadali tutgan ayol haykalchasi qadimgi xorazmliklarning nafis didga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qal'a xonalari devoriga ishlangan rang-barang naqshlar, ot, tuyu, qo'y va boshqa hayvonlar hamda qushlar tasviri, zardushtiylik dini talablari asosida o'Igan odamlarning suyaklari solib qo'yiladigan sopoldan yasalgan quти (ossuariy-ostadon)lar tashqi bezaklari o'sha davr san'atkorlarining badiiy tafakkuri nihoyatda yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

Qal'a ichidan topilgan haykalchalar orasida ot tasviri tushirilgan haykallar ko'p uchraydi.

Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan buyum va bezaklarda ko'p uchraydigan afsonaviy tasvirlar, ayrim xudolarning timsollarini ifodalovchi haykal va rasmlar uzoq o'tmishdagি xorazmliklarning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari haqida mulohaza yuritishga imkon beradi. Har xil idishlar, xanjar va pichoq dastalari, bilaguzuk va isirg'alar, to'g'nag'ich va to'qalarga yasalgan echki va qo'ylar, qanotli qo'chqorsimon yoki otsimon maxluqlar, yarimodam, yarimilon, bo'ri yoki sher shaklidagi afsonaviy obraz (timsollar) tamg'a va muhrlardagi har xil qush va hayvonlarning tasviri oddiy san'at namunasi bo'libgina qolmay, balki ilk diniy e'tiqod buyumlari va diniy tasavvurlar mahsulidir.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Asqarov A. O'zbekiston tarixi. — T.: «O'qituvchi», 1994, 162-bet.

<sup>2</sup> Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. — T.: «O'qituvchi», 1999, 55-bet.

**Qadimgi Xorazm tili va yozuvi.** Qadimda har bir rivojlangan davlatning o‘z yozuvi mavjud bo‘lganidek, Qadimgi Xorazmnинг ham eng katta ma’naviy boyligi – yozuvi mavjud bo‘lgan. Qadimgi Xorazm yozuvi taxminlarga ko‘ra eramizdan avvalgi III asrning oxirlari va II asrning boshlarida Oromiy yozuvi ta’siri ostida shakllangan.

Qadimgi Xorazm yozuvining dastlabki namunasi ilk bor S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiyaning Qo‘yqirilganqal’ada olib borgan tekshiruvi natijasida topilgan edi. Eroncha «Aspabarak» yoki «Aspabadak» («Otda ketayotgan») so‘zi xumcha chanbaragi ostiga yozib qo‘ylgan. Bundan tashqari yana xumcha va ayolni tasvirlovchi haykalchaning orqa tomoniga yozilgan boshqa yozuvar ham topilgan. Bu yozuvni S.P.Tolstov «O‘rta Osiyodan topilgan yozuvar ichidagi eng qadimiysiadir», – degan edi.

Arablar bosqinchiligi natijasida qadimgi Xorazm tilida yozilgan asarlar, arxiv hujjatlari yo‘q bo‘lib ketgan. Beruniy ta‘kidlaganidek, Xorazm yozuvi teri, yog‘och, sopol, metall, tangalarga tushirilgan.

Xullas, Qadimgi Xorazm yozuvi Oromiy yozuvining eng dastlabki an‘analarini saqlab qolgan yozuv bo‘lgan.

**Diniy qarashlari.** Qadimgi Xorazm o‘lkasi tarixi va etnografiyasini keng tadqiq etgan S.P.Tolstov, Ya.G’ulomov, I.Jabborov va boshqalar xorazmliklarning eng dastlabki diniy tasavvurlari animizm, totemizm, fetishizm, magik ko‘rinishda bo‘lganligi va eramizdan avvalgi 1 ming yillik o‘rtalariga kelib, quyosh so‘ngra esa olovga sig‘iganliklarini ko‘rsatib o‘tadilar.

Etnograf olim G.Snesaryev esa xorazmliklar bir zamonlar quyoshga topinganlar, e’tiqod belgisi hisoblangan quyosh tasviri uy-ro‘zg‘or jihozlari hisoblangan turli xil idishlar, namat, gilam, eshiklarda muhrlanganligini ta‘kidlab o‘tadi.

O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan iqlimi sovuq keladigan xorazmliklar uchun quyosh tafti va yorug‘ligi o‘ta muhim bo‘lgan. Shu boisdan ham qadimgi xorazmliklar dastlab quyoshni, so‘ngra olovni muqadaslashtirganlar.

Eramizdan avvalgi V-I asrlar zardushtiylik dinining shakllanishi va mustahkamlanishi davrlari hisoblanadi. Xuddi mana shu davrda bunyod etilgan qadimgi Xorazm shahar-qal’alari: Qo‘yqirilganqal’a, Jonbosqal’a, Bozorqal’a, Ayoqzal’a, Tuproqqaqal’alarda olib borilgan tadqiqotlar ularning barchasida otashparastlar ibodatxonalarini mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ayrim qal’alar (masalan, Jonbosqal’a)dan topilgan buyumlardan ot tasviri yoki sopol haykalchalar qadimgi xorazmliklarning otga sig‘inishi (totemistik qarashlari)dan darak beradi. Albatta, ko‘hna Xorazmnинг keyingi davrlar tarixida «Avesto»da ko‘rsatilgan dehqonchilik ma‘budasi Anaxitaga, Amudaryo xudosi va kemachilar homisi Er Xubbiga va tabiat hodisalariga sig‘inish mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, qadimgi xorazmliklarning afsonalari, yozuvi va diniy qarashlari qal'alardan topilgan san'at va hunarmandchilik namunalari bu o'lka xalqlarining ma'naviy madaniyati, estetik didi va dunyoqarashi nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Beruniyning ma'lumotlariga ko'ra va olimlarning tasdiqlashicha, eramizdan avvalgi III - II asrlarda Xorazmda Qo'yqirilganqal'ada mustaqil astronomik kuzatish ishlari olib borilgan markaz va yulduzlar jadvali mavjud bo'lgan.

### **3-§. Qadimgi Baqtriya madaniyati va san'ati**

Antik davrda madaniy-iqtisodiy jihatdan yuksalgan davlatlardan biri Baqtriya davlati hisoblangan. Baqtriya mustaqil davlat sifatida o'z tasarrufiga hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, Turkmanistonning sharqiy qismi, Tojikiston Respublikasining Amudaryo bo'yları hamda Shimoliy Afg'oniston yerlarini qamrab olgan. Baqtriya haqidagi dastlabki ma'lumotlar «Avesto»da, yunonistonlik Ktesiy asarlarida, shuningdek, yunon solnomachisi Diodorning «Tarix kutubxonasi» nomli asarida uchraydi. Shu bilan birga Baqtriya davlati haqidagi ma'lumotlar Behustun va naqshi Rustam yozuvlarida, qadimgi hind manbalari «Rigveda» rivoyatlarida, «Ramayana» dostonida uchraydi. Qadimgi Baqtriya davlati nafaqat Markaziy Osiyo hududidagi moddiy va ma'naviy madaniyatning taraqqiyotiga, balki o'ziga qo'shni bo'lgan boshqa davlatlarning madaniy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Eramizdan avvalgi 329-327- yillarda Baqtriya hududlarini Aleksandr Makedonskiy bosib olgan. Eramizdan avvalgi 135 yilga kelgach, qadimgi Baqtriya hududida Kushonlar saltanati tashkil etiladi.

Taniqli filolog olima F.Sulaymonovaning ta'kidlashicha, Baqtriya eski fors tilida Baqrish, «Avesto»da Baxdi, hindlarning «Mahobhorat» dostonida Zariaspa, yunoncha Baqtra, Alisher Navoiy asarlarida Baxtari, hozirgi tilda Balx deb yuritiladi. Baqtriya «Avesto»da «baxtli», «farovon», «bayroqdar», «shaharlar onasi» deb ta'riflanadi.

Qadimgi Baqtriya G'arb va Sharqqa boradigan savdo yo'lining markazida joylashgan. Strabonning «Geografiya» asarida yozilishicha, Baqtriya Hindistonga boradigan uch yo'lning, Xitoyga boradigan ikki yo'lning va G'arbg'a boradigan ikki yo'lning ustida joylashgan. Birgina «Buyuk Ipak yo'li»ning o'zi uning madaniy jihatdan yuksalishida muhim ro'l o'ynagan.

Baqtriya yirik shaharlar, qasrlar, istehkomli qal'alar va ibodatxonalarini ko'p bo'lgan mamlakat hisoblangan. Shu sababli qadimgi Baqtriya «Shaharlar mamlakati» deb atalgan.

Yunon-Baqtriya davlati hududlarida ko'plab rivojlangan shaharlar – hozirgi Afg'oniston qismidagi Bagram, Baktra, Oyxonum kabilar; hozirgi Tojikiston

qismida Kabadshoh, Kaykabod va boshqa shaharlar, hozirgi O'zbekiston qismidagi Ko'hna Termiz, Dalvarzin, Dunyotepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa kabi shaharlar mavjud bo'lgan.

Bu shaharlarda hunarmandchilik, Amudaryo bo'yidagi shaharlarda yirik-yirik kermalar bo'lmasa-da, kemasozlik va savdo-sotiq rivojlangan. To'quvchilik, ko'ncilik, qurolozlik ravnaq topgan bo'lib, hunarmandlar turli buyumlar va zeb-u ziynatlarni oltin, kumush, bronza, qalay va qo'rg'oshindan yasaganlar. Baqtriyaning shimoliy hududlari (Kobadiyon)dan topilgan «Amudaryo xazinasi» nomi bilan mashhur bo'lgan buyumlar – 179 oltin, 7 kumush buyumlari va o'sha zamonda zarb qilingan 1500 dona kumush va chaqa tangalar (ular orasida Yunon-Baqtriya podshohlari – Diodot va Yevtidemlar tomonidan zarb qilingan tangalar ham bor), oltin zeb-ziynatlar, bilaguzuk, uzuk, marjon, quyma oltindan yasalgan odam, otarava, echki, g'oz, baliq va boshqa hayvonlarning haykalchalari, oltin jomlar Yunon-Baqtriya davlatida nafaqat hunarmandchilik va zargarlikning naqadar rivojlangantligidan, balki qadimgi baqtriyaliklarning yuksak estetik tafakkurga ega bo'lganligidan ham dalolat beradi.

Baqtriya davlati eronlik ahamoniylar hukmronligi ostida yashagan paytda Eron madaniyati ta'siri, ayniqsa, mahalliy xalq tilida sezilarli darajada bo'lgan. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) boshchiligidagi yunon-makedonlar istilosi davriga kelib yunon madaniyati ta'siri kuchaygan.

Makedonskiy o'z bosqinchilik siyosatini hamda Yunon-Makedoniya ta'sirini singdirishda mahalliy shart-sharoitni, xalqning azaliv an'analari, marosimlari va diniy e'tiqodini hisobga olgan bo'lsa, salavkiylar bu siyosatni amalga oshirishda qattiqqo'llik, ya'ni G'arbgaga xos diktatura siyosatidan foydalandi. Mahalliy aholini, uning madaniyatini umuman inkor etish, noioblarni faqat yunonliklar orasidan tayinlash, mahalliy boshqaruvda ko'plab G'arbiy istehkomlar, inshootlar qurib, G'arbiy kuch orqali aholini bo'ysundirib turish tadbirlariga zo'r bergenlar. Chunonchi, Aleksandrning yunon va mahalliy madaniyatlarini o'zaro uyg'unlashtirishdagi sa'y-harakatlari bo'lganini bilgan holda, salavkiylarning, aksincha, tobe xalqlar orasida faqat yunon madaniyatini targ'ib etishini vazifa deb bilganliklarini qayd etish lozim.<sup>1</sup>

**Ellistik va mahalliy madaniyatlarning o'zaro aloqasi.** Yunon-Baqtriya davlati davridagi madaniyat ellinizm va mahalliy xalq madaniyatining o'ziga xos, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayat va maskurada ellinizm va mahalliy xalq madaniyatlarining uyg'unlashuvni tarzida ro'y bergen. Mahalliy badiiy uslub natijasida yaratilgan buyumlar: oltin va kumush kosa, lagan, medalonlarga turli xil afsonalar, marosimlar, bayramlarning elementlari, xudolar, o'simlik va hayvonlar tasviri tushirilgan. Xudolardan Anaxita va Mitra, olma ushlab turgan ona va chavandoz haykallari yaratilgan.

1. Ziyoyev A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2000, 39-bet.

Bu davrning hukmron dini zardushtiylik bo'lsa-da, mahalliy diniy tasavvurlar yunon mifologiyasidagi timsollar bilan chatishib ketgan. Agar hukmdor Demetriy tomonidan zarb qilingan tangalarga e'tibor bilan qaralsa, mahalliy xalq e'tiqod qilgan Naxid va yunonlarning Artemida xudolari bitta tangada tasvirlangan. Demak, Yunon-Baqtriya davlati davrida ham mahalliy xalqning, ham yunonlarning diniy qarashlariga e'tiqod qilish mayjudligicha qolgan.

Yerli xalq va yunon madaniyatining sintezlashib ketish hodisasi nafaqat tangalarda o'z ifodasini topgan, balki bu hol arxitektura yodgorliklari va kulolchilikda ham uchraydi.

Yunon-Baqtriya davlati hududida hukmron til – yunon tili, tarixi, adabiyoti va madaniyatini o'rgatishga mo'ljallangan va uni targ'ib qiluvchi ko'plab mакtablar, gimnaziyalar, teatrlar, kutubxonalar tashkil etilgan.

Ellinizm madaniyatining, shu jumladan, Yunon-Baqtriya davlatchiligi va madaniyatining rivojlanishida o'sha davr yunon-baqtriyaliklar dinlarining sintezlashuvi muhim rol o'ynagan. Ikkala xalq e'tiqod qilgan xudolarning tangalar va ibodatxonalarni bezab turuvchi suratlari hamda haykallar va boshqalarda birgalikda tasvirlanishi yunon madaniyatining hukmronlikni butunlay o'z ixtiyoriga olmaganligini ko'rsatadi. Masalan, arxetekturadagi yunoncha Ioniy va Korinf uslublaridagi ustunlardan foydalanish bilan birga ustunlarning muqarnas qismida qadimgi baqtriyaliklar, skif va yunonlar afsonalarida uchrab turadigan hayvon va odamlar qiyofasidagi ma'bud va ma'budalar qiyofasining ishlatalishi bu fikrimizning dalilidir.

Yunon-makedon istilochilar Baqtriya davlatini bosib olgach, jamiyat ma'naviy hayotida hukmronlikni o'z qo'llariga olishga intiladilar. Diodot, Yevtidem, Yevkradit, Antimax kabi so'nggi hukmdorlar Baqtriyani ellinlar yurtining bir bo'lagi deb hisoblaganlar. Baqtriyada yunoncha uslubdag'i shaharlarni barpo etadilar. Yunon-Baqtriya hududidagi eng yirik shaharlardan biri hisoblangan Oyxonum (Amu Aleksandriyasi)ga alohida e'tibor beradilar. Unda Yunoniston ruhini sezdirib turuvchi teatrlar, gimnaziyalar, kutubxona, Grek xudolari uchun ibodatxona, qasrlar, saroylar, haykallar bilan bezatilgan favoralarini quradilar.

Yoki yunonlar e'tiqod qiluvchi xudolar mahalliy xalq kiyimida, Zevs, Gelios kabi yunon xudolari baqtriyaliklar e'tiqod qiluvchi Mitra singari boshidan nur sochuvchi xudo shaklida tasvirlangan.

Aleksandr Makedonskiy baqtriyaliklarning madaniyati va san'atiga, urfodatlari, marosimlari, diniy e'tiqodlari va hatto, kiyim-kechagiga alohida e'tibor berish orqali mahalliy xalq va yunon istilochilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni bartaraf etishga, turli xalqlar qorishig'ini vujudga keltirish hamda yagona til va madaniyat birligini qaror toptirishga harakat qiladi. Natijada u saroyda mahalliy xalq udumlari va liboslarini joriy qiladi, mahalliy aholi bolalari uchun Yunon maktablarini tashkil etadi, aralash nikohga yo'l ochadi.

**Yunon-Baqtriya san'ati.** Yunonlar o'z san'atlarining hukmronligiga erishishiga harakat qildilar. Natijada mahalliy xalqning, ayniqsa, shahar aholisining doimiy ko'z o'ngida namoyon bo'lib turuvchi va yunoncha ruhni sezdirib turuvchi san'at turlari: arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'atga mahalliy xalqning diniy e'tiqodi va ruhiyatiga chuqurroq kirib borish maqsadida yunon xudolariga e'tiqod qilishni yoyishga alohida e'tibor berdilar, yunoncha uslub asosida qurilgan shaharlarni bunyod etdilar. Bu shaharlar jumlasiga hozirgi shimoliy Afg'oniston hududidagi qadimgi Oyxonum, hozirgi Tojikiston hududidagi qadimgi Saksanoxur va Taxtisangin, hozirgi O'zbekiston hududida qurilgan qadimgi Dalvarzintepa, shuningdek, Yerqo'rg'on Aleksandriya esxata (chekka Aleksandriya) va boshqa shaharlarni kiritish mumkin. Mazkur shaharlar arxitekturasida yunonlarning Ioniy va Korinfcha uslublaridan, bazalt ustunlar, ustunlarning muqarnas qismida akanf yaproqlari, palmetta tasvirlaridan keng foydalandilar.

Bu sa'y-harakatlar, birinchidan, mahalliy xalqning haykaltaroshligi, arxitekturasi, tasviriy san'ati va badiiy hunarmandchiligidagi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy xalq san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ellistik san'atning mahalliy xalq san'atiga ko'rsatgan ta'siri, eng avvalo, mahalliy san'atkorlarning ellinlar san'atidan andaza olishi, ya'ni unga taqlid qilishi shaklida (yuqori qismida haykalning bosh qismi o'rnatilgan, Zevs va Dionis haykallari tagliklari, Afrodita haykallarining topilishi), ikkinchidan, yunonlar san'atiga mahalliy san'atkorlarning ijodiy yondashuvlari shaklida (Gerakl, Afina va Nikalarning sopoldan yasalgan terrakota haykalchalari) ko'zga tashlanadi.

Yunon arxitekturasi uslublari binolarning tashqi ko'rinishlarida ham o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, binoning devor peshtoqlarida piramon (peshtoqda naqsh yoki bo'rtma haykalchalar)dan foydalanilgan. Masalan, Ko'hna Ayrитом shahri xarobalari o'rganilganda, bino peshtoqida ishlatalilgan 7 ta piramon topilgan. Bu piramonlarda qo'shnay, chiltor, ud, hind nog'orasi chalayotgan sozandalar, qo'llarida gulchambar, meva va idishlar ko'tarib ketayotgan yigit va qizlarning bo'rtma (relyefli) haykallari tasvirlangan.

Yunon-Baqtriya davlatida nafaqat arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'at taraqqiy etgan, balki teatr va musiqa san'atlari ham ancha rivojlangan. Bunga misol tariqasida Baqtriya hududidagi Oyxonum shahri xarobalari tagidan topilgan bir nechta teatr qoldiqlarini ko'rsatish mumkin. Bu teatrлarda yunonlar tragediyalari sahnalashtirilgan. Mahalliy aholiga tushunarli bo'lishi uchun tragediyalar namoyishida ko'proq «maskars» (niqob) va «mim» (so'zsiz harakat) uslublaridan foydalanganlar. Raqs, ko'zbo'yamachilik, masخارабозлик, akrobatik harakatlar va musiqa spektakllarning muhim elementlari hisoblangan.

Arnaliy bezak san'atida ko'proq afsонави ramzlardan foydalanilgan. Binoning muqarnas qismiga sherlar, yirtqich qushlar, burgut yoki arslon boshli, arslon gavdali bahaybat qanotli maxluq — grifonlar, idishlar sirtiga esa turli hayvonlar tasviri tushirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eramizdan avvalgi III asrdan to Kushonlar davrigacha bo'lgan uzoq davr davomida qadimgi Baqtriya madaniyatining rivoji bevosita ellistik madaniyat ta'siri ostida tadrijiy ravishda rivojlangan. Shu boisdan ham Baqtryada ellistik san'at namunalari yetuk darajaga ko'tarilgan.

#### **4-§. Qadimgi so'g'diyonaliklarning madaniyati, san'ati va diniy qarashlari**

Qadimgi So'g'diyona Baqtriya davlati bilan chegaradosh bo'lgan. U Markaziy Osiyoning madaniy hayotida salmoqli o'rin egallagan. Qadimgi So'g'diyona Zarafshon va Qashqadaryo havzalaridagi yerlarni o'z tasarrufiga olgan. So'g'dyonaning ijtimoiy hayoti va madaniyati haqidagi ma'lumotlarni Qadimgi yunon va rim tarixchilarining asarlarida: Haronning «Eron tarixi», Gerodotning «Tarix», Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi», Plutarxning «Qiyosiy hayotnomalar», Arrianning «Aleksandrning yurishi», Diodorning «Tarixiy kutubxona», Strabonning «Geografiya» asarlaridan olish mumkin. So'g'diyona eramizdan avvalgi VI-IV asrlarga kelib ahamoniylar davlati tasarrufiga kirgan. Eramizdan avvalgi IV asr o'talariga kelib so'g'd yerlarini Aleksandr Makedonskiy istilo qilgan.

Qadimgi So'g'dyonaning Maroqand, Kesh, Buxoro, Poykand, Varaxsha kabi ko'pgina shaharlari «Buyuk ipak yo'li» ustida joylashgan bo'lib, 25 asr mobaynida Markaziy Osiyoning Sharqu G'arb bilan savdo-sotiq ishlarini olib borishda, xalqaro aloqalarni mustahkamlashda va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Qadimgi Afrosiyob (Maroqand) So'g'dyonaning moddiy va ma'naviy madaniyati markazi hisoblangan.

So'g'diyona madaniyati A.Makedonskiy bosqiniga qadar ikki yo'nalishda: birinchisi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq xalqlarning madaniyati; ikkinchisi, cho'l va adirlarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarimko'chmanchi aholi madaniyati shaklida rivojlangan.

A.Makedonskiy bosqini arafasida So'g'diyona aholisining kattagina qismi chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, Zarafshon va Qashqadaryo bo'yillarda yashovchi aholi dehqonchilik madaniyatini rivojlantirganlar. Aholining asosiy mashg'ulot turlari ular tomonidan yaratilgan amaliy bezak san'atida ko'zga tashlanadi.

Buni qadimgi Afrosiyob xarobalaridan topilgan gemma (sirtiga xat, naqsh yoki surat o'yib ishlangan tosh)lardagi suratlar A.Makedonskiy istilosigacha qadimgi so'g'diyonaliklar san'atining asosiy mavzularini ko'rsatadi. Gemmalarning birida yoy otuvchi jangchi (o'troq xalq san'ati), ikkinchisida bir tomoniga bo'yniga yoy o'qi sanchilgan serka, orqa tomonida esa qanonli buqa tasviri (chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarimko'chmanchi aholi san'ati) bu fikrimizning dalili bo'lishi mumkin.

Tarixchi olimlarning ta'kidlashlaricha, A.Makedonskiy bosqini qadimgi So'g'diyona madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Lekin ellinlar madaniyatining ta'siri Baqtriya madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirchalik bo'limgan. Ellinlar davrida zarb qilingan tangalar, yunonlarga taqlidan yaratilgan buyumlar va idishlarni hisobga olmaganda, So'g'diyona hududidan birorta ellinlar uslubida qurilgan shahar xarobasi topilgan emas.

Shuningdek, qadimgi So'g'diyalar madaniyatining qay tarzda rivojlanganligini So'g'diyona hududidagi madaniy jihatdan taraqqiy etgan Afrosiyob, Navtak-Yerqo'rg'on, Panjikent kabi shaharlar xarobalaridan topilgan materiallar, tasviriy va amaliy bezak san'ati namunalari hamda terrakota haykalchalariga qarab aniqlash mumkin.

Afrosiyob xarobalarini o'rganish natijasida topilgan tangalar, idishlar, terrakota haykalchalari va gemmalarda tasvirlangan yunon ma'budalar suratlari hamda ellinlar bosh kiyimida tasvirlangan jangchilar tasviri bu shahar ellistik madaniyatning markazi bo'lganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Navtak (Yerqo'rg'on)da olib borilgan arxeologik izlanishlar Qashqadaryodan suv ichgan bu shaharda nafaqat hunarmandchilik, balki tasviriy va amaliy bezak san'atlari ham ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Tarixchi olimlar R. Sulaymonovning «Qadimgi Naxshab» va P. Ravshanovning «Qashqadaryo tarixi» kitoblarida yozilishicha, shahardagi ko'plab binolarning ichki devorlari tasviriy san'at namunalari bilan bezatilgan. Shuningdek, bu shahar xarobalaridan ma'budalar va ayollarning kichik sopol haykalchalari topilgan. Haykalchalarning tashqi qiyofasi va kiyimlari qadimgi So'g'diyona va Baqtriya o'rtaida o'zaro madaniy aloqalar mustahkam bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki Yerqo'rg'on (So'g'diyona) va Xolchayon (Baqtriya)dan topilgan sopol haykalchalar kiyimlari bir-biriga juda o'xshash bo'lgan.

Yerqo'rg'on bino devorlari javon va ustunlariga tushirilgan tasviriy san'at namunalari qadim musavvirlarimizning didi va badiiy mahorati ancha baland bo'lganligini ko'rsatadi.

So'g'diyona tarkibidagi bosh shaharlardan biri bo'lgan Panjikentda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida bir necha ming bronzadan yasalgan so'g'd tangalar, naqsh bilan bezatilgan sopol idishlar, sopol haykalchalar topilgan. Ibodatxona, saroy va aholi turarjoylari devorlari sujetli suratlari bilan bezatilgan. Suratlarda boy-badavlat kishilarning bazmlari, diniy marosimlar, ov va jang manzaralari, sport musobaqalari va hatto dehqonchilikka oid (hosil taqsimoti) suratlari aks etgan. Yog'och haykallar (raqqosalar haykallari) va o'yma naqshlar yasashning asosiy materiallaridan biri bo'lgan.

Yog'ochni o'yib, relyefli shaklda ishlangan tasvirlarda taxtda o'tirgan hukmdor, aravada o'tirgan kishi, sher mingan ayol, sher ovlayotgan otliq, ot choptirib ketayotgan kishi suratlari aks etgan.

Shuningdek, Panjikentdan ko'plab devoriy suratlar qoldiqlari topilgan bo'lib, bu tasvirlar qadimgi So'g'diyonada rang-tasvir ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, qadimgi So'g'diyonada nafaqat tosh va sopol bo'laklariga, shuningdek, hayvon suyaklariga surat tushirish san'ati ancha rivojlangan. Masalan, Qo'shrabod hududidagi qadimgi Qo'rg'ontepsha shaharchasidan ikki dona hayvon kuragiga tushirilgan surat fikrimizning dalili bo'la oladi. Birinchi suratda jang tasviri (bataliya), ikkinchi suratda esa ov jarayoni tasvirlangan.

**Qadimgi so'g'diyonaliklarning diniy qarashlari.** Qadimgi so'g'diyonaliklar ham boshqa xalqlar singari dastlabki davrlarda ota-bobolar va o'tganlarning ruhlariga sig'inishib, hayvon va tabiat hodisalarini ilohiylashtirganlar, magiya va shomonizmga e'tiqod qilganlar. Tabiat hodisalarini ilohiylashtirish dastlab Quyoshga, so'ngra, olovga sig'inishga olib kelgan. Natijada otash-olov diniy e'tiqoddagi yagona obyektga aylangan. Unga atab yirik-yirik va hashamatli ibodatxonalar qurbanlar. Arxeologlar tomonidan Qo'shrabod hududidagi qadimgi Qo'rg'ontepsha shaharchasi xarobalari o'mi o'rganilganda u yerdan zardushtiyarning yirik ibodatxonasi qoldig'i topilgan. Ibodatxona tashqi ko'rinishidan besh zinali bo'lib, eng tepe qismida tutun chiqib turishi uchun mo'ri qurilgan. Ibodatxona zalining o'rta qismida muqaddas olov yonib turgan. Beshinchi zina atrofida yorug'lik va havoning almashinib turishi uchun darchalar qoldirilgan. Zalning tepe qismi yog'och bilan yopilgan bo'lib, shift qattiq qotishma bilan suvab qo'yilgan. Zalning bir burchagida muqaddas olovdan chiqib turadigan kul to'planadigan maxsus joy, boshqa tomonida sopolidan yasalgan isiriqdon, ya'ni muqaddas o'simlik tutatiladigan sopol idish, yo'lakdag'i tokchalardan tovuqlarning suyaklari qoldiqlari topilgan.<sup>1</sup>

O'rta asr arab yozma manbalarida qadimgi So'g'diyonada mavjud bo'lgan otashxona - ibodatxonalar mavjud bo'lganligi haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalarda otashparastlikka oid ibodatxonalar «otashdon», «otashkada», «otashxona» sifatida, otashparastlar esa «Mug'», «ma'jush» sifatida islom yoyilgan paytda ham saqlanib qolgan muqaddas olov bilan bog'liq bo'lgan marosimlar haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, qadimgi So'g'diyonaning katta qismida, ayniqsa, Buxoro vohasida Siyovushga atalgan bayram – xotirlash kuni o'tkazilgan. Bu kun ertalab zardushtiylar ibodatxonasiga erkaklar xo'roz, ayollar esa tovuq keltirganlar.

Mazkur bayram «Qizil gul sayili» («Sayili guli surx») deb atalgan. Qizil gul (lola)larning vujudga kelishini quyidagi ikki xil afsonaga olib borib taqaganlar. Birinchi afsona Beruniy ta'kidlaganidek, Xorazmshohlarning affsonaviy ajodi Siyovushga borib taqaladi. Go'yo Siyovush jodugar qaynotasi Afrosiyob

<sup>1</sup> Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровницы среднего Востока. – Т. 1987.

tomonidan o'ldirilgan. Uning qoni tomgan joylardan qizil gullar o'sib chiqadi. Bu afsona Firdavsiyning «Shohnoma» asarida quyidagicha tasvirlangan:

*... Shahar va lashkarlardan nari o'tishdi  
Siyovushni sudrab dashiga yetishdi .....*

*... Oyoq - qo'lin bog'lab, qo'y kabi so'ydi,  
Tomog'i tagiga zar dashsha qo'ydi.*

*Sarv boshini ayladi tanidan judo,  
Toza qon dashshaga to'ldi, benido.*

*Buyurilgan joyga dashshani jallod,  
Olib borib, to'kdi, pok xunni bedod.*

*Ajabo, dashshani qay yerga qotil,  
To'kkан bo'lsa, undan o'sib chiqdi gul.*

*Sizga aytib beray uning nishonin,  
Bu giyohning nomi, «Siyovush qoni».*

Keyinchalik bahorda tabiatning uyg'onishini Siyovushning gul-chechak bilan qayta tirlishi ramzi sifatida qabul qilganlar.

So'g'diyalar o'rtasida Siyovush obraziga hurmat shunchalik baland bo'lganki, hatto uning obrazini tabiatning tirlishi va o'lishi xudosi darajasiga ko'targanlar.

Tarixchi Muhammad Narshaxiy ham o'zining «Buxoro tarixi» asarida Buxoro atrosida mug'larning 700 atrofidagi qal'a-ko'shklar va otashparastlarning ibodatxonalar bo'lganligini yozadi. Narshaxiy Buxoroda butparastlarning bozori Siyovush kulti bilan bog'liq bo'lgan. Butlar har yili yo'qotilgan va uning o'rniغا xudoning yangitdan tirlishi ramzi sifatida yangisi yaratilgan. Narshaxiyning yozishicha, «duradgorlar va naqqoshlar u yildan bu yilgacha but yo'nib, belgilangan kunda ... bozorga keltirib sotishar va xalq uni sotib olishar ekan. Har qachon but yo'qolsa yoki sinsa yoki eskirsa... boshqasini sotib olishar va eskisini tashlar ekanlar».

So'g'd yozuvi eramizdan avvalgi I ming yillikning oxirlarida oromiy yozuvi ta'siri ostida vujudga kelgan bo'lib, asosan 25 harfdan iborat bo'lgan. So'g'd yozuvi savdo-sotiq bilan shug'ullangan hududlarda keng tarqalgan. So'g'd yozuvi namunalari Sinszyan, Mug'qal'asi, Afrosiyob, Toshkent, Quva va boshqa joylardan topilgan.

So'g'd tili arablar istilosigacha O'rta Osiyodagi asosiy tillardan biri hisoblangan.

So‘g‘dlar nafaqat savdo ishlarida mashhur bo‘lganlar, balki o‘zlarining san’atlari bilan ham «Buyuk Ipak yo‘li» tarmogi bo‘yicha qator mamlakatlarga yetib borgan, ayniqsa, Xitoyda mashhur bo‘lgan. Xitoy manbalarida ko‘rsatilishicha, xitoyliklarning barcha bayramlari va imperator saroyida tashkil etilgan tantanalarda so‘g‘diyonalik san’atkorlar faol ishtirot etganlar.

Umuman olganda, qadimgi so‘g‘dlar O‘rta Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyotiga, boshqa xalqlar va mamlakatlar bilan o‘zaro madaniy aloqlar o‘rnatishda juda katta rol o‘ynagan va milliy madaniy qadriyatlarimizning shakllanishiga o‘z hissalarini qo‘sghanlar.

### **5-§. Avesto — ajodollarimizning qadimgi bebahoyozma yodgorligi**

Diniy dunyoqarashning murakkablashuvi natijasida tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarashlar shakllana boshlagan. Insonga foydasi tegadigan, inson uchun hayot manbayi bo‘lgan hodisalarning o‘z xudolari yoki homiyilar mayjud degan tushunchalar vujudga kelgan.

Eramizdan avvalgi II ming yillik oxirlariga kelgach, Eron va Markaziy Osiyoda Quyoshga sig‘inish ancha takomillashib, uning zaminida insonga quyoshdek yorug‘lik va issiqlik in‘om etuvchi olovga sig‘inish – otashparastlik e‘tiqodi vujudga keladi. Olovni quyoshning yerdagi o‘g‘li, degan tasavvurlar chuqurlashadi va Quyosh xudosi Mitra, suv xudosi Anaxita va boshqalarga e‘tiqod qilish otashparastlik e‘tiqodiga qo‘shilib ketadi. Eron va Markaziy Osiyoda otashparastlik dini – zardushtiylik hukmron dinga aylanadi.

Zardushtiylik dinining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat? Birinchidan, bizningcha, u kishilarning tabiat hodisalari, mavsumlarning, kecha va kunduzning almashinuvi hamda uning sabablarini bilib olishga bo‘lgan intilishlari natijasida paydo bo‘lgan. Kishilar qadimda tabiat kuchlari oldida ojiz bo‘lganlar. Ularning turmushi, kiyim-kechak, turarjoylari ham, oziq-ovqat ishlab chiqarishi ham nochor holda bo‘lgan. Kishilar tasavvuriga ko‘ra bahordan boshlab yorug‘ kunlar kela boshlagan, ya‘ni kunlar isib, tabiatda ezgulik ko‘paya borgan, o‘t-o‘lanlar, qurt-qumursqalar, hayvonlar uyg‘ona boshlagan, butun tabiat jonlana borgan. Bularning barchasini ilohiy kuch – Quyosh xudosi Ahuramazda boshqaradi, deb o‘ylashga olib kelgan. Ko‘pgina falokatlar, o‘lim, kasallikning xuruj qilishi esa kechalari ro‘y bergen. Natijada inson va boshqa tirik jonzodlarga zarar keltiruvchi kuchlar haqidagi tasavvurlar ham shakllangan. Demak, sovuq kunlar va qorong‘ilik kishilarga ko‘plab kulfatlar keltirgan. Shu sababli kishilar o‘zlariga zarur bo‘lgan issiqlik va yorug‘lik manbayi hisoblangan quyoshga va uning yerdagi zarrasi deb tasavvur qilingan olovga topinganlar.

Ikkinchidan, kishilar qo‘rquv va o‘z ojizliklari o‘rmini to‘ldirish uchun,

bir-biriga qarama-qarshi kuchlar va ularning xudolari haqidagi tasavvurlarga ega bo'la borganlar. Zardushtiyalar ezgulik, yaxshilik, yorug'lik, issiqlik, tiriklik, adolat xudosi Ahuramazda va unga qarama-qarshi kuch — yomonlik, yovuzlik, qorong'ilik, sovuq, o'lim vaadolatsizlik xudosi — Axriman haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirganlar.

Uchinchidan, mahalliy qabilaviy dinlar endigina shakllanib kelayotgan davlatchilik asoslariga, jamiyatning ham moddiy, ham ma'naviy taraqqiyotiga to'sqinlik qila boshlagan edi. Turli qabilalar o'rtasida urush-janjallar ko'payib ketgani uchun qabilalarni birlashtirishga xizmat qiluvchi yangi mafkura — dinga zaruriyat paydo bo'lgan. Bu vazifani endigina shakllanayotgan va birmuncha tizimga tushib ulgurgan zardushtiylik dini bajara boshlagan.

Zardushtiylik ta'limoti va e'tiqodlar asosi uning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etiladi.

«Avesto» eramizdan avvalgi II ming yillikning oxirlarida vujudga kela boshlaydi. Shuningdek, bu yozma madaniy yodgorlik qadimgi Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va maishiy hayoti, tili, yozuvi, xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot beruvchi asosiy manbadir. «Avesto» olimlarning taxminlariga ko'ra, eramizdan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida yaratilgan.

«Avesto» ko'pchilik manbalarda 21 nask-kitob (qism) dan iborat bo'lgan deb ta'kidlanadi. Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo suvi bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashkadalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarini o'ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun «Avesto»ning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Avesto o'ttiz nask-(qism) edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasini qoldi», — deb yozadi.

Rivoyatlarga ko'ra, «Avesto»ning uch nusxasi bo'lib, bir nusxasini Aleksandr Makedonskiy kuydirtirib tashlagan, ikkinchi nusxasining kerakli joylarini (tibbiyot, geografiya, falsafa va astronomiyaga oid qismlarini) tarjima qildirish uchun Yunonistonga jo'natgan, yana bir nusxasini bu dinning o'ta sodiq kishilari saqlab qolganlar. Lekin bu nusxa ham uzuq-yuluq holatda sosoniyalar davrigacha (eramizning III-VII asrlari) yetib kelgan. Bu davrda Eronda zardushtiylik boshqa dinlarga nisbatan rasmiy din vazifasini bajargan. Shu boisdan ham sosoniy hukmdorlar uzuq-yuluq holatda yetib kelgan nusxani kerakli qo'shimchalari bilan to'ldirishga buyruq bergenlar. Keyinchalik to'ldirilgan nusxaga sharhlar yozilgan va «Zend-Avesto» deb yuritila boshlangan.

Bizgacha yetib kelgan «Avesto» quyidagi 4 qismdan iborat:

1. «Yasna» («sajda», «ta'zim») — xudolar va olovning muqaddasligi, turli xil marosimlar va ursf-odatlar haqidagi qism. Bu qismda olovning oliy xudo Ahura (ulug') — Mazda (donishmand) izmidaligi, olovning insonning gunohkor yoki gunohsiz ekanligini aniqlab beruvchi xususiyati kuylanadi;

2. «Yasht» – Ahuramazda, yer, quyosh, osmon (havo) va suv hamda insonning ma'naviy dunyosi (ma'rifati, axloqi va iymon-e'tiqodi)ni madh etuvchi alqovlar;

3. «Visparad» – ma'budlarni sharafllovchi duolar va ibodat (namoz) payti ularga qarata aytildigan murojaatlari;

4. «Videvdod» – Ahuramazda va Zardushtning savol-javoblari, yomon ruhlar va devlarni yengish yo'llari va gunohlardan poklanish qoidalari.

«Avesto» muqaddas kitob sifatida eramizdan avvalgi 1 ming yillik o'talariga kelib shakllangan. Bu asar, birinchidan, insoniyat tomonidan yaratilgan buyuk yozma madaniy yodgorlik bo'lib, o'zida falsafiy, tarixiy, geografik, etnografik, folkloristik va diniy qarashlar tizimini mujassamlashtirgan o'tmish ajdodlarimizning nodir yodgorligi, ikkinchidan, avlod-ajdodlarimiz tarixidagi birinchi mukammal diniy e'tiqod manbayi, uchinchidan, bu din islam. nasroniy, yahudiylik, mitraizm va monizm kabi ko'plab dinlar, ularning marosimlari, diniy e'tiqodlari manbayi vazifasini bajarganligi sababdan ham uning umumjahon madaniyatidagi o'rni, olam haqidagi tasavvur va tushunchalariga batafsil to'xtalib o'tish joizdir. Eng avvalo, «Avesto» otashparastlik axloqining asosini: a) ezgu fikr; b) ezgu so'z; d) ezgu amal kabi tamoyillardan iboratligini ko'rsatadi.

Ahuramazda – oliy, bosh xudo. U yomonlik xudosi Axrimanga qarshi kurash uchun o'ziga yordam beruvchi muqaddas va ezgu ruhlarni yaratadi. U dastlab o'zining eng yaqin yordamchilari hisoblangan oltita muqaddas ruh – Amesha spentalarni yaratadi. Bu muqaddas ruhlar quyidagilar: 1. Voxu Manna (Baxman) – Yaxshi niyat (Ezgu ong). 2. Asha Vaxishta (Ardibixsh) – O'ta Adolatilik (Oliy haqiqat). 3. Xshatra Varya (Shahrivor) – Orzu etilgan Qudrat (Matlub Qudrat). 4. Spenta Armaiti (Isfandarmuz) – Diyonatlari Avliyolik (Matlub Tavoze). 5. Xaurvata (Xurdod) – Yaxlitlik (Butunlik). 6. Ameretat (Murdod) – Mangulik.

Mazkur oltita muqaddas ruhning har biri moddiy dunyodagi olti xil hodisaning homiylaridir, deb tasavvur qilingan. Masalan, Baxma – hayvonlarning; Ardibixsh – olovning; Shahrvor – ma'danlarning; Isfandarmuz – yerning; Xurdod – suvning; Murdod – o'simliklarning homiylari deb tushunilgan. Ahuramazda insonlarga rahnamolik qilishni Zardushtning o'ziga buyurgan, degan tasavvurlar mavjud bo'lgan.

Avestoda ta'kidlanishicha, haftaning har bir kuni ham ana shu yettita homiy nomi bilan yuritilgan. Shuningdek, «Avesto»da Ahuramazdaga yordam beruvchi boshqa kuchlar va Axrimanni qo'llab-quvvatlovchi yovuz ruhlarning joylanishi batafsil tarzda berilgan. Masalan, Ahuramazda tarafida turib yovuz ruhlarga qarshi kurashuvchi boshqa ezgu ruhlar quyidagicha joylashtiriladi.

Olti Amesha spentalardan so'ng quyiroqda Yazat (keyinchalik Ezot)lar joylashgan. Yazatlar butun olamni yovuz ruhlardan himoya qilib yurishadi. Yazatlar ikki guruhga – Ruhiy va Dunyoviy Yazatlarga bo'linadi. Ruhiy

Yazatlarni Ahuramazdaning o'zi boshqaradi, dunyoviy yazatlarni esa Zardusht boshqaradi, deb hisoblaganlar. Ruhiy yazatlar vafot etgan yaxshi kishilarning ruhlari bo'lib, ular ko'zga ko'rinas olam va unda joylashgan ezgu kuchlarni qo'riqlaydilar, tirik odamlarning xonadoniga xuruj qiluvchi yomon odamlar (vafot etgan yaramas odamlar)ga qarshi kurash olib boradilar. Dunyoviy yazatlar esa tirik odamlar, ya'ni doimo insoniyat, tabiat va hayvonot olamini asrab-avaylashga xizmat qiluvchi ashavanlar (haqiqat va to'g'rilik uchun kurashuvchi tirik odamlar) yaxshi odamlarning ichiga joylashib olib, adolat, haqiqat, yaxshilik va ezungullik uchun kurash olib boruvchi ko'zga ko'rinas kuchlardir.

«Avesto»da kosmogonik tasavvur o'ziga xos tarzda berilgan. Makondagi barcha hodisalar o'ziga xos tarzda tushuntiriladi. Barcha hodisalar bir-biriga qarama-qarshi kuchlarning ayovsiz kurashi natijasi, deb hisoblanadi. Bu kurashda yaxshilik va ezungullikka qarshi yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi.

Zardushtiylik kosmogonikasiga ko'ra ezgu va yovuz ruhlar bir-birlari bilan ayovsiz kurash olib boradilar. Ezgu ruhlarning har biri o'z himoyachilariga egadirlar. Masalan, Vratragna – (keyinchalik Bahrom) momaqaldiroq xudosi. Unga quyosh nurini to'suvchi bulut - Vratragna qarshi kurash vazifasi yuklanadi. Vratragna o'zining chaqmoq (o'q)lari bilan quyosh nuri va issiqligini to'suvchi iblis Vratrani o'ldiradi va dunyoga yorug'likni qaytarib beradi.

Dunyodan hayvonlar va qush qiyofasidagi sirli, ezgu va foydali maxluqlar ham joy olgan. Masalan, afsonaviy Vourukasha qo'lida uch oyoqli, oltin shoxli va olti ko'zli Hara deb nomlanuvchi eshak yashaydi. U o'zining oltin shoxlari bilan dunyodagi barcha zararli narsalar (zararli hasharotlar va mikroblar)ni mahf etadi. Ranka deb nomlanuvchi orolchada ilohiy Xaoma o'simligi o'sadi. O'n minglab qurbaqalar qiyofasidagi iblislar Xaomani o'g'irlash uchun orol tomon intiladilar. Lekin daryoda yashovchi Qara ismli sirli (ilohiy) baliq ularning orolga o'tishiga yo'l qo'ymaydi, ularni o'ldirib turadi.

Vourukasha nomli ko'lda Xabayosh deb ataluvchi ho'kiz yashaydi, uni Gopadshoh (ho'kiz odam) qo'riqlaydi. Uning vazifasi tabiatni tiriltirib (yangilib) hamda Xabayosh (ho'kiz)ni qiyomat qoyimgacha qo'riqlab turishdan iborat. Chunki ho'kiz muqaddas ho'kiz bo'lib, qiyomat kuni, ya'ni o'lganlar tiriladigan kuni uning yog'idan samoviy ovqat tayyorlanadi, yog'idan bir tomchidan o'lganlarni qayta tiriltirish uchun foydalilanildi, deb tasavvur qilingan.

Karishptar nomli qush o'z tilida doimo muqaddas gimn (alqov)larni kuylab turadi va odamlarga ilohiy-ruhiy kuch baxshida etadi. Ularni yashashga va iblislar (yomon odamlar)ga qarshi kurashga ilhomlanТИRIB turadi.

Parodarsh (kelajakni ko'ruvchi) nomli qush o'zining qichqiriqlari bilan iblis ruhlar (ishyoqmaslik, dangasalik va uyqu)ni quvib hamda yovuz kuchlarni qo'rqtib, otashparastlarning uyini ulardan himoya qilib turadi. Fikrimizcha,

bu xo'roz bo'lishi mumkin. Chunki ko'pgina xalqlarning og'zaki ijodida jinlar va shaytonlar uning qichqirig'idan qo'rqliki haqidagi afsonalar, rivoyatlar, ertaklarning mavjud ekanligini bilamiz.

Axriman ham o'zi yaratgan yovuz kuchlar bilan ezgu kuchlarga qarshi kurashadi. Axriman o'zining yordamchilari bilan birga, eng avvalo, fazoviy kenglik (makon)ni toraytiradi: U ko'zga ko'rinnmas kuch sifatida tasavvur qilinadi. Axriman o'z yovuz kuchlari bilan birligida Zardusht homiyligidagi insonlarga hujum qilib turadi va insoniyatni Ahuramazda izmidan chiqarib, uning qo'li bilan butun dunyoni xarobaga aylantirishga intiladi. Axriman insonga hujum qilganda, uning ko'ziga keng dunyo torayib ko'rindi, yuragi siqilib, g'amginlik bilan chulg'anadi va dili xufton bo'ladi, deb tasavvur qilingan. Axriman, ayniqsa, odamlar o'rtasiga nifoq solishga, odamlar orasida yolg'onne kuchaytirishga, ularni yo'ldan ozdirishga harakat qiladi. U bu ishlarni o'zining yordamchilari — iblislar, shaytonlar va yovuz ruhlar orqali bajaradi. Shu sababli uning kuchi benihoya katta, deb hisoblangan.

Axriman Ahuramazdaga qarshi ibislarning bitmas-tuganmas kuchidan foydalanadi. Axriman ham Ahuramazda singari o'zining yaqin yordamchilari — olti Dayva (yovuz qiz)ni yaratadi.

Akamana (yovuz uy), Taurvi (so'lish, qovjirash), Zarik (o'lim), Ayshma (quturish, adovat)lar dayvalar hisoblanib, doimo Axrimanga hamrohlik qiladilar. Ular ham odamlarga hujum qilib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yishga intiladilar. Masalan, Ayshma adovat, xusumat, zo'rlik va qahr-g'azabning horiysi hisoblanib, urush-janjal, kelishmovchilik, nifoq, mastlik, mushtlashuvlarni ilhomlantirib turadi.

Shuningdek, Axrimanga yordam beruvchi, birmuncha kam kuchga ega bo'lgan deva (iblis qiz)lar ham mavjuddir. Masalan, Araska (hasad), Uda (vaysaqi), Akatasha (sinchkovlik), Bushyansta (erinchoqlik), Push (xasislik), Zmaka (sovuv bilan bog'liq bo'lgan turli azoblar) shular jumlasiga kiradi. Ular odamlarning ichiga kirib olib, birovga nisbatan hasadgo'ylik qilishga, vaysashga, birovlarning ichki sirini bilishga, erinchoq va ishyoqmas bo'lishga, xasislik qilishga majbur qilarkan.

Deva (iblis qiz)larning yovuz ishlarni amalga oshirishlarida ularga Drujlar («druj» so'zi yolg'on, aldov degan ma'nolarni angalatadi), ya'ni ayol timsolidagi badjahl maxluqlar va Nasa (yuqumli kasalliklar tarqatuvchi mikroblar) yordam beradilar.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, Nasa quyidagicha tasvirlanadi: inson vaft etgach, Nasa inson jasadidan joy oladi. Agar tirik odam jasadga yaqinlashsa, Nasa unga zarar keltiradi, unga kasallik va hatto o'lim olib keladi, deb tasavvur qilingan. Zardushtylarning tasavvuricha, Nasa faqat itdan qo'rqrat, itning qarashiga dosh bera olmas emish. Shu sababli zardushtiylar odam o'lgandan

keyin uning jasadi ustiga itni yetaklab olib kelishib, jasadga qaratganlar. Bu marosim «sakdid» deb atalgan. Shundan keyingina boshqa marosimlar o'tkazilgan. Demak, zardushtiylarning jasadni to'g'ridan to'g'ri yerga ko'mmaganliklarining sababi birinchidan, odam jasadini harom deb bilganliklarida bo'lsa, ikkinchidan, jasadga kirib olgan Nasalar zardushtiylar uchun muqaddas hisoblangan Yerga zarar yetkazadi, degan tushunchadan kelib chiqqan. Zardushtiylar o'lган kishining jasadini maxsus ko'tarmaga olib borayotganda eng oldinda itni yetaklab borganlar. Maxsus itlar va o'laksaxo'r qushlar jasadni suyagigacha yeb bo'lmagunlaricha dahmada saqlaganlar. Undan so'nggina o'lган kishining suyaklarini maxsus idishlar – sompsondan qilingan ossuriy (ostadon)larga solishib, maxsus bostirmalarda saqlaganlar.

Axrimanga yordam beruvchi yovuz kuchlar – iblislardan yana biri Parika (pari) deb nomlangan. Parika (pari)lar ko'pincha sohibjamol qiz yoki ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Ular asosan kishilarni avrash, sehrlash orqali aqldan ozdirish yoki halok qilishga intilganlar. Parikalar ko'proq kechalarini yoki tashlandiq qorong'i uylarda yolg'iz kishilar ko'ziga ko'ringan. Shuningdek, parilar tabiatning turli xil hodisalariga ta'sir ko'rsata oladi, deb o'ylaganlar. Masalan, Mush nomli pari oyni o'g'irlab, olamni qorong'ilikka botiradi. Dujeriya nomli pari esa qurg'oqchilik olib keladi, degan tasavvur mayjud bo'lgan. Bizningcha, hozirgacha respublikamizning janubiy hududlarida o'tkazilib kelinayotgan «Sust xotin», «Suv xotin» nomli yomg'ir chaqirish marosimining mayjudligi ham ana shu tasavvurlarga borib taqaladi.

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish joizki, zardushtiylikdagi «Pari» - «Parika» atamasida ikki xil ma'no mayjud bo'lishi mumkin. Nur va Ezgulik, Zulmat va Yovuzlik o'rtasidagi kurashda parilar ham o'zaro kurash olib boradilar. Ahuramazda tarafida turuvchi parilar (parixonlar) jumlasiga baxshi, qushnoch, folbin va kinnachilar kirib, ularning asosiy vazifasi odamlar tanasiga kirib olgan yomon illatlar va jinlarni haydar chiqarishdan iboratdir.

Aximan tarafida turuvchi parilar tashqi qiyoferda o'ta go'zal bo'lib, ularning asosiy maqsadi otashparastlarni yo'ldan urish va halok qilishdan iboratdir. Ular, asosan, odamlarni suvg'a qarq qilib yuboruvchi «suv parisi» yoki cho'lga boshlab borib suvsizlikdan halok qiluvchi turli ko'rinishdagi (suv, bog'-rog', aholi yashaydigan joy, o'rmonzor va sh. k.) sarobdir.

«Avesto»dagi kishining tinch va osoyishta hayot kechirishi, o'zi uchun uy-joy qurib olishi, oilali bo'lish, mol boqib ko'paytirish, yer haydar don ekish va mollarni boqish uchun o't ekishi va yig'ishi, mevali daraxtlar o'tqazish, suvsiz yerlarga suv chiqarish. yangi yerlar ochish ta'kidlab o'tiladi. «Avesto» orqali singdirilgan ushbu yumushlar hozirgi kunimizgacha ruhiyatimizda saqlanib qolining.

Aximan Ahuramazdaga qarshi kurashda har xil Xrafstra (zararkunanda)lardan – ilonlar, pashshalar, qurbaqalar, chivinlar, chayonlar, chumolilar va turli-tuman mikroblardan ham foydalanadi. Yirikroq hayvonlardan bo‘ri – Axrimanning yordamchilaridan biri bo‘lgan. Shu sababli bo‘ri doimo kishilar uchun oziq va yaqin yordamchi (ishchi kuchi) hisoblangan hayvonlarni – ot, eshak, sigir, qo‘y va boshqa hayvonlarni ovlaydi. Ahuramazdaga yaqindan yordam beruvchi it esa bo‘riga qarshi qo‘ylgan. Olov va chiroq bor joyga bo‘ri yaqinlasha olmagan.

«Avesto»da ta‘kidlanishicha, Ahuramazda tomonidan belgilangan 12000 yil yakunlangach, yorug‘lik va qorong‘ilik o‘rtasidagi oxirgi kurash bo‘lib o‘tadi. Ezgu va yovuz kuchlarning kurashida (uchinchi 3000 hamda to‘rtinchi 3000 yillikning birinchi yarmida) Aximan tarafdarlarining qo‘li baland keladi. Odamlar o‘rtasida ham yovuz kuchlarga yordam beruvchi tubanlashgan kishilar soni oshib ketadi. Axloqsizlik va ma’naviy tanazzul kuchayadi. Xotin erni, o‘g‘il otani, uka akani tan olmay qo‘yadi. Odamlar tabiatga yovuzlarcha munosabatda bo‘la boshlaydilar. Iymon-e’tiqod susayib, yovuzlik kuchayadi. Tabiatning muvozanati buziladi. Yerga eritilgan bronza yog‘iladi, tog‘lar, yer va yer osti dunyosi-barchasi barobar yonadi. So‘ngra halok bo‘lgan butun olam va barcha o‘lganlar qaytadan tirladi. Abadiy hayot boshlanadi. Samoviy Chinivot ko‘prigidan o‘tolmasdan do‘zaxga tushib ketganlarning barchasi gunohlaridan forig‘ bo‘lib, do‘zaxdan qutulib chiqadilar.

Zardushtiylik falsafasida, birinchidan, butun olam ikkiga bo‘linib, bir-biriga qarama-qarshi kuchlar, qarama-qarshi harakatlар, tasavvurlar va boshqalarning doimiy harakati, olam hodisalarining oddiydan murakkablikka rivojlanishi (olamning to‘rt bosqichda yaratilishi), bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan kuchlar – Ahuramazda va uning yordamchilari, Aximan va uning tarafdarlarining quyidan yuqoriga, yuqoridan quyiga qarab joylashtirilishi, qarama-qarshi kuchlarning to‘xtovsiz va ayovsiz kurashishi talqinida beriladi. Ikkinchidan, zardushtiylik falsafasida to‘rt unsur – yer, havo, suv, olov e’zozlanadi. Suv va olovga atab qurbanliklar berilgan. Masalan, suvgaga sut va sharbat tomizilgan hamda suvning doimiy sofligi uchun idishga barg tashlab turilgan. Olovga esa qurbanlik sifatida quruq o‘tin, hayvon yog‘i va xushbo‘y hid taratuvchi giyoh tashlangan.

Yerni e’zozlashib, unga o‘lgan kishilarning jasadi ko‘milmagan, yerga in qo‘yuvchi barcha jonivorlar Axrimanning yordamchilari sifatida talqin qilingan. Havoni har qanday badbo‘y hid bilan bulg‘ash qoralangan.

Demak, zardushtiylik falsafasiga ko‘ra, olamning asosini to‘rt unsur: suv, olov, tuproq va havo tashkil etadi, degan tushuncha ilgari surilgan.

Zardushtiylikda dehqonchilik, yer va unga ishlov berishga alohida e’tibor beriladi. Muqaddas matnlarda kimki bekor yotgan (o‘lik) yerga suv chiqarib ishlov bersa, u keyingi hayotida mukofot oladi, deyiladi. Hosil berib turgan

yerga ishlov bermaslik, sug'orish tizimini buzish va yerni cho'lga aylantirish katta gunoh hisoblangan, buning uchun Ahuramazda gunohkorni qattiq jazolaydi, deb ta'kidlanadi.

Ko'pgina harakatlar – yalangoyoq yurish, marhum uchun ko'p yig'lash, ayniqsa, ayollarning olov oldida soch tarashi katta gunoh hisoblangan.

Zardushtiylik dini o'zidan oldingi tabiat kuchlarini ilohiyashtirishga qaratilgan qabilaviy dinlardan o'zining birmuncha ilg'orligi va yakka xudo – Ahuramazdaga e'tiqod qilishi bilan ajralib turadi. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchiliklarni qoralab, o'troq va osoyishta hayot kechirishni, mehnat qilishni, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishni da'vat qiladi. Xayrli ish qilish, ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishga qat'ian amal qilishni talab qiladi.

Nemis klassik falsafasining yirik vakili Gegel o'zining «Tarix falsafasi» nomli asarida Zardushtiylik dini va uning insonparvarlik xususiyatini quyidagicha ta'riflagan edi: «Bu din yorug'lik va mehr-oqibat dinidir. U yovuzlik va qorong'ilikka qarshi turadi. Yorug'likning yovuzlik bilan kurashi, hayotning o'lim bilan kurashidir. Zardushtiylik dini rivojlanishni, hayotning barhayot bo'lishini, ekin ekishni, uy hayvonlarini boqishni va yerga qarashni talab qiladi. Bu dinga sig'ingan odam hattoki, murdani yerga ko'mmay, yoqmay qushlarga yem bo'lishi uchun kurashadi».

Zardushtiylik xalq madaniyatining nodir yodgorligi sifatida muhim qiymatga ega bo'lib, birinchidan, u qadimgi Sharqda vujudga kelgan bir qator dinlar, dastlab yahudiy dinining, so'ngra jahon dinlariga aylangan islom va nasroniylik dinlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Zardushtiylik diniga binoan har bir otashparast kuniga besh marta poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, ibodat qilishi shart bo'lgan. Bu esa islom diniga uning asosiy ruknlaridan biri – besh vaqt namoz o'qish shaklida o'tgan.

Ikkinchidan, Zardushtiylik ta'lilotiga binoan xudo, quyosh, olov kabilar inson uchun eng zarur hisoblangan narsalar (yer, hayvon, o'simlik, suv va b.)da namoyon bo'ladi. Bu esa panteistik falsafaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, ajdodlarimizdan meros bo'lib o'tib kelayotgan axloqiy me'yorlarning shakllanishiga katta ta'sir qiladi. Chunki avlod-ajdodlarimiz qadim-qadimdan tabiatni, yer, suv, daraxt, o'simlik va jonivorlarni e'zozlab keladi. Yerga ishlov berib, sug'orib, bog'-rog'larni, ekinzorlarni barpo qilganlar, chorvachilikni esa nihoyatda qadrlaganlar, suvni muqaddas hisoblaganlar.

To'rtinchidan, Zardushtiylik dini qadimgi yunon madaniyatining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Chunki yunonlar Zardusht haqida ko'plab hikoyalari eshitganlar va bu din hamda uning ta'lomi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lganlar.

### **III BOB. QADIMGI SULOLALAR DAVRI MADANIYATI**

#### **I-§. Kushonlar davri madaniyati**

Mamlakatimiz davlatchiligi va madaniyati taraqqiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan sulolalardan biri Kushonlar sulolasi hisoblanadi. Kushonlar yangi era boshlarida Markaziy Osiyodagi va unga chegaradosh bo'lgan barcha hududlardagi siyosiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni birlashtira olgan va hukmronlikni boshlab bergen suloladir.

Kushonlar Sharqning minglab yillar davomida shakllanib kelgan an'anaviy va ellinlashgan madaniyatlar hamda Osiyoning keng dashtlarida shakllangan ko'chmanchi va yarimko'chmanchi xalqlar madaniyatlarini bir-birlari bilan sintezlashtira (uyg'unlashtira) olgan sulola hisoblanadi.

Kushonlar taxt tepasiga kelgach, asosiy e'tiborni iqtisodiy hayotni mustahkamlashga, ya'ni, birinchidan, dehqonchilik madaniyatini yuksakka ko'tarish uchun sun'iy sug'orish shoxobchalarini ko'paytirishga, ikkinchidan, o'sha davrning eng kuchli davlatlari bo'lgan Rim, Parsiya va Xitoy bilan savdo-sotiqni rivojlantirishga, uchinchidan, tarqoq hududlarni birlashtirish maqsadida pul islohotini amalgalashishga qaratadilar. Natijada dehqonchilik va hunarmandchilik, savdo-sotiq gurkirab rivojlanadi.

Kushoniy hukmndori Kujula Kadif oltin va misdan zarb qilingan tangalami muomalaga chiqaradi. Oltin tangalarning qiymati uning og'irligiga qarab belgilangan. Ko'shk dinor, dinor, yarim va chorak dinorlar muomalaga kiritilgan. Bir dinor 8 gramm oltinga teng bo'lgan.<sup>1</sup>

Kushonlar sultanati tarixidagi oltin davr, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy taraqqiyotda eng yuqori darajaga erishilgan davr Kanishka davri (78-123-yillar) hisoblanadi.

Kanishka sultanatda hukmronlik qilgan yunon va hind tillari o'mniga Kushon-Baqtriya tilini joriy qiladi. Tangalarga Baqtriya yozuvni zerb qilinadi. U muomalaga chiqargan tangalarga hindlarning xudosi Shiva tasvirini tushirtirib, unga o'z nomidan «Shohlarning shohi - ulug' xaloskor» yozuvini zerb ettiradi. Kanishka Buddaviylikni davlat dini deb e'lon qiladi. Davlatning diniy maskurasi sifatida budda dinidan foydalangan bo'lsa-da, boshqa diniy jamoalarning faoliyati uchun ham erkinliklar beradi.

Muomalaga chiqarilgan tangalarga hind, zardusht va yunon xudolarining nomi va tasvirining tushirilganligi ham diniy e'tiqodda tenglikka e'tibor bergenligini anglatadi. Natijada Kushonlar sultanati sarhadlarida buddaviylik, zardushtiylik, jaynizm, shivaizm, manaxiylik va yunon xudolariga birdek sig'inilgan.

<sup>1</sup> Pidayev Sh. Sirli kushonlar sultanati. — T. «Fan», 1990, 8-bet.

У мamlакатда budda diniga atab e'tiqod markazlari – budda ruhi saqlanadigan stupalar va ularning yonida ibodatxonalar qurishga alohida e'tibor beradi.

Buddaviylik biz yashayotgan hududlarda keng tarqalgan, hatto qadim ajdodlarimizning asosiy diniy e'tiqodiga aylangan. Hozirgi O'zbekiston hududida markaziy budda ibodatxonalar (Ko'hna Termiz, Quva va boshqa joylarda) mayjud bo'lgan. Bu ibodatxonalarda o'z davrining mashhur buddaviy kohinlari faoliyat ko'rsatganlar. Vaqt-i-vaqti bilan bu ibodatxonalarda buddaviy kohinlarning yig'ilishlari bo'lib turgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ko'hna Termizdagi budda ibodatxonasi kohinlari Hindiston kohinlari bilan bemalol raqobatlasha olganlar. Termizlik ikkinchi bir buddaviy kohin – Gxoshaka Kanishka tomonidan Peshovarda chaqirilgan buddaviylarning IV umumbuddaviylar yig'inida qatnashgan. Hattoki Baqtriyada keng tarqalgan buddaviylikning mazhabi - Vaybxashika mazhabining kelib chiqishi va tarqalishimi ham Gxoshaka nomi bilan bog'laydilar.<sup>1</sup>

Kushonlar imperiyasi davrida sultanatda har xil dinlarga e'tiqod qilingan, masalan, qadimgi Baqtriyada buddaviylikka e'tiqod qilish keng tarqalgan bo'lsa, Xorazm, Buxoro, Samarqand viloyatlari hududida zardushtiylikka e'tiqod qilish kuchliroq bo'lgan.

Hozirgi Surxondaryo hududidagi Fayoztepa va Qoratepadagi ibodatxonalar ko'rinishi bilan Hindistonda keng tarqalgan budda haykallaridan ajralib turadi. Buddha haykali ham Hindistonda keng tarqalgan budda haykallaridan farq qiladi. Ma'lumki, buddaning uchta o'ziga xos farqlanuvchi tomonlari – peshanasida dog', boshining o'rtasida do'nglik va qulog'inining solinchog'i uzun bo'lishi bilan farqlangan. Qoratepa va Fayoztepedan topilgan budda haykallarida bunday o'ziga xosliklar bilan birga budalaviy boshi atrofi yog'du – nur yoki alanga bilan o'ralgan. Ikkala manzilgohdan topilgan Buddha haykallari esa ko'proq Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqdagi buddaviylarning ibodatxonalarini suratlariga o'xshab ketadi. Lekin Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqqa buddaviylik birmuncha keyin tarqalgan. Demak, bundan buddaviylik Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqqa O'rta Osiyo orqali tarqalgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ruhoniy (kohin)lar buddaviylik ta'limotlarining dastlab Xitoya, so'ngra Quriya (Koreya) orqali Yaponiyada keng tarqalishida muhim rol o'yaganlar. Ular buddaviylik ta'limotiga oid manbalarni Xitoy tiliga tarjima qilishib, diniy maktablarni tashkil etishda ishtirot etganlar.

Turli davrlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Kushonlar sulolasi davrida madaniy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlar xarobalari topilgan. Birgina qadimgi Baqtriya hududidagi Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Qadimiy Termiz, Qoratepa, Fayoztepa, (hozirgi O'zbekiston), Ayritom, Bagram, Surxko'tal va Dilbarjin (hozirgi Afg'oniston)da olib borilgan

<sup>1</sup> Pidayev Sh. Ko'rsatilgan asar. 19-bet.

qazishmalar Kushonlar davri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayoti haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Kushonlar sultanati davrida me'morchilik rivoj topgan. Mustahkam istehkomlar bilan o'rab olingen shaharlar qad ko'targan. Shahar ichidagi saroylar, qasrlar va arkalarining ichki bezagi va tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor berilgan. Me'morchilikda monumental haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy bezak san'atlari uyg'unlashtirilgan. Binoning tashqi bezagida piramonlardan keng ko'lamma foydalanilgan bo'lsa, ichki bezakda amaliy va tasviriy san'at hamda haykaltaroshlikdan foydalanilgan. Bunga misol tariqasida qadimgi Ayritomdag'i ibodatxona peshtoqini bezab turgan sozandalar haykalini olib ko'rish mumkin.

Mazkur frizlarda tasvirlangan sozandalar budda dini bilan bog'liq bo'lgan hind afsonalaridagi beshta «Muqaddas tovush taratuvchi» sozandalar tasviriy bo'lishi ham mumkin. Rivoyatlarga ko'ra, Buddaning beshta sozanda hamrohi bo'lib, ular chiltor, tor, nog'ora, ud va hind nog'orasini chalishib Buddaga lazzat bag'ishlab yurganlar. Sozandalarning yuz tuzilishi, kiyimi va bezaklariga qarab, ularning baqtriyaliklar ekanligini bilish mumkin.

Qadimgi Xolchayondagi shahzoda saroyining ichki bezagi me'morchilikda tasviriy san'atdan foydalanish qay darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Saroydag'i qabulxona devoriga tushirilgan suratlar diqqatga sazovor bo'lib, suratda shoh, malika va saroy ahllari tasvirlangan.

Shoh o'tiradigan sahnaning chap tomoniga otlarini yeldek uchirib borayotgan kamonli otliqlar tasviri tushirilgan. Devorlarning yuqori qismida ikki metr balandlikkacha haykallar joylashgan. Saroy devorlarini bezab turgan haykallar va suratlarda tantanavor ruhdagi qabul marosimi va jang manzarasi tasvirlangan.

Bu davr haykaltaroshligi, tasviriy va amaliy bezak san'atlarida, umuman, Kushonlar davri madaniyatida mahalliy xalqlar, elliqlar va ko'chmanchi yuechji qabilalari madaniyati sintezlashib kelgan. Kanishka davriga kelib tasviriy va amaliy bezak san'atlarida elliqlizm an'analari o'rnini budda dini bilan bog'liq bo'lgan mavzular egallay borgan. Buning asosiy sabablaridan biri Kanishkaning buddaviylikni davlat dini deb e'lon qilishi bo'lsa, ikkinchidan, Hindistonning Kushonlarning taxminan 400 yillik hukmronligi ostida bo'lganligidir. Buning natijasida ilgari faqat savdo-sotiq orqali mavjud bo'lgan madaniy aloqalar kushonlar davrida yaxlit jarayonga aylangan. Ko'hna Termiz va Ayritom xarobalarida sopol va toshga bitilgan sanskrit, kharoshta hamda Kushon – Baqtriya yozuvlari namunalarini topilgan.

Qadimda din har qanday jamiyatning davlat mafkurasi vazifasini bajargan. Aholiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish ko'pincha san'at asarlari orqali amalga oshirilgan. Buddaviy kohinlarning ham diniy ta'sir ko'rsatishning bu yo'lini tanlashi tabiiy. Buddaviylikning asosiy ta'limoti san'at asarlari singdirilgan. Ibodatxonalar budda va bodisatvalar haykallari bilan bezatilgan. Ibodatxona devorlariga ularning hayotini aks ettiruvchi suratlar chizilgan. Amaliy bezak san'atida ham diniy mavzuga e'tibor berilgan.

Xullas, Kushonlar davri arxitekturasi, tasviriy san'ati va haykaltaroshligining taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ibodatxonalar Dalvarzintepa, Zartepa, Dilbarjin va boshqa qadimgi shaharlarning xarobalari o'rnidan ham topilgan.

Shunday qilib, Kushonlar o'zlarining taxminan 400 yillik hukmronligi davrida ko'pgina obod shaharlarni bunyod etishib, noyob san'at asarlarini yaratib, insoniyat taraqqiyotida o'chmas iz qoldirganlar. Ular ko'plab sug'orish inshootlarini – Xorazmda Gavhar va Charmanyob, Buxoroda Gav Kitfor, So'g'diyonada Darg'om kanallarini qurdiradilar. Kulolchilik ravanaq topib, yorg'uchoqlar o'rniga tegirmonlar paydo bo'ladi.

## 2-§. Eftalitlar davri madaniyatি

Kushonlar sultanati inqirozga uchragach, hayot sahnasida yangi bir sulolalar davlatchiligi – eftalitlar davlati paydo bo'ldi. Eftalitlar qadimgi Orolbo'y'i ko'chmanchi massagetlar avlodlaridan bo'lib, o'z davrida o'ta jangariligi va hujumkorligi bilan ajralib turganlar. Shu sababli qisqa vaqt ichida Sharqi Turkistondan Kaspiy bo'ylarigacha bo'lgan katta hududlarni o'zlariga bo'ysundirganlar. Hatto, sosoniylardan bo'lgan podshoh Peruzni ham (459-484) mag'lubiyatga uchratib, eroniylarni o'lpon to'lashga majbur qilganlar.

Eftalitlarning qisqa muddat ichida kuchli davlat barpo etishida, birinchidan, barcha qabila-urug'larning azaliv an'analariga qat'iy bo'ysunishi, ikkinchidan, umumqabila uchun qabul qilingan huquq va axloq me'yorlarini buzganlarga ko'rildigan jazoning qat'iy qilib qo'yilganligi, uchinchidan, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot kechiruvchi qabilalarning jangarilik xarakteri muhim rol o'ynagan.

Eftalitlarda ko'p erlilik (poliandriya) an'anasi, ya'ni aka-ukalarning bir ayolni xotinlikka olishi hamda zodagonlarning ko'p xotin olish an'anasi, yuqori tabaqa vakilining 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishi va vafot etganda o'zining sevimli oti va do'stlari birgalikda dafn etilishi kabi an'analar qonun darajasida bo'lgan. Qabul qilingan huquq me'yorlari barcha uchun qat'iy qonun tusiga ega bo'lgan. Masalan, o'g'rilik uchun kim bo'lishidan qat'yi nazar, eng avvalo, o'g'irlangan mol o'n baravar qilib undirib olingan, so'ngra o'lim jazosiga mahkum etilgan.

Eftalitlarning kuchli davlatga ega bo'la borishi ularning o'troqlashuviga olib kelgan, sun'iy sug'orish shoxobchalari kengayib, dehqonchilik madaniyatি yuksala borgan. Qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan istehkomli qal'alar, qo're'onlar soni tezlik bilan ko'paygan.

Bu davrda Amudaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon va Chirchiq daryolari bo'ylarida dehqonchilik rivojlanadi. Mazkur daryolardan suv ichuvchi shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ayniqsa, kulolchilik, chilangularlik, shisha ishlab chiqarish, bo'zchilik va sarrojlik, zargarlik va qurolsozlik yuksaladi.

Chorvachilik va dehqonchilik rivojlanib, sun'iy sug'orish tizimlari qurilishi avj oladi.

Eftalitlarda hokimiyatni boshqarish maxsus kengash zimmasida bo'lgan. Hokimiyat tepasida kengash ma'qullagan kishi turgan. U taxtni kengash tasdiqlagan qonun asosida boshqargan.

Eftalitlar davrida Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va Shosh viloyatlarida mustahkam va hashamatli qo'rg'onlar vujudga kelgan. Savdo-sotiqning gurkirab rivojlanishi eftalitlar davlatchiligi iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga olib keladi, harbiy qudratini yana oshiradi. Tashqi savdoga ipak, bo'yoq mahsulotlari, rangli shishalar, qimmatbaho tosh, arg'umoq otlar, matolar, qurol-yarog'lar chiqariladi.

Albatta, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat mamlakatning madaniy hayotiga, balki unga chegaradosh bo'lgan boshqa davlatlar va mintaqalar bilan bo'ladigan madaniy aloqalariga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Eftalitlar mamlakat ichkarisidagi katta-kichik shaharlarda hashamatli binolar qurdiradi.

Eftalitlar davri arxitekturasida ikki qavatlari qilib qasrlar qurish odat tusiga kirgan. Qasrlar shaharning markazida, tuproq bilan baland qilib ko'tarilgan joyda (eng baland qismi yoki tuproq bilan sun'iy ravishda ko'tarilgan balandlik tepeasiga) qurilgan. Masalan, hozirgi Buxoro viloyati hududida joylashgan qadimgi Varaxsha, Poykand shaharlari, Xorazmdagi Tuproqqa'l shahri, Qashqadaryo viloyatidagi qadimgi Zahoki Moron qasrlari ana shunday sun'iy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, tashqi ko'rinishidan nihoyatda mahobatlari bo'lib ko'ringan.

Eftalitlar davri arxitekturasida, eng avvalo, ibodatxona yoki qasrnning tashqi mahobatliligiga va uning ichki bezaklariga alohida e'tibor berilgan. Ichki devorlar rangli suratlar, naqshlar va haykallar bilan bezatilgan. Masalan, hozirgi Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi Bolaliktepa shahrida qurilgan qasr devorlarida saqlanib qolgan devoriy suratlar o'zining nafaqat tabiyiligi, rangdorligi, balki maishiy hayotning bir bo'lagini badiiy tasvirlashi bilan ham ajralib turadi.

Haykaltaroshlikda ko'proq terrakota va koroplastika haykaltaroshligidan foydalilanigan. Bu davr haykaltaroshligida hudud va unda yashovchi kishilarning kiyim-kechaklari, taqinchoqlari va o'xshash tomonlari ko'zga tashlanib turgan. Ma'bud yoki ma'budalar haykallari (albatta yirik va ulkan haykallar yasalmagan)da uni yaratuvchi haykaltaroshning diniy dunyoqarashi o'z ifodasini topgan.

Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra, binolar bir necha qavat qilib qurilgan. Uy devorlari turli naqshlar va suratlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ibodatxonalariga katta e'tibor berilgan. Ularning ichki tomonini bezashda qimmatbaho toshlardan va oltindan foydalanganlar.

Eftalitlar davrida Poykent shahri, Tuproqqa'l (hozirgi Xorazm hududida). qadimgi Chochdag'i Oqtepa qal'asi, qadimgi Varaxsha qo'rg'onlari shaharsozlikning namunalari hisoblangan. Misol tariqasida Varaxsha qo'rg'onini olib qarasak, [eftalitlar](#)

davrida me'morchilik san'ati qanchalik rivojlanganligining guvohi bo'lamiz. Varaxsha qo'rg'oni ulkan kvadrat shaklida mustahkam tepe ustiga qurilgan. Binoning devorlari ganch bilan suvalgan va devoriy suratlari bilan bezatilgan.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida Varaxsha haqida shunday deb yozadi: «... Varaxsha ... katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi. U podshohlar turadigan joy bo'lib, mustahkam hisorga ega bo'lgan, chunki podshohlar (u hisorni) bir necha marta mustahkamlaganlar. Uning Buxoro shahrining devorlari singari devori ham bo'lgan. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda shunday bir obod qasr bo'lganki, go'zallikda uni namuna qilib ko'rsatar edilar».

Eftalitlar davrida saroylar, ibodatxona va boy-badavlat kishilarning turarjoylari ichki bezagida sujetli tasviriy san'at asarlari va turli xil naqshlardan foydalanish odatiy tusda bo'lgan. Masalan, Bolaliktepa qasri devorlariga tushirilgan ziyofat marosimi nihoyatda yorqin bo'yoqlar bilan chizilgan bo'lib, unda gilamchalar ustida juft-juft bo'lib tiz cho'kib o'tirgan erkak va ayollar tasvirlangan.

Erkaklarning egnida uchburchak shaklida keng qaytarma yoqali va hoshiyali uzun kamzul, oyog'ida mahsi, belidagi ingichka kamarga qayirma uchli xanjar osilgan. Birida vaza, ikkinchisida tug'ro tutgan qo'llarining jimgilog'iga bittadan ikkita yirik ko'zli uzuk taqilgan. O'ng qo'lida qadah, so'lida ko'zgu tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashang. Ichki libos ustidan hoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzun va keng guldar yopinchiq – qabo yelkaga tashlangan. Qulqlarida Buxoroning yakkadur ziragi, jimgiloqlarida esa yoqut ko'zli uzuk taqilgan. Xullas, Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftalitlar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy zodagoni ayollarini eslatadi. Kohinning ta'riflashicha, o'sha vaqtarda eftalit malikalari juda qimmatbaho matodan tiqilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylik kiyar, uning etagini maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar.<sup>1</sup>

Eftalitlar davrida diniy e'tiqodlar xilma-xilligi – zardushtiylik, Anaxita va Mitraga, buddaviylik, iuadizm va nasroniylik mavjud bo'lgan. Buxoro vohasida esa ko'proq Siyovushga e'tiqod qilish rivojlangan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilishicha, «podshoh Afrosiyob o'z kuyovi Siyovushni o'ldiradi. «Buxoro aholisi Siyovushning o'ldirilishi haqida ajoyib ashulalar to'qiganlar, kuychilar bu qo'shiqlarni «Kini Siyovush» – «Siyovush jangi» deb ataydilar».

Siyovushga e'tiqod qiluvchilar Navro'z kuni uning qabri atrosida katta bayram o'tkazganlar. Bu bayram «Navro'zi kishavarzon» – «Dehqonlar navro'zi» deb atalgan. Buxoro otashparstlari Siyovush dafn etilgan joyni aziz tutganlar va unga atab har yili har bir erkak Navro'z kuni Quyosh chiqmasdan o'sha

<sup>1</sup> Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1994, 14-bet.

joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarida mashhur bo'lган. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytgan. Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deb ataganlar.

Shuningdek, Eftalitlar davrida O'rta Osyo va Sharqiy Turkistonda Monizm keng tarqala boshlaydi. Monizm tasviriy san'atni diniy marosimlarga olib kiradi. Tuproqqa (Xorazm), Varaxsha (Buxoro) va Panjikent (Tojikiston Respublikasi) dagi ibodatxonalar bezaklari bu fikrimizning dalili bo'la oladi. Masalan, Panjikentdagi motam marosimining suratda tasvirlanishi bunga misol bo'la oladi.

Eftalitlar o'z urf-odatlari, ayniqsa, dafn marosimlariga ko'ra kuchli tabaqlanishga ega bo'lganlar. Oddiy eftalitlar murdasi tuproqqa qo'yilgan. Boybadavlat kishilar vafot etganda esa, ularning jasadi maxsus tayyorlangan tosh dahmaga qo'yilgan. Urug' boshlig'i vafot etganda, juda katta tantana bilan dafn marosimi o'tkazilgan. Odatga ko'ra urug'ning eng boy-badavlat kishilari 20 va undan ham ko'proq sodiq do'stlarga ega bo'lgan.

IV asrda yashagan tarixchi Ammian Marselinning yozishiga ko'ra, Xionit shahzodasi vafot etganda, uning murdasi kuydirilib, uning atrofiga sodiq do'stlarining terrakota haykalchalari o'tkazib qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, eftalitlarning 100 yildan oshiqroq hukmronligi davri Markaziy Osiyodagi xalqlarning jipslashuvi, turli qabilalarning qo'shilishi, iqtisodiy va madaniy hayotning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

### 3-§. Turk xoqonligi davri madaniyati, san'ati va diniy qarashlari

V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarmilarida Oltoy va Janubiy Sibir hududlarida uyushgan yangi bir kuch – turk qabilalar ittifoqi vujudga keladi. Bu ittifoqning eng ko'zga ko'ringan boshlig'i Bumin VI asrning o'talarida o'sha davrdagi Osiyoning ancha kuchli davlati hisoblangan Jujan xoqonligiga katta zarba beradi va o'zining Turk xoqonligiga asos soladi.

Bumin xoqon ukasi Istemil bilan birga qisqa vaqt ichida Enasoy (Yenisey) daryosi bo'ylarida yashovchi qirg'izlarni, Janubi-g'arbiy Manjuriyadagi kidanlar va Shimoliy Xitoyni bosib oladi. Xitoy imperatorlari yiliga yuz ming to'p i pak mato hisobida o'lpon to'lashga majbur bo'ladilar. «Yabg'u xoqon» unvoniga ega bo'lgan Istemil boshchiligidagi Turk qo'shinlari tezlikda Yettisuv, Sharqiy Turkiston va uning atrofida yashovchi turkiy qabilalar yerlarini, Markaziy Osiyoning Sirdaryo va Orol dengizigacha bo'lgan hududlarini bosib oladilar.

558-yilga kelgach, turklar Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) daryolari bo'yalarini hamda Shimoliy Kavkazdagagi avarlar yashaydigan hududlarni ham qo'lga kiritadilar. Besh yildan so'ng turklar Parkana, Choch viloyatlarini, so'ngra Sirdaryordan kechib o'tib, Zarafshon vodisiga kirib boradilar. Samarqand-

Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) va Buxoro shaharlarini egallaydilar. Buxoro yaqinida Eftalitlarning qo'shinlari bilan to'qnashib, ularni tor-mor etadilar va butun Amudaryo bo'ylaridan Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufiga o'tkazadilar.

Turk xoqonligi Vizantiya bilan savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik o'rnatadi. 575-576-yillarda turklar Kimmeriyalar Bosforini egallahib, Qrim yarimoroligacha kirib boradilar.

Xullas, VI asrning 70-80-yillariga kelib, Enasoy daryosining yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manjuriyadan Kimmeriy Bosforigacha bo'lgan ulkan hududlar Turk xoqonligining tasarrufiga o'tadi.

Turklar o'zlarini bosib olgan hududlarning ichki hayotiga aralashmaydilar va hokimiyatni yerli sulolalar hukmdorlari orqali boshqaradilar. Natijada, turk xoqonligi tasarrufidagi ko'plab mayda feodal hokimiyatlar vujudga keladi. Xoqonlikka kiruvchi yerli sulolalar hukmdorlarning boyishi uchun xalqni ayovsiz talashi, urug'-aymoqchilikning kuchayib ketishi va mayda feodallarning hokimiyat uchun zimdan kurash olib borishi tufayli turk xoqonligi 603-yilda ikki mustaqil davlatga — Mo'g'ulistonda tashkil topgan Sharqiy turk davlati va Markaziy Osiyo, Jung'oriya hamda Sharqiy Turkistonni birlashtirgan G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketadi.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy turk xoqonligi kuchayib, shimoliy chegaralarini Oltoy hududlarigacha, janubiy chegaralarini esa Hind daryosi bo'ylarigacha kengaytiradi.

Yettisuv G'arbiy turk xoqonligining markaziga, Siyob shahri esa uning poytaxtiga aylanadi. G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o'troq hayot kechirib, dehqonchilik bilan, shaharlar va yirik qishloqlar aholisi savdo-sotiqa hamda hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Hunarmandchilikning kulolchilik, to'qimachilik, misgarlik, chilangarlik, temirchilik, zargarlik kabi turlari ancha rivojlangan. Farg'ona va So'g'diyonada oltin, mis, temir, simob va boshqa ma'danlar qazib olingan.

Turk xoqonligining xazinasi savdo-sotiqa keladigan daromad va viloyatlardan to'lanadigan boj hisobiga to'lg'azilgan. Hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiqa rivojlanishi, birinchidan, o'troq aholining jipslashuviga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, aholining madaniy jihatdan taraqqiy etishining asosiy omili bo'lib xizmat qilgan.

VII asrning boshlariga kelib ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi, savdo-sotiqa va hunarmandchilikning taraqqiy etishi yangidan yangi shaharlar va qishloqlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Buxoro, Zarafshon, Qashqadaryo va Xorazmning keng dashtlarida yangi qo'rg'on va qal'alar qurilib, ularga suv chiqarilib, atroflar obodonlashtiriladi.

Bu davrga kelib, xoqonlik hududida ko'plab qal'alar, qo'rg'onlar, qasrlar, satroylar, huqandozlar, ko'shk va sardobalar qurilishi keng avj oladi. Bu

inshootlarning qurilishida, birinchidan, hunarmandchilik, ikkinchidan, savdosoti, uchinchidan, mahalliy hukmdorlarning shuhratparastligi (chunki ular o'zlarini haqiqiy hukmdor, xoqon deb hisoblaganlar), to'rtinchidan, markazlashgan xoqonlik tomonidan boshqarilsa-da, yerli mayda feodal hokimlar o'tasida o'zaro nizo, bir-biriga ishonchsizlik tufayli o'z-o'zini himoya qilishga bo'lgan intilish kabi sabablar muhim rol o'ynagan. Shu boisdan mazkur arxitektura inshootlarining qurilishi bir necha baravar oshib ketgan. Masalan, Xorazm vohasidagi Burgut qal'a mavzeyida 100 ga yaqin ko'shk va qasrlı qo'rg'onlar qurilgan bo'lsa, Buxoro atrofida 4000 ga yaqin qasrlar, Chochda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, yirik yer egalari qo'rg'onlari, ko'shk va obod qishloqlar qad ko'taradi.

Markaziy Osiyoga Shimoldan turkiy qabilalarning ko'chib kelishi natijasida (er.avv.2 asrdan boshlab) turkiy lahjalar va shevalarda gaplashish odad tusiga kirgan. Turkiy til so'g'd va yunon tillari bilan bir qatorda muomala tiliga aylangan, ya'ni eron lahjalari va shevalarida so'zlashuvchi ayrim guruuhlar turkiy tilda so'zlasha boshlaganlar.

Eron tillari guruhidagi tillar zaminida fors-tojik tillari vujudga kelganidek, turkiy tillar zaminida o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, uyg'ur va boshqa turkiy tillar paydo bo'ladi.

Eramizning boshlaridan VIII asrgacha bo'lgan davrda ijtimoiy hayotda ro'y bergan barcha o'zgarishlar me'morlik, haykaltaroshlik va tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morlikning ilk o'rta asrlarga xos bo'lgan jihatlari ko'proq o'sha davrda qurilgan turli qasrlar, saroylar, qal'alar, qo'rg'onlar, ko'shklar, ibodatxonalar, otashkadalar va ularni bezagan rasmlarda, budda va nasroniylik ibodatxonalariga o'rnatilgan haykallar va sanamlarda, zarb etilgan tangalarda, xilma-xil bezaklarda o'z aksini topgan.

O'sha davning o'ziga xos san'at asarlarini hamda bu san'at asarlarini yaratgan me'morlar, haykaltaroshlar va musavvirlarning dunyoqarashi, intilishlariyu orzu-umidlarini qadimgi Bolaliktepa, Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, Quva va boshqa qadim shaharlar xarobalaridan topilgan devoriy suratlar, haykallar, ganchkor naqshlar, turli xil zeb-u ziynatlarda ko'rish mumkin. Bu yodgorliklar ilk o'rta asrning o'ta murakkab siyosiy va iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotining sermazmun va serjilo, jozibali va ayanchli, zavqli va mungli manzaralarini o'z bag'rida yashirib kelgan. Misol uchun, Bolaliktepadan topilgan devoriy suratlardagi qo'llariga qadah tutgan just-just ayol-u erkaklarning tasviri o'sha davr hayotining jozibadorligini ko'rsatib bersa, Varaxsha saroyidagi oq fil ustidagi filbon va boshqa pahlavonlarning old va orqadan chovut solayotgan arslon hamda qanotli grifonlar bilan jang qilishi insonning hayot va yashash uchun kurashini ko'rsatib beradi.

Panjikent xarobalaridagi qariyb 15 metrga cho'zilgan rangtasvirda to'riq oqliq suvoriy boshchiligidagi choparlarning yurishi, ularning dushman bilan

olishuvi, suvoriyning ajdaho va otliq dushmanga qarshi yakkama-yakka janggi, chokarlarning devlar to'dasi bilan kurashi tasvirlangan.

Suratning oxirida qulagan ajdahoni yanchib tashlab, o'z chokarlarini boshlab borayotgan suvoriyning g'alaba nashidasini surishi tasvirlangan.

Panjikent xarobalarida xona devorlariga chizilgan suratlar turli xil mavzularga bag'ishlangan. Bu suratlardan biri dehqonchilikka bag'ishlangan bo'lib, unda kattagina g'alla xirmoni, yakka pallali tarozida g'alla tortayotgan amaldor, donni qoplayotgan va qoplangan g'allani eshakka ortishga taraddud ko'rayotgan yalangoyoq keksa dehqon hamda o'spirin tasvirlangan. Yana bir tasvirda Siyovushning o'limi bilan bog'liq bo'lgan aza marosimi ifodalangan.

Qadimgi Afrosiyob xarobalarida topilgan suratda esa tantanalı yurish tasvirlangan. Suratda tasvirlangan oq fil, uning ustiga o'rnatilgan taxtiravonga joylashib olgan malika, uning joriyasi, ot minib olgan hamrohlari va qo'riqchilari ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, bu suratda hukmdorning uylanish marosimiga oid kelin (malika)ni tushirib kelish lahzasi tasvirlangan bo'lishi mumkin. Chunki, qadimdan So'g'diyona va unga tutash bo'lgan hududlarda kelinni oq rangdag'i ulovda tushirib kelish marosimi mavjud bo'lib, u o'z yangasi va boshqa hamrohlar kuzatuvida bo'lishi shart bo'lган. Malikani kuzatib kelayotgan ayollarning birinchisining qo'liga so'g'dcha «malikaning yangasi» deb yozib qo'yilgani bundan dalolat beradi.

Turk xoqonligi davrida musiqa, raqs, qo'shiqchilik san'atlari, dorbozlik, masxarabozlik va qo'g'irchoqbozlik tomoshalari keng rivojlangan.

VI-VII asrlar Markaziy Osiyoda san'atning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, musiqa va qo'shiqchilik san'atlari yuqori darajaga ko'tarila boradi. Musiqa va qo'shiqchilik san'atlarining rivojlanishi So'g'diyona hududida yaqqol sezilib turgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo musiqa madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini mintaqaning turli hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar ham ko'rsatadi. Bunga musiqachilar tasviri tushirilgan turli xil buyumlar va idishlar dalil bo'la oladi. Masalan, rus olimi A.Beliniskiyning ta'kidlab ko'rsatishicha, bиргина Panjikentda har bir bayram, to'y-tomosha va hatto dafn marosimlari sozanda, xonanda va raqqosalarsiz o'tmagan.

Yoki V-VI asrlarga oid Bolaliktepadan topilgan tasvirda bazmi jamshid tasvirlangan bo'lib, unda chang va nay chalayotgan sozandalar, qo'shiq kuylayotgan xonanda ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda musiqa va qo'shiqchilik san'atlarining rivojlanganligini So'g'diyona, Baqtriya, Marg'iyona hududlarida bo'lgan chet elliq sayyoohlар va rasmiy kishilarining esdaliklari hamda yozishmalariga qarab bilsa bo'ladi. Masalan, VII asrda Afrosiyobga kelgan buddaviy monaxning yozishchicha, bu paytdagi har bir bayram va shodiyona qo'shiq va raqlarsiz o'tmagan. Nafaqt bayram va to'y-tomoshalar, balki dafn marosimlariда ham

sozanda va xonanda (go'yanda)lar qatnashganlar. Go'yandachilikning bizning davrimizgacha yetib kelganligi buning dalili bo'la oladi.

Ushbu davr san'atkorlari nafaqat Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatganlar, balki boshqa davlatlarda tashkil etilgan bayram, tantana va bazmlarda ham ishtirot etganlar.

Markaziy Osiyolik san'at ahli bilan xitoylik san'atkorlar o'rtasida doimiy hamkorlik mavjud bo'lган. Ko'proq markaziy osiyolik san'atkorlar Xitoyda bo'ladigan tantanalar va bayramlarning doimiy ishtirokchisi bo'lган. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, VII - VIII asrlarda Markaziy Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik va dorbozlik kabi san'atning boshqa sohalari ham rivoj topgan.

Xitoy imperatorlari saroylarida o'tkaziladigan tantanalarda Turkistondan borgan dorbozlar, akrobatlar, ko'zboytag'ichlar, olovyutgich va purkagich afsungarlar hamda qiziqchilar o'z mahoratlarini zavq-shavq bilan namoyish qilganlar. Hatto Xitoyning Chanon shahri aholisi qo'g'irchoq o'yinini ilk bor VII asrda Turkistondan borgan san'atkorlar ijrosida tomosha qilishga tuyassar bo'lган.<sup>1</sup>

Islomgacha bo'lган Turkiston musiqa madaniyatining rivojlanişida Marv viloyatida tug'ilib, eron shohi Xusrav Parvez saroyida faoliyat ko'rsatgan Borbad Marvaziyning hissasi beqiyos katta bo'lган. Borbadning musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi buyuk xizmati azal-azaldan iqtisodiy-madaniy aloqada bo'lган Turon va Xuroson xalqlari madaniyatining yanada boyishiga olib keldi. Borbad qisqa muddat ichida mashhur musiqashunos, bastakor, mashshoq-sozanda, hatto raqqos va shoir sifatida elga tanildi. Uning dovrug'i Turonu Eronga yoyilgan.

Naql qilishlaricha, Borbadning ovozi shunday yoqimli bo'lganki, uning ovozini eshitgan odamning qo'shiq sehridan chiqib ketishi qiyin bo'lган. Shu sababli o'sha davrning ko'pgina hukmdorlari Borbadning o'z saroyida xizmat qilishini orzu qilganlar.

Borbad Xusrav Parvez II ning olimlar, shoirlar, san'atkorlar va hunarmand ahliga g'amxo'rlik qilayotganini eshitib, uning saroyiga yo'l oladi. Xusrav uni o'z saroyiga xizmat qilayotgan san'atkorlarga bosh qilib qo'yadi.

Borbad shoh Xusrav Parvezni adolatparvarlikka, ma'rifatparvarlik va raiyatparvarlikka undagan. Uni zulm qilishdan, aysh-ishratga berilishdan tiyib turgan. U Xusrav Parvezning san'atkorlarga homiyligi hurmati haqqi unga atab «Xusravoni» nomli kuyni yaratgan. Uning bu xizmatlari shohning sevimli xotini Shirin tomonidan munosib taqdirlanadi. Malika Borbadga o'zining Isfaxonidagi mulkini in'om qiladi.

Borbad ko'plab shogirdlar yetishtiradi.

Naql qilishlaricha, Sosoniylar sulolasi davrida mashhur bo'lган Nyokiso

---

1. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. — T.: 1994, 54-bet.

Changiy, Bomshod, Romtin, Ozodvor Changiy, Sarkash ismli san'atkorlar Borbadning shogirdlari bo'lganlar.

Borbad o'z asarlarini ko'proq tabiat hodisalariga bag'ishlaydi. Bahor fasli, Navro'z bayrami uning sevimli mavzusi hisoblangan. Shu sababli uning «Gulzor», «Sabz bahor», «Rohigul», «Abhari kuhan», «Ravshan charog'», «Polizbon», «Dilangizan» singari ko'pgina asarlarida Navro'z va tabiat go'zalligi tarannum etiladi. Shuningdek, sozanda «Yazdon ofarid», «Sabzdori sabz», «Partavi farxor», «Kini Siyovush», «Bog'i Shahriyor», «Isabdiz» singari qo'shiq va ohanglarni ham mavsum va marosimlarga bag'ishlab yaratadi.

Borbad ko'pgina qo'shiqlarini avlod-ajdodlar tarixiga, xalq og'zaki ijodi va zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» ohanglariga bag'ishlagani haqida ma'lumotlar bor. Uning musiqa sohasidagi buyuk xizmati shundan iboratki, u yaratgan «Zerafkand», «Nufuxt», «Gulnush», «Oromishi jon», «Dargam» kabi kuy va taronalar eron, tojik, arab va turkiy xalqlarga mansub sozanandalar tomonidan hanuzgacha sevib ijro etiladi.

Hozirgi kunda o'zbek-tojik musiqa boyligi hisoblangan «Shashmaqom» ohanglari silsilasidagi «Zerafkand», «Xusravoni», «Navro'zi buzrug», «Navro'zi Ajam», «Navro'zi Xoro» maqom yo'llarida Borbad ijodining an'analari bevosita davom etib kelmoqda. Umuman olganda, Borbadning Sharq musiqa madaniyatiga qo'shgan hissasi va uning mashhurligi haqida ko'plab asarlar yozilib, tadqiqotlar olib borilgan. Borbad ijodi ko'plab Sharq va G'arb olimlari tomonidan o'rganilgan. Masalan, Borbadning musiqa madaniyati tarixida yorqin iz qoldirganligi haqida daniyalik mashhur sharqshunos A.Krestinsen shunday deb yozadi: «Borbad sosoniyalar davri musiqa rivojida asosiy o'rinn tutgan, shuningdek, u haqiqatan ham Sharq xalqlari musiqa san'atining asoschilaridan biri hisoblanadi. Hech qaysi san'at arbobi tarixda va adabiyotda uningdek yorqin iz qoldirmagan. Borbad o'z hayoti davomida 360 ta maxsus qo'shiq va 30 ta tarona yaratdi, ulardan 148 tasining nomi hozir ham manbalarda doimo eslanadi. U yaratgan asarlarning nomlari Sharq xalqlari musiqa sida hozirgi kunlargacha o'zgarmagan».

Borbadning nomi va iste'dodini abadiylashtirishda mashhur Sharq mutafakkirlarining roli benihoya kattadir. Abu Bakr Narshaxiy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ibn Sino, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida Borbad nomini abadiylashtirib ketganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyoning ilm-fani dunyoning barcha madaniy jihatdan taraqqiy etgan hududlaridagi singari, eng avvalo, dehqonchilik madaniyatining, hunarmandchilik va iqtisodiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Bizgacha yetib kelgan ko'pgina hujjatlar, taqvimlar va boshqa yodgorliklarda ko'rsatilishicha, qadimgi Markaziy Osiyoda ilmi nujum, handasa, yer ilmi, fizika va boshqa tabiiy fanlar taraqqiyotida birmuncha ilgarilash mavjud bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy asarlarida ko'rsatilishicha, qadimgi Markaziy Osiyoda ilmi nujum (astronomiya) ancha rivojlangan. Xorazmlik, so'g'diyonalik, baqtriyalik va marg'iynonalik olimlar, eng avvalo, sayyoralar va yulduzlarning turkumlarini o'rganib, ularga maxsus nomlar berishadi va burj (zodiak) tizimini aniqlaydilar. Har bir shohlik va xonlik saroylari qoshida astronomlar guruhi mavjud bo'lgan. Ular sayyoralar dunyosini kuzatganlar va harbiy harakatlarni amalga oshirish vaqtini, hattoki, har xil shikorlar va to'y-tomoshalarni o'tkazish mumkin bo'lgan «qulay va noqulay» kunlarni aytib bergenlar. Munajjimlik taqvimlarini tuzishib, osmon jismlari va inson taqdiri o'tasidagi aloqani bashorat qilganlar.

Sug'orish inshootlari, mustahkam qal'alar, saroylar, qasrlar va qo'rg'onlarning qurilishi handasa ilmining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, metall quyish, toshni eritib shisha ishlab chiqarish, qurilish va turli xil binolarni bezashda xilma-xil ranglardan foydalanish, kimyo hamda fizika fanlarining taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.

Xullas, ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti o'ziga xos tarzda rivojlangan. Moddiy va ma'naviy madaniy boyliklar yaratishda birmuncha muvaffaqiyatlarga erishilgan. Bu davrda, ayniqsa, turli elatlar va xalqlarning tili va yozma adabiyoti, san'ati va fani taraqqiy etib, qo'shni davlat va hududlar: Hindiston, Eron, Vizantiya, slavyan xalqlari madaniy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ushbu davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi madaniy boyliklarning boshqa o'lkalarga yoyilishi va boshqa xalqlar madaniy hayotining ilg'or yutuqlarini o'rganish imkonini yaratib bergen. Bu davrda diniy dunyoqarashda o'zgarishlar ro'y bera boshlagan.

**Diniy qarashlari.** Turk xoqonligi hududlarida o'troq, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi aholi yashaganligi sababli, ularning diniy qarashlarida ham turli-tumanlik mavjud bo'lgan. Masalan, o'troq aholi o'rtasida ko'proq zardushtiylik, buddaviylik, moniylik dinlari asosiy diniy e'tiqodlar bo'lgan bo'lsa, ko'chmanchi aholi o'rtasida ko'proq totemizm va shomonlik hukmiron diniy tasavvurlar hisoblangan. Yarimko'chmanchi aholi o'rtasida ham totemistik, ham zardushtiylik, ham xristianlik, ham monizm, ham Anaxita va Er Xubbiga sig'inish mavjud bo'lgan.

Quyida biz ilk o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining eng keng yoyilgan diniy e'tiqodlari – xristianlik, monizm va shomonlik kabilarga to'xtalib o'tamiz. Bu davrda keng tarqalgan diniy e'tiqodlardan yana biri – buddaviylikni «Kushonlar davri madaniyati» mavzusida yoritganimiz sababli, qaytadan to'xtalib o'tishni lozim topmaymiz. Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto» O'rta Osiyo, Eron hamda Ozarbayjon xalqlarining eng qadimiy yozma yodgorligi va madaniy boyligi bo'lganligi sababli, bu diniy e'tiqod maxsus mavzu sifatida ko'rib chiqiladi.

Arablar bosqiniga qadar O'rta Osiyo xalqlari zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, monizm va boshqa bir qator dinlarga e'tiqod qilganlar. Otashparastlik

bu davrning hukmron dini hisoblangan. Bu e'tiqod So'g'diyona, Xorazm, Choch viloyatlariida hukmron din darajasiga ko'tarilgan. Tohariston, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda buddaviylik dini keng tarqalgan. Shu sababli bu hududlarda olib borilgan qazishmalar natijasida ko'plab budda ibodatxonalarini topilgan. Masalan, Tohariston hududidagi Balx shahrida yuzga yaqin, Termizda o'nga yaqin, Kabodiyonda uchta hamda Farg'ona vodiysidagi qadimgi Quva shahri xarobalaridan ikkita buddaviylarning ibodatxonalarini topilgan. Quva shahridagi ibodatxonalarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida loydan yasalgan rang-barang haykal va haykalchalar qazib olingan.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo va u bilan muntazam ravishda madaniy aloqlar olib boruvchi Sharqiy Turkiston hamda Xitoy xalqlari maskuraviy hayotida monizm dini ham muhim rol o'ynagan.

Ma'lumki, moniylik dini zardushtiylik, nasroniylik va buddaviylik dinlarining qo'shilushi natijasida vujudga keldi. Uning asoschisi Moniy hozirgi Iroqda 216-yilda tug'ilgan bo'lib, mazkur uchala dinning asosiy jihatlarini: zardushtiylikdan ezbilik va yovuzlikning o'zaro kurashi; buddaviylikdan taqvodorlik yo'lini; nasroniylikdan missiya (xudoning vakili) g'oyalarini birlashtirib, dastlab qadimgi Midiya va Eron hududlarida targ'ib qila boshlaydi. Eron shohi Bahrom I tomonidan 277-yili qatl etiladi. Uning izdoshlari o'z targ'ibotlarini Markaziy Osiyo, so'ngra Sharqiy Turkiston va Xitoya olib boradilar.

Mazkur ta'limotga ko'ra, dunyoning o'zi ikki qarama-qarshi kuch — ezbilik va yovuzlikning o'zaro kurashidan iborat. Insonning o'zi ham ruh-nur va jism-zulmatdan iborat. U aqlli mavjudod bo'lganligi uchun ham zulmat va yovuzlikka qarshi kurashishi zarur. Taqvodorlik — bu kurashdagi eng to'g'ri yo'l. Taqvodorlik orqaligina inson o'zining keyingi hayotida jannatga tushadi.

Ibodat bilan mashg'ul bo'lish, ro'za tutish va sadaqa-ehson berish moniylikning asosiy talablari hisoblanadi.

Turk xoqonligi davrida moniylik So'g'diyona, Tohariston, so'ngra, Sharqiy Turkiston va Xitoya keng tarqaladi. Sharqiy Turkiston va Xitoya keng tarqalishida so'g'diyonalik missionerlarning roli benihoya katta bo'lgan. VIII asrda uyg'ur xoqonlari moniylikni davlat dini deb e'lon qildilar. Xitoy imperatorlari esa so'g'dlarga xitoy hududlarida ibodatxonalar qurishga va moniylikni targ'ib qilishga ruxsat beradi.

Moniy va uning izdoshlari o'z ta'limotlarini targ'ib qilishda san'atga, ayniqsa, uning musiqa va tasviriy san'at turlariga alohida e'tibor beradilar. Ular musiqa va tasviriy san'atning inson ruhiyatiga chuqurroq kirib borishi, dindorning nozik tuyg'ularini o'zgartirishi va ag'dar-to'ntar qilib yubora olish qudratiga alohida e'tibor beradilar. Shu boisdan ular diniy marosimlarni o'tkazishda musiqa san'atidan keng foydalanadilar. Ibodatxonalarini bezashda esa tasviriy san'atga alohida o'rin ajratadilar, diniy sujetlardan keng foydalanishadi. Bu bilan Markaziy Osiyo va unga yondosh bo'lgan mintaqalar va davlatlar, jumladan.

Sharqiy Turkiston va Xitoyda musiqa va tasviriy san'atning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadilar.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Turk xoqonligi davridagi haykaltaroshlik va qo'shiqchilik san'atlarining rivojlanishida buddaviylik va zardushtiylikning o'mi ham beqiyos katta bo'lgan. Sababi, buddaviylikda Buddha ibodatxonalarini va stupalar bezagida nafaqat terrakota haykalchalar, balki relyefli va gorelyefli haykallardan ham keng ko'lama foydalanilgan. Mazkur haykallarda Buddha va uning izdoshlari hisoblangan bodhisatvalarning haykallari yaratilib ibodatxonalarga joylashtirilgan.

Zardushtiylik dini esa qo'shiqchilik san'atining rivojiga beqiyos darajada katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki, zardushtiylar ibodatida Ahuramazda va boshqa ezgu kuchlar qo'shiq bo'lib kuylanuvchi goxlar (qo'shiqlar) orqali madh etilgan. Yovuz ruhlarga la'natlar o'qilgan. Boshqacha qilib aytganda, diniy madhiyalar va goxlarni birgalashib kuylash diniy marosimlar hamda bayramlarning sho'xshodon va zavqli o'tishini ta'minlagan.

Oltoy hamda Janubiy Sibirdan ko'chib kelgan turkiy qavmlar o'rtasida shomonga e'tiqod qilish ham saqlanib qolingen. Chunki ko'chmanchi chorvador qavmlarda hali urug' jamoasi an'analari saqlab qolingen edi. Xuddi shuningdek, tuproq, suv, olov va havoni yaratgan Ko'k tangriga e'tiqod qilish, unga atab ot, sigir, va qo'y qurbanlik qilish marosimi ancha muqim bo'lgan. Shu o'rinda nima sababdan buddaviylik Markaziy Osiyo xalqlarining mustahkam diniy e'tiqodiga aylanmadni, degan savol tug'iladi. Axir, buddaviylik hatto turkiy sulola — Kushonlar tomonidan davlat dini deb e'lon qilingan edi-ku?

Turklar azaldan tabiatning ayovsiz qarama-qarshiligi ostida yashaganlar. Ular iqlim sharoiti birmuncha mo'tadir bo'lgan hindlarga nisbatan injiq tabiat hodisalari va turli urushqoq qavmlar orasida yashaganlar. Ularning yumshoq ko'ngil bo'lishi, yogva rahm-shafqat qilishi o'lim bilan baravar bo'lgan. Shimolning ayovsiz sovuqlariga, tabiatning turli xil sinovlari va har qanday qiyinchiliklarga dosh bera oladigan mustahkam iroda talab qilinar edi. Shu boisdan ham turklar o'z mijozlariga to'g'ri kelmagani Hindiston dinlarini qabul qilishga mutlaqo urinishmagan. Xususan, Buddha dini VI - VIII asrlar davomida Markaziy Osiyoda tarqala boshlagan edi. Biroq Ko'k Turk hukmdori Bilga xoqon va uning vaziri To'nyuquq bu dinni yumshoqlik va miskinlikni targ'ib etgani, jangu jadalni va hayvon so'yishni man qilgani, xullas, turklarning hayot tarzlariga mos kelmagani uchun rad etdilar. Chunki Buddha dini millatning harb qudratini buzib, Chin (Xitoy) xavfiga yo'l ochishi mumkin edi. Shuning uchun ham turklar har bir ishda milliy xususiyat, ehtiyoj va andishalardan kelib chiqib ish qilishardi. Ayni choqda IX asr arab mutafakkiri Johizning: «Moni dinini qabul etgan uyg'ular jang qobilyatini yo'qotdi» — degan ta'kidini eslamoq joiz.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Ko'chirmalar Turon Usmonning «Turkiy xalqlar mafkurasi» nomli risolasidan olindi.  
—T.: 1995, 13-bet.

Shomoniy turklar jang asnosida dushmanni o'ldirishni gunoh emas, balki savob hisoblashardi. Shuning uchun ham Ko'k turk xoqonlari va beklari o'ldirilgan yog'iy (dushman) urug'larining chirkin haykallarini (balballarini) o'z mozorlari yoniga tiklashib, bularning oxirat uchun foydali bo'lismiga shubha qilmasdi. Bu ham ularning jangovarligidan bir shohidlik beradi.<sup>1</sup>

Demak, tabiat sinovlariga zo't matonat bilan dosh bergen, yovlarga nisbatan beshafqat bo'lgan turklar tabiatiga buddaviylikdagi azob-uqubat haqidagi ta'limot – tug'ilish, yashash, kasallik va o'lim azob - uqubatdan iborat ekanligi, azob-uqubatga faqat taqvo, tinimsiz ibodat bilan shug'ullanish yo'li orqali chidash mumkinligi haqidagi ta'limot to'g'ri kelmas edi.

Turkiy qavmlarning olovga e'tiqodi nihoyatda yuqori bo'lgan. Chunki ularning tasavvuriga ko'ra olov tozalovchilik xususiyatiga ega. Qadimgi Turklarda qavmga begona bo'lgan kishi ular yashayotgan hududga kirganda yoki qavm oqsoqoli (hukmdori) huzuriga kirayotganida albatta ikki olov orasidan o'tish shart bo'lgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ham Siyovushning o'z o'gay onasining hayvoniy hirsini rad etganligi uchun nohaq ayblanishi, otasiga o'zining begunoh ekanligini olov o'rtaidan ziyon-zahmat chekmasdan o'tishi orqali isbotlaganligi hikoya qilinadi. Turk xoqonligi davriga kelib, Buddaviylik markazlari O'rta Osiyoning madaniy jihatdan birmuncha rivojlangan markazlari Buxoro, Balk va Bomiyonda saqlanib qolingga. Arablar istilosи arafasida Buxoro hududida ko'plab buddaviy ibodatxonalar (Vihara)saqlanib qolingga. Arablar Poykent shahrini ishg'ol qilganlarida shahardagi ibodatxonalarda kumushdan yasalgan budda butlarini to'plab eritadilar.

Islom dinining Turk xoqonligi hududiga kirib kelguniga qadar, mamlakatda turli xil bayramlar nishonlangan. Movarounnahr islomlashtirilgungichcha O'rta Osiyo xalqlari turli xil bayramlar, sayillar va marosimlarni o'tkazganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining asosiy odal, marosim va bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Ajodolarimiz borliqdagi muhim to'rt narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan bog'liq to'rt ulug' tunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. Masalan, tabiatning Uyg'onish kun-tun tengligi, dala ishlaringin boshlanishi pallasida Navro'z; yozda – quyosh tik bo'lib, tun qisqarib, kunning uzayishi davom etganida, havo harorati yuqori darajaga ko'tarilib suvgaga ehtiyoj kuchayganida suvgaga bag'ishlangan tadbir – Angom (Vaxshangom); kuzda kun-tun tenglashib yilning ikkinchi yarmi boshlanganida – dehqonlar daladagi hosilni yig'ib olgan vaqtida Mehrjon (Chir-ruj, Nim-sarda); qishda – eng uzoq tun va qisqa kun sodir bo'lib, sovuq avjiga chiqqanida (qishki chilliya) isitishga ehtiyoji kuchaygan paytda Sada-Olov bayrami (gulxanlarda isinish) kabilarni uyushtirishgan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Ko'chirmalar Turon Usmonning «Turkiy xalqlar mafkurasi» nomli risolasidan olindi.  
—T.: 1995, 13-bet.

<sup>2</sup> Qoraboyev U. H. O'zbek xalqi bayramlari – T.: 2002, 53-bet.

## **IV BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI**

### **1-§. Sharq va G'arb Uyg'onish davrlari madaniyatları va ularning xususiyatlari**

Mamlakatimiz tarixidagi IX-XII asrlar madaniyat tarixida ilk uyg'onish davri nomi bilan ataladi. Bu davr milliy madaniyatimizdagi eng yorqin sahifalardan biri bo'lib, nafaqat moddiy madaniyat, balki ma'naviy madaniyatning barcha sohalarida yuqori darajaga erishilgan davrdir.

Shu o'rinda, umuman, «Uyg'onish» («Renessans») atamasи, uning fanda qachondan boshlab qo'llanilganligi, Uyg'onish davri madaniyati tushunchasi, Sharq va G'arb Uyg'onish davrlari madaniyatları va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda xarakterli belgilari qisqacha to'xtalib o'tish joizdir.

«Uyg'onish» («Renaissance») atamasini ilk bor italiyalik yozuvchi J. Bokachcho musavvir Jotto ijodiga nisbatan «u antik san'atni uyg'otdi», deb ishlatgan. Italiyalik san'atshunos va rassom J. Vazari esa o'zining «Mashhur san'atkorlar hayotidan lavhalar» nomli asarida «uyg'onish» atamasini butun bir madaniy-tarixiy davmi ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatgan edi.

Uyg'onish – bu G'arbiy va Markaziy Yevropa madaniyati tarixidagi XIV-XVI asrlarni o'z ichiga olgan ma'lum bir davr. Bu davr Yevropa madaniyatidagi tub burilish davri hisoblanib, Yevropaning buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan davridir. Shuningdek, Uyg'onish davrida kitob chop etish yo'lga qo'yildi, antik davr madaniyati – san'ati, fani, falsafasiga bo'lgan qiziqish nihoyatda kuchaydi. Antik davr fani, falsafasi va san'ati Yevropa xalqlari madaniyatini qamrab oladi. Shu boisdan ham «uyg'onish» atamasining mohiyati ham antik davr madaniyatining uyg'onish, qayta jonlanish ma'nolarini anglatgan. Ikki yarim asr mobaynida yevropaliklarning dunyoqarashi o'zgardi. Dunyoning tuzilishi, inson va jamiyatning asl mohiyati haqidagi fikrlari tubdan yangilandi. Inson, uning tabiat va jamiyat bilan o'zaro aloqasi masalasi birinchi va asosiy masalaga aylandi. Inson muammosi va uning hayoti, ichki kechimmalari va tafakkuri masalasi xudolar, avliyolar, farishtalar haqidagi tushunchalardan ko'ra muhimroq masalaga aylandi.

Yevropa Uyg'onish davri ijodkorlari: shoirlar, filologlar, faylasuf va boshqa atoqli san'atkorlar o'zlarining tadqiqot markaziga insonni qo'yidilar.

XX asrning 50-yillariga kelib Sharq Uyg'onish davri madaniyati masalasiga alohida e'tibor berila boshlanadi. Akademik N. Konrad o'zining «G'arb va Sharq» nomli asarida Xitoy madaniyatini tahlil qila turib, Uyg'onish davrini insoniyat sivilizatsiyasining barcha davrlari va mintaqalariga xos umumbashariy hodisa deb hisoblaydi. Uning fikricha, Uyg'onish dastlab Xitoya (VI-VIII asrlarda),

so'ngra O'rta Sharqda – O'rta Osiyo, Eron, Shimoli-g'arbiy Hindistonda (IX-XII asrlarda), keyinroq esa, G'arbiy Yevropada hodisaga aylangan.

Uyg'onish davri – bu, eng avvalo, ijtimoiy taraqqiyotda ishlab chiqarish munosabatlарining ham, ma'naviy hayotning ham yangi bosqichga o'tish davridir, ya'ni eski ishlab chiqarish munosabatlari va ma'naviy hayotning yangisiga o'tishidir.

IX-XII asrlar Mavarounnahr va Xurosonda vujudga kelgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiyalar, Xorazmshohlar davlatlari, eng avvalo, iqtisodiy jihatdan yuksalishga erishdilar. So'ngra islom ma'naviyatiga asoslangan madaniy taraqqiyotni vujudga keltirdilar.

Ma'naviyat asoslari hisoblangan e'tiqod yakdilligi, siyosiy boshqaruva asoslari, qonun ustuvorligi, axloqiy kamolot, aql-idrok takomili, ma'rifiy barkamollik va fan taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqqa oldilar.

Uyg'onish davri madaniyati tushunchasi, bizningcha, birinchidan, muayyan millat yoki xalqning ma'naviy mahdudlikdan ozod bo'la borishi, milliy qobiqdan chiqib, dastlab hududiy, so'ngra umumjahon ma'naviyatiga ta'sir ko'rsata borishi, ikkinchidan, tanazzulga yuz tutgan yoki boshqa kuchliroq xalqlar ma'naviyati tazyiqiga uchragan, tarix sahnasidan tushib ketishga mahkum etilgan millat, elat yoki xalqning milliy madaniyatini qaytadan jonlantirish, tiklash, rivojlanadirish va yuksak darajaga ko'tarilishini anglatadi.

Uyg'onish davrlarining madaniyatiga xos bo'lgan umumiyy mushtarak tomonlar mavjuddir. Bu mushtarak tomonlar, birinchidan, Sharq va G'arb Uyg'onish davrlari madaniy taraqqiyoti boshida o'sha davr hukmdorlarining o'zları turganlar va madaniy jarayonning rivojlanishiga imkoniyat yaratib bergenlar. Masalan, Sharq Uyg'onish davri madaniyati rivojlangan paytda o'sha davrning hukmdorlari – xalifa Xorun ar-Rashid, uning o'g'li Ma'mun, Somoniylar, Qoraxoniylar va boshqa sulolalarning vakillari turganlar. Ular islomning mustahkamlanishiga, ma'rifatning tarqalishiga, turli xil fan sohalarining rivojlanishiga boshchilik qilganlar. O'zlarining poytaxtlariga o'sha davrning ko'zga ko'rigan olimlari, fikhshunoslari, muhaddislar, tarixchilar, shoirlar, me'morlar, san'atkirlarni to'plagan. Maxsus ilm markazlari, kutubxonalar, madrasalar barpo etib, ularni mablag' bilan ta'minlab turganlar. Shu boisdan ham IX asrdan boshlab ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morchilik va teologiya yuksak darajada rivojlanma boshlaydi.

O'z navbatida, G'arb Uyg'onish davri madaniy taraqqiyoti boshida ham o'sha davrning boy-badavlat kishilari: Florensiyada shahaming eng boy-badavlat kishi, bankir Kozima Medichi, so'ngra uning neverasi Lorendo turgan. Kozima Medichi Florensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini boshqarishni o'z qo'liga oladi. O'z atrofiga mashhur olimlar va san'atkirlarni to'playdi, ularni ish bilan ta'minlaydi, ularga homiylik qiladi. Natijada Florensiya XV asrda Italiyaning madaniy jihatdan eng yuksalgan shahri sifatida Uyg'onish

davri san'atining vataniga aylanadi. Bu yerda antik dunyo san'ati yodgorliklarini o'zida mujassamlashtirgan birinchi badiiy muzey tashkil etiladi.

Uyg'onish davri madaniyatining yana bir muhim xususiyati turli fan sohalarida demokratik jarayonning ro'y berganligidir. O'sha davrning buyuk siyomlari — ilm-fan fidoyilar mavqeyi, millati, diniy e'tiqodlari qanaqa bo'llishidan qat'iy nazar yagona maqsad — fanlarni rivojlantirish uchun kurash olib boradilar.

Bu davrning donishmandlari insonning o'ziga, atrof-muhitga, o'tmish madaniy merosiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga alohida e'tibor beradilar. Inson, uning taqdiri, kelajagi, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari fan va san'atning asosiy mavzusiga aylanadi. Madaniy va ma'naviy ta'sir real insonga qaratiladi. Natijada kishilarning dunyoqarashi o'tmishga bo'lgan bahosi axloqiy va estetik qarashlari o'zgara boshlaydi.

Umuman olganda, Uyg'onish davri madaniy taraqqiyotning eng muhim xususiyati — ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda muayyan etnik birliklarning milliy madaniyatini, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va yuksaltirishga bo'lgan yuqori darajadagi buniyodkorlik intilishlari bilan xarakterlanadi.

Bizningcha, Sharq va G'arb Uyg'onish davrlari madaniyatlarining bir-biridan farqlanib turadigan jihatni mavjud bo'lib, Sharq Uyg'onish davrida asosiy e'tibor inson ma'naviyatini yuksaltirishga, uning ma'navi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, G'arb Uyg'onish davrida inson moddiy ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirish alohida vazifa qilib qo'yilgan. Agar Sharq va G'arb ma'naviyatiga e'tibor berilsa, Sharqda ma'naviy barkamol insonni shakllantirishga e'tibor berilganligini, kishilar o'rtasidagi munosabatlar axloqiy barkamollikka, diyonatlilik asosiga qurilganligini ko'rish mumkin. G'arb madaniyatida esa asosiy e'tibor kishining moddiy jihatdan ta'minlanganligiga qaratiladi. Shu boisdan ham G'arbda ko'proq shaxsiy manfaat ustunlik qiladi.

Agar Sharq madaniy taraqqiyotiga nazar tashlasak, musulmon Sharqida VII asrning ikkinchi yarmidayoq fanlarning ko'pgina sohalari bo'yicha yangi fikrlar, g'oyalar va qarashlar ilgari surilganligini ko'ramiz. G'arbda esa XII-XVI asrlar oraliq'iga kelibgina fan va tafakkurda ko'tarilish yuzaga kelgan.

Masala shundaki, musulmon Sharqi falsafasi, madaniyati ilgari surgan g'oyalar IX-XII asrlardayoq bayon etilgan bo'lib, bu g'oyalarning ko'pchiligi G'arb mamlakatlarida XIII - XVI asrlarda o'z isbotini topgan.

G'arbda keyinchalik isbotlangan va ochilgan ko'plab fan yangiliklari dastlab musulmon Sharqi mutafakkirlari tomonidan aytilgan, lekin ular isbotlanmaganligi sababi hanuz noma'lumligicha qolmoqda. Balki G'arb mamlakatlaridagidek aholining ko'pchiligi savodli emasligimi yoki hali bizga noma'lum sabablarning borligi tufaylimi bu yangiliklarning ko'pchiligi musulmon Sharqida o'z isbotini topmay, og'zaki aytilgancha qolib ketgan.

## 2-§. Ilm-fan taraqqiyoti

IX-XI asrlarda arab xalifaligi, shu jumladan, Movarounnahr va Xurosonda nafaqat dehqonchilik, balki metallurgiya, to'qimachilik, hunarmandchilik kabi sohalar ham rivojlanib ketdi. Jamiyatning ham iqtisodiy, ham ma'naviy hayotidagi tub o'zgarishlar ko'plab muammolarning kelib chiqishiga olib keldi. Bu muammolarni hal qilish ilm-fanning rivoji uchun ehtiyoj tug'dirdi. Natijada matematika, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar, shuningdek, jamiyatni boshqarish, uning ma'naviy-mafkuraviy hayotidagi muammolar yechimini topishga yordam beruvchi ijtimoiy-gumanitar fanlar ham rivojlandi.

Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning yuksalishidagi asosiy omillardan yana biri shuki, bu davrda turli xil nazariyalar, qarashlar va g'oyalarni ilgari suruvchi oqimlarning paydo bo'lishi va turli fikrlar uchun keng yo'lning ochib berilganligidir. Bu oqimlar nafaqat islom nazariyasi va ta'limoti, balki tabiat hodisalari va uning qonuniyatlarini hamda inson va uning mehnati, yaratuvchilik salohiyati haqidagi turli xil nazariyalar va ta'limotlarni ilgari suradilar.

Bu davr fanining rivojida ijobjiy hodisa hisoblangan ismoiliylik, mu'tazilliylilik va «Ixvon us-safo» («Pok birodarlar») oqimlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Ismoiliylik oqimi ilm-fan, ma'rifat va falsafaning keng tarqalishi, tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganish, ozodlik, boylik va qashshoqlikning tub mohiyatini ochib berish g'oyalarini ilgari suradi.

Mu'tazilliylilik oqimi tarafdarlari insoniyat jamiyatini taraqqiyotida tajriba va bilimning, aql va idrokning roliga alohida e'tibor beradilar. Qur'on va sunnatdagi aqidalarni aql-idrokka tayanib talqin etish g'oyasini ilgari suradilar. Ularning fikriga ko'ra, taqdiri azalga ishonish, ya'ni «xudo peshanaga yozib qo'ygan» degan aqidaga ishonish Ollohga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Chunki insondagi yaramas xatti-harakatlar ham xudoning irodasi mahsuli bo'lib qoladi. Mu'tazilliyarga homiylik qilgan xalifa Ma'mun davrida (813-833) O'rta Osiyo, Eron va Ispaniyada ilm-fan, ayniqa, matematika, astronomiya, geografiya, falsafa va boshqa fanlar yuksak darajaga ko'tariladi.

Erkin fikrlovchi «Ixvon us-safo» («Pok birodarlar») oqimi tarafdarlari matematika, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar hamda falsafa taraqqiyotiga alohida e'tibor bergenlar, ilmda halollik uchun kurashganlar. Ayniqa, ularning odamning paydo bo'lishi haqidagi fikrlari hozirgi zamон fanlari xulosalariga juda yaqin bo'lgan. Ularning fikricha, hayot ekvator mintaqasida, kecha va kunduz teng, issiq va sovuq, namlik va quruqlik uyg'un holatda aralashgan joyda kelib chiqqan, o'sha joyda, g'ayri tabiiy kuchlarning ishtirokisiz, Odam Ato va Momo Havo paydo bo'lgan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - T.: 1997, 200-bet.

Xullas, «Ixvon us-safo» Sharq Uyg'onish davrining Ibn Sino, Beruniy, ar-Roziy, Umar Xayyom, Ibn Rushd kabi buyuk mutafakkirlarining yetishib chiqishiga va aniq fanlar taraqqiyotiga zamin hozirladi.

Albatta, har bir davrda qarama-qarshi ta'limotlarning mavjud bo'lishi tabiiy hodisa bo'lganidek, ismoiliylik, mu'tazilliylik va «Ixvon us-safo» oqimlarining ta'limotlariga qarshi turuvchi va kurashuvchi oqim – mutakallimlar diniy aqida targ'ibotchilari harakati vujudga keladi. Ular islom aqidalarini sof holda saqlash, turli xil chalkashliklarga yo'l qo'ymaslikni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. Ularning fikriga ko'ra, Qur'on Olloh tomonidan yuborilgan, uning mazmunini har kim o'z bilganicha talqin etishi mumkin emas.

Mutakallimlarning xalifalik ma'naviy hayoti va maskurasini o'z qo'llariga olishi natijasida markaz – Bag'dod o'z mavqeysini yo'qota boshlaydi.

Ismoiliylik, mu'tazilliylik va «Sof birodarlar» oqimi g'oyalari xalifa Ma'mundan keyin xalifalik taxtiga kelgan hukmdorlar (masalan, Xalifa Mutavakkil (847-861) g'azabini keltiradi. Natijada u «Qur'onning vahiy bo'lganligiga shubha bildirgan har qanday kimsa o'limga mahkum» degan farmoni oliy chiqartiradi.

Mutakallimlarning ilg'or fikr egalariga qarshi olib borgan kurashi natijasida hadislarni Qur'on oyatlari darajasiga ko'targan, ularga hech qanday shubha bildirmasdan ishonishni qat'iylashtiruvchi Xanbaliya mazhabi hamda shariatni mutlaqlashtiruvchi va uning musulmonlar hayotini belgilab berishini asoslovchi «Al Ash'ariya» yo'nalishininig paydo bo'lishiga olib keladi.

Mutakallim, Xanbaliya va Al Ash'ariya oqimlari hamda mazhablarining erkin fikr egalarini ta'qib qilishi ko'plab olimlar, san'atkori va boshqa ko'plab ijodkorlarning Xalifalik markazini tark etishlari va Somoniylar huzuriga kelib yashashiga olib keldi. Bu esa O'rta Osiyo ilm-fanining rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Mavarounnahr, Xuroson, Shimoliy Afrika va Andalusiya (Ispaniya)ning xalifalik tarkibidan ajralib chiqishi mazkur mintaqalarda tashkil topgan davlatlar madaniy taraqqiyotini tezlashtiradi.

Somoniylar davlatining paydo bo'lishi mintaqamiz madaniy taraqqiyotining yuksalishiga zamin hozirladi. Natijada Somoniylar davrda umuminsoniy madaniyat, ayniqsa, ilm-fan taraqqiyotida o'z izini qoldirgan Muso Xorazmiy. Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino singari buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdilar.

Agar jahon fani taraqqiyotiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan vatandoshlarimiz ijodiga nazar tashlasak, ular Sharq Uyg'onish davrining har bir asrida yashab ijod etganligi, o'zidan oldin yashagan allomalar silsilasini davom ettirganligini ko'ramiz. Masalan, IX asrda yashagan Muso Xorazmiy va Ahmad Farg'oniylar matematika, astronomiya, geografiya fanlari; Imom Buxoriy va Iso At-Termiziylar hadisshunoslik; Ahmad Yugnakiy axloqshunoslik ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan bo'lsalar, X asrda yashagan Abu Nasr Forobi falsafa, mantiq, jamiyatni boshqarish, tabiiy fanlar taraqqiyotiga, Abu Abdulloh

Rudakiy she'riyatning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. XI asrga kelib buyuk siymolar faoliyat ko'rsatgan fan sohalari tizimi yanada kengayadi. Masalan, Ibn Sino nafaqat tabobat va falsafa, balki botanika, geologiya, mineralogiya, matematika va astronomiya sohasida; Beruniy astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya va tarix sohasida, Nosir Xusrav she'riyatda, Yusuf Xos Hojib axloqshunoslik va adabiyotda; Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik va lug'atshunoslikda faoliyat ko'rsatganlar. XII asrda esa Ismoil Jurjoniy tabobat; Ahmad Yassaviy tasavvuf (sufiylik) tariqati; Burhoniddin Marg'inoniy fikh (huquqshunoslik), Mahmud Zamaxshariy tilshunoslik, adabiyot, tafsir va huquqshunoslikning rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Bu davr ilm-fanining rivojlanishidagi asosiy omillardan yana biri – ilm ahllariga ko'rsatilgan g'amxo'rlik, homiylik, hurmat-ehtiromning yuqori darajadaligidir. Bu davrda olimlarning shohlardan ham ko'ra ulug'roq deb hisoblanishining o'zi ilm ahliga bo'lgan munosabatni ko'rsatadi.

Sharq Uyg'onish davri ilm-fanining rivojlanishida V-VI asrlarda Sharqning ko'pgina shaharlariga ko'chib kelib yashagan yevropalik olimlar ham muhim rol o'ynaydilar. Ular yordamida qadimgi yunon mutafakkirlarining asarlari arab tiliga tarjima qilina boshlangan. Sharqning Forobi, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk siymolari ana shu tarjimalar orqali qadimgi yunon falsafasi, adabiyoti, tabobati, matematikasi, fizika va mexanikasiga oid asarlar bilan tanishib chiqadilar. Musulmon madaniyatining vujudga kelishida arab, yunon, eron va hind madaniyatlarining o'zaro qo'shilushi ham muhim rol o'ynagan. Hindiston va Yunonistondagi qadimgi davr fani sohalariga oid asarlarning arab tilidagi tarjimalari bir tomonidan buyuk matematik va astronomolar – Muso Xorazmiy va Ahmad Farg'oniyilar, so'ngra, Umar Xayyom va Beruniylar ijodining, faylasuf olim Abu Nasr Forobi va Ibn Sinolar ijodining gullab-yashnashiga turki bo'ldi.

### **3-§. Islom ta'limoti va hadisshunoslik ilmining rivoji**

Markaziy Osiyo va Xurosandan yetishib chiqqan buyuk muhaddis va fikhshunos olimlar islam dinining nazariy jihatdan mustahkamlanishida o'z hissalarini qo'sha boshlaydilar.

IX asr boshlarigacha Qur'oni karimni tahlil qilish, suralar va oyatlarni nazariy jihatdan asoslash shakllanib ulgurmagan edi, oyatlarda kishilar hali tushunib yetmagan, munozarali jihatlarning mavjudligi tufayli turli xil mazhablar, oqimlar va hatto Qur'onning yaratilganligi yoki Olloh tomonidan vahiy qilinganligi ustida ayrim tortishuvlar bejiz vujudga kelmagan edi. Ismoiliylik, mu'tazilliylilik, «Sof birodarlar», mutakallimlar o'rtasidagi tortishuvlar, Xanafiya, Xanbaliya, Shofi'iya, Molikiya kabi aqoidiy mazhablarning paydo bo'lganligi buning dalilidir.

Qur'on mukammal va muqaddas bo'lishi barobarida barcha musulmon jamoalarining huquqiy va axloqiy masalalarga oid muammolarini hal qilib bera olmas edi. Davr, yangidan yangi vaziyatlar esa o'zgarib turadigan va moslanuvchan hamda qonunlashtirilgan yangidan yangi manbalarni talab qilardi. Shu boisdan biror-bir muammoni hal qilishda chigal vaziyatdan chiqib ketishda Qur'onдан javob topilmasa, albatta, bunday holatda Muhammad Payg'ambarning aytgan gaplari, ko'rsatmalari va bajargan ishlari – Hadislarga murojaat qilingan. Bu hadislarning ko'pchiligi uning qarindoshlari, sahobalari va safdoshlaridan yozib olingan. Chunki hadislarning aksariyat qismi o'zida islom axloqi va huquqi, marosim va urf-odatlariga oid me'yirlarni aks ettirgan. Hadislarni to'plash islom ta'limoti, huquq va axloq me'yorlarini mustahkamlashdag'i asosiy harakatga aylandi. Islom olamida dovrug' taratgan muhaddis-hadisshunoslar paydo bo'ldi. Ulardan ikki nafari – Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) va Iso at-Termizi (824-892) bizning vatandoshlarimizdir.

20 dan ortiq asar yozgan «Hadis ilmining amiri» nomini olgan Imam Buxoriy o'zining «Al-Jomi' as-Sahih» («Ishonarli to'plam») va «Al-Adab al-Mufrad» («Adab durdonalari») nomli asarlari bilan islom olamida mashhurdir.

U 600000 hadisni to'plab, shundan 7275 ta hadisni o'zining «Al-Jomi' as-Sahih» to'plamiga jamlaydi.

Ushbu asarga nafaqat islom ta'limotiga oid, balki umuminsoniy axloq me'yorlari, oila, qarindosh-urug'chilik, muruvvat va mehribonchilik, mehnatsevarlik va vatanga muhabbat, afzal va noafzal xatti-harakatlar hamda shariat ahkomlariga oid masalalar ham kiritilgan.

Biyuk vatandoshimiz, hadis ilmining mashhur namoyandası Iso at-Termiziylar islam dunyosida o'zining «Sunani Termiziyy» («Termiziyy sunnatlari») va «Ash-shamoil an-Nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlari») nomli asarlari bilan mashhurdir.

«Sunani Termiziyy» asarida islom ta'limoti va aqidalar, oilaviy munosabatlar, insonning moddiy va ma'naviy qiyofasiga, umuminsoniyatga tegishli axloq va odob qoidalari, o'zaro munosabatlar, ilm va ilmsizlik, huquqiy me'yorlar. Qur'on, qiroat, tafsir kabi keng ko'lamli hadislar to'plangan.

«Payg'ambarning alohida fazilatlari» nomli asarida esa, Muhammad alayhissalomning shaxsiy hayoti, ma'naviy qiyofasi, fazilatlari va odatlariga oid hadislar to'plangan.

Umuman olganda, hamyurtlarimiz Imam al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziylar hadislarga oid o'zlari yaratgan asarlari bilan nafaqat islom dunyosiga tanilganlar, balki Islom dinining Payg'ambari, uning qarindosh-urug'lar, sahobalari, safdoshlarining hayoti va ijobjiy fazilatlari, shuningdek, ular yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy muhit haqida ham muayyan tasavvurlar hosil qilishga yordam beruvchi manbalarni yozib qoldirganlar.

**Tasavvuf.** Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar nafaqat ilm-fan taraqqiyotiga va hadisshunoslik ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shganlar, balki islom olamida keng tarqalgan tasavvuf tariqatlarining ayrimlariga ham asos solganlar.

Bu diniy-falsafiy ta'limot dastlab VIII asr o'ttalarida Arabistonda paydo bo'lган. Arab bosqinchilarining Osiyo, Afrika va Yevropaning birmuncha boy o'lklarini bosib olishi, u joylardan ko'plab asirlarni olib kelishi va qul savdosini avj oldirishi bosib olingan shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirishi – bularning barchasi Muhammad alayhissalom qat'yan rioya qilgan amallarga, islom dinining mohiyati va talablariga butunlay zid bo'lган.

Ikkinci tomondan, tasavvuf yo'liga kirganlar islomdagi asosiy talab – gunohdan forig' bo'lish yo'lini tanlaydilar. Mazkur yo'lni tanlaganlar bilvosita gunoh: ko'z, quloq va tana gunohlariga botishdan o'zlarini saqlashga harakat qilganlar. Ularning fikriga ko'ra, haqiqiy musulmonlarning bilvosita gunohlardan, ya'ni odamlarning qilayotgan gunohlarini ko'ra bila turib oldini ola olmasligi, odamlarning bir-biriga qilayotgan ta'na-yu dashnomlari, haqoratlari, o'zaro janjallari, g'iybatu bo'htonlarini eshitib, biror chora ko'ra olmasliklari hamda turli nojo'ya yo'llar bilan boylik orttirib yaxshi yashayotgan kishilarga havas va hasad qilib, Olloh bergen boylik va rizqqa qanoat qilmasdan o'z nafsu hirsini qondirish yo'liga kirishlari ham gunohi azimdir. Shu boisdan ana shu ko'z, quloq va tana gunohlariga botib qolmaslikka intilgan haqiqiy musulmonlar tarki dunyochilik yo'lini tanlaganlar.

Tasavvuf ana shunday ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan norozilik kayfiyatini sifatida shakllangan. Bu oqim vakillarining diniy-falsafiy qarashlarida odamlar o'rtasida tobora chuqurlashib borayotgan tengsizlik va adolatsizlikni qoralash, barchani o'zining halol mehnati bilan kun kechirishga chaqirish g'oyalari ilgari surilgan. Tasavvuf falsafasida ijtimoiy-insonparvarlik fikrlari ustunlik qiladi.<sup>1</sup>

Tasavvuf dastlab poklanish, tarki dunyochilik orqali taqvodorlikka erishish tarzida vujudga kelgan xalqparvar tariqat hisoblanadi. U o'rta asrlarga kelgach, butun musulmon Sharqiga keng ko'lamda tarqala boshlaydi. Futuvvatsiz, ya'ni inson ruhini kamolga yetkazmasdan xudoni anglab bo'lmaydi. Insonning ruhini tarbiyalash va parvarishlash orqali undagi eng go'zal xulq-atvor va yuksak fazilatlarni shakllantirish mumkin. Futuvvat (javonmardlik) el-ulusdan yashirin ish qilmaslik, xushfe'lllik, ahdga vafo qilish, o'zini boshqalardan yuqori qo'ymaslik, nafsni jilovlash, saxiylik, kibr-havoga berilmaslikdir.

Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Ollohga munosabatidir, ya'ni solihning Olloh vasliga yetishishidir. Olloh vasliga yetishishning 4 bosqichi bo'lib, bular shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdir. Sufiy ana shu bosqichlarni bosib o'tib haqiqatga – Olloh vasliga yetishishi mumkin. Umuman olganda,

Usmon O. Bahouddin Naqshband va uning tariqati haqida. – T.: 1993, 11-bet.

tasavvuf ruhiy poklanish bo'lib, uning nazariy va amaliy tomonlari mavjud. Uning nazariy tomoni tarki dunyoqchilik, ya'ni asketizm, mistitsizm va ponteizmdan iborat. Unda Tasavvuf vasliga yetishish markaziy o'rinni egallaydi. Bu esa botiniy yo'l bilan, intuitsiya va ishroq bilan amalgalashadi.

Tasavvufning amaliyot tomoni solihning xulq-odob qoidalarini bajarishda, eng avvalo, Ollohga sodiq bo'lishda, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaslikda, kasbhunar orqali hayot kechirishda, o'zgalarga yordam berishda, saxiy va sabr-qanoatli bo'lishda, Tasavvufning qoidalarini sidqidildan bajarishda namoyon bo'ladi.

Demak, buyuk vatandoshlarimiz tomonidan asos solingen sufiylik tariqatlari islomdagi umuminsoniy axloq me'yorlarining takomillashuviga, azaliy muammo bo'lib kelgan inson muammosini hal qilishga o'zining hissasini qo'shganligi bilan qimmatlidir.

#### 4-§. Tilshunoslik va axloqshunoslik

X-XI asrlarga kelib turkiy tilning shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Bunda, birinchidan, Mavarounnahr va Xuroson hududlarida Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar kabi turkiy sulolalar hukmronligi natijasida uning saroy tiliga aylana borganligi, ikkinchidan, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq aloqalarining diniy e'tiqodlar va umuminsoniy xususiyatga ega bo'lgan urf-odatlar hamda marosimlarning, ya'ni ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatning rivojlanma borishi va shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Mahmud Koshg'ariy XI asr boshlarida turkiy xalqlarning tiliga, turli qabila va urug'larning urf-odatlari hamda xalq og'zaki ijodiga qiziqadi. Natijada butun Mavarounnahr, Xorazm, Farg'ona, umuman, Qoraxoniylar sultanati hududlarini kezib chiqadi va turli qabila, urug' hamda xalqlarning turmushini kuzatadi, kasb-kori, urf-odatlari bilan qiziqadi, tili hamda og'zaki badiiy ijodi namunalarini to'plab o'rganadi.

«Devonu lug'otit turk» ikki qismidan — muqaddima va lug'at qismidan iborat bo'lib, muqaddima qismida asarning yaratilish sabablari, uning tuzilishi va boshqalarga to'xtalinishi. Lug'at qismida muallif olti mingdan ziyodroq turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosini arabcha izohlab beradi. Mahmud Koshg'ariy o'z kuzatishlari va faktik materiallar asosida turli qabila va elatlarning tillarini, hududiy dialektlari — shevalarini atroficha yoritib beradi. Leksika, fonetika, morfologiya va dialektologiyaga oid masalalar yuzasidan nazariy xulosalar chiqaradi. Bu asar turkologiya va uning tarixiga oid ko'plab faktik materiallarni o'zida qamrab olgan qimmatbaho manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarida turli qabilalar va xalqlarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odatlari hamda joylar va ularning tabiiy xususiyatlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar beradi.

Turkiy tillarning rivojida, uning nazariy jihatlarini tadqiq etishda Abu Xayyon Andalusiy (1256-1334) ning xizmatlari ham beqiyosdir. Abu Xayyon Andalusiy ham mashhur tilshunos sifatida turkiy tillarni tadqiq etish orqali turkiy qabilalar va elatlarning tillari hamda ularning tarixini yorituvchi bir qator asarlar yaratgan. Tilshunoslikka oid «Turk ozodligi chechagi», «Turkiy tillarni bilish kitobi», «Turk tilidagi fe'llar kitobi», «Turkiy til haqida nur beruvchi marvarid» kabi bir qator asarlari bilan tilshunoslik madaniyatni ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan.

O'rta asrlarda Mavarounnahr, Shosh, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashayotgan turkiy xalqlarning ham qadim davrlardan buyon davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda yozma adabiyot rivojlanishi boshladi. Natijada turkiy olamning nodir didaktik dostoni — Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», («Qutga, baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asari, Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqat armug'onii») asarlari o'rta asr turkiy xalqlarining eng noyob yozma yodgorliklari hisoblanadi.

Mashhur olim N.Mallayevning ta'kidlashicha, Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonini yaratara ekan, u Qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg'ochxon (poytaxti Qoshg'ar bo'lgan Sharqiy Turkiston hukmdori) va Ilikxon (mahalliy hokimlar) o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ'ib qilish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'shgan edi.

Shu bilan birga, «Qutadg'u bilig» madaniyat tarixi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, unda inson hayotining mohiyati va mazmuni tahlil qilinadi. Insonning jamiyatdagi o'rni, vazifalari, axloqiy qiyofalari aniqlanadi. Turli tabaqaga oid kishilarning insoniy xislatlari, dunyoqarashi, turish-turmushi haqida so'z yuritiladi va ularga hayotiy yo'l-yo'riqlar hamda maslahatlar beriladi.

Asardagi to'rt qahramon ideal orzu sifatida gavdalanadi: Kuntug'di (Tug'ilgan kun) — adolat ramzi, Oyto'ldi (To'lgan oy) — baxt va davlat ramzi, O'gdulmish (Aqlga to'lgan) — aqlilik ramzi, O'zg'urmish (Uyg'onish) — qanoat ramzi. Bu qahramonlar o'rtasida bo'lib o'tadigan savol-javob munozaralar jarayonida oddiy xalqdan tortib Qoraxoniylar sultanatineng eng oliy daraja hokimi — eliggacha bo'lgan oraliqdagi barcha tabaqa va toifalarning axloq-odob, xatti-harakat, munosabat chegaralari haqida bahs boradi. Shu sababdan ham bu asar pand-nasihat, ta'lim-tarbiya ruhi bilan sug'orilgan.

O'rta asrlarda turkiy tilda yozilgan badiiy-didaktik asarlardan yana biri Ahmad Yugnakiyning (XII asr oxiri va XIII asr boshlarida yashab ijod etgan shoir va olim) «Hibatul haqoyiq» asaridir. Asarning ayrim misralarigina muallif haqida orgina bo'lsa-da ma'lumot beradi. Dostonda muallif o'zi haqida yozib, tug'ma

ko'r bo'lganligini qayd etadi. Alisher Navoiy ham o'zining «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadasi») asarida Ahmad Yugnakiyni O'rta Osiyoning mashhur shayxlaridan biri bo'lganligini, uning ko'zi ojiz bo'lishiga qaramasdan, qalb ko'zi bag'oyat ravshan bo'lganligini ta'kidlaydi.

### 5-§. Me'morlik va musiqa san'ati

**Me'morlik.** IX-XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyo me'morlik san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Markaziy Osiyoning ko'pgina me'morlik yodgorliklari islom dini xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qurila boshlangan bo'lsa-da, o'zida islom dinigacha bo'lgan xususiyatlarni ham saqlab qolgan. Qurilish (me'morlik) san'ati ancha takomillashgan. Ayniqsa, pishiq g'ishtdan keng ko'lamda foydalanish, murakkab kompozitsiyalarni yaratish, binoning tashqi va ichki ulug'verligini ta'minlash imkoniyatini bergen. Ravoqli va gumbazli binolarni ko'plab qurish yo'lga qo'yilgan.

Pishiq g'ishtlarni turlicha terish orqali bino devorlarida o'ziga xos turli bezaklar yaratilgan. Darvozalar, eshiklar, darchalar va taxmonlar ravoqli qilib qurila boshlangan. Masalan, Ismoil Somoniy maqbarasi ( $10,80 \times 1,70\text{ m}^3$ ) shaklida ustki qismi gumbaz qilib qurilgan. Devorlarining qalinligi 1,8 metr bo'lib, to'rt tomonga to'rtta bir xil yog'och o'ymakorligining eng noyob namunalari hisoblangan eshiklar o'matilgan.

Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan, Marv kabi shaharlarda saroylar, masjidlar, xonaqohlar, madrasalar va minoralar, tim va sardobalar qurilgan. Ayniqsa, naqshinkor mehmonxonalar, ko'rkan va so'lim istirohat bog'lari qurish avj olgan. Bu davrning eng nodir yorgorligi va Markaziy Osiyo me'morligining barcha xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan Ismoil Somoniy maqbarasi o'zining tarovatini hozirgi kunimizgacha saqlab qolgan.

IX-X asrlar me'morchiligining yana bir xususiyati shahar markazi shahristonlarning vujudga kelishidir. Ya'ni shahar markazida turli saroylar, maqbaralar, madrasa va masjidlar, yirik bozorlar, karvonsaroylar va savdo rastalarining qurilganligidir.

IX-X asrlarga kelib Samarqand Mavarounnahrning eng go'zal shahriga aylandi. XI-XII asrlarda hokimiyat tepasiga Qoraxoniylar va Saljuqiylar keldi Iqtisodiy-madaniy taraqqiyot natijasida shaharlar o'z qiyofasini o'zgartirdi. Yirik-yirik inshootlar qurila boshlandi. Ayniqsa, pishiq g'ishtdan ravoqlar va gumbazlar qurilishi an'anaga aylandi. Buxorodagi Raboti Malik o'sha davr me'morligi san'atining noyob yodgorligi hisoblandi.

Bu davr me'morligining yana bir xususiyati binolarda sirli va rangli koshinlardan foydalanilganligidir. Natijada, maxsus hunarmandchilik sexlari ochilgan. Qurilishda foydalaniladigan turli maxsus kasblar paydo bo'lgan. Bu davr me'morligi tarixga «Binokor shoh» nomi bilan kirgan bo'lib, uning

taraqqiy etishida Muhammad Sulaymon Tegin o'g'li Arslonxon katta hissa qo'shgan.

Muhammad Arslonxon taxt tepasiga kelgach, ko'plab me'moriy yodgorliklar qurdiradi. Ayniqsa, Buxoro uning davrida me'morchilikning gullabyashnagan markaziga aylanadi. U Buxoroda ko'plab madrasalar, maqbaralar, timlar, karvonsaroylar qurdiradi. Birgina uning davrida Minorai Kalon (asli Minorai Arslonxon bo'lishi kerak), Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Buxoro atrofidagi Raboti Malik, Masjidi Magoki, Vobkent minoralari, Surxondaryodagi Jarqo'rg'on minoralari quriladi. Jarqo'rg'on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga yarim aylana shaklida 16 qirrali qilib qurilgan. Uning balandligi 21 metr dan ziyoddir.

Bu davning eng ajoyib, kishini hayratda qoldiradigan me'moriy yodgorliklaridan biri Buxorodagi Kalon minorasıdır. Balandligi chaması 60 metrlar bo'lib, qumli bo'ronlar payti uning tepasiga kechalari chiroq yoqib qo'yilgan u adashgan tuyalar karvoni uchun mayoq vazifasini bajargan.

XI-XII asrlarda masjidlar qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, Buxoroning Xazora qishlog'ida qurilgan Dehgaron masjidi XI asrda qurilgan. Masjid yoniga mashhur Raboti Malik karvonsaroyi barpo etilgan. Buxorodagi Nomozgohi, Magoki Attoriy masjidlari ham xuddi ana shu davrida qurilgan. Bu davda peshtoq gumbazli maqbaralar qurilishi me'morlikning bir ko'rinishi sifatida keng rivojlangan. Bunda binoga kiraverishdagi peshtoqning bezagiga alohida e'tibor berilgan.

Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi an'anaviy, tasviriy san'atda tub o'zgarishlar ro'y berishiga olib kelgan bo'lsa, naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, kandakorlik va boshqa xalq amaliy san'atlarining boyishiga ta'sir ko'rsatadi.

Islom talablariga qat'iyan bo'ysunish, an'anaviy tarzda rivojlanib kelgan tasviriy san'atning odam, hayvon va qushlarning, ya'ni tirik jonzotlarning aks ettirilishi man etilgan. Natijada, rangtasvir ustalari butun e'tiborini naqqoshlik san'ati rivojiga qaratadi. Arab yozuvi o'zlashtirilib, epigrafika uslubi vujudga keladi. Arab yozuvidan naqsh sifatida foydalanish keng rivojlanadi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsun, ham arab yozuvi va ilohiy so'zlarning targ'ibotchisiga aylanadi. Dastlab arab yozuvlaridan binoning ichki qismlarini bezashda foydalanilgan bo'lsa, birmuncha vaqt o'tgandan so'ng, binoning tashqi qismlari, gumbazlar va minoralarning atroflarini bezashda ham foydalanildi.

IX asrdan boshlab arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajaga ko'tariladi. Masalan, Buxorodagi Ismoil Somoniyligining ham ichkari qismi, ham tashqi qismida pishiq g'ishtdan qalama usulida nihoyatda go'zal naqshlar yaratilgan.

Binolarni bezashda girih (to'rtburchak, uchburchak, aylana, yoy, to'g'ri, egri va aralash chiziqlardan iborat), kundal, islimiy, ramziy va boshqa turli xil naqshlardan keng foydalanilgan. Naqqoshlikda uslubiy ko'rinishlardan sebarga, uchburchakli tutash doira, olti qirrali yulduz, bargak va boshqalardan foydalanilgan.

Bu davrda yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi ham keng rivojlangan. Binolarning tashqi qismiga namoyon (tugal naqsh kompozisiyasi) ustun va peshtoqlarga esa, o'yma ganch naqshlaridan ishlataladilar. Farg'ona vodiyisida plitkasimon o'yma ganchi naqshlaridan keng foydalangan bo'lsalar, Termizdag'i me'moriy yodgorliklar ganch o'ymakorligining eng yuqori darajasiga ko'tarilgan.

Har bir chizilgan naqsh ramziy ma'no kasb etgan. Masalan, gulsafsa naqshi osoyishtalik va uzoq umr timsoli hisoblangan bo'lsa, pechak islimiy naqshi — boylik va farovonlik, novda — to'kin-sochinlik, yaproq shaklidagi naqshlar — bahoriy uyg'onish ma'nolarini anglatgan.

Ilk Uyg'onish davrida boshlangan xalq amaliy san'ati turlaridan biri kandakorlik hisoblangan. Chunki bu davrda qimmatbaho metallardan yasalgan idishlar islam olamining eng chekka burchaklarigacha yetib borgan. Qizil misdan turli xil ko'zalar, idish-tovoqlar, dekchalar, choygumlar, oftobalar, jez va sariq misdan shamdonlar, oq misdan kirtog'oralar, turli xil uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan. Oltin suvi yuritilgan ipdan turli xil kiyimlar tikilib, buyumlarga naqshlar solingan.

**Musiqa.** Musiqa san'atining gurkirab rivojlanishi ham Ilk Uyg'onish davrining buyuk yutuqlaridan biridir. Bu davrda xalq ijodiyotining bir turi hisoblangan musiqa madaniyatining nazariy asoslarini o'rganish avj ola boshlaydi. Dastlab musiqashunoslikka matematika ilmining bir bo'lagi sifatida qaralgan.

Musiqa madaniyatining rivojlanishida xalqning an'anaviy tomosha san'ati muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga ilm va san'atsevar hukmdorlarning o'z saroylari qoshiga ko'plab san'atkorlarni to'plab, ularga horiylik ko'rsatganliklari ma'lum. Rud, tanbur, barbat, daf (doira), talb, qo'biz, rubob, taburak, nay, zir, chogona, shaypur, surnay, karnay, arnun, qonun kabi musiqa asbobalaridan keng foydalanganligining o'zi ham musiqa madaniyatining taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Mumtoz musiqa madaniyati, ayniqsa, o'zbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqasi hisoblangan «Shashmaqom» ning zamini ham xuddi mana shu davrda mustahkamlandi.

Ma'lumki, musiqa muayyan xalqning ichki ruhiy holatining ko'zgusi bo'lib, o'zida inson qalbining eng nozik hissiy kechinmalarini aks ettiradi. Shu boisdan Ilk Uyg'onish davri san'atkorlari insonning intilishlari, orzu-havasi, dunyoqarashi va ichki ruhiy kechinmalarini musiqa ohanglariga jo qilishga intiladilar. Musiqa ohanglaridan insonparvarlik tuyg'ularini hikoya qilish vositasiga sifatida foydalanadilar.

Bu davr musiqa madaniyatini rivojlantirishda ham turkiy, ham tojik, ham arab, ham forsiy xalq vakillari hamkorlik qildilar. Masalan, shoir Manuchehriy Dag'moni o'zining quyidagi baytida X-XI asrlarda musiqa san'ati bilan shug'ullangan cholg'uchi va bastakorlarning nomlarini tilga oladi:

Az Xurosor Bushuaybu on turki Keshiy

V-on Saburu forsiy von Lukariy changzan...

Ya'ni, Xurosondan Bushuaybu, Buzaru, Kesh (Shahrisabz) lik turk va fors Saburiy va changchi Lukariy...<sup>1</sup>

Uyg'onish davri mutafakkirlariga xos xususiyat turli sohalar bo'yicha ijod qila olish qobiliyatining mavjudligi hisoblanadi. Masalan, o'sha davrning bastakorlari ham sozanda, ham xonanda, ham shoir bo'lgan bo'lsa, shoirlar sozandalik, bastakorlik, xonandalik va ayrim paytlari raqqoslik vazifasini ham bajarganlar.

Rivoyat qilishlaricha, mashhur fors-tojik shoiri Abu Abdulloh Rudakiy mashhur sozanda, xushovoz xonanda bo'lish bilan birga, o'z asarlariga kuy bastalagan bastakor ham, bo'lgan. Munjiqiy Termiziy va Farruxiy kabi shoirlar ham shoir sifatida ham, musiqa san'ati sohasida ham mashhur kishilar bo'lganlar.

Bu davrga kelib, o'rta asr musiqa san'ati nazariyasi ancha rivojlangan. Musiqa nazariyasining vujudga kelishida Abu Yusuf ibn Ishoq al-Kindiy (arablarning birinchi faylasufi degan sharafli nomga ega bo'lgan mashhur faylasuf), Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarning xizmati beqiyos bo'lgan. Abu Nasr Forobiy musiqa nazariyasi bo'yicha «Musiqa o'id katta kitob», «Musiqa uslublari haqida kitob», «Musiqa kitobi», «Fanlarning turkumlanishiga oid kitobning musiqaga bag'ishlangan qismi», «Ritm (ibko) larning turkumlanishiga doir kitob» va boshqa asarlarida asosiy e'tiborni musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalariga qaratadi. Shuningdek, Forobiy musiqa ilmining biliqdoni sifatida musiqa nazariyasining kategoriyalarini, musiqaning ahamiyatini, uning boshqa ilmlar bilan aloqasini, uning turkumlanishini, ichki qonuniyatlarini, inson ma'naviy dunyosi uchun ahamiyati masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Forobiyning «Ixso al-ulum» («Ilmlarning kelib chiqishi») nomli asarida musiqa ilmining kishi ruhiyatiga ta'siri xususida to'xtalib:

«Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi. Mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasha, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri ruhni sog'aytirish orqali tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarini tartibga solinishiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi», — deb yozadi.

<sup>1</sup> Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. — T.: 1976, 95-bet.

Abu Yusuf ibn Ishoq Al-Kindiy ham Sharq musiqa nazariyasi bo'yicha to'qqizta asar yozgan. Shu boisdan uni o'z davri arab musiqasining asoschisi deb ataganlar.

Al-Kindiy musiqa nazariyasini ishlab chiqish bilangina shug'ullanib qolmasdan, musiqiy ohanglarning inson ruhiyatiga ta'sir etishi masalalarini ham taddiq etgan. Uning fikricha, musiqa nafaqat inson kayfiyatining, balki uning fe'l-atvorini ham o'zgartiruvchi qudratli kuchdir. Roviyarning ta'kidlashlaricha, Al-Kindiy musiqa sadolarining bermorlarga ruhiy ta'sir etishini tajribada sinab ko'rgan. Hatto u shol bo'lib yotgan bolani musiqa yordamida o'rnidan turg'azgan va yurg'izib yuborganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Al-Kindiy o'z asarlarida musiqaning turli xil ranglar va hidlar hamda estetik idrok bilan umumiylar bog'liq tomonlari mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, ba'zi bir gullar chiqaradigan bo'y bilan kuy keltirib chiqaradigan ruhiy holatlar o'rtasida qandaydir umumiylilik mavjud. U gullar va hidlarni tovushsiz musiqa deb hisoblaydi. Uningcha, ayrim xushbo'y hidlar kishida jasorat hissini, ayrimlari esa faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi. Ba'zilari kishilarga zavq-shavq bag'ishlaydi.

Umuman olganda, IX-XII asr mutafakkirlari musiqa nazariyasini yaratib berish bilan birga, musiqa ohanglarining ma'naviy barkamol insonni shakllantirishdagi rolini ham amaliy jihatdan, ham nazari jihatdan asoslab bergan va umumjahon musiqa nazariyasi taraqqiyotiga zamin yaratgan.

\* \* \*

Xulosa qilib aytganda, ilk Uyg'onish davri madaniyatining taraqqiy etishi, birmuncha ijobiy, mahalliy xalq ma'naviyatiga tez singib boradigan, tavhid – yakka xudolikka e'tiqod qilishni targ'ib qiluvchi islom dini – yangi mafkuraning yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu boshqa diniy e'tiqodlarga amal qiluvchi xalqlar tili, madaniyati bilan tanishish imkoniyatining turli xil yangi oqimlar, yo'llar, qarashlar, ijod turlari va shakllarining keng yoyilishi, mahalliy xalq vakillari uchun noma'lum bo'lgan muqaddas yozuvning, uning mazmun va mohiyatini o'rganishga bo'lgan intilishning kuchliligi, o'sha davr hukmdorlarining ma'rifatga intilishi, o'z zamonasining ilg'or fikrli namoyandalarini, fozilu fuzalolarini, san'atkorlarini yig'ish va ularga homiylik qilish asosida ro'y bergen.

Bu davr Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining yuksalishi hududiy chegaradan chiqib, mintaqqa, so'ngra umumjahon madaniyati taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligi bilan xarakterlanadi.

IX-XII asrlar madaniy taraqqiyoti keyingi davr Yevropa Uyg'onish davri madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularning o'tmish madaniy merosiga bo'lgan munosabatlarini, yangi davr ijtimoiy-tabiyy tarraqqiyotiga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga turki berdi. Sharq Uyg'onish davri madaniyatida asosiy e'tibor insonning ma'naviy dunyosi takomiliga qaratildi. Komil inson, Haqqa

intilishga chorlash, imon va e'tiqod yakdilligi, falsafiy tafakkur, san'at va adabiyotning barcha ko'rinishlarining asosiy mavzusiga aylandi.

Sharq Uyg'onish davri madaniyati va ma'naviyati takomilidan xulosa chiqargan Ovrupo Uyg'onish davri mutafakkirlari asosiy e'tiborni insonning aql-idroki bilan birga uning moddiy manfaatdorligiga, tabiiy taraqqiyot qonuniyatlarini ochishga ham qaratdilar.

Ilk Uyg'onish davri madaniyati fan, adabiyot, san'at va me'morlikda insoniyat ijodi mahsulining eng noyob yodgorliklari va asarlarining yaratilishiga, keyingi davr mutafakkirlarining ilhom manbayiga aylangan. Bu nafaqat islam dunyosi xalqlari, balki umumbashariyatning abadiy yodgorligiga aylangan asarlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu davr madaniyati ko'pgina etnoslarning o'zligini anglab yetishlariga, etnik birlik sifatida shakllanishlariga yordam bergan.

## V BOB. TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

### 6-§. Amir Temur davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari

Agar Markaziy Osiyo madaniy taraqqiyotiga nazar tashlansa, madaniy-tarixiy jarayonda O'rta Sharqda markazlashgan qudratli davlatni barpo etgan Amir Temurning roli beqiyos katta bo'lganligini anglab yetish mumkin. Amir Temur va temuriyzodalar Sharqning, ayniqsa, IX-XII asrlar musulmon madaniyati an'analarini davom ettirdilar.

Bu davr madaniy hayotining ko'zga tashlanib turadigan asosiy xususiyatlaridan biri islam dinining jamiyat ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsata boshlaganligidir. Mo'g'ullar davrida parokandalikka uchragan madaniy-maishiy hayot yana o'zining azaliy o'zaniga tushib oldi. Shariaj qonunlari ijtimoiy-madaniy mavqeyini tikladi. Islomning keng ko'lamda yoyilgan, diniy-falsafiy oqimi hisoblangan tasavvuf ta'limoti ham jamiyat ma'naviy hayotidan mustahkam o'rfin egalladi.

XIV asrda Markaziy Osiyoda tasavvufning Naqshbandiylik tariqati keng quloch yoydi. Bahouddin Naqshbandning fikriga ko'ra, Olloh o'zi yaratgan barcha narsalarda mujassam. Olloh diydoriga yetishmoqchi bo'lgan, unga qo'shilib ketishni xohlagan har bir sufiy xudo tomonidan yaratilgan narsalardan o'zini tiymasligi, undan bahramand bo'lishi, lekin unga o'z mehnati orqali erishmog'i zarur. Ollohga qo'shilmoq uchun uni qalbda saqlab, mehnat bilan shug'ullanish lozim.

O'rta Osiyo madaniy hayotida muhim rol o'ynagan Amir Temur davri qay yo'sinda vujudga keldi va ijtimoiy taraqqiyotda qanday o'z o'rnini egalladi?

Ma'lumki, ilk Uyg'onish davri, ya'ni IX-XIII asrlar Movarounnahr va Xurosonda gurkirab-yashnagan madaniy hayot mo'g'ul bosqinchilarini

tomonidan yakson qilindi. Madaniy, iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlar, obod qishloqlar, yam-yashil bog‘lar xarobaga aylantirildi. Ilm-fan maskanlari, ma’naviyat va ma’rifat o‘choqlari hisoblangan madrasalar, rasadxonalar, kutubxonalar yo‘q qilinib, ularda avaylab asralgan nodir asarlar va qo‘lyozmalar yondirildi yoki tashib ketildi. Ilm-fan, san’at, adabiyot va me’morlik taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan buyuk tafakkur egalari o‘ldirildi yoki quvg‘in ostiga olindi. Lekin xalqning milliy tafakkuri va e’tiqodining kuchliligi, milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglab yetish ijtimoiy qonuniyatga aylangan, bosqinchi xalqning tili, diniy e’tiqodlari, maslagi, maskurasi va hayot tarzining mahalliy xalq tomonidan qabul qilinishi an’anasi buzildi. Ilk Uyg‘onish davrida shakllanib ulgurgan, taraqqiy etgan ma’naviyat va madaniyat bosqinchi xalq maslagini qabul qilish qonuniyatini buzadi. Mahalliy xalq ma’naviyatining mustahkamligi sabab, mo‘g‘ul bosqinchilari mahalliy xalq e’tiqodini, tili va hayot tarzini qabul qilishga majbur bo‘ladilar.

Mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar o‘z samarasini beradi, ya’ni istilochilar davlat boshqaruvining zaiflashuviga va kuchli Temur davlatining vujudga kelishiga olib keladi.

Hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur mo‘g‘ul bosqinchilari mayda bo‘laklarga bo‘lib tashlagan feodalliklarni birlashtirib, markazlashgan qudratli sultanatni vujudga keltirdi.

Amir Temur o‘z tasarrufidagi mamlakatlarning mavjud boyliklarini ishga solib, o‘z imperiyasini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan qudratli davlatga aylantirdi. Mamlakat ichida birlik va barqarorlikni o‘rnatish, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash uchun ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xalqning diniy e’tiqodini mustahkamlash maqsadida xalq ishonchini qozongan ruhoniylar va tasavvufning yirik vakillari obro’sini yanada balandga olib chiqdi.

O‘z mamlakatini iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlashda dehqonchilikka alohida e’tibor berdi. Ko‘priklar, rabotlar, sardobalar, madrasalar, shifoxonalar va yo‘llarning qurilishiga ko‘plab mablag‘ sarfladi. Savdosoti qishlarining mo‘tadilligi uchun savdo karvonlarining xavfsizligini ta’minladi. Bular haqida Amir Temurning o‘zi shunday deb yozadi: «Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, xolisa (daromad va yer ishlari bilan shug‘ullanuvchi hay‘at) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo‘lsayu, (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar berilsin, toki o‘z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo‘lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko‘priklar qursinlar, yo‘l ustidagi har manzilgohga rabotlar qursinlar».<sup>1</sup>

<sup>1</sup> «Temur tuzuklari». — T.: 1991, 92-bet.

Amir Temur Ilk Uyg'onish davri ilm va san'atparvar hukmdorlari an'analarini davom ettirib, matematika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlarning hamda she'riyat, musiqa va me'morlikning rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratib berdi. U o'zining har bir safari chog'ida olimlar, tarixchilar, munajjimlar, san'atkorlar va xattotlarni o'zi bilan olib yurgan.

Umuminsoniy sivilizatsiyalarga e'tibor bersak, har bir madaniy taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi omillar mavjud ekanligini ko'ramiz. Xuddi shuningdek, Amir Temur davri madaniy taraqqiyotini yuzaga keltirgan omillar mavjud bo'lib, bizningcha ular quyidagilarga bo'lingan:

1 Ijtimoiy-siyosiy omil, ya'ni Amir Temur parokanda bo'lgan xalqning boshini bir yerga qovushtirib, mamlakatdagi o'zboshimchaliklar va zo'ravonliklarga barham bergen.

2 Iqtisodiy omil, ya'ni izdan chiqib ketgan xo'jalik tizimlari: dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tizimi tartibga tushirildi. Iqtisodiy islohotlar — mulk, soliq, vaqf va boshqalar to'g'risida qonunlar qabul qilinib, pul islohoti o'tkazilgan. Boshqa davlatlar bilan diplomatiq va savdo-sotiq aloqalari o'matilgan.

3 Ma'naviy omil, ya'ni mo'g'ullar tomonidan oyoqosti va yo'q qilingan madaniy boyliklar, ma'naviy meros hamda ma'naviy qadriyatlarning qayta tiklanishiga alohida e'tibor berilgan. Mo'g'ullar istilosigacha hukmronlik qilgan sulolalarning ilm-fanni rivojlantirish, ma'naviy boyliklarni, ma'naviy-madaniy merosni to'plash, saqlash, foydalanish va ularni rivojlantirish an'analari davom ettirilgan.

4 G'oyaviy-mafkuraviy omil, ya'ni davlat mafkurasining ahvoli va holati. Bu davrga kelib, Mavarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf — Naqshbandiylik ta'lomi jamiyat hayotidan mustahkam o'rin egallay boshlagan edi. Naqshbandiylik tariqatining yirik vakillari mashhur shayxlar: shayx Shamsiddin Kulol, shayx Zayniddin Havofiy va Mir Sayyid Barakalar mamlakat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan edi. Temuriyzodalar davrida esa Naqshbandiylik tariqatining yirik vakili Xoja Ahror Valiy nafaqat mamlakat ma'naviy hayotida, balki siyosiy va iqtisodiy hayotga ham o'zining ta'sirini o'tkaza organ.

5 Huquqiy omil, ya'ni mamlakat hayotida huquq ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat'iy amal qilish, oddiy fuqaroden tortib, oliy martabali aslzodalargacha qonunchilikka itoat etishi adolatli davlat siyosatining asosiy dasturiga aylangan.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan qonunchilikka alohida e'tibor beradi, qonunbuzarliklarning payini qirqib, adolatparvar siyosat yurita boshladi.

Davlatni boshqarish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etish siyosatining qay darajadaligi mamlakat madaniy hayotining rivojlanganlik yoki tanazzulga uchrashini belgilab beradi. Davlatni boshqarishda ikki xil siyosat — taraqqiyat parvar va adolatsiz, ya'ni jaholatparastlik siyosati olib boriladi.

Mamlakatda ayrim guruqlar, tabaqa yoki firqalarning manfaatlarining himoya qilish, ko'pchilikning manfaatlariiga zid siyosat yuritish adolatsiz siyosat hisoblanadi. Bunday siyosat ko'pchilik huquqlarining poymol etilishiga, mamlakat moddiy va ma'naviy boyliklarining ozchilikning mulkiga aylanishiga, zo'ravonlik va jaholatparastlik hamda axloqiy va ma'naviy tanazzulning avj olishiga, qonunlarning buzilishiga, jamiyat boyliklarini talon-taroj qilayotgan ozchilikning qonunlarni poymol qilishlariga yo'l qo'yilib, ko'pchilikdan esa qog'ozdag'i qonunga rioya qilishlarini talab etishga olib keladi.

Taraqqiyparvar vaadolatli siyosat esa ko'pchilik manfaatni himoya qiladi. Kishilarni ma'rifatga chorlaydi. Qonun va unga amal qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi deb belgilanadi. Adolatli siyosat yuritish eng muqaddas burchga aylanadi.

Adolatparvar siyosat tufayli har bir kishining moddiy va ma'naviy manfaatdorligi uchun imkoniyat yaratiladi. Mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi ta'minlanadi. Ilm va ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatning yuksalishi uchun barcha chora-tadbirlar ko'rildi.

Amir Temur tomonidan olib borilgan siyosat ham o'z davri uchun adolatparvar siyosat bo'lgan. Sohibqiron davlat siyosatini yuritishda kengash — maslahatlashuv usulidan foydalangan. Xususan, o'z tuzuklarida bu xususda shunday deb yozadi: «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim... Aqli raso va hushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi lozim».

Amir Temur saroyida arzbegi, adolat amiri, aminlar (hukmdorning ishonchli vakillari) mansablari bo'lib, ular davlat siyosatidagi adolat mezonlariga qat'iy amal qilinishini, qonunlarning amalga oshirilishini, mahalliy hukmdorlarning qonunchilikka rioya qilishlarini, adolat bilan siyosat yuritishlarini nazorat qilib borgan.

Arzbegining asosiy vazifasi dargohga kelayotgan arzchilarining shikoyatlarini tinglash va hatto mamlakatni boshqarishga oid bo'lgan takliflarni hukmdorga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Adolat amiri turli o'lkalar va shaharlarda paydo bo'lgan o'zaro janjalli ishlarni hal qilish, uning kelib chiqish sababini aniqlash va u haqida hukmdorga ma'lumot yetkazish hamda hisobot berish bilan shug'ullangan.

Demak, mamlakatda qonunchilikning ustuvorligi uchun barcha chora-tadbirlar ko'rilsin. Nohaqlikka yo'l qo'ymaslik uchun har bir shikoyat yoki arz har tomonlama tekshirib ko'rilsin. Bu maqsadda joylardagi ahvoldan xabardor bo'lib turishning ikki yo'lidan foydalilanigan: birinchisi — pastdan yuqoriga, ya'ni arzchilar to'g'ridan to'g'ri dargohga murojaat qilish imkoniga ega bo'lganlar, ikkinchisi — maxsus xizmat orqali joylardagi davlat tomonidan tekshirilgan. Bu ikkala yo'l bilan joylarda ro'y berayotgan adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar haqida ro'y-rost ma'lumot olingandan

so'ng maxsus vakillar — aminlar (ishonchli vakillar) joylarga borib voqeani o'rganib tegishli choralar ko'rganlar. Chunonchi, biron kishiga nisbatan zulm,adolatsizlik qilingan bo'lsa, adolatni tiklab, o'sha yer mahalliy xazinasidan ularga to'lov ajratib qaytganlar.<sup>1</sup>

Bu omillar Amir Temurning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli davlatga aylanishini nafaqat qalban his qilganini, shuningdek, o'zidan oldin hukmronlik qilgan hukmdorlarning davlat boshqaruv siyosatidagi ustun jihatlari va yo'l qo'ygan kamchiliklarini to'g'ri tahlil qila olganligini ham ko'rsatadi. U ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishgina davlatning qudratiga qudrat qo'shishi mumkinligini anglab yetgan.

Sohibqiron o'zining e'tiborini mo'g'ullar davrida o'z ta'sir kuchini susaytigan islom dini va uning ta'sir doirasini mustahkamlash va kengaytirish, milliy ma'nnaviy qadriyatlarni yanada rivojlantirish maqsadida madrasalar faoliyatini jonlantirishga qaratadi. Ularning faoliyatini kengaytirish, ularga yoshlarni jalb qilish maqsadida ushbu o'quv dargohlarini moliyaviy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Egalarini tashlab ketgan qarovsiz yerlarni ular ixtiyoriga beradi. Albatta, Sohibqironning bu sa'y-harakatlari Temuriyzdalar tomonidan davom ettiriladi. Ular ko'plab madrasalar, maktablar barpo etishib, ko'plab nodir qo'lyozmalar bo'lgan yirik kutubxonalarga ega bo'lganlar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash zarurki, Amir Temur o'zi vujudga keltirgan ulkan davlat hududidagi barcha xalqlarning madaniyatini yagona bir tizimga birlashtirdi. Islom olamining kattagina qismi moddiy va ma'nnaviy hayotida to'siq bo'lgan barcha g'ovlarni ko'tarib tashladi. Umumislom e'tiqodiga asoslangan turli etnik birliklarning ma'nnaviy qadriyatlarini umuminsoniy ma'nnaviy qadriyatlar darajasiga ko'tara oldi.

Amir Temur davrida yagona siyosiy boshqaruvga ega bo'lgan buyuk imperiya boshqa qo'shni davlatlar madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadidi. Sohibqiron o'zining yetuk siyosatdonligi, ilm-fan va adabiyot namoyandalariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi bilan mo'g'ul bosqinchilari tomonidan yakson etilgan Markazi Osiyoning Ilk Uyg'onish madaniyatini qaytadan tikladi. Buyuk va qudratli turkiy urug'larning boshini bir yerga biriktirib, jahon davlatchiligi tarixidan munosib va mustahkam joy egallahshlariga erishdi.

## 2-§. Ilm-fan ravnaqi

Amir Temur mo'g'ullar istilosigacha hukmdorlik qilgan sulolalar an'analarini davom ettirib, ilm ahllarini o'z homiyligiga oldi. Samarqand shahriga ilm-fan, adabiyot va san'at ahllarini yig'di. Shu boisdan poytaxt Samarqand haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaklikka ko'tarilgan markazga

<sup>1</sup> Ziyoyev A. O'zbek davlatchiligi tarixi. — T.: 2000, 177—178-betlar.

aylandi. Samarqand nafaqat Temur davrida, balki Temuriyzoda Ulug'bek davrida ham turli fan sohalarini: tibbiyat, matematika, geografiya, astronomiya, mantiq, tarix, falsafa, she'riyat, musiqa, me'morchilik va boshqa fan sohalari rivojlangan markaz bo'lib qolaverdi.

Amir Temur qaysi mamlakatga bormasin, eng avvalo, o'sha joyda mashhur bo'lgan olimlar, din peshvolari, so'z ustalari bilan suhbatlashib ko'rар, ularning eng mashhurlari bilan tarixchi Ibn Arabshoh ta'kidlaganidek, «mazmunli bahs yuritar», ko'ngliga o'tirganlarini, shuningdek, o'sha yerdagi eng mashhur hunarmandlar, ustalar, naqqosh va me'morlarni o'zining poytaxtiga olib kelar edi.

Bu davr ilm-fanining rivojidagi eng asosiy omillaridan yana biri Amir Temurning mamlakatda osoyishtalik va barqarorlikni qaror toptirganligidir. Amir Temur davriga kelib nafaqat mo'g'ullar istilosini davrida tinch joylarni istab, Mavarounnahrni tark etgan ko'plab ilm-ma'rifat va ijod ahllari o'z vatanlariga qaytib kela boshladilar, balki Osiyoning boshqa hududlaridan ham ilmparvar kishilar va ijod ahllari ko'chib kela boshladilar.

Temur va Temuriylar davri ilm-fanining yuksalishidagi uchinchi omil - hukmdorlarning o'zlaridagi ilm-fan va ijodga bo'lgan maylning kuchliligidir. Ularning ko'pchiligi matematika, astronomiya, geografiya, tarix, falsafa, tabobat, she'riyat, din nazariysi, me'morlik, xattotlik va boshqa ilm sohalari bo'yicha salohiyatlari bo'lganlar. Birgina Ulug'bekning dunyodagi eng mashhur astronomlardan biri bo'lganligi hamda astronomiyaga oid «Risolai Ulug'bek», «Ziji jadidi Ko'ragoniy», matematikaga oid «Bir darajali sinusni aniqlash haqida risola» va tarixga oid «To'rt ulus tarixi» asarlarini yozib, o'z davrining ko'zga ko'rigan mutafakkiri darajasiga ko'tarilganligi, Boysunqur Mirzo (1397-1434)ning Hirot shahrida «Nigoriston» nomli yirik ilmiy-ijodiy va badiiy markaz tashkil qilib unga o'zining boshchilik qilganligining o'ziyoq, Temuriyzodalar salohiyatining nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Tarixchi Davlatshoh Samarcandiying ta'kidlashicha, Boysunqur «Nigoriston»ga o'sha davrning 40 ga yaqin mashhur hunar egalarini to'plab, ularga rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi.

Amir Temur davri ilm-fani taraqqiyotida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Bahruddin Ahmad, Xo'ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy kabilar muhim rol o'ynagan bo'lsalar, mashhur matematik va astronomlar — Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Mansur Koshiy, Muhammad Birjandiy, Miram Chalabiy, G'iyosiddin Jamshid va Muhammad Chagminiylar Ulug'bek madrasasi va rasadxonasida faoliyat ko'rsatganlar. Tarixchi olimlardan Lutfillo Hofizi Abru, faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoniy, mashhur tabib Mavlono Nafis, Sirojiddin Bisotiy Samarcandiy. Badaxshiy Durbek, Sakkokiy kabi ijodkor shoirlar Ulug'bek davrida Mavarounnahr ilm-fani taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsata olganlar.

Ulug‘bekning o‘zi Movarounnahr hukmdori sifatida ilm-fan rivojiga rahnamolik qildi. Samarqandda mashhur rasadxona tashkil etib, astronomiya va matematika ilmlarining rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab madrasalar qurdirib, Movarounnahr va Xurosonning ilmi toliblarining bilim olishlariga homiylik qildi.

Ulug‘bek o‘zining «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» nomli asarida sayyoralar taqvimiini tuzib, ularning joylashishi hisob-kitobini deyarli yuksak texnologiya davri astronomiya fani darajasida ko‘rsata olgan. Buni asarning nafaqat Sharq, balki G‘arbdagi bir qancha rivojlangan mamlakatlar xalqlari tillariga bir necha marta qayta-qayta tarjima qilinganligi ham ko‘rsatadi. Jumladan, Angliyadagi Oksford universiteti professori Jon Grevs, shu universitetning sharqshunos olimi Tomas Xayd, Grinvich rasadxonasi riyoziyotchisi D. Flemstidlar va 1843-yilda F. Beyli tomonidan asar uchinchi marta chop ettirilganligi, yirik farang olimi L.A. Seydiyo tomonidan fransuz tiliga o‘girilganligi hamda E.N. Nobl tomonidan 1917-yilda Vashington (AQSH)da chop etilganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. «Zij»ning buyukligini Gruziya shohi, mashhur adib va olim Vaxtang VI tomonidan gruzin tiliga o‘girilganligidan ham bilsa bo‘ladi.

Mirzo Ulug‘bekning jahon fani va madaniyatida tutgan o‘rni astronomiya sohasidagi jahonshumulligini yirik polyak astronomi Yan Geveliyning mashhur «Prdomus astronomiya» («Astronomiya darakchisi») nomli kitobidagi ilkita suratda o‘z ifodasini topgan. Birinchi suratda Ulug‘bek munajjimlar va olimlar xudosi Uraniyaning yonginasida, o‘ng tomonidan joy olgan. U Yevropaning eng mashhur astronomlari qatorida turibdi.

Bu buyuk ajdodimizga ko‘rsatilgan yuksak hurmat belgisidir.

### 3-§. Me’morlik san’ati

Amir Temurning go‘zallik va ulug‘vorlikka bo‘lgan ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo‘lgan. U o‘zining bu ishtiyoqini hayotida ro‘y bergen quvonchli voqealarga atab qurdigan me’moriy yodgorliklariga singdirtiradi.

Amir Temur tomonidan qurdirlgan me’moriy yodgorliklarning bir qismi jamiyat ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan diniy e’tiqod maskanlari va u bilan bog‘liq bo‘lgan binolar: diniy maktablar, madrasalar, maqbaralar hamda masjidlardan iborat bo‘lgan. Ikkinchi bir qismi o‘z avlodlari va ma’naviy rahnamolarining nomini abadiylashtirishga mo‘ljallangan, uchinchi bir qismi esa yurt obodonchiligi, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beruvchi bog‘-rog‘lar va inshootlar edi.

U Samarcanda dovrug‘i olamga yoyilgan bir qator me’moriy yodgorliklar: Ko‘ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda maqbarasi, Samarcand atrofidagi Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Behisht, Bog‘i Nav, Bog‘i Naqshi Jahonnamo va Davlat Obod saroy bog‘larini qurdirdi. Shuningdek,

Amir Temur ko'plab yangi yo'llar, Zarafshon (Ko'hak), Amu va Sirdaryolarga ko'priklar qurdiradi. Boshqa shaharlarda ham turli- tuman binolar barpo ettiradi. Masalan, Tabriz shahrida masjid, Sherozda ulkan saroy, Bag'dodda madrasa, Turkiston shahrida hazrati Ahmad Yassaviy maqbaralarini qurdirdi.

U 1392-yili Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyilish joyida o'g'li Shohruh Mirzo sharafiga Shohruhiya shahrini barpo ettirdi. Bu shahar tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVII asrgacha savdo va hunarmandchilikning markazlaridan biri bo'Igan. Shaharda kulolchilik, shishasozlik va qayiqsozlik ustaxonalari bo'Igan. Tarixchi Abdurazzoq Samarcandiyning yozishicha, Shohruhiya Movarounnahr hududidagi mustahkam qal'ali shahar bo'Igan va uch tomondan Sayxun (Sirdaryo) bilan o'ralgan. To'rtinchi tomoni esa suv to'latilgan xandaqlar va zovurlar bilan o'ralgan.

Shahrisabz shahri, ayniqsa, Amir Temur davrida gullab-yashnaydi. U o'zining vatani hisoblangan shaharga e'tibor berdi. 1380-yili Oqsaroyni mashhur xorazmlik ustalarga qurdirdi.

Oqsaroy devorlaridagi turli-tuman ranglarning jilosi, koshinkoriy sujetlar, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi kufiy-sulsiy yozuvlar, islimiyl, geometrik va o'simliksimon naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag'ishlagan. Ranglarning oy yorug'ida jilolanib-oqarib ko'rinishidan bino «Oqsaroy» nomini olgan.

Shuningdek, Amir Temur Shahrisabzda o'g'li Jahongir Mirzoga atab maqbara qurdirdi. Bundan tashqari, Shahrisabzda «Dor us-Siyodat», «Dor ul- tilovat», «Gumbazi Sayidon» kabi mashhur me'moriy yodgorliklar, masjid, madrasa, hammom, karvonsaroy, besh gumbazli chorusu binolarini barpo ettirdi.

Amir Temur me'morchilik obidalarini buniyod etishda, eng avvalo. binolarining mahobati va go'zalligiga alohida e'tibor berdi. O'zining qudratini o'zi qurdirgan binolarga singdirishga harakat qildi. Shu boisdan ham u o'zining ota yurti Shahrisabz (Kesh)da qurdirgan «Oqsaroy» peshtoqiga «Kimki bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, qurgan binolaramizga boqsin», deb yozdirtirib qo'ydi.

Ikkinci tomondan esa, Movarounnahrda qurdirgan binolarning bo'ysundirilgan mamlakatlardagi binolardan ham ko'ra yuksakroq. ko'rakamliroq va ulug'veorroq bo'lishiga e'tibor berdi.

Uchinchidan, Amir Temur davrida me'morchilik san'ati o'zida qadimgi Sharq (Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va boshqa hududlar)ning ko'pgina mintaqalari me'morlik unsurlarini mujassamlashtira boshladi. Natijada Amir Temur davri Movarounnahr me'morchiligi o'zining mukammalligi bilan yaqqol ko'zga tashlanib turdi.

Amir Temur vafotidan so'ng Temuriyzodalar (Shohruh Mirzo, Ulug'bek va boshqalar) ham Movarounnahr va Xuroson me'morchiligi ravnaqiga o'z

ulushlarini qo'shdilar. Masalan 50 yil Xuroson taxtida o'tirgan Shohruh Mirzo Hirot, Marv, Balx va boshqa shaharlarda ko'plab me'moriy yodgorliklar, bog'-rog'lar buniyod ettiradi, sun'iy sug'orish tizimlarining qurilishiga (masalan, Murg'ob daryosiga to'g'on qurdirib Marv shahrining suvgaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi) alohida e'tibor beradi.

Ulug'bek Mirzo ham Movarounnahr shaharlarini, ayniqsa, uning poytaxti Samarqandni obod qilishga ulkan hissa qo'shdi. Eng avvalo, bobosi Amir Temur davrida boshlangan, lekin turli sabablarga ko'ra tugallanmay qolgan binolar — Shohizinda, Go'ri Amir, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz va boshqa binolarning qurilishini nihoyasiga yetkazdirdi. Samarqand shahri markazini obodonlashtirishga alohida e'tibor berdi. Shaharning markaziy maydoni — Registonda madrasa, xonaqoh, karvonsaroy, hammom va boshqa ko'rkmab binolarni qurdirdi. Movarounnahrning madaniy jihatdan rivojlangan uch shahri — Samarqand (1417-1420-yillarda), Buxoro (1417- yilda) va G'ijduvon (1433-yilda) shaharlarda madrasalar barpo ettirdi. O'zi bevosita rahbarlik qilgan holda 1424-1428-yillarda o'sha davrning akademiyasi hisoblangan — Rasadxonani qurdirdi.

Agar Ulug'bek davrida qurilgan me'moriy obidalarning maqsadli tomonlariga e'tibor bersak, mazkur binolarning ko'pchiligi ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishga xizmat qilganligini ko'ramiz. Masalan, Samarqand, Buxoro, G'ijduvondagi madrasalar, Samarqanddagi rasadxona ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Samarqand va Shahrisabzda qurilgan masjidlar va maqbaralar esa kishilarning ma'naviy e'tiqodini mustahkamlashga, diyonat va imon pokligrining shakllanishiga xizmat qilgan.

Sulton Husayn Boyqaro davrida Xuroson o'lkasida ko'plab me'moriy yodgorliklar, turli xil inshootlar qurildi. Katta obodonchilik ishlarining rivojlanishiga bevosita Alisher Navoiyning o'zi boshchilik qildi. Mirzo Muhammad Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» nomli asarida Alisher Navoiy o'zining har yilgi daromadi — o'n sakkiz ming «Shohruhiy» dinorini obodchilik ishlariga sarflaganligini yozdi.

Xondamir o'zining «Makorim ul axloq» nomli asarida Navoiy va uning safdoshlari tomonidan 300 dan ziyyod jamoat binolari qurilganligini ko'rsatib o'tadi. Qurilishning ko'pchiligiga Alisher Navoiyning o'zi homiylik qilganligi yoki o'z mablag'idan sarflaganligini, Navoiyning Xurosonda madrasa, karvonsaroy, 52 rabot, 19 hovuz, 16 ko'pri, 9 hammom va boshqa binolarni barpo etganligini ta'kidlab ko'rsatadi. Birgina Astraboddagi ikki yillik hokimligi davrida «Mir saroyi», «Jome' masjidi»ni qurdiradi. Hirotda ham masjid, Marvdasa «Xusraviya» nomli madrasa qurdiradi.

Alisher Navoiy vazirlik vazifasidan bo'shagançan so'ng, Husayn Boyqaro o'z do'stiga shahar tashqarisidagi Injil arig'i bo'yidan uy-joy va bog' qurish uchun yer ajratib berdi. Navoiy esa bu joyda nafaqat uy-joy, balki xalqqa

yordami teguvchi ko'plab binolar barpo ettirdi, ya'ni madrasa, shifoxona, hammom, savdo rastalari, xonaqoh, dam olish uchun bog'lar barpo ettirdi. Bu binolarni «Ixlosiya» (do'sti Husayn Boyqaroga bo'lgan ixlosi ramzi), «Shifoysi» (sog'liq ramzi), «Safoysi» (poklik ramzi), «Xusraviya» (shahzoda Muhammad Sulton sharafiga) deb nomlaydi.

Navoiy ijodining markazida inson, ulardan tashkil topuvchi xalq, ular makon tutgan Vatan, insoniyatning ko'rki – odob-axloq masalalari turadi. Mutafakkirning ijodi va falsafiy tafakkuri markazida insonparvarlik, axloqiy fazilat, mehnatsevarlik, adolatparvarlik g'oyalari yotadi. Uningcha, inson butun mavjudotning eng olyi toji, koinotning bezagidir.

#### 4-§. Miniatura va musiqa san'ati

Husayn Boyqaro davrida miniatura san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Bu davrda tasviriy san'at, shu jumladan, miniatura san'atining yirik vakillari Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Hoji Muhammad Naqqosh, Shohmuzaffar kabi miniatura san'ati ustalari faoliyat ko'rsatganlar. Bu davr miniatura san'atida mavhumlikdan realizm tomoniga intilish kuchayadi XV asrgacha tasviriy san'atda o'ta bo'rttirish va jimjimadorlikka e'tibor berilgan bo'lsa, XV asr o'rtalaridan boshlab haqqoniyligka intilish, jonlilik va hayotiyligini tasvirlash ko'zga tashlana bordi. Masalan, miniatura ustasi Mahmud Muzahhib Alisher Navoiy portretini chizarkan, uning qarilik yuzaga chiqargan horg'inligini, allomalarga xos ulug'verligini va donishmandligini, bag'rikeng va mehribon insonligini tashqi qiyofa, ayniqsa, yuzdag'i ifoda orqali tasvirlab beradi.

Bu davrda tasviriy san'atning portret janri rivojlandi. Natijada hukmdorlardan Husayn Boyqaro, Shayboniy, Bobur Mirzoning, allomalardan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hotify, Behzod va boshqalarning portretlari yaratildi.

Shuningdek, bu davrda tasviriy san'atning maishiy, bataliya (jang) manzara kabi janrlari ham miniatura shaklida rivojlandi.

Bu davrning ko'zga ko'ringan musavviri Kamoliddin Behzod «Hirot miniatura maktabi»ga asos soldi. U ko'plab o'sha davrning mashhur asarlariga miniaturalar chizdi. Masalan, Shayx Sa'diyning «Bo'ston» asariga 4 ta. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga esa 8 ta miniatura ishladi.

Uning portretlaridagi qahramonlar o'z ma'naviy qiyofalari bilan ichki hissiyotlarini, xulq-atvorini shundaygina yuzaga chiqaradi. Masalan, Husayn Boyqaro cho'kka tushib, kim bilandir suhabatlashayotgandek tasvirlangan. U serhasham kiyim kiyib olgan, shohona salsa o'ragan, belida xanjar osilgan tilla kamar. Shayboniyxon esa sarkarda va davlat arbobi, ilmli, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan kishi sifatida tasvirlangan. U Hirotda rasm bo'lgan yeng' kalta, sodda, lekin bejirim tikilgan to'n kiygan, boshida oq salsa. U chordona qurib, katta yostiqqa (bolishga) biroz suyanib o'tiribdi. Oldinda siyohdon-

qalamdon va kitob, o'ng qo'lining bosh barmog'ida kamondan o'q uzganda ishlataladigan halqa, chap qo'lida qamchi. Savlati, baquvvat gavdasi, o'tirishi, o'zini tutishi, qo'llarining holati va chehrasidagi belgilardan uning serg'ayrat, shijoatli, o'z qadrini biladigan, aqli shoh ekanligini payqasa bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Sulton Husayn Boyqaro davrida miniatura san'ati rivojlandi va unga sultonning o'zi juda katta imkoniyatlar yaratib berdi. Zayniddin Vosifiyning «Badoye ul vaqoye» nomli asarida yozilganidek, Sulton Husayn ko'ngilxushlik uchun usta musavvirlar va uslubi go'zal naqqoshlarni poytaxtda saqlab, ularga zo'r iltifot ko'rsatadi.

XIV-XV asrlarda Mavarounnahr va Xuroson musiqa madaniyati rivojining chinakam markaziga aylangan. Bu davrda musiqa madaniyati nazariyasiga oid asarlar yaratilib, Abdulqodir Noiy, Ali Shunqor, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shokquli G'ijjakiy, Alimon G'ijjakiy, Qosim Rabboniy, Zaynulobiddin al-Husayniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Xo'ja Yusuf Andijoniy, Najmuddin Kavkabi kabi bastakorlar, sozanda-yu xonandalar yetishib chiqqan.

Tarixchi olim A. Muhammadjonov ta'kidlab o'tganidek, hatto Ulug'bek va Navoiy singari buyuk siymolar ham musiqa asarlari yaratganlar. Masalan, Ulug'bek «Bo'lujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli Ravon», «Usuli Otlig'», Navoiy esa «Isfaxoniy» kuyini yaratganlar. Shuningdek, bu davrda Xoja Abdulqodir Noiyning «Zubdat ul advor» («Asosiy musiqiy davrlar») va «Maqosid ul-alxon» («Kuylar maqsadlari»), Safiuddin Abdulmo'min Urmaviyning «Risolat ush-sharafiyya» («Sharafga loyiq risola») va «Kitob ul-advor» («Musiqiyy davrlar haqida kitob») asarlari, Abdurahmon Jomiyning «Risolayi musiqiy» («Musiqiyy ilm risolasi»), Najmuddin Kavkabiyning «Risolayi musiqiy» va «Risola dar bayoni Duvozdahmaqom» («O'n ikki maqom bayoniga bag'ishlangan risola»), Zaynulobiddin Mahmud al-Husayniyning «Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy» («Musiqa ilmi va amallari qonunlari»), Darvesh Ali Changiyning «Tuhfat us-surur» («Shodlik tuhfasi») kabi musiqa ilmi haqidagi asarlari vujudga keladi.

Abdurahmon Jomiy o'zining «Risolayi musiqiy» asarini Alisher Navoiyning da'vati bilan yozadi. Asarning kirish qismida musiqaning psixologik ahamiyati, tinglovchilarda qayg'u va quvonch, tushkunlik, umidvorlik va ko'tarinkilik kabi ruhiy holatlarni keltirib chiqarishi masalalariga to'xtalinsa, asosiy qismida nag'malar, ularning boshqa ovozlardan farqi, nag'maning sozdagi xususiyatlari, turlari, inson ruhiyatiga ta'sir etish kuchi va boshqalarga to'xtalib o'tilgan. Xotima qismida esa ohanglarning shijoat va jasurlik; xursandchilik va quvonch; qayg'u va mung; g'am va ma'yuslik uyg'otish kuchi ta'kidlab o'tiladi.

Zaynulobiddin al-Husayniy o'zining «Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari» asarida nag'ma-tovushning xususiyatlari, pardasi, cholg'u, vokal kuylari masalasini tahlil qildi, shuningdek, maqomlar, ularning tovush qatorlarini ta'riflab berdi.

## 5-§. Adabiy-badiiy jarayon

Temuriylar sulolasining so'nggi davridagi adabiy jarayon sermahsul davr bo'lgan. Adabiy-badiiy jarayon uslub jihatidan ancha takomillashdi va yangi bir bosqichga ko'tarildi. Mavarounnahr va Xuroson hududlarida chig'atoy (eski o'zbek tili) va fors-tojik adabiyoti o'rtaisdagi hamkorlik kengayib bordi. Bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — ko'pgina shoir va adiblar o'zbek tilining go'zalligini, uning so'z boyligini namoyish qilishlaridir. O'zbek (turkiy) tiliga ikkinchi darajali til sifatida qarashlarni inkor qildilar. Zamonasining iste'dodli va yetuk shoirlari hamda adiblaridan Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiri, Yaqinii, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur va Muhammad Solihlar o'sha davr adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari bo'lib, ular o'zbek tilida ham ko'plab asarlar yaratib, bu tilning o'ziga xos jozibadorligini namoyish qildilar. Ular tomonidan rang-barang g'azallar, ruboiylar, qit'alar, tuyuqlar, nomalar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlar yaratildi.

Bu davr adabiyotining yana bir xususiyati — o'zbek adabiyotida she'riy noma janrining yaratilganligidir. Xorazmiy noma janrining asoschisi sifatida «Muhabbatnama»ni yaratdi. «Latofatnama»ni yaratgan Komil Xo'jandiy sevgi-muhabbat mavzusini davom ettirdi. Temuriy Mironshohning o'g'li shoir Said Ahmad esa «Taashshuqnomma» («Oshiqlar maktubi»)ni yaratib, bu mavzuni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Oldingi sevgi mavzusidagi nomalardan farqlanib turuvchi va sujetga asoslangan «Dahnoma» («O'n noma»)ni yaratgan Yusuf Amiri o'z nomasida oshiq-ma'shuq obrazlari orqali sevgi-muhabbat mavzusini ifodalashni yanada yuqori pog'onaga olib chiqdi.

Durbek diniy-afsonaviy «Yusuf va Zulayho» dostoniga dunyoviy tus berib, o'zi qayta ishladi. Atoiy yor vasfini kuyllovchi g'azallar bitsa, Sakkokiy jo'shqin va haroratli g'azallar bitdi hamda qasida janrini yanada rivojlantirdi. Lutfiy g'azallari o'zining hayotiyligi, badiiy mahorati va til boyligi bilan ajralib turadi. Bu davr adabiyotining eng buyuk siymolari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar edi. Ular tasavvuf she'riyatini barkamollik darajasiga olib chiqdilar.

Abdurahmon Jomiy lirika sohasida Sa'diy, Hofiz va Xo'jandiylar darajasigacha yetishib chiqdi. U nafaqat adabiyot sohasida, balki fanning boshqa sohalarida ham asarlar yaratdi. Arab tilini mukammal ravishda o'rgandi So'ogra o'z bilimini oshirish maqsadida Samarcandga keldi va Ulug'bek madrasasida buyuk astronom Qozizoda Rumi, huquqshunos Fazlulloh Abulays kabilardan ta'lim oldi. Shuningdek, til va adabiyot, riyoziyot va falakiyotdan, falsafa va mantiqdan, din asoslari, hadis va tafsirdan tahlil olib, mazkur ilmlarni chuqur egalladi.

Hirotga qaytib kelgach, Alisher Navoiy bilan birgalikda Hirot madaniy muhitining rivojlanishi va taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shdi. Abdurahmon Jomiy, ayniqsa, dostonchilik an'analarini davom ettirib, yetta yirik dostonni o'zida birlashtiruvchi «Haft avrang», «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandar» nomli asarlarni yaratdi. Bu dostonlar o'zining falsafiy-didaktik va axloqiyta'limiy mavzusi bilan ajralib turadi. Abdurahmon Jomiy asarlarining kattagina qismi tasavvuf ruhida yozilgan bo'lsa, bir qismida oddiy xalqning orzu-umidlari ifoda etiladi.

Bu davr ma'naviy hayoti va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri Alisher Navoiydir. Alisher Navoiyning so'nggi temuriyzoda Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyotidagi o'mni benihoya kattadir. Navoiy inson baxt-saodati uchun, xalqning osoyishtaligi, mamlakat barqarorligi, obodonchilik, ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotining buyuk kurashchisi sifatida tarix sahifasida o'chmas iz qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temuring hokimiyyat tepeasiga kelishi va tarqoq feodal davlatlarni birlashtirishi ilk Uyg'onish davri madaniy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan, lekin mo'g'ullar tomonidan bir-biridan ajratib tashlangan yagona madaniy jarayonni yanada rivojlanishiga turki bo'ldi. Eng avvalo, iqtisodiy hayot, shuningdek, fan, san'at va adabiyotdagi azaliy an'analar qaytadan tiklandi. Inson va uning aql-idroki, ma'rifatga intilishi, Sharq renessansiga xos xususiyat hisoblangan ma'naviy komil insonni shakllantirishga bo'lgan e'tibor va ma'rifatga intilish kuchayadi. Fan va adabiyotda jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yaratildi. O'z davrining dorulfununlari — olyi o'quv yurtlari, Ulug'bek akademiyasi vujudga keldi. Astronomiya, matematika, mantiq, falsafa, til va adabiyotshunoslik, tarix va fikhshunoslik, ilmi aruz va musiqashunoslikka oid ko'plab asarlar yaratildi. Miniatura va me'morlik san'atlari rivojlanib, xattotlik san'at va hunar darajasiga ko'tarildi.

Bu davr madaniy hayotini tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, Mavarounnahr va Xuroson madaniyati va ilm-fanni IX-XII asrlardagi singari Mirzo Ulug'bekni hisobga olmaganda, umumbashariy ahamiyat kasb eta olmaganligi, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriy, at-Termizi yoki az-Zamaxshariy singari umumjahon madaniyati va fanida o'zining o'chmas izini qoldirgan buyuk siymolarni ko'rmaymiz. Bu davr madaniyati taraqqiyoti umumjahon miqyosida emas, balki mintaqqa miqyosidagi yodiy-madaniy jarayon darajasidagina saqlanib qoltingan. Bu hol mavjud madaniy jarayonning azaliy an'analarini va ilmiylikning mo'g'ullar bosqini natijasida uzib qo'yilganligi, ikkinchidan, ko'plab olimlar va ijod ahllarining tinch joylarni izlab vatanlarini tark etganliklari, uchinchidan, Amir Temur va foyotidan keyin avj olgan o'zaro taxt talashishlarning kuchayib ketganligi bilan izohlanadi.

## VI BOB. XVI-XIX ASRLAR MADANIYATI

### 1-§. Ijtimoiy-madaniy hayot va uning asosiy xususiyatlari

XV asr oxirlariga kelib temuriyzodalarning o‘zaro taxt talashishlari Xuroson va Mavarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Siyosiy tanglik avj olib, madaniy hayot izdan chiqdi. Dehqonchilik, savdo-sotiq va boshqa hududlar bilan bo‘ladigan madaniy aloqalarga putur yetdi. Mavarounnahr mayda hokimliklarga bo‘linib ketdi. Temuriyzodalar hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun Dashti Qipchoqda hukmronlik qilayotgan ko‘chimanchi o‘zbek va mo‘g‘ul xonlariga murojaat qila boshladilar.

Iqtisodiy va siyosiy tanglik ko‘pdan beri Mavarounnahrga ko‘z olaytirib turgan ko‘chimanchi o‘zbek xonlari, dastlab Abulkayrxonga, so‘ngra uning nabirasi Muhammad Shayboniyxonga qo‘l keldi. Abulkayrxon temuriyzoda Abusaidga Samarcand tojini qo‘lga kiritishga yordam bergan bo‘lsa, Muhammad Shayboniyxon Sulton Ali Mirzoga yordam berish bahonasida uni qatl ettirib. Samarcand taxtini egalladi va Bobur Mirzo kuchlarini mag‘lub etib, Mavarounnahrnning yagona hukmdori bo‘lib oldi. 1507-yili Hirot taxtini egallab, yirik Shayboniylar imperiyasiga asos soldi.

Muhammad Shayboniyxon o‘z davlatini mustahkamlab olgach, mamlakatning iqtisodiy hayotini yaxshilashga, uni ichidan mustahkamlashga qaratilgan bir qator islohotlar o‘tkazdi. Dehqonchilikning rivojlanishiga yordam beruvchi yer to‘g‘risida, vaqf masalalari bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

O‘zaro taxt talashishlar natijasida tinch joylarni izlab, o‘z yerlarini tashlab ketgan kishilarning qarovsiz yerlarini masjidlar, madrasalarga vaqf mulki sifatida berdi. 1502-yilda Zarafshon vohasida qaqrab va qarovsiz yotgan yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Ko‘hak (Zarafshon) daryosiga suv-ayirgich va ko‘prik qurdiradi. Mamlakatning ichki birligini mustahkamlashi uchun 1507-yilda barcha hududiy hukmdorlar zarb qildirayotgan pullarni bekor qilib, pul islohotini amalga oshiradi. Bu esa savdo-sotiqning rivojlanishiga, mamlakat siyosiy-iqtisodiy mavqeyining oshuviga yordam beradi.

Bu davrda to‘qimachilik, kulolchilik, duradgorlik, metallga ishllov berish, qog‘oz va mato ishlab chiqarish taraqqiy etdi. Shuningdek, xalq amaliy san‘atining yog‘och, tosh, metall o‘ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlik, xattotlik rivoj topdi. Samarcandda yuqori sifatlari qog‘oz ishlab chiqarish yanada yuksaldi. Ipak qog‘izi deb ataluvchi oliy nav qog‘ozlar asosan ipak paxtadan aralashtirib tayyorlangan. Samarcandlik usta Miribrohim «Sultoniy» va «Miribrohimiy» nomli qog‘ozlarni ishlab chiqarish bilan mashhur bo‘lgan.

Samarcand qog‘ozlarining keng ko‘lamda ishlab chiqarilishi kitobat san‘atining taraqqiy etishiga, o‘z navbatida, Mavarounnahrnning ko‘pgina

madaniy jihatdan yuksalgan shaharlaridagi madrasalar qoshida hamda boybadavlat kishilar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalarning ko'payishiga olib keldi. Bu kutubxonalarda nodir qo'lyozmalar bilan birga tarix, tilshunoslik, adabiyot, geografiya, falsafa, mantiq, fiqhshunoslik, notiqlik, tibbiyat, matematika, astronomiya kabi ko'plab fan sohalariga oid kitoblar to'plangan.

XVI asrdan boshlab Shayboniy hukmdorlar, ayniqsa, Abdullaxon Soniy savdo-sotiqning rivojlanishiga alohida e'tibor berdi. Hindiston, Xitoy, Eron, Rusiya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq aloqlari rivojlandi. Mavarounnahrda ishlab chiqarilgan to'qimachilik buyumlar, ayniqsa, i p va ipak gazlamalar, kimxob, gilam, metall buyumlar savdo-sotiqning asosiy manbayi hisoblangan.

Shayboniyalar davri madaniyatining rivojiga bevosita sulola vakillarining o'zlarini sezilarli ta'sir ko'rsatdilar. Chunki sulolaning Muhammad Shayboniy, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Abdullaxon Soniy va boshqa hukmdorlarining o'zlarini o'qimishli kishilar bo'lishib, hatto she'riyatda qalam tebratganlar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ubaydullaxon musiqa asboblari kuy chalishning ustasi, nozik husnixat sohibi bo'lgan. Shu boisdan Abdulazizxon va Abdullaxonlar o'z davrining yetuk kutubxonaiarini tashkil etganlar. Kutubxonalar qoshida qo'lyozma asarlardan nusxa ko'chiruvchi, eskilarini ta'mirlovchi xattotlar va ustalar faoliyat ko'rsatganlar.

Bu davr madaniyatining asosiy xususiyati — diniy mafkuraning davlat mafkurasiga aylanganligidir. Shu boisdan diniy mafkurachilarni tayyorlovchi diniy madrasalar faoliyatiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Mavarounnahrning ko'pgina shaharlarida (masalan, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarida) yangi madrasalar bunyod etildi. Mazkur madrasalarda nafaqat sof teologik fanlar o'qitilgan, balki axloqshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, matematika, astronomiyaga oid fanlar ham o'qitilgan.

Taxt tepasiga kelgan hukmdorlar izdan chiqib borayotgan ma'naviy hayotni qaytadan izga solish, ma'naviy tanazzulning oldini olish maqsadida o'sha davrda juda katta obro'ga ega bo'lgan shayxlarning yordamiga suyanishga majbur bo'ladilar. O'z navbatida, shayxlар mamlakatning siyosiy hayotiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydilar. Masalan, Juybor qishlog'ilik mashhur shayxlар shayboniyalar davrida ham, ashtarkoniylar davrida ham jamiyatning ma'naviy hayotini o'z qo'llariga oldilar.

XVI asrdan boshlab madaniy taraqqiyot, ilm-fan, adabiyot va san'atning rivoji nafaqat umumjahon, balki mintaqa darajasidan ham pastga tusha boshlaganligi ko'zga tashlanadi. Mutaassiblikka yuz tutgan dinning ma'naviy hayotga ko'rsatadigan ta'siri natijasida madaniyat milliy mahdudlik qobig'iga o'rala boshladi. Natijada Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining ta'sir doirasi toraya bordi.

Shuningdek, bu davr madaniy taraqqiyotining susayishiga, eng avvalo, Shayboniyalarning qisqa muddatli bo'lsa-da, o'zaro taxt talashishlari ham ta'sir

ko'rsatdi. Natijada XVI asrdan boshlab Mavarounnahr va Xuroson hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pgina olimlar, shoirlar, san'atkorlar tinch joylarni izlab Eron va mo'tadil siyosat yurgizayotgan Boburiylar huzuriga — Hindistonga yo'l oladilar. Faqtgina Abdullaxon Soniy davriga kelib Mavarounnahr madaniy hayotida ijobjiy o'zgarishlar ro'y bera boshladи. Osyoishta hayotning boshlanganligi bilan birga, Boburiylar davlati bilan Mavarounnahr o'rtasida madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi bu rivojanishning asosiy sabablaridan edi. Natijada Boburiylar huzuriga ketib qolgan, lekin hali o'z ona vatanlaridan butkul ko'ngil uza olmagan shoirlar, olimlar va san'atkorlar yana Mavarounnahrga qaytib kela boshlaydilar.

Shayboniyalar davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlardan biri — Shaybonylarning ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot tarzining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatganligidir. Chunki bunday hayotga o'rgangan sulolalarda, birinchidan, ilm-ma'rifatning asosiy yadrosi (o'zagi) hisoblangan tabiiy fanlar rivojiga bo'lgan qiziqish yuqori darajada bo'lmaydi. Ikkinchidan, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayotdan o'troq hayotga o'tayotgan kimsalarda ko'proq yangi diniy e'tiqodga bo'lgan ixlos nihoyatda baland bo'ladi. Xuddi shuningdek, Shayboniy, so'ngra Ashtarkoni yuqori darajada bo'lgan. Shu boisdan ular Mavarounnahr taxtiga o'tirganlardan so'ng bu yerda hukmon mavqega ega bo'lgan sufiylik - Naqshbandiylik tariqatiga, uning talablari va qonunga kirgan «pir-murshid» tamoyiliga katta ixlos bilan qaradilar (bo'ysunadilar) va oxir-oqibat o'zlarining inon-ixtiyorlarini Juybor shayxlari qo'liga tutqazdilar.

Har bir davrda kishilar va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy vaziyatni barqarorlashtirib turuvchi ijtimoiy institutlar faoliyat ko'rsatib kelgan. Aynan islam dini XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha mazkur vazifani bajargan. Islam dini arboblari jamiyatdagi o'zaro nizolarni, oddiy xalq bilan yuqori tabaqa o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etuvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy kuch bo'lgan. Davlatni boshqarishda bevosita ishtirot etuvchi diniy arboblar, yirik-yirik yer egalari, mahalliy hokimlar, sarkardalar va boy-badavlat kishilar o'rtasida o'sha davrda tez-tez ro'y berib turadigan kelishmovchiliklar va nizolarni bartaraf etishib, sulolalar vakillarining o'zaro taxt talashishlarining oldini olishga harakat qildilar, ularni birlikka da'vat etdilar.

XVI asrdan boshlab sufizm (naqshbandiya tariqati)ning yirik vakillari davlatni boshqarishda faol ishtirot eta boshladilar. Natijada davlatni boshqarishda katta kuchga ega bo'lgan shayx ul-islam (jamiyatni boshqarish me'yorlarini ishlab chiquvchi, boshqaruv organlari qarorlarining to'g'riliгини, avvalo, Qur'on so'ngra hadislari bilan qiyoslovchi), mufti (diniy huquq va huquqiy masalalarga fatvo beruvchi) va bosh qozi (jinoyat va jazo masalalarini, ya'ni jinoiy ishlarni

ajrim qiluvchi) kabi mansab egalari hukmdorlar (Shayboniyalar va Ashtarkoniylar)ning pirlari, hukmdorlar esa ularning muridlari hisoblangan.

Davlatni boshqarishda Buxoro yaqinidagi Juybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi Muhammad Islom, Jaloliddin Kosoniy (Mahmudi A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan), Hoji Muhammadamin, Hoji Hoshimiy, Abu Rahim, Tojiddin Hasan, Xoja Saad; Samarqandda istiqomat qilib jamiyat ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan Xoja Ahror Valiy (asli Toshkentda tug'ilgan) va uning nabirasi Bakirxo'jalar; XV asrning 80-yillarda Mavarounnahrga kelib Xoja Ahror Valiyning izdoshi va muridi bo'lgan Mir Arab (asli Yamanda tug'ilgan va Mavarounnahrga kelib, Turkistondagi Sayram shahrida yashagan) Abdulloh al-Arabi al-Yamanlilar katta ta'sir kuchiga ega bo'lganlar.

Ikkinchini tomondan, naqshbandiyalar sufiylar (o'z davrida Yassaviylik ham, Kubroviylik ham) millat ajratmasdan mahalliy o'troq, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi xalqlarning azaliy an'analarini va turli diniy ibodat unsurlarining umumlashuvi hamda fors, arab va turkiy xalqlar madaniyatlarining o'zaro uyg'unlashib, hozirgi milliy madaniyatimizning shakllanishi hamda rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

## 2-§. Falsafiy tafakkur va tarix fanlari rivoji

Bu davr madaniyatining xarakterli jihatlaridan biri o'tmisht falsafiy merosini o'rganish, ilmiy-tabiiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish bilan cheklanganlik, falsafa va adabiyot orqali insonparvarlik g'oyalarini ilgari surish bo'lgan.

Shayboniyalar va Ashtarkoniylar davri madaniyatining yana bir muhim xususiyati tarixnavislik fanining rivojlanganligidir. Buning boisi, birinchidan, millatning shakllanish jarayoni, milliy o'zlikni anglashga, ikkinchidan, o'zi mansub bo'lgan xalq, elat yoki urug'ning kelib chiqishi, ularning til, e'tiqod, ruhiyat birligi, xalq tarixida ro'y bergen hodisalarni yoritishga bo'lgan intilishning kuchaya borishi, boshqa urug'lar, elatlar bilan aloqasi va boshqa jihatlarini bilishga, uchinchidan, milliy ong, milliy g'urur va millatparvarlikning shakllana borishi natijasidir. XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda yashayotgan turli xalqlar, elatlar va urug'larning tarixini yorituvchi asarlar yaratish an'anaga aylana bordi. Masalan, Shayboniyalar davrida tarixga oid quydagi asarlar vujudga keldi. Muallifi noma'lum bo'lgan «Tavorixi go'zidayi Nusratnoma», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiy va Muhammad Solihlarning «Shaybonynomalar», Abdulloh Nasrullohiyning «Zubdat al-asor», Fayzulloh Ro'zbixonning «Mehmonnomai Buxoro», Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye», Hofizi Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» va boshqa asarlari yozildi.

Ashtarxoni hukmdorlardan Subhonqulixon davrida fan taraqqiyotida ozgina bo'lsa-da siljish ro'y berdi. Masalan, Mulla Tursun Faroziy, Mulla Ne'mat Samarqandiyalar matematika, astronomiya va geometriya bo'yicha, Abdulla Ofarinketiy, Ali Buxoriy, Mulla Rahmat Samarqandiyalar musiqashunoslik bo'yicha faoliyat ko'rsatdilar.

Subhonqulixon 1697-yilda Buxoroda 18 hujrali «Dorush-shifo» nomli madrasa-kasalxonan qurdirdi. Bu maskan qoshida tashxisxona, dorixona, kutubxona va boshqa yordamchi binolar mavjud bo'lgan. «Dorush-shifo» xarajatlariga vaqf mulklaridan keladigan 40 ming tanga ajratilgan.

Subhonqulixon o'z saroyiga tabiblarni yig'ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar tashkil etib turgan. Bu anjumanlarda o'sha davrda keng tarqalgan kasalliklar va ularni bartaraf etish yo'llari, tabobatga oid yangiliklar tinglangan. Subhonqulixonning o'zi tabobatga oid ikkita asar yozgan. Bu asarlar o'zbek tilida yozilgan bo'lib, ularning birinchisi «Subhon tibbiyoti» deb nomlangan va unda turli xil kasalliklarni aniqlash hamda davolash yo'llari tushunarli tarzda tasvirlab berilgan. Ikkinchi asari 8 qismidan iborat bo'lib, «Subhonning hayotbaxsh tibbiyoti» deb yuritilgan. Asarning har bir qismida dorilarning sifatli tayyorlanishi va ishlatalishiga oid masalalar yoritilgan. Uning o'zi bu xususda shunday deb yozadi: «O'tmishdagi tabiblar bizga arab va fors tillarida yozilgan asarlar qoldirganlar. Men turk (o'zbek) tilida yozilgan tibbiy kitob uchratmadim. Mahalliy aholi arab va fors tilida yozilgan kitoblardan foydalana olmaydi. Shuning uchun men o'z kitoblarimni turk (o'zbek) tilida yozdimki, undan o'zimizning odamlar foydalansinlar».

Kullas, bu davrda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turli xil etnik guruhlarning kelib chiqishi, tili, urf-odatlari, moddiy hayot shart-sharoitlari hamda taxt tepasida turgan hukmdorlar sulolalari, ularning davlat tepasiga kelishi, zafarli yurishlari va taqdiri haqidagi turli xil tarixiy asarlar yuzaga keldi.

### **3-§. Adabiy-badiiy jarayon**

Bu davr adabiyotining asosiy xususiyati adabiy jarayonda o'sha davr hukmdorlari ta'sirining sezilib turganligi bilan xarakterlanadi. Hukmdorlarning o'zları she'riy, nasriy va tarixiy asarlar yaratishga bo'lgan intilishlari bilan ko'zga tashlanib turganlar. Bu holat Shayboniyalar, Ashtarxoniylar, va hatto. rus istilosigacha bo'lgan hukmdorlarning deyarli barchasiga xos bo'lgan xususiyatdir. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdulazizzxon. Subhonqulixon, Abulg'ozixon, Qo'qon xoni Umarxon, Xivaning so'nggi xonlaridan Muhammad Rahimxon (Feruz) va boshqalarning she'riyat, nasr va tarix sohalarida qalam tebratganlari fikrimizning dalilidir.

She'riyatda qalam tebratgan hukmdorlardan biri Muhammad Shayboniyxonning o'zidir. U o'z umrining ko'p qismini jangu jadalda o'tkazsa-da, ilm-fan va san'atga qiziqishi ancha baland bo'lgan. U yaxshi ta'lim-tarbiya olgan. Natijada iste'dodli shoir, musavvir, musiqachi va xushovoz qiroatxon bo'lgan.

Shayboniylar sulolasining yana bir vakili Ubaydullaxon ham ilm-fan adabiyot va san'atga qiziquvchi hukmdorlardan biri bo'lgan. U «Ubaydiy» taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida ijod etgan. Asosan g'azallar, ruboiylar va qit'alar bitgan.

Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizzon ham «Aziziyy» taxallusi bilan g'azallar yozgan. Abdulazizzon o'z saroyida Hofiz Sulton Ali Ubaxiy, Vosifiy, Baqoiy, Majlisiy, Kavkabiyl, Surudiy, Shaydo kabi shoirlar va san'atkorlarni to'playdi, ularga ko'plab iltifotlar ko'rsatadi. U o'z saroyida shoirlar bilan muntazam ravishda mushoiralar o'tkazib turadi. Shuningdek, Abdulazizzon mamlakat obodonchiligi yo'lida ko'plab qurilishlarni amalga oshiradi, me'moriy binolar qurdirib o'z saroyi qoshida yirik kutubxona tashkil ettiradi.

Shayboniylardan keyingi davrda taxt tepasiga kelgan Ashtarkoniylar ham o'z davrining o'qimishli va yetuk kishilari bo'lganlar. Ularning ko'pchiligi uch tilni (turk, fors va arab tillarini) mukammal bilganlar. Dunyoviy va diniy ilmlarni egallaganlar. Imomqulixon, Nazarmuhammadxon, Abdulazizzon, Subhonqulixon she'riyatda qalam tebratganlar. Masalan, Subhonqulixon Nishoniy taxallusi bilan she'r bitgan. Imomqulixon yetuk siyosatchi, ilmparvar va ra'iyatparvar bo'lganligi uchun ham 30 yildan oshiqroq hukmdorlik qilgan. Uning davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik vujudga kelgan. Imomqulixon chiqarilgan qonun va farmoyishlarning bajarilishini nazorat qilib borgan.

Shunga qaramasdan, ashtarkoniylar davrida mamlakatni holdan toydiruvchi o'zaro taxt talashishlar, beklar va boylar o'rtasidagi ixtiloslar davom etgan. Xalqning o'zaro kurashlardan qiynalayotganligini ko'rgan ijod ahllari, masalan, Turdi (Farog'iy), Boborahim Mashrablar o'z asarlarida hukmdorlar, bekilar, sultonlar va ayrim din rahnamolarini qattiq tanqid ostiga olgan. Chunki ularga nisbatan xalqda ishonch qolmagan edi. Ular diyonat, insof, adolat va xalqparvarlikdan uzoqlasha boshlagan edilar. Ma'lumki, qayerda diyonat, imone'tiqod, adolat hukm surarkan, o'sha joyda el hukmdordan xursand, o'sha yerning shoirlari hukmdorlar madhida bo'lgan, xalqning turmushi, ijtimoiy munosabatlar va hodisalar, botiniy va zohiriy ishqning kuychisiga aylangan.

O'zaro nizolar esa xalqni hayotdan bezdiradi. Tarafkashlik kuchayadi. Tinch <sup>VII</sup> osuda hayot, ra'iyatparvar hukmdorlar xalqning orzusiga aylanadi. Shu boisdan Turdi o'z asarlarida mamlakatni parchalab, boylik to'plashga intilayotgan yuqori tabaqa vakillarini tanqid ostiga oladi. Yagona «O'zbek yurti» g'oyasini ilgari suradi:

*Tor ko'ngilli beklar, man-man demay, kenglik qiling,  
To'qson ikki bori o'zbek yurtidir tenglik qiling.*

Jamiyat hayotining taqdiri butunlay ruhoniylar qo'liga o'tgach, ya'ni XVII asr oxiridan boshlab Markaziy Osiyo madaniyatida tushkunlik kayfiyatları kuchaydi. Tasavvuf ta'limotining ildizlari jamiyat ma'naviy hayotining ko'pgina sohalariga chuqurroq kirib bordi. Ayniqsa, tasavvufning qalandarlik oqimining ta'siri kuchaydi. Qalandarlar tasavvuf ta'limotini yoyishning qudratli vositasiga aylandilar. Ular nafaqat diniy ta'limotni, balki tarki dunyochilikni targ'ib qilishni ham asosiy vositasiga aylanganlar. Shuningdek, ular devonalik yo'li orgali adolatsizlikka qarshi kurashganlar ham.

Umuman olganda, bu davr abadiy jarayonida bir tomondan ko'proq botiniy va zohiriy ishq-muhabbatni kuylash ko'zga yaqqolroq tashlansa, ikkinchi tomondan, riyokor dindorlar, ochko'z boylar, boylik to'plashga intiluvchi beklar tanqid ostiga olinadi, uchinchi tomondan esa, inson qismati taqdirning azalii hukmi ekanligi g'oyasi ilgari suriladi.

Ham Shayboniylar, ham Ashtarkoniylar o'z saroylari qoshida ko'plab san'atkirlarni to'plab, ularga homiylik qilganlar. Natijada nafaqat she'riyat va me'morlik san'atlari, balki musiqa san'ati ham taraqqiy etadi. Ikkala sulola hukmronligi davrida mohir sozanda va xonandalar, shoir-bastakorlardan Mavlono Kavkabi, Mavlono Rizo, Mavlono Pirmuhammad Kulol, Ali Do'st Noiy, Amir Ali Akbar Samarcandiy, Amir Masti Kobuziy va boshqalar xalq orasida mashhur bo'lgan.

XVI-XVII asrlarda yashagan Mavlono Kavkabi va Darvesh Ali Changiylar musiqashunoslikka oid asarlar yaratishib, kuy va qo'shiq, ularning turlari hamda shakllari masalasini yoritib berdilar.

Masalan, Hasan Xoja Nisoriyning yozishicha, «Va mullo Kavkabi musiqa sohasida Ubaydullaxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta'lif va iyko' haqida so'z yuritgan, hajm, jinslar bahsini ham keltirib, yettila bo'lgan ikkinchi tabaqa zarbidan va o'n uchta bo'lgan ikkinchi tabaqa zarbidan hosil bo'luvechi 12 maqomni 6 ovozda nazm qilib, manzumaga kulliyot bog'langankim. musanniflar bir ovozdan bu dilkash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar».

Kavkabi maqom yo'llari va musiqaning nazariy tomonlarini yoritib bergan

#### **4-§. Me'morlik va musiqa madaniyati**

Shayboniylar davrida nafaqat hukmdorlar, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan va katta moddiy imkoniyatga ega bo'lgan shaxslari ham ko'plab me'moriy yodgorliklar qurbanlar.

Bu davrda Samarcanda Muhammad Shayboniyxon qurdirgan Xoniya Abu Said nomli madrasalar, Buxoroda shahar devonining ta'mirlanishi, Mir

Arab (Ubaydullaxon qurdirgan), Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxon o'z onasiga atab qurdirgan), Govkushon, Fatxulla Qushbegi, Muhammad Xoja Porso, Juybor, Ko'kaldosh, Qulbobo madrasalari, Kalon, Xoja Zayniddin, Baland, Chor Bakr, Abdullaxon masjidlari, toqi Sarrafon, toqi Zargaron, toqi Urdfurushon, toqi Tirkaron, toqi Telpakfurushon kabi beshta toqilar, Abdullaxon timi. Toshkentda Ko'kaldosh va Baroqxon madrasalari, Kaffoli Shoshiy maqbarasi, Turkistonda Muhammad Shayboniyxon masjidi, Balxda Abdullaxon va Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari hamda boshqa me'moriy yodgorliklar qurilgan.

Ashtarxoniyalar davri ham ko'plab me'moriy yodgorliklarning bunyod etilganligi bilan ajralib turadi. Bu davorda Buxoroda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammad va Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon qurdirgan kasalxona, madrasa, Balx shahrida Nazar Muhammad va Subhonqulixon madrasalari, qator chorbog'lar, Mozori Sharifda Hazrat Ali qabridagi gumbaz va boshqa binolar barpo etiladi. Albatta, Ashtarxoniyalar davrida ham o'ziga to'q kishilar, amirlar, amaldorlar ham o'zlarining mablag'lariga ko'plab me'moriy yodgorliklar qurdirganlar. Masalan, XVII asrda Xivada Arab Muhammadxon, Xojamberdi, Sherg'ozixon madrasalari qurilgan bo'lsa. Buxoroda Poyandibiy otaliq masjidi, Shodimbek, Nazrdevonbegi madrasalari, Bozori Gusfand madrasasi, Samarqandda Amir Yalango'shibiy tomonidan Registon maydonida Sherdor va Tillakori madrasalari bunyod etilgan.

Bunday ulug'ver va hashamatli binolar hukmdorning qudratidan dalolat berishini, ularning nomlarini abadiylashtirishning eng maqbul yo'li ekanligini anglab yetganlar. Shuning uchun ham Shayboniy hukmdorlar bir tomonдан nafaqat Buxoro, balki o'zları bosib olgan boshqa shaharlarda ham ko'plab madrasalar, masjidlar va xonaqohlar qurdirgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'zidan oldin yetti iqlimni bo'ysundirib o'zining qudratini namoyish qilgan Amir Temurga g'ayrlik bilan qaraganlar va Temur tomonidan bunyod etilgan eng hashamatli va ulug'verlikda boshqa me'moriy yodgorliklardan ustun bo'lgan «Oqsaroy»ni vayron qilishga harakat qilganlar «Oqsaroy»ni XVI asrdayoq Shayboniyalar xonadoniga mansub yangi hukmdorlar nafaqat a'lo sifatlgi g'ishti uchun, balki saroy bunyodkorining ulug'ver xotirasini unuttirish uchun ham huzib tashladilar.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, temuriylar davridan keyingi madaniy hayotda adabiy-adiiy jarayon sezilarli darajada rivojlanishda davom etdi. Lekin hayotning barcha sohalarini qamrab olgan mutanosiblik ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga, ayniqsa, aniq fanlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, diniy mutaassiblik ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish

<sup>1</sup> Pugachenkova G.A. Temuring me'moriy merosi. – T.: 1996, 13-bet.

oldingi davrlar – ilk Uyg'onish va temuriylar davriga nisbatan birmuncha sust rivojlangan. Aholining ilm-fanga bo'lgan qizikishi ham, ilmiy tafakkur taraqqiyoti ham bir qadar susaya borgan.

Bu davr madaniyatining xarakterli xususiyati o'zligini anglashga bo'lgan intilishning kuchaya borganligi bilan xarakterlanadi. Natijada tarix fani taraqqiy etdi, hukmdorlarning nomlarini abadiylashtirishga bo'lgan intilishlari esa me'morchilikning rivojiga olib keldi.

### **5-§. Markazi Osiyo hududidagi uch xonlik va madaniy hayot**

XVII asrning bиринчи yarmiga kelib Markaziy Osiyo hududida uchta yangi davlat: Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari vujudga keldi. O'rta asrlarda butun dunyo madaniyati va ma'naviy hayotiga o'zining muhrini bosa olgan hududlarda iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot butunlay izdan chiqa boshladи. Bu uchala davlatda ham beqarorlik, o'zaro yakdillikka rahna solindi. Jaholatparastlik kuchaydi. Fan va madaniyatga bo'lgan e'tibor susayib, o'zaro iqtisodiy, madaniy va savdo-sotiq aloqalarini izdan chiqa boshladи.

XVIII asr madaniyatining asosiy xususiyati – ma'naviy hayotida o'ta tushkun kayfiyatning hukmronlik qilishidir. Bu davrda tabiiy fanlar rivoji uchun barcha yo'llar berkitib qo'yilgan, hukmdorlar ruhiyatiga zid keladigan barcha g'oyalari va qarashlarga keskin zarba berilgan. Mintaqasi madaniy hayotida muhim rol o'ynagan buyuk karvon yo'llarining ahamiyati ham ancha susaygan edi. Din va davlatning kuchi bir joyga birlashtirildi. Shu boisdan endigina shakllanayotgan demokratik fikrlar ana shu qudratli kuch oldida ojizlik qilib qoldi. Jamiatning yakka masfuraviy hukmroni hisoblangan din jamiatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotiga, uchala xonlikda istiqomat qiluvchi xalqning yakdilligiga to'sqinlik qildi.

Bu davr madaniyatining asosiy tomonlaridan yana biri — xalq og'zaki ijodi va xalq tomosha san'atining rivojlanganligidir. Bu davrda xalq baxshilarini sozanda va xonandalari, qiziqchilarini va masxarabozlari xalq tomonidan yaratilgan ko'plab hikoyatlar, rivoyatlar, dostonlar, masallar va matallarning haqiqiy targ'ibotchilariga aylandilar.

Bu davrda «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhra», «Bo'z o'g'lon», «Yusuf va Ahmad» kabi dostonlar vujudga kelgan bo'lsa, «Alpomish» va «Go'ro'g'li» dostonlarining ko'plab variantlari yaratila boshlandi. Qiziqchi va masxarabozlar hamda qo'g'irchoqbozlar esa xalqning nochor ahvolini tasvirlovchi sahna ko'rinishlarini, hukmdorlar, boylar va ularning gumashtalari munofiqqliklarini fosh etuvchi kichik-kichik asarlarni namoyish qildilar.

Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi va tomosha san'ati targ'ibotchilarini hisoblangan baxshilar va san'atkorlar o'zlarining ijodlari hamda tomoshalari bilan uchala xonlikda istiqomat qiluvchi, yagona diniy e'tiqodga, turmush

tarzi va ma'naviyat qadriyatlariga ega bo'lgan elatlarning boshini bir joyga qovushtirishga va milliy o'zligini anglatishga xizmat qildilar.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida adabiy jarayon quyidagi uch yo'nalishda mayjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Birinchi yo'nalish saroy adabiyoti doirasidagi, ikkinchi yo'nalish unga qarama-qarshi yo'nalishdagi va uchinchi yo'nalish – bu azaliy an'analarga sodiq qolgan va uning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlarning faoliyati shaklidagi adabiy jarayondir.

Birinchi yo'nalishda ijod qilgan shoirlar asosan hukmdor va yirik mulk egalarining madhi bilan shug'ullanganlar. Ikkinci yo'nalishda ijod qilgan shoirlar esa o'z asarlarida ko'proq xalqni talash evaziga boylik orttirayotgan, elga zulm o'tkazayotgan amaldor va boylarni tanqid ostiga olganlar. Xalqning ularga bo'lgan noroziliklari hamda g'azabini tasvirlaganlar. Masalan, bu davrda ijod etgan Muhammad Sharif Gulxaniy, Maxmur, G'oziy kabilarning asarları xalqning nochor ahvoli, boy-badavlat kishilar, amaldorlar, riyokor ruhoniylarning qilmishlarini tasvirlab beradi.

Uchinchi yo'nalish – azaliy an'analarni davom ettirgan ijodkorlar o'z asarları orqali o'tgan asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelayotgan poetik ijodning hali noma'lum bo'lgan qirralariga qo'l urib, o'zlarining lirik g'azallari bilan inson ruhiy kechinmalarining sahifalarini ochib beradilar. Bu an'anaga sodiq qolgan shoirlar har uchala xonlik hududida o'ziga xos ijodiy-badiiy jarayonni vujudga keltira olganlar. Bu davrda Qo'qon xonligida Amiriy taxallusi bilan g'azallar bitgan Qo'qon xoni Umarxon, uning rafiqasi, Nodira taxallusi bilan ijod qilgan Mohlaroyim, shuningdek, o'z davrining mashhur shoirlari sanalgan Uvaysiy, Mahzuna, Maxmur, Mushtariy, Fazliy Namangoniy kabilalar ijod etganlar.

Buxoro amirligi hududida esa «Malik ush-shuar» nomini olgan Mushfiqiy, Shahrisabzda ijod qilgan Xiromiy o'z davrining yirik iste'dod egalari bo'lganlar.

Xiva xonligida Munis Xorazmiy va Ogahiyalar mashhurlikda tengsiz shoirlar edi. Munis nafaqat o'zining lirik g'azallari bilan dovrug' taratgan, balki hokimiyat uchun kurashib, xalq boshiga og'ir kunlarni solayotgan, ko'plab kulfatlarning sababchilari bo'lgan hukmdorlar va boylarni tanqid ostiga olgan. Ogahiy she'riyati esa o'zining xalqchilligi, fikrlar nafisligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, Ogahiy tarixchi olim sifatida ham mashhur bo'lgan. U XIX asrda Xiva xonligi va uning atrofidagi davlatlar tarixini yoritib beruvchi «Zubdat ut-tavorix», «Riyoz ud-davla», «Jomiy ul-voqeoti Sultoniy» nomli asarlar yozgan. Shuningdek, Ogahiy ko'plab tarixiy asarlar, masalan, Muhammad Mahdixonning «Nodirnoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Muhammad Mun-Yusuf Munshiyining «Tazkirai Muqimxoniy», Nizomiddin Ahmad Xiraviyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us-safoi Nosiriy» kabi asarlarini, Nizomiy Ganjaviyning

«Haft paykar», Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Xusrav Dehlaviyning «Hashb bihisht», Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Solomon va Ibsol», «Bahoriston», Badriddin Hiloliyning «Shohu gado», Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye» asarlarini hamda falsafiy-axloqiy mavzudagi Kaykovusning «Qobusnama», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Xulosa qilib aytganda, uchta xonlikning vujudga kelishi, eng avvalo, hududi va milliy parchalanishning yaqqol namunasi bo'lgan. O'z navbatida, milliy parchalanish milliy yakdillikni yemirib, mahalliychilikning avj olishiga zamin hozirlab berdi. Milliy parchalanish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab milliy va ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy tanazzulni kuchaytirdi, davlatlarning iqtisodiy va harbiy qudratini yemirib tashladi. Milliy parokandalik Markaziy Osiyo xalqlarini Rossiya imperiyasiga iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy qaramlikka olib keldi.

## VII BOB. MUSTAMLAKACHILIK DAVRI MADANIYATI

### 1-§. Rossiya imperiyasi istilosiga uning milliy madaniyatga ta'siri

Movarounnahrning uch xonlikka bo'linib ketishi uning nafaqat siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jihatdan tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. balki mamlakatni boshqarib boradigan davlatchilik asoslarining zaiflashib ketishiga, bir millat va diniy e'tiqodga ega bo'lgan mintaqada mahalliychilikning kuchayib ketishiga ham sabab bo'ldi.

XIX asrning 50-yillariga kelib Turkiston har tomonlama inqirozga uchragan hudud edi. Bu inqiroz boshqa mamlakatlar bosqinchiligi ta'siri ostida emas (qadimgi yunon-rim madaniyatining inqiroziga uchragani singari), balki astasekinlik bilan o'zaro feodal urushlar orqali pishib yetildi. Inqiroz o'lkan Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishini tezlashtirdi va imkoniyat yaratdi.

Aslida Rossiya imperiyasining Turkiston boyliklariga bo'lgan qiziqishi Pyotr I davridan boshlangan bo'lib, bosqinka tayyorgarlik bir yarim asr davom etdi. Rossiya qo'shnirlari dastlab, 1853-yilda Qo'qon xonligiga qarashli yerlarga bostirib kelishdi. 1967-yilga kelib xonlik batamom bo'ysundirildi. 1968-yilda Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasiga, Xiva xonligi esa 1873-yilda imperianing vassaliga aylantirildi.

Ruslarning O'rta Osiyoni bosib olishi, bir tomondan, mahalliy xalqning ma'naviy-madaniy hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha davr O'rta Osiyo xalqlari uchun birmuncha ilg'orroq bo'lgan rus fani va texnikasining kirib kelishi, ma'rifiy-madaniy hayotning birmuncha siljishiga olib keldi.

Salbiy ta'siri shundan iborat bo'lganki, rus bosqinchilari, birinchi navbatda, mahalliy xalqning an'anaviy madaniyati durdonalarini toptadilar, ikkinchi tomonidan esa mahalliy xalq ustalari tomonidan yaratilgan ko'plab noyob san'at asarlari, qimmatbaho boyliklar rossiyaliklar xonadoni, muzeylari va xazinaxonalarni bezadi va boyitdi. O'rta Osiyolik mutafakkirlar tomonidan yaratilgan fanning turli sohalarga oid ko'plab eng noyob asarlar talon-taroj qilindi va gulxanlarda yoqildi. Masalan, bиргина general Kaufman boshchiligidagi rus istilochilari Xivani qo'lga kiritgach, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning noyob asarlarga boy kutubxonasini taladilar.

Bosqinchilar yerli xalqning asrlar davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarini talon-toroj qildilar. Barcha xonliklarning xazinalari va kutubxonalari avovsiz ravishda talandi. Nodir qo'lyozma asarlar, tariximiz uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy-madaniy manbalar chet mamlakatlar hamda rus imperiyasi markaziga jo'natildi.

Shu boisdan ular Turkistonda o'z mavqelarini mustahkamlash va imperiya manfaatlarini amalga oshirish maqsadida o'lkaning strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlariga, ya'ni sanoatni, ayniqsa, paxta xomashyosi va uni qayta ishslash sanoatini rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlarga ruslarni ko'chirib kelish siyosatini amalga oshirishga kirishdilar. Bundan asosiy maqsad, birinchidan, yerli aholining Rossiya imperiyasiga bo'lgan munosabatini doimiy nazorat ostiga olish, ikkinchidan, yerli aholi noroziligini bostirishda eng ishonchli qurolli guruhlarga ega bo'lish, ko'chirib kelinganlarning mahalliy xalqlar bilan yaqinlashuvi orqali hokimiyat tizimining mustahkamligiga erishishdan iborat edi.

Ko'chirish siyosatining amalga oshuvni natijasida Rossiyadan nafaqat yerga muhtoj bo'lgan dehqonlar, balki Rossiya uchun, «ortiqcha odam»ga aylangan turli xil jinoyatchilar, ortiqcha nonxo'r-ishyoqmaslar, dangasalar ko'chib kela boshladilar. Natijada 17 yil mobaynida, ya'ni 1875-1892- yillarda Turkistonda 44 ta rus qishlog'i paydo bo'ldi.

Albatta, Turkistonga ko'chib kelgan Rossiyaning «chiqindilar» yerli xalq hayotiga unga yot bo'lgan turli xil zararli odatlarni, tartib-qoidalarni, xususan, o'g'rilik, spirtli ichimliklar ichish, maishatbozlik qilish kabi Yevropaga xos buzuqchilik va boshqa illatlarni olib kira boshladilar.

Rossiya imperiyasi amaldorlari mahalliy aholining ongi, tafakkuri va dunyoqarashining, milliy ma'naviy qadriyatlariga aylangan islam axloqshunosligi va qonunshunosligi — shariat qonun-qoidalalariga qat'iy bo'yunganligini anglab yetdilar va ana shu an'anaga aylangan tizimni yemirib tashlashga barcha kuch va imkoniyatlarini ishga soldilar.

Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, o'lkani boshqarishga alohida e'tibor berildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun 1886-yil 12-iyunda

podsho Aleksandr III «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqlaydi.

Mazkur Nizomda nafaqat Turkiston o'lkasini boshqarish tizimi, balki yer, soliq, shariat (sud) ishlari, ta'lif tizimi va uni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi vaqf masalalari va boshqalar ham qamrab olingan edi.

Nizomda ko'rsatilgan masalalarning bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus komissiya ishini «musulmonchilik umumiy dushmanimiz» deb e'lon qilgan general-gubernatorning o'zi boshqarib borgan. Nizomdan kelib chiqqan holda mahalliy xalqning ibodat markazlari, ular ta'lif oladigan maktablar, qiroatxonalar va madrasalar faoliyati hamda ularni moddiy mablag' bilan ta'minlab turuvchi vaqf mulklari to'g'risida turli xil qarorlar va farmoyishlar qabul qilingan.

Mazkur qarorlar va farmoyishlarda, eng avvalo, islam ta'lomi, axloqi va huquqiy asoslarini o'rgatuvchi ta'lif tizimining faoliyatini nazorat ostiga olish, ularning moddiy mablag' bilan ta'minlanishini qisqartirib borish, islamni targ'ib qiluvchi tizimlar — masjidlar, mozorlar va ziyoratgohlar faoliyatini nazorat ostiga olish, Turkistonga yashirin yo'l bilan kiritilayotgan islamni targ'ib qiluvchi arab va fors tillaridagi adabiyotlarni taqiqlash, islam ta'lomi va milliy ma'nnaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi diniy mahkamalar va ularda ishlayotgan xizmatchilarning faoliyatini nazorat ostiga olish va boshqa masalalar nazarda tutilgan edi.

Mustamlakachilik siyosatining asosida yerli aholining milliy o'zligini anglash tuyg'usini so'ndirish vazifasi yotardi. Buning uchun o'lkada buyuk rus shovinizmini shakllantirish, ruslar manfaatiga mos keluvchi g'oyalarni yerli xalq tafakkuriga singdirish masalasi asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Istilochilar islam dinining mahalliy aholiga ko'rsatayotgan ta'sirini kamaytirish maqsadida boshqaruva tizimiga zarba berdi. Bu maqsadda general-gubernator fon Kaufman tomonidan shariat sudini boshqarib boruvchi Qozikalon (Bosh qozi) va jamiyat ma'nnaviy hayotida muhim rol o'ynagan Shayx ul-islam (Oliy ruhoniy) lavozimlari bekor qilindi.

Mustamlakachilar tomonidan amalga oshirila boshlagan barcha tadbirlar faqat Rossiya imperiyasi manfaatiga mos kelar edi. Turli xil nizomlar, qarorlar va farmoyishlar yerli xalqning manfaatini suiiste'mol qilishga qaratilgan edi. Ruslashtirish siyosati nafaqat Turkistonning eng serunum yerlarida rus qishloqlarini tashkil etish orqali, balki ta'lif tizimidagi cheklovlar orqali ham amalga oshirila boshlangan. Birgina 1898-yili qabul qilingan «Turkiston o'lkasidagi o'quv muassasalari, vaqf mahkamalari va diniy ishlarni vaqtincha nazorat qilish haqidagi nizom»da: a) diniy ishlarni boshqarish to'g'risida; b) musulmonlarning o'quv muassasalarini boshqarish to'g'risida; d) vaqf mahkamalari va ularning daromadlarini nazorat qilish to'g'risidagi bandlar ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur nizomning birinchi bandida toat-ibodat faqat masjid, mozor va ziyoratgohlarda amalga oshirilishi mumkinligini, ya'ni masjidlar qurilishi uchun<sup>11</sup>

ruxsat olish zaruri, diniy muassasa xodimlarining o'z boshliqlari tomonidan tasdiqlanishi, diniy mahkamalarning faoliyati doimo nazorat ostida bo'lishi; ikkinchi bandida musulmonlarning o'quv muassasalari (maktab, korxona va madrasalar), rus-tuzem maktablari hamda madrasalarda joriy etilgan rus sinflari ustidan nazorat o'rnatilishi; maktab va madrasalarda ishlaydigan mutavallli, mudarris va boshqa xizmatchilarining uyezd va viloyat boshliqlari tomonidan ta'minlanishi; uchinchi bandida esa vaqf mulklarini nazorat qilish, ya'ni vaqf mulkini tashkil etish uchun general-gubernatorning maxsus ruxsati bo'lishi, vaqf mulki hisoblangan yerlarni sotish taqiqlanishi kabi masalalar qamrab olingan edi.

Mazkur nizomdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi va islom targ'iboti bilan shug'ullanuvchi tizimlarning faoliyatini moddiy jihatdan tang ahvolga solib qo'yish maqsadida 1887- yilning 1- iyuligacha barcha vaqf hujjatlarini viloyat boshqarmalariga topshirish talab etildi va belgilangan muddat ichida deyarli hamma vaqfnomalar aholidayan yig'ishtirib olindi. Bu bilan podsho hukumati islom dini vakillarini o'z qo'lidagi huquqiy dalildan ham mahrum etdi.<sup>1</sup>

Milliy-ma'naviy qiyofani shakllantirish, iymon-e'tiqod tarbiyasi markazlari hisoblangan maktablar, madrasalar, masjidlarga qarshi zimdan ish olib borib, "pravoslav" va boshqa noislomiy diniy muassasalar faoliyatining doirasini kengaytirishga harakat qildilar.

Jamiyat ma'naviy hayotini boshqarib turgan ruhoniylar, shuningdek, ziyoli kishilarni yetkazib berish markazlari hisoblangan madrasalar faoliyatining moddiy manbasi hisoblangan vaqf mulklariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgara boshladi. Jamiyat va davlat hayoti ehtiyojlari «endilikda madrasalarda olingen bilimlarni juda kam darajada talab qilmoqda. Saylab qo'yiladigan idoralar ham, shuningdek, rus ma'muriyatini tayinlash ham mazkur muassasalardan chiqqanlarga (madrasa bitiruvchilariga – mualliflar) muhtoj emas... Mahalliy qonunshunoslarning ma'lumot olishi yer tuzilishi islohotining amalga oshirilishi bilan o'z umrini o'tab bo'ldi; shariat va uning vakillari, ular bilan birgalikda esa mahalliy maktab ham hozirgi vaqtida yangi tartibga dushman kuchlari tayyorlashdan iborat kuchli mavqedan uzil-kesil mahrum bo'ladi», – degan edi K.P.Kaufman.

XIX asr oxirida «Ahollining ma'naviy-diniy hayotini zo'r diqqat bilan kuzatib borishni joriy etish» dasturi ishlab chiqildi. Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad islom dinini zaiflashtirish va unga barham berishdan iborat edi. Mazkur dasturning uchinchi bandida mahalliy kishilarni qozilar tayyorlanadigan madrasalarda rus tilini o'qitishni joriy etish to'g'risida taklif tayishga undash; bu hol mazkur o'quv yurtlari eshiklarini rus o'qituvchilariga o'shib berish barobarida musulmon olimlari, mutaassiblar va islomning har

<sup>1</sup> Boltaboyev S. Mustamlaka Turkistonda islom dinining ahvoli. – T.: 1994, 14-bet.

qanday arkonlari oqib keladigan madrasalarda nimalar qilinayotganligini doimiy va ishonchli ravishda kuzatib borishga imkon yaratadi, — deb ta'kidlanadi.

Mustamlakachilarning Turkiston o'lkasida olib borgan bunday siyosati, albatta, yerli xalq o'rtasida norozilik kayfiyatini vujudga keltirishi tabiiy edi. Bu xususda rus arxeologi va sharqshunos olimi N. I. Veselovskiy shunday deb yozgan edi: «Biz Turkistonga madaniyat olib keldik, deb o'ylaymiz. Bo'ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik va osoyishtalik berdik, deb o'zimizni ovutamiz. Ammo bularda ham yuksak bir oliy tuyg'u borki, bu millat va uning milliy istixoridir. Musulmonlar ahvolini tushunishimiz kerak. Siyosiy o'lim (milliy davlatchilikning yo'qolishi) og'ir, milliy o'lim esa undan ham og'irroqdir. Bizning hukmronligimizda esa ular shunday holga tushdilar. Bas shunday ekan, hukmronligimizga qarshi g'alayonlar ro'y bersa, ajablanishga o'r'in yo'q. Shunday milliy manfaatlar borki, ular xalq och yoki to'qligidan qat'yi nazar, bir kunmas bir kun o'zini namoyon etajak».

Mustamlakachilar o'lkani ruslashtirish siyosatini tezkorlik bilan amalga oshirishga kirisha boshladilar. Bu maqsadni amalga oshiruvchi dasturlar qabul qilindi. Ularda yerli aholiga rus tilini o'rgatishni masjid va madrasalarda joriy qilishdan boshlab, xalqning ma'naviy-ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi islam muassasalari ishini nazorat ostiga olish, madrasalar faoliyatiga aralashish, barcha maktablarni ma'muriyat ixtiyoriga o'tkazish, xalqning siyosiy dunyoqarashini shakllantiruvchi muassasalarni yopib qo'yish kabi vazifalar belgilab berildi.

Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi uchun zarur bo'lgan paxta xomashyosi yetkazib berish va uni qayta ishlashga ham oddiy fuqarolarni jaib qilish ehtiyoji vujudga kela boradi. Bunga, birinchidan, mahalliy yer egalari va boy-badavlat kishilarni jaib qilmasdan turib paxta yesitshtiriladigan yer maydonlarini kengaytirish va paxta sanoatini rivojlantirish mumkin emas edi. Ikkinchini tomondan esa, paxta zavodlarida ishslash uchun mahalliy kadrlar kuchidan foydalanish zarur edi. Shu boisdan ham endigina shakllanib kelayotgan kapitalistik munosabatlар rivojiga hamda o'lkani ruslashtirishga ko'mak beruvchi rus-tuzem maktablari tashkil etila boshlandi. XIX asrning oxirlariga kelib bu usuldagи maktablar o'lkanning yirik shaharlari (Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Xiva)da faoliyat ko'rsata boshladi.

1875- yili Turkistonda xalq maorifi haqida qonun qabul qilindi va general-gubernatorga bo'ysunuvchi hududlarda rus o'g'il va qiz bolalari uchun gimnaziyalar, yerli xalq bolalari uchun esa rus-tuzem maktablari tashkil qilingan. Ayni paytda mahalliy xalq bolalari uchun milliy ma'rifatparvarlarimiz yangi usul maktablari ochishga kirishdilar. Bu maktablarning ochilishida endigina shakllanib kelayotgan mahalliy burjua vakillari va jamiyatning ilg'or ma'rifatparvar kishilarining roli benihoya katta bo'lgan. Chunki shakllanib kelayotgan mahalliy burjua vakillari mahalliy yoshlarning zamona viy fan va texnika, savdo-tijorat ishlari bilan shug'ulanishlaridan manfaatdor edilar. Bu

maktablar o‘z oldiga yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish vazifasini qo‘yadi. Mashg‘ulotlar sinf xonasida o‘tkazilib, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, partada o‘tirish, mashg‘ulotlar o‘rtasida tanaffus qilish joriy etilgan. O‘quv dasturlarining yarmi denga oid va yarmi ilmiy bilimlarga ajratilgan. Bu usuldagi maktablarning milliy ruh bilan sug‘orilganligi va milliy madaniyatning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishini sezib qolgan rus amaldorlari ularni yopib qo‘yish payiga tushib qoladilar.

Madrasalarni bitirib chiquvchi ruhoniylarning ta’sirini susaytirish uchun esa mahalliy yoshlarning Buxoro va Samarcanddagi tajribaga ega bo‘lgan madrasalarga borib o‘qishini cheklay boshlaydi.

## 2-§. Turkiston o‘lkasida ta’lim tizimi va uning o‘ziga xos jihatlar

Rossiya imperiyasi amaldorlarining fikricha, Turkiston o‘lkasi yirik musulmonchilik markazlaridan biri bo‘lib, aholining ruslar bilan yaqinlashuvi va ularning manfaatiga xizmat qilishi islom dinining ta’sir doirasi qisqargan taqdirdagina amalga oshuvi mumkin edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, eng avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodga, uning ruhiyatiga va dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish, ya’ni musulmon maktablaridagi ta’lim-tarbiyani rus maktablariだigidek umumta’lim bilan almashtirish, ruslar tomonidan tashkil etilgan maktablarni bitirgan mahalliy yoshlarni xizmatga tortish zarur deb topiladi. Shu maqsadda rus amaldorlari dastlab rus-tuzem maktablarini ochishga kirishadilar. 1884-yilda Toshkentda birinchi shunday maktab ochildi. Bu maktablardagi o‘quv jarayoni ikki qismdan iborat bo‘lgan. Tushgacha bo‘lgan mashg‘ulotlar rus o‘qituvchisi tomonidan, tushdan keyingi mashg‘ulotlar esa o‘zbek domlesi tomonidan olib borilgan.

Maktabga 20-30 o‘quvchi jalb qilingan. Maktab o‘quv dasturiga kirgan mashg‘ulotlarda asosan rus tili, adabiyoti, geografiyasi va tarixi o‘rgatilgan.

Keyinchalik ruslarning ta’sirini yanada oshirish, rus tilida o‘qishni majbur qilish maqsadida barcha idora ishlarini rus tilida olib borish chora-tadbirlari ko‘rlila boshlanadi. Shuning uchun ham rus-tuzem maktablari qoshida rus tilini o‘rganuvchilar uchun kechki kurslar ochishga kirishildi. Bu kurslarga asosan shaharda yashovchi savdogarlar, mahalliy boshqaruven tizimi vakillari, boy-badavlat kishilar, xullas, ruslar bilan aloqadan manfaatdor bo‘lgan kishilar jalb qilindi.

Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan ma’naviy zulmi yerli xalqning ilg‘or fikr egalari va asl vatanparvarlarini harakatga keltiradi. Ular kuch ishlatalish orqali istilochilar olib borayotgan jabr-zulmni yengib bo‘lmasligini anglab yeta boshlaydilar. Faqat ma’rifat tarqatish orqaligina xalqning ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish, toptalayotgan milliy qadriyatlarni tiklash, milliy o‘zligini anglatish mumkinligini tushunib yetadilar. Natijada o‘lkada ma’rifatparvarlik harakati avj ola boshlaydi.

Mazkur harakat quyidagi ikki yo‘nalishda vujudga keladi:

- a) ma’rifatchilik harakati, ya’ni Yevropa tillari, ilm-fani va texnikasi yutuqlarini egallashni targ‘ib qiluvchi ilg‘or fikr egalari;
- b) ta’lim tizimini isloh qilish, yangi uslubdagi maktablarni tashkil etish, chet mamlakatlarga borib o‘qib kelish, dunyoviy ishlarni egallash orqali mustamlakachilikka qarshi kurashish va ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilish g‘oyasini ilgari suruvchi jadidchilik harakati faoliyat ko‘rsatgan.

Ma’rifatparvarlik harakati vakillari (Ahmad Donish, Avaz O‘tar, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Anbar Otin, Hamza va boshqalar) asosan Yevropaning ilg‘or ilm-fani va texnikasini o‘rganishni, feudal tuzumi va tartiblarini bartaraf etishni, Yevropaning tillarini o‘rganishni o‘zlarining asarlari orqali targ‘ib qila boshlaydilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib Turkistonda ijtimoiy-tarixiy jarayonlar va Rossiya tarkibiga kiruvchi turli xalqlarning ilg‘or fikr egalari ta’siri natijasida ijtimoiy-falsafiy oqim darajasiga ko‘tarilgan jadidchilik harakati yoyila boshlaydi.

O’sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarini o‘zida mujassamlashtirgan jadidchilik harakatining yoyilishida, birinchidan, mahalliy aholini ruslashtirish siyosatiga qarshi vujudga kelgan kurashlar, ikkinchidan, ma’rifat tarqatish orqali aholining milliy qiyofasini va kuchli zarbaga uchrayotgan milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolishga, aholini feudal qoloqlikdan olib chiqishga bo‘lgan harakatlar muhim rol o‘ynagan.

Albatta, bu harakatning Turkistonda amalga oshiradigan ishlari silliqqina kechmagan. Jadidchilar dastlab diniy mutaassibchilikning kuchli qarshiligiga, so‘ngra, yerli aholini qoloqlikda saqlab turishga harakat qilgan rus ma’muriyati tazyiqiga duch keldilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishida qrim-tatar xalqining ulug‘ farzandi Ismoil Gaspirali (Gaspirinskiy) muhim rol o‘ynadi. U Turkistonga kelib jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qila boshladi va hatto Buxoro amiri Abdulahadxon bilan uchrashib, jadid maktabini ochishga ruxsat oldi. Uning sa‘y-harakatlari tufayli Turkiston o‘lkasida jadidchilik maktablari ochila boshladi

Jadidchilik harakatining asosida Turkiston xalqini ma’rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlар darajasiga ko‘tarish g‘oyasi yetardi. Bu g‘oyani faqatgina maorifni tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o‘qitish orqaligina amalga oshirish mumkin edi.

1. Gaspiralining xatti-harakatlari zoye ketmadi. Turkistonda uning Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1884-1938), Ashurali Zohiriy kabi izdoshlari yetishib chiqdi. Ular jadidchilik g‘oyalarini o‘zlarini tashkil etgan maktablar, gazeta va jurnallar orqali targ‘ibot qila boshladilar. Masalan, Munavvarqori «Xurshid», Abdulla Avloniy «Shuhrat», Behbudiy esa «Samarqand» gazetasи va «Oyna» jurnalini nashr qildirdi. Keyinchalik Turkistonning turli

shaharlarida «Kengash», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Najot», «Hurriyat», «Turon», «Ulug' Turkiston» kabi ommaviy nashrlar chiqa boshladi.

Turkiston jadidchilik harakati o'zining faoliyatini XX asrning 30- yillarigacha davom ettirgan. Ularning 1917- yilgi to'ntarishdan keyingi faoliyati asosida til va adabiyotni isloh qilish, matbuot erkinligi, ko'plab teatrlar tashkil qilish g'oyalari yotar edi.

XX asr boshlariga kelib Turkistonda milliy teatrning shakllanish jarayoni sodir bo'ldi. Milliy teatrning shakllanishida asosan diniy e'tiqodi bir, tili esa bir-biriga yaqin bo'lgan ozarbayjon va tatar teatrlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Ozarbayjonlarning dramatik, prozaik va she'riy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilina boshlagan. Ozarbayjon adabiyoti va san'ati vakillari Turkiston o'lkasiga tez-tez tashrif buyurib turganlar. Ayniqsa, 1911- yilda Ozarbayjon teatrlari birinchi marta Turkiston o'lkasida gastrollarda bo'lishadi va o'zlarining ommabop san'atlarini namoyish qiladilar. Masalan, Ahmadbek Kamarlenksiy, Yunus Narimonov, Sidqiy Ruhullo kabi yirik san'atkorlar Turkiston o'lkasining turli shaharlarida bo'lishib, N. Vezirovning «Musibati Faxriddin», «Yomg'irdan qochib selga», M.Oxundovning «Hoji qora» kabi sahna asarlарini ko'rsatishgan. Shuningdek, 1911- yilda birinchi marta Ilyosbek Ashkazarskiy rahbarligidagi tatar truppassi Turkistonda gastrolda bo'ladi. Bu truppa «Baxtsiz bola», «Uch xotin bilan turmush», «Xo'jayin va ish yurituvchi», «Oldi-berdi», «Vijdon va ko'z yoshlar» kabi dramatik asarlarni namoyish etishadi.

Albatta, bu teatr truppalarining gastrollari yerli xalq ziyolilariga ta'sir qilmasdan qolmadni. Natijada, Abdulla Avloniy Ozarbayjon san'atkorlarining yordami bilan «Turkiston» nomli teatr to'garagi tashkil etdi. Bu to'garak o'zbek yozuvchilarining dramalari bilan bir qatorda Ozarbayjon dramalarini ham sahnalaشتirib Toshkent, Xo'jand, Qo'qon, Namangan, Andijon shaharlarida namoyish qildi.

Abdulla Avloniy, Hamza, Siddiqiy, So'fizoda, Fitratlar birmuncha ilg'or Ozarbayjon adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish maqsadida Bokuga bordilar.

Birinchi o'zbek dramaturgi Mahmudxo'ja Behbudiy «Padarkush» dramasini yozib, Turkiston general-gubernatorligiga yuboradi. Lekin Rossiya imperiyasi senzurasining Turkiston bo'limi bu asarni xavfli deb hisoblab, chop qilishga ruxsat bermaydi. So'ngra Behbudiy pyesaning muqovasiga «Rossiyaning Fransuz istilosidan ozod bo'lishi va mashhur Borodina xotiralari yubileyiga bag'ishlayman», deb yozib senzuraning Tiflis bo'limiga yuboradi. Natijada ozarbayjonlik ilg'or ziyolilar yordami bilan nashr qilishga ruxsat oladi.<sup>1</sup>

Turkiston jadidchilik harakati vakillarining taqdiri ayanchli tugadi. Ular Rossiya imperiyasi davrida ham, sho'rolar davrida ham ro'shnolik ko'rmadilar. «Millatchi», «xalq dushmani», «aksilinqilobchi» degan turli ayblar taqalib qatag'on qurbanlariga aylandilar.

<sup>1</sup> Jalolov A. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti.—T.: «Fan», 1991, 24-ber.

### **3-§. Ilmiy jamiyatlar va ularning milliy madaniyatga ko'rsatgan ta'siri**

Mustamlakachilik davrida Turkiston o'lkasida tuzilgan turli yo'nalishdagi ilmiy jamiyatlar hududda ijobji o'zgarishlarga — sanoat ishlab chiqarishi, fan va texnika rivojiga sabab bo'ldi. Olim, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy yozganidek, «Rossiya miltiqlarining uchiga qo'nib, yangi fikr va ilmlar va madaniyat bizim g'arib Osiyoi vasatiyga yuz qo'ydi...»

Rus fani va texnikasining O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi, mahalliy xalq vakillarining madaniyat, ilm-fan va texnikaga bo'lgan qiziqishlarining kuchliligi sababli XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasining Toshkent, Samarcand, Qo'qon, Andijon, To'raqo'rg'on, Kogon kabi shaharlarda bosmaxonalar ishga tushdi. Natijada bu bosmaxonalarda o'z davrining ko'zga ko'rigan ilm-ma'rifat vakillari asarlari chop etila boshlandi.

Bu davrda O'rta Osiyoning ko'pgina joylari tarixini o'rganish maqsadida, uning geografik joylanishi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, yer osti va yer osti ma'danlari va boyliklarini izlab topish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilgan. Bu ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish va olib borishda rus olimlaridan mashhur geograflar, tabiatshunoslar va geologlar faol qatnashganlar. Masalan, mashhur geograf P.P.Semyonov - Tyanshanskiy (1827-1914) Tyanshan tog' tizmalarini o'rgandi, muzliklar va vulqonlar haqida ma'lumotlar to'pladi. Tabiatshunos A.P.Fedchenko (1844-1873) Farg'ona vodiysi, Oloy, shuningdek, Zarafshon vodiysi va Qizilqumni tekshirib o'rganib chiqdi. Geolog va geograf I.A.Mushketov (1850-1902) esa Shimoliy Tyanshan tizmalarining geologik asoslarini ko'rsatib berdi, Turkiston foydali qazilmalarining ro'yxati hamda birinchi mineralogik xaritasini tuzdi. Rus zoolog va sayyohi N.A.Seversov (1827-1886) Pomir tog' tizmasini o'rganib, o'z sayohati davomida zoologiya, botanika, minerallarga doir kolleksiya yig'di.

Ijtimoiy fanlarning rivojiga mashhur rus olimlaridan V.V.Bartold, M.S.Andreyev, Ye.E.Bertels, N.P.Ostromov, V.L.Vyatkin, A.A.Semyonov va boshqalar katta hissa qo'shadilar. Masalan, birligina mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold tarixiy manbalarni chuqur o'rganib «Ulug'bek va uning davri». «Turkistonning sug'orish tarixiga doir» nomli yirik asarlar yaratadi. Ye.E.Bertels esa Alisher Navoiy davrini chuqur tadqiq etish natijasida Temuriylar davrining so'nggi bosqichidagi Movarounnahr va Xuroson madaniy hayotini bir qadar tiklaydi.

Lekin shuni ta'kidlab o'tish zarurki, tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy izlanish ishlarini olib borgan ko'pgina rus olimlari O'rta Osiyoning tabiiy boyliklarini tezroq o'rganib, Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qildirish, mavjud barcha boyliklarni Rossiyaga olib ketish, shuningdek, yerli xalqlarning urf-odatlari, xulq-atvorlari, turli etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib.

ular ongiga rus imperiyasi manfaatlariga mos keluvchi mafkurani singdirish va mahalliy xalqlarni boshqarishni osonlashtirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yanlar.

Rus olimlari O‘rtta Osiyo, shu jumladan, Turkistonning geografik va tabiiy olami xaritalarini tuzadilar. Bu xaritalardan Rossiya imperiyasi G‘arbiy maqsadlarda foydalandi. O‘zining istilochilik harakatlari va yerli xalq ustidan nazoratni kuchaytirishda mavjud xaritalarga qarab strategik ahamiyatga ega bo‘lgan joylarni belgilab chiqdilar. Geodeziya ahamiyatiga ega bo‘lgan xaritalaridan foydalanib esa yer osti va yer ustki qatlamlaridagi sanoat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan xomashyolarni Rossiya sanoati korxonalariga jo‘nata boshladilar.

Umuman olganda, rus olimlari va ular tomonidan tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar va qidiruv ishlari, birinchidan, mahalliy aholining ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishda, ikkinchidan, hozirgi davrda jahon ilmiy dunyosida o‘z o‘rnini va mavqeiyiga ega bo‘lgan milliy fanimizning paydo bo‘lishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

#### 4-§. Me’morlik va musiqa san’ati

XXI asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro me’morlik san’ati asosan uyjoy qurilishi va o‘ziga xos uslubda qurilgan Sitorai Mohi Xosada o‘z ifodasini topgan. Bu saroy qurilishida ham G‘arb, ham Sharq me’morchiligi an’analaridan foydalanilgan.

Sitorai Mohi Xosadagi «Oq saroy» (oq zal)ga berilgan naqshin pardozlar o’sha davr me’morchiligidagi xalq ustalari tomonidan yaratilgan o‘yma ganchkorlik va devorlarga surat solishning namunasi hisoblanadi. Bu saroyda buxorolik usta Shirin Murodov boshliq bir guruh ustalar o‘zlarining ganch o‘ymakorligi bo‘yicha butun mahoratlarini namoyish qilganlar. Ular ganchkorlik naqshlarida zargarlarni ham hayratga sola oladigan mahorat bilan o‘ta nozik va jozibador naqshlar bita olganlar.

Bu davrda Xiva xonligida ham o‘ziga xos me’moriy binolar, masjidlar, maqbaralar va madrasalar qurildi. Islom Xo‘ja maqbarasi Xivadagi eng salobatlisi me’moriy bino hisoblanadi. Bu madrasa va uning minorasini bosh vazir Islom Xo‘ja 1908-1910- yillarda o‘z mablag‘i hisobiga qurdiradi. Madrasaning old qismida Xivadagi eng baland minorasi joylashgan. Minoraning balandligi 44,6 metrdir.

Xivadagi yana bir me’moriy bino Qozikalon madrasasidir. Bu madrasani Xivaning adolatpesha qozisi Salimoxun o‘z mablag‘i hisobiga qurdirgan. Salimoxun qozi Xiva xonligidagi iqtidorli, lekin kam ta’minlangan mullavachchalarini o‘z ta’minotiga olib o‘qitadi.

Bu davrda qurilgan me’moriy binolardan yana biri mashhur Pahlavon Mahmud qabri ustiga qurilgan maqbara hisoblanadi. Aslida maqbaraning

poydevori XIV asrda qurilgan bo'lsa-da, uning butun majmuasi XIX asrda bino etilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasiga guldar sopol bezaklar ishlatalgan. Bu esa maqbaraning yanada hashamatli va mahobatli bo'lishiga yordam beradi.

Turkistonga ruslar ko'chib kelishining kuchayishi turli shaharlarda Yevropa va Sharq-Yevropa uslubida qurilgan binolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, Toshkentdagagi knyaz Romanov saroyidagi zallar o'zbek ustalari tomonidan sharqona bezatilgan. Shuningdek, bu davrda ruslarning ta'siri natijasida qadimiy shaharlar atrofida yo'ldosh shaharlar paydo bo'la boshladi. Masalan, birgina Toshkent shahri eski va yangi shaharlarga bo'linib, Anhor kanali orqali ajralib turgan. 1865-yildan qurila boshlagan yangi shaharda Yevropa uslubidagi binolar qurilgan bo'lsa, eski shahar o'zining sharqona uslubi bilan ajralib turgan.

Marg'ilon shahridan 8 kilometr chamasi uzoqlikda yangi shahar – hozirgi Farg'ona (Sobiq Skobelev) shahri qad ko'tara boshlagan. Natijada, Turkiston arxitekturasi Sharq va G'arb me'morchiligi sintezi sifatida shakllana borgan.

O'zbek xalqining ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan musiqa san'ati qadimiy va o'ziga xos an'analariga ega edi. XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek musiqasining barcha janrlari va shakllari xonanda va sozandalar avlodni tomonidan ijod qilinib, og'izdan og'izga o'tib kelgan og'zaki an'anaviy san'atdan iborat edi.

O'zbek musiqasi folklor sohasi (xalq kuylari va cholg'u musiqasi) va og'zaki an'anaga mansub bo'lgan murakkab professional musiqani o'z ichiga olgan. O'z manbalari jihatidan yagona xalq badiiy madaniyatining bu ikki qatlami bir qancha xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, ularning umumiy tomonlari ham bor edi. Mavzu mazmuniga qarab qo'shiqlarni besh asosiy guruhga bo'lishimiz mumkin:

- a) maishiy, g'alla, bolalar qo'shig'i, lirik qo'shiqlar va shu kabilar;
- b) oilaviy rasm-rusum kuylari (to'y, motam);
- d) mehnat qo'shiqlari;
- e) ijtimoiy norozilik qo'shiqlari;
- f) tarixiy qo'shiqlar.

Musiqa tuzilishi va ijro xususiyatlari jihatidan esa o'zbek kuylari terma, qo'shiq, lapar, yalla va ashula kabi janrlarga bo'linadi, bularning har birining mavzusi xilma-xil bo'lgan.

Hazil-mutoyiba va satirik qo'shiqlar ham xalq orasida juda mashhur edi. Xalq turmushida cholg'u musiqasi keng tarqalgan edi. Cholg'ularning tarkibi jihatidan turli-tuman sozandalar ansamblari bor edi. Bulardan ba'zi birlari sayillarda, to'ylarda, xalq teatri va sirklarida qatnashar edi. (Qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar va shu kabilarning o'yinlariga jo'r bo'lishardi). Katta-katta maydonlarda (odatda, bozorlarda) musiqa ansamblari va karnay-surnay, nog'ora singari ovozi baland cholg'ular ham qo'shilar edi. Ba'zi

ansambllar qo'shiqchi-ashulachilarga jo'r bo'lishardi. Bunday ansambllarda, odatda, mayin va sekin ovozli cholg'ular (dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay) ko'proq bo'lardi. Bu ansambllarning vazifasi faqat jo'r bo'lishdangina iborat bo'lmasdi. Shu bilan birga, bu ansambllar turli xil lirik va raqs kuylarini ham ijo etardilar. Doira hammadan ham mashhur bo'lgan. Ashulachilar va o'yinchilarga doira jo'r bo'lardi: ansambllarda doira eng muhim ritmni bir maromda ushlab turuvchi asosiy vosita vazifasini o'tagan.

Bayramlar (sayil, to'y, kechki bazm, ziyofatlar)da xonanda va sozandalar katta maydonlarda (bozorlarda, katta hovli, shuningdek, katta mehmonxonalarda) ashula aytishib, musiqa ijo etardilar. Respublikaning ko'pgina joylarida xonanda va sozandalar choyxonalarda to'planib, mashq qilganlar. Chunki choyxonalarga faqat choy ichish uchungina to'planilmagan, balki qizg'in suhbatlar qurish, musiqa eshitish uchun ham to'planganlar.

Ro'za kunlari, bozori oqshomi sayillari yoki Navro'z bayramlarida, shahar maydonlarida bo'ladigan yig'ilishlarda, o'yin-kulgularda musiqaning roli benihoya katta bo'lgan. Bunday kunlarda choyxona egalari bir-birlari bilan raqobat qilishib, ko'proq musiqa shinavandalarini yig'ish niyatida eng mashhur xonanda va sozandalarni taklif qilish payida bo'lganlar.

O'zbek xalqining musiqa madaniyatida professional ijrochilik an'analari qadiimdan mavjud bo'lgan. Ko'plab musiqachilar, sozanda va xonandalar musiqa asarlarini qoyilmaqom qilib chuqur, mazmunli tarzda, ajoyib xushovozlari bilan ijo etishar, xalq cholg'u asboblarini chalishda mahorat ko'rsatardilar. O'sha davrda samarqandlik ashulachi va dutorchi Hoji Abdulaziz Rasulev, ashulachi Levi Boboxonov, xorazmlik tanburchi Matyoqub Harratovlar mashhur bo'lganlar.

Maqomlarning vokal (ashula) qismlarining matnlari Fuzuliy, Hofiz, Rumiy, Jomiy, Navoiy, Bedil kabi buyuk adiblarning g'azallaridan olinar, ba'zan esa dasturda o'git-nasihat yoki diniy-mistik mazmundagi she'rlar ham uchrab turgan.

Maqomlar Buxoro va Xivada rivojlangan edi. Buxoro «Shashmaqom»i mukammal olti maqomdan iborat bo'lib, bu maqomlardan har biri ko'plab qo'shiq va musiqaviy qismlarni o'z ichiga olgan. Lirik mazmunli Farg'ona katta ashulasi og'zaki an'anaga kirgan o'ziga xos professional musiqa janri hisoblangan.

Garchi o'zbek musiqasi xalq sozandalarining amaliy faoliyatida og'zaki an'anavylik san'at tariqasida rivojlanib borgan bo'lsa ham, musiqa bilimining yuqori darajaga erishganligi natijasida o'rta asrlardayoq tovushlarni qog'ozga yozib olish (nota yaratish) usullari ixtiro qilingan edi. Masalan, xorazmlik Pahlavon Niyozmuhammad (Komil Xorazmiy) o'zbek kuylarini yozib olish nohasida yangi tizim — «tanbur chizig'i»ni yaratgan. U rost maqominining bosh qismini ana shu «stanbur chizig'i»da yozadi.

Ochiqdan ochiq ijtimoiy norozilik mavzuyidagi ko'plab xalq kuylarining

paydo bo'lishi 1916- yilda bo'lib o'tgan milliy ozodlik harakatlari bilan bog'liqdir. «Poyezdingni yurgizgan», «Nikolay qon jallob», «Ming la'nat» kabi qo'shiqlar xalqning podsho hukumatiga nisbatan qahr-g'azabi qanchalik kuchli bo'lganligidan dalolat beradi.

Toshkentlik hofiz Mulla To'ychi Toshmuhammedov (1867-1943)ning nomi juda ham mashhur bo'lgan. To'ychi hofiz lirik asarlar: «Gulyor», «Bayot», «Lolalaring bordur», «Holim mening», «Yangi Kurd», «Suvvora», «Ilg'or», kabi kuylarni mohirona ijro etishi bilan xalqning mehr-muhabbati va hurmatiga sazovor bo'ldi. 1905- yilda bu ashulalardan ba'zi birlari Mulla To'ychi ijrosida grammofon plastinkalariga yozib olingan. Bu o'zbek musiqasining birinchi marta plastinkaga yozilishi edi.

Juda shirali va kuchli ovozga ega bo'lgan buxorolik Domullo Halim Ibodov (1870-1940) o'ta mashhur hofizlardan biri edi. Xorazmlik hofiz Matpano Xudoyberganov, toshkentlik Shorahim Shoumarov, dutorchi Abdusosat Vahobov, mashhur doirachi-sozanda Usta Olim Komilov, naychi Abduqodir Ismoilov, surnaychi va qo'shnaychi Ahmadjon Umrzoqov (keyingi uchalasi Farg'ona vodiysidan)lar juda ham mashhur san'atkorlardan edilar.

Masxaraboz-qiziqchilar va qo'g'irchoqbozlik san'ati an'anaviy xalq madaniyatining asosiy janrlaridan biri hisoblangan. Tomosha san'atining bu turlari xalq ijodining juda ko'p tur va janrlari: askiyabozlik, taqlidchilik, nayrangbozlik, yog'ochyoqbozlik san'atidan, shuningdek, maqomchilar, sozandalar, raqqoslarning faoliyatidan keng foydalanish natijasida rivojlangan. Biroq tomosha san'atining asosini kichikroq satirik va hajviy lavhalar ijrosi tashkil etgan. Qo'g'irchoqbozlik san'ati (qo'g'irchoq o'yin), o'z navbatida, qo'l qo'g'irchoqqa va chodirxayolga bo'lingan.

Masxaraboz - qiziqchilar ham, qo'g'irchoqbozlar ham, xoreografiya, sirk va musiqa san'ati namoyandalari bilan bir qatorda hunarmand-kosiblar singari maxsus hunar jamiyatlari (kasabaviy sozanda mehtarlik)ga birlashganlar. Artistlar jamiyatining o'z nizomi bo'lgan. Artistlar xalq bayramlari, to'y-tomashta, oilaviy tantanalar vaqtida hamda turli xil shart-sharoitlarda, ko'pincha maydonlarda tomosha ko'rsatganlar. Masxarabozlar va qiziqchilarning tomoshalari asosini ilgaridan tayyorlab qo'yilgan ma'lum bir sujetli kichik tomoshalar tashkil etgan.

O'zbekistonda mashhur bo'lgan va mehnatkashlarning g'arib-qashshoqligini ochib tashlaydigan xalq asarlaridan biri «Eshak» nomli hajviy asar hisoblangan «Hosil» tomoshasi mulla va xon amaldorlari tomonidan bor-budi yulib-yulqib olinayotgan o'zbek dehqonining og'ir hayotini tasvirlagan. «Mozor», «Zarkokil», «Mudarris», «Domla eshon» kabi tomoshalarda riyokor va mutaassis ruhoniy va musulmon din peshvolari qattiq tanqid ostiga olingan.

Xulosa qilib aytganda, XIX va XX asr boshlarida O'rta Osiyo, jumladan Turkiston o'liasi hududiga Yevropa va rus madaniyatining kirib kelishi bil

qator madaniy o'zgarishlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ular quyidagilardir:

- a) ilm-fan, musiqa va teatr san'atida yangi ko'tarilish davri boshlandi;
- b) xalqni ma'rifatli qilishning asosiy vositasi yangicha uslubdagi maktablar paydo bo'ldi;
- d) Turkiston va boshqa o'lkalar o'rtasida madaniy aloqalar kuchaya bordi;
- e) matbaachilikning shakllana borishi ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi yangi bir vosita — ommaviy axborot vositalari (gazeta va jurnallar) ning vujudga kelishiga sabab bo'ldi;
- f) badiiy adabiyotning shakllanishida Yevropa badiiy ijodiyoti uslublarining ta'siri sezila boshladi. Natijada yozma nasriy va dramatik asarlar paydo bo'la boshladi;
- g) XX asr boshlarida Toshkent, Farg'ona kabi shaharlarda kino san'atini namoyish qilish yo'lga qo'yila boshlandi;
- j) ommaviy xalq tomosha san'ati rivoji yangi bosqichga ko'tarildi, tomoshalar dasturida yangi mavzular — ma'rifatga chorlash, milliy istiqlol, ijtimoiy norozilik kayfiyatidagi tomoshalar ko'zga tashlana boshladi.

### 5-§. Sho'rolar davri madaniyati

Sobiq sho'rolar davri madaniyati o'zining qarama-qarshi tomonlari va xususiyatlari bilan boshqa davrlar madaniy taraqqiyotidan farq qiladi. Bu davrning asosiy xususiyati hayotning barcha sohalari, jumladan, ma'naviy madaniyat sohasining kommunistik mafkuraga tobeligi bilan tavsiflenadi.

Ma'lumki, milliy madaniyat milliy e'tiqod va milliy his-tuyg'ular asosida rivojlanadi. Sho'rolar davrida ana shu xususiyat — milliy madaniy taraqqiyot o'zani begona madaniy oqim tomonga burib yuborildi. Natijada milliy madaniyat o'zining hayotbaxsh manbayidan, milliy e'tiqod va his-tuyg'ularidan ajratib qo'yildi. Madaniy-tarixiy hodisa g'oyaviylashtirildi, hukmron mafkura va hukmron sinf manfaatlariga bo'ysundirildi. Ikkinci tomondan, sotsialistik lagerga kirmaydigan «begona davlatlar» madaniy hayoti bilan milliy madaniyatlar o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikka rahna solindi. Bu esa milliy madaniyatlarning umumbashariy madaniyatlardan uzilib qolishi va «begona»lashuviga olib keldi.

Bu davrning ikkinchi salbiy tomoni badiiy ijodiy jarayonning bir qadar cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Ijodiy erkinlik hukmron mafkura ko'rsatmasi asosida qurildi. Badiiy ijod «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» uslubda bo'lishi shari qilib qo'yildi. Bu qonuniyat o'tmisht madaniy merosga ham tatbiq etildi. Natijada o'tmisht avlodlardan qolgan barcha madaniy boyliklarni o'rganishda, uning ana shu qonuniyatga javob bermaydigan tomonlari olinib, qolgan jihatlari «zararli, «kommunizm quruvchisi»ning ongini zaharlaydigan

«og‘u» deb topildi. Bu esa avlodlardan avlodlarga qonuniy tarzda o‘tuvchi yaxlit jarayonning buzilishiga sabab bo‘ldi.

Har bir jarayonning ijobi va salbiy tomonlari mavjud bo‘lganidek, sobiq sho‘rolar davrining ham o‘ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud bo‘lgani, bundan ko‘z yumish umumiy tabiiy-tarixiy jarayonga bir tomonlama nazar tashlash bilan barobardir.

Sho‘rolar davrida o‘ziga xos madaniy taraqqiyot vujudga kelib, bu madaniy jarayon ozmi-ko‘pmi umumbashariy madaniy taraqqiyotning rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsata olgan. Bu davrda ilm-fan, texnika va san’atning ko‘pgina sohalarida (ayniqsa, me’morchilikda) ulkan yutuqlarga erishildi. Fanning ayrim sohalardagi rivoji dunyo mijyosisidagi darajaga ko‘tarildi.

Sho‘rolar davri madaniyatining asosiy tomonlaridan yana biri majburiy ta’limning joriy etilganligidir. Bu vazifani amalga oshirish uchun ko‘plab maktablar tashkil etildi. Natijada qishloq joylari madaniy-maishiy hayotining yaxshilanishida ana shu maktablarning ta’siri sezilar darajada bo‘ldi. Yoki xalq xo‘jaligining turli sohalarini kadrlar bilan ta’minalash uchun ta’lim tizimining bosqichma-bosqich yaxshilanib borilishi ham aholi madaniy saviyasining ko‘tarilishida muhim rol o‘ynagan.

XX asrning 20-yillarida o‘zbek milliy professional teatri va milliy kino san’atlaring tamal toshi qo‘yildi. Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim o‘z rivojlanish bosqichiga kirdi.

Sho‘rolar davrida ham Rossiya imperiyasi amaldorlari tomonidan amalga oshiralayotgan siyosat — yerli xalqni ruslashtirish siyosati davom etdi. Milliy ma’naviy qadriyatlar millatning milliy g‘ururi va o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlari bo‘g‘ib qo‘yilishi davom etdi.

O‘tmish madaniy merosga bo‘lgan munosabatda sinfiylik tamoyili asosiy mezonga aylandi. Mazkur tamoyilning madaniy-ijodiy jarayonga tatbiq etilishi o‘zbek milliy madaniyatining qadim ajdodlari tomonidan vujudga keltirilgan sarchashmalaridan bahramand bo‘lishiga barham berdi.

O‘tgan asrning 20- yillari boshida qabul qilingan «San’at buyumlari va ilmiy kolleksiyalarini chet elga olib chiqib ketishni taqiqlash to‘g‘risida» (1921-yil, 22-may), «Musulmon nashrlari uchun mablag‘ ajratish» (1922- yil, 10-avgust), «Turkistonda yerli bolalar uchun maktablar tarmog‘ini kengaytirish» (1923- yil, may) va boshqa ko‘pgina chora-tadbirlar o‘z samarasini bermay qolmadidi. Maktablar tarmog‘i tez sur’atlar bilan rivojlandi, matbaa ishi yaxshilanib madaniy-ma’rifiy ishlarni ko‘laming ta’siri kengaydi. Bu ishlarning amalga oshuvni natijasida mahalliy xalq orasidan A.Avloniy, A.Fitrat, A.Qodiriy, S.Ayniy, Hamza, A.Cho‘lpon, Botu (M.Xodiyev), Ziyo Said singari adiblar. M.Uyg‘ur kabi atoqli aktyor va rejissyorlar yetishib chiqdi.

1925- yilga kelib o‘zbek tilida 17 nomdag‘i gazeta va jurnallar chiga boshladidi. Turkistonda yashovchi o‘zbek, qozoq, rus va boshqa millat tillarida kitoblar

chop etildi. 14 teatr, 19 kinoxona, 152 ta kutubxona va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat ko'rsata boshladi.

Savodsizlikni tugatish maqsadida xalq tilida mакtablar tashkil etish sur'ati yanada kuchaytirildi. Ularni darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1930- yil 25- iyulda majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etildi. 30-40- yillardor oralig'ida mehnatga yaroqli aholining deyarli barchasi savodsizlikni tugatish tizimida o'qib chiqdi. 30- yillarning oxirlariga kelib, umumiy yetti yillik ta'limga o'tildi.

1920- yilda Toshkentda rasman tashkil etilgan O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) nafaqat respublikamiz uchun, balki O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston uchun oliy malakali mutaxassislar tayyorlab beruvchi yagona markazga aylandi.

20-30- yillarga kelib respublikamizning yirik shaharlarida xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklarni yetkazib beruvchi ko'plab oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil etila boshlandi. Bu davrda respublika madaniy hayoti partiyaning qattiq nazorati ostida tashkil etilardi. Partiyaning yo'l-yo'riqlariga ozgina bo'lsa-da beparvolik qilish, undan chetga chiqish va erkin ijodga intilish aksilinqilobiy harakat hisoblanar va qattiq jazoga mutbalo qilinar edi. O'tmish madaniy meros va qadimiy madaniy yodgorliklarga yangi sotsialistik madaniyatning dushmani sifatida qaralar edi. Madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan dinga qarshi ayovsiz kurash boshlandi.

Bu holat, ayniqsa, 30- yillarda avjga chiqdi. Ko'plab dindorlar uzoq o'lkalarga, begona yurtlarga surgun qilindi. Islom va xristian dinlariga oid qanchadan qancha kitoblar yo'q qilinib, masjidlar, cherkovlar, xonoqohlar va maqbaralar vayronaga aylantirildi. Shunga qaramasdan, 20- yillardan boshlab respublika madaniy hayotida bir qator o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Xalq ta'limi tizimida, madaniy yodgorliklarni saqlash va mahalliy matbuotning rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Respublika madaniy hayotida o'sha davrning fidoyi siymolari eng murakkab sharoitda ham partiya yakkahokimligi va davlat tomonidan avj oldirilgan jazo choralariga qaramay, milliy ruh va milliy istiqlol uchun kurash olib bordilar. O'sha davrning mashhur adiblari va publisistlari Munavvarqori, A. Fitrat, A. Cho'lon, A. Qodiriy, A. Avloniy, Hamza, G'. Yunus, Ashurali Zohiriy, Xurshid (Sh. Sharofiddinov), keyingi yosh avlod vakillaridan Botu (M.Xodiyev), Ziyo Said va boshqalar hamda o'zbek professional teatri tashkilotchilaridan M.Uyg'ur kabi ziyolilar shular jumlasidandir.

20-30- yillar Respublika madaniy hayotidagi og'ir yillar hisoblanadi. Bu davrda milliy adabiyot va san'atni saqlab qolish, uning ilg'or an'analarini qilish uchun harakat avj oldi. Shu bilan birga adabiy-badiiy jarayonni hukmron sinf manfaatlari bo'yundirishga yordam beruvchi ikkinchi guruh ham paydo bo'ldiki, ular millat qahramonlarini qatag'on qilishda jonbozlik ko'rsatdilar.

Ana shu kurashlar natijasida o'zbek adabiyoti tarixida yangi janr — o'zbek romanchilik janri vujudga keldi. Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» nomli asarlar yaratib o'zbek romanchiligi asosiga tamal toshini qo'ydi. A. Fitratning «Chin sevish» va «Abulfayzxon», «Arslon», A. Cho'lponning «Cho'riqiz isyonii», «Yorqinoy» va «Zulmkor» nomli dramatik asarlarida Turkiston xalqlarining fojiasi, tuganmas dardlari to'laqonli aks ettiildi.

Sobiq TASSRning ijozati bilan tuzilgan «Chig'atoy gurungi» tashkiloti Turkiston xalqlari madaniy merosini toplash va o'rganish yumushlari bilan birga madaniyat va adabiyot sohasi orqali milliy istiqlolni targ'ib qilish yo'lida faoliyat ko'rsatgan. Bu tashkilotga a'zo shoir va adiblar, ma'rifatparvarlar til va adabiyotning milliyligi masalasida ulkan ishlarni bajarishdi. O'tmishterosga, xususan, chig'atoy adabiyotiga katta ixlos bilan qaragan holda, xalq tiliga, xalqona ifodaga, milliy zaminga alohida e'tibor qaratdilar. O'z amaliy ishlari bilan ruslashtirish siyosatiga qarshi turdilar. Lekin bunday sa'y-harakatlar hukmron mafkura andazalariga mos tushmas edi.

Respublikaning mustaqilligi uchun kurash dastlab ochiqdan olib borilgan bo'lsa, partiya yakkahokimligi va totalitar tuzum o'rnatilishi hamda milliy istiqlol uchun kurashuvchilar avosiz jazolana boshlangandan so'ng bu kurash yashirin tarzda olib borildi. Masalan, maorif vaziri bo'lib ishlab turgan R. Inag'omov rahbarligidagi «18 lar guruhi» yer-suv islohoti kompaniyasi boshlanishi oldidan o'z faoliyatini ochiqchasiga olib borgan. R. Inag'omov, eng avvalo, partiya rahbarligi, uning gegemonligiga qarshi chiqadi. Partiyani diktatorlikda va demokratiyanı bo'g'ishda ayblaydi, jamiyatni boshqarishda barcha guruhlarning erkin qatnashishini ta'kidlaydi. Davlatni boshqarishda faqat sho'rolarning ishtirokini tan olib, partianing asosiy vazifasini faqat targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishdan iborat, deb hisoblaydi.

Ayrim ma'rifatparvarlar mahalliy aholi bolalari uchun o'z mablag'idan maktablar ochdilar. Xalq ta'limining ko'pgina tashkilotchilari pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan tashqari, maktablar uchun o'zbek tilida darslik tayyorlash ishida ham faol qatnashdilar. Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunnun, Rahimjon Shokiriy, Elbek, Qayum Amazon. Sh.Saidrizo Alizoda, Rafiq Mo'min, Abduqodir Shokiriy va boshqalar shular jumlasidandir.

XX asrning 30-yillarda adabiyot sohasiga G'ayratiy, Oybek, G'. G'ulom. Botu (M.Xodiyev), Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova. Usmon Nosir, Amin Umariy, Uyg'un singari yozuvchi va shoirlar kirib keldilar va xalq orasida tanila boshladilar.

20-30- yillarda o'zbek teatr san'ati shakllana boshladi. Bu davrda Hamza va Mannon Uyg'urlar tomonidan o'zbek professional teatri beshigi hisoblangan akademik teatr tashkil topdi. Natijada Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov. Muhiddin Qori Yoqubov kabi ulug' siymolar yetishib chiqdi.

Bu davrda O'zbekiston kino san'ati asosiga tamal toshi qo'yildi. O'zbek musiqa, kinematografiya va teatr san'ati tezkorlik bilan rivojlandi, o'z davrinining buyuk san'atkorlari: M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonov, (musiqa), Y.A'zamov, N.G'aniyev, S.Iskandarov, A.Umarov, R.Pirmuhamedov (kinematografiya), L.Narzullayev, Z.Hidoyatova, Sh.Qayumov, T.Saidazimova, X.Nosirov (teatr) kabilar yetishib chiqdilar.

30-yillar o'zbek fanining jadal rivoj topayotgan davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda mashhur geolog olimlardan X.M.Abdullahayev, G.A.Mavlonov, matematiklardan T.N.Qori Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, biolog olimlardan T.X.Zohidov, D.K.Saidov, A.M.Muzaffarov, A.T.To'laganov, kimyogarlardan O.S.Sodiqov, A.S.Sattorov, M.Yunusov, X.U.Usmonov K.S.Ahmedov, energetiklardan X.F.Fozilov, G.R.Rahimov, faylasuflardan I.M.Mo'minov, arxeologlardan Ya.G'.G'ulomov kabilar yetishib chiqdilar.

Bu davrning eng buyuk muvaffaqiyatlardan biri – televideniyening vatani Toshkent bo'lib qolganligidir. 1928- yili o'zbekistonlik V.P.Grabovskiy va I.F.Belyanskiylar elektron nur yordamida harakatdagagi tasvirmi bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qilingan «radiotelefon» yaratdilar.

Xullas, 30- yillarda ro'y bergan murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar respublika madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, ma'naviy hayot sohasidagi qatag'onlar milliy madaniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

«Xalqlar otasi»ning jamiyat turmushidagi barcha sohalarga «dohiyarcha rahbarligi» xato va kamchiliklarsiz ideal jamiyat qurilayotganligini madh etuvchi asarlarning ko'payishiga olib keldi. San'atning turli sohalarida hayot haqiqatini bирyoqlama ko'rsatuvchi, qolipga solingan ijod namunalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Qonunchilikning qo'pol ravishda buzilishi, insoniy qadr-qimmatning poymol etilishi natijasida milliy madaniyatning ko'pgina ko'zga ko'ringan namoyandalari – Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon. Fitrat, Zohiriy, Shokir Sulaymon, Elbek, Usmon Nosir, Otajon Hoshimov va boshqa millatparvarlar yo'q qilindi.

Il jahon urushi yillari adabiyot va san'atdagi asosiy mavzu – insonparvarlik g'oyalarining yanada kuchaytirilishi edi. Chunki fashizm butun insoniyat va uning tomonidan yaratilgan barcha madaniy merojni yo'q qiluvchi ofat hisoblanardi. Shu sababli urush yillarida yaratilgan barcha madaniy boyliklar insoniylik g'oyalariga yo'g'rilgan edi. Bu davrdagi asosiy mavzulardan biri – vatnparvarlik hissining oshib-toshib ketishi va barcha san'at asarlarda namoyon bo'lishi edi. Barcha narsa va harakat, barcha badiiy ijod – buyuk Vatan tuyg'usini shakllantirish, Vatan uchun jonini tikishdek qudratli hisga bag'ishlandi. Natijada bu davrda yaratilgan barcha san'at asarlarda millati, tili, e'tiqodi har xil bo'lgan kishilarning yagona, qudratli kuchiga aylangan ichki ruhiy hissiyot – Vatan tuyg'usi o'z ifodasini topdi.

Urush davrida O'zbekistonga Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan 22 ta ilmiy tadqiqot instituti, 16 ta oliy o'quv yurti ko'chirib kelingan edi. Natijada O'zbekistonda ilm-fanning tez sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyati vujudga keldi. Ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xomashyo zaxiralarini izlab topish ishlari amalga oshirildi. Sanoat uchun qimmatli bo'lgan ko'plab o'tga chidamli materiallar kashf etildi. Neft ishlab chiqarish ancha rivojlandi. Energetika zaxiralaridan foydalanish yo'lga qo'yila boshlandi.

Ijtimoiy fanlar rivojlantirilib, ko'plab arxeologik qazishma ishlari amalga oshirildi va respublikamiz hududidagi qadimgi madaniyat manzilohlari izlab topildi.

O'zbekistonda 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi. 1944-yilga kelib Fanlar akademiyasi tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud edi. 1943-yilda O'zbekistonda 41 ta oliy o'quv yurti (shundan 12 tasi ko'chirib kelingan), 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi va xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga mutaxassislar tayyorlab berdi. Urush yillarda bu o'quv yurtlari xalq xo'jaligining turli sohalariga 20 mingdan ziyodroq malakali mutaxassislar yetkazib berdi.

Shu bilan birga, 40-yillardan 50-yillargacha davom etgan siyosiy qatag'onlar O'zbekiston madaniy hayoti va taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu qatag'onlar asosan ilm-fan va madaniyat arboblari qaratilgan edi. Ko'pgina yozuvchilar, shoirlar, olimlar va boshqa fan va madaniyat arboblari nohaq qoralandi, «millatchi»likda ayblanib, hatto «xalq dushmani» tamg'asini oldi. Natijada adabiyot, san'atning taraqqiyot yo'li yuqorida belgilab beriladigan yo'lga solib qo'yildi. Asosiy e'tibor hayotni realistik, demokratik va oshkora tasvirlab berish o'rniqa «xalqlar otasi»ning, partiya va rahbarlar gegemonligining buyuk qudrati hamda qahramonliklarini bo'rttirib tasvirlashga qaratildi.

Millat, xalq va Vatan tarixini yoritib beruvchi asarlarning mualliflariga «o'tmishni qo'msovchi», «o'tmishni ideallashtiruvchi» kabi ayblar qo'yildi. Yozilgan asarlar partiya organlari senzurasi tomonidan qattiq tekshirilar va rahbariyatga yoqmagan «zararli elementlar» uchun ijodiy organlar va mualliflar badnom qilinar edi. Partiya organlari ayrim yozuvchilar va shoirlarning asarlaridan jiddiy xatolar «stopib», ularni milliy cheklanganlikda, o'tmishning zararli tomonlarini ideallashtirishda ayblay boshladilar. Natijada Oybek, Abdulla Qahhor, M.Shayxzoda Shukrullo, Said Ahmad, M. Boboyev, Mirtemir va boshqa ijodkorlarni badnom qildilar. Bir qator jurnallar, jumladan, «Sharq yulduzi» va «Zvezda Vostoka» jurnallari tahririyatiga jiddiy ayblar qo'yildi.

Xullas, ma'naviy hayotdagi qatag'onlar keyingi madaniy hayotda ko'pgina salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga, ya'ni ijoddagi erkinlik o'rmini hadiksirash. mavzuning yuqorida belgilab berilishini kutish kabi noxush holatlarning ro'y berishiga olib keldi.

Shuningdek, ijodning hukmon millat, mafkura va sinf tazyiqi ostida belgilab

berilishi yozuvchilarining ijtimoiy taraqqiyot hodisalarini bir tomonlama yoritishga, mavjud kamchiliklarni ko'rib-ko'rmaslikka olishga majbur etdi. Natijada 70-yillardan so'ng shahar hayotiga asosiy e'tibor berish bilan cheklanib, qishloq voqealarini yoritish e'tibordan chetda qola boshladi. Qishloq hayoti, madaniyat va turmush ikkinchi darajali mavzuga aylandi. Aholining ozchilik qismi yashaydigan shahar hayoti ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Ayniqsa, badiiy filmlar ishlab chiqarishda yuzaklikka — g'oyaviy bo'sh, mazmunan sayoz, o'zbek millatining haqiqiy qiyofasini, urf-odatlari, qadriyatlarini, milliy o'zligini ochib bera olmaydigan filmlar ishlab chiqarishga o'tib olindi.

Xulosa qilib aytganda, bu davr O'zbekiston madaniy taraqqiyotini boshdan kechirgan bir bosqich sifatida tarix sahifasidan munosib joy oldi. Fan, texnika, adabiyot va san'at hamda maorif sohalarida muayyan siljishlar bo'lib o'tdi, ularning moddiy-texnika bazasi ancha mustahkamlandi.

1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekistonning Mustaqil deb e'lon qilinishi, Milliy Istiqlolga erishuvimiz xalqimizning ma'naviyat va madaniyatini yanada yuksaltirish imkoniyatini berdi. Bu shunday bir ne'matki, ajodolar tomonidan yaratilgan madaniy-ma'naviy merosga xalq milliy ruhiyati orqali nazar tashlashga, uning sarchashmalarini qalban his qila bilish, xalqona milliy va diniy e'tiqodlarga chuqur ehtirom ila qarash imkoniyatini yaratib berdi.

Milliy Istiqlolning mohiyatiga tushunib yetilgan taqdirdagina kishilarda chin vatanparvarlik hissi uyg'onadi, nafaqat o'tmish madaniy merosini, balki zamonaviy, qolaversa, xalqning kelajak madaniyatni va ma'naviyati masalalarini ham chuqurroq anglab yetish hissi paydo bo'ladi.

Milliy Istiqlol shunday qudratli kuchga egaki, o'z millati, xalqi va elatinga taqdirli, madaniyatni va milliy qadriyatlarini uchun kurash har bir fuqaroning insoniy e'tiqodiga aylandi.

O'z navbatida, milliy madaniyatning taraqqiyoti har bir insonning zamonaviy taraqqiyot oqimiga qo'shilib ketishiga yordam berdi.

### III QISM. MUSTAQILLIK DAVRI MADANIYATI

#### I BOB. MUSTAQILLIK VA MADANIY ISLOHOTLAR

Har bir ijtimoiy tuzum o'zi uchun qulay madaniyat tizimini yaratadi.

Sobiq sho'rolar davrida kommunistik masifikuraga xizmat qiladigan yagona markazlashtirilgan madaniyat tizimi yaratilib, unga kommunistik partiya rahbarlik qilar edi.

Sho'rolarga madaniyat asosan kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun kerak edi. Kommunistlar mamlakatda o'ziga xizmat qiladigan va mavqeyini mustahkamlaydigan sotsialistik madaniyatni rivojlantirish uchun mablag'i ini ayamasdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalg'a oshirildi. Jumladan:

- qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlarning chop etilishi xalqimiz milliy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o'yamoqda;

- sho'rolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e'tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijod turlari tiklandi;

- xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti kabilari)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni. O'qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilari)ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda;

- diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarining ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda;

- o'zbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi dilni quvontirmoqda. O'z navbatida, jahon tillarini o'rganish ehtiyoji bizni olamga «yuz tutishimiz»ga, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni yanada kengroq o'zlashtirishimizga yordam bermoqda;

- xalq ijodi, milliy amaliy san'atimiz jonlanib, rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bo'yicha respublika va xalqaro

anjumanlarning o'tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'limoqda. Bu borada o'tkazilayotgan rang-barang tadbirlar, jumladan, xalq hunarmandchiligi va tasviriy san'at ko'rniklari, oilaviy ansambllar va lapar ijrochilari tanlovlari, «Alla» ijrochilarining ko'rniklari, folklor-etnografik ansambllar festivallari, dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati, qo'g'irchoq teatri jamoalarining ko'rniktomoshalari, qadimiy qo'shiqlar, urf-odatlar va marosimlar namoyishlari kabi boshqa ko'plab anjumanlar vatanimizda xalqimizning boy ijodiy merosiga katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

– Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» kengashi, «Ta'lif markazi», «O'zbekkino», «O'zbeknavo», «O'zbekraqs», «O'zbekmuzei», «O'zbekteatr», Badiiy akademiya, Milliy madaniy markazlar kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy topishiga zamin bo'ldi.

- ko'plab nodavlat, notijorat tashkilotlari vujudga keldi;
- jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz vakillari tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning eng ulug'vor an'alariga aylanmoqda. Masalan, YUNESKO orqali xalqaro miqyosda:

- 1993-yil – Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi;
- 1993-yil – Zahiriddin Muhammad Boburning 510 yilligi, 2003 y. 520 yilligi;
- 1994-yil – Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, (Samarqand, Parij);
- 1995-yil – Mahmud Zamahshariyning 920 yilligi;
- 1995-yil – Najmiddin Kubroning 850 yilligi;
- 1996-yil – Amir Temurning 660 yilligi (Samarqand, Parij);
- 1998-yil – Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi;
- 1998-yil – Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligi;
- 2000-yil – Burhoniddin Marg'inoniyning 910 yilligi;
- 2000-yil – Kamoliddin Behzodning 545 yilligi;
- 2001-yil – Alisher Navoiyning 560 yilligi;
- 2003-yil – Abdulkoliq G'ijduvoniyning 900 yilligi kabi buyuk ajdodlarimizning yubileyлari, shuningdek:

- 1999-yil – «Alpomish» eposining 1000 yilligi (Termiz);
- 2001-yil – «Avesto»ning 2700 yilligi (Urganch);
- 2005-yil – Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi (Xorazm) kabi sanalarga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekistonning qadimgi shaharlari yubileyлari, jumladan:

- 1997-yil – Xiva va Buxoro shaharlarning 2500 yilligi;
- 2002-yil – Termiz shahrining 2500 yilligi;
- 2002-yil – Shahrisabz shahrining 2700 yilligi;

2006-yil — Qarshi shahrining 2700 yilligi;  
2007-yil — Samarqand shahrining 2750 yilligi;  
2007-yil — Marg'ilonning 2000 yilligi keng nishonlanishi vatandoshlarimizning eng quvonchli kunlariga aylanib ketdi.  
2009-yilda Toshkentning 2200 yilligi tantanasi Mustaqilligimizning 18 yilligi bayramiga ulanib ketdi.

O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan Toshkent kinofestivali, «Sharq taronalari» (Samarqand), «Teatr festivali», «Simfonik musiqa festivali» kabi xalqaro anjumanlar ham madaniyat bayramlari sifatida xalqimiz qalbidan joy olib ulgurdi.

Mustaqillik yillarida o'tkazilayotgan «Yangi avlod», «Kelajak ovozi», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir», «Yangi nomlar» va boshqa ko'rik-tanlovlarining o'z yo'nalihi, o'ziga xos maqsad va vazifalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009- yil 7-aprel PQ-1091-sون «Yagonasan, muqaddas Vatan» respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risida»gi Qarori mamlakatimiz madaniyati va san'ati, xususan, yoshlar ijodi ravnayotgan muhim hodisa bo'ldi. Bu ko'rik-tanloving bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kunimizning ishonchi bo'lgan yoshlarimiz qalbida o'z ona-Vataniga bo'lgan mehr va muhabbat, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish, Vatanni sharaflaydigan, ulug'laydigan, qadr-qimmati, sha'ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo'shiqlar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste'dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdir. Shu bois, ushbu ko'rik-tanlovni o'tkazib kelinayotgan barcha tanlovlarining umumlashmasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek madaniyatining xalqaro nufuzi osha boshladi. Eng avvalo, ajodolarimiz merosini tiklash bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamli ishlarimizni jahon hamjamiyati tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o'rganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshirilayotgan ishlarga tahsin aytmoqdalar.

O'zbek san'ati jahonga tanilmoqda, ko'plab folklor jamoalari, jumladan. Toshkentning «Kamalak», Andijonning «Sumalak», Xorazmning «Meros» kabi folklor-etnografik ansamblari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o'zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O'zbek xalq ertaklari, maqollari, iboralari, afsonalarining Xitoy, Eron, Turkiya, Germaniya va AQSHda nashr etilgani quvonchli holdir. Vatanimizda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilganligini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol

aytishimiz mumkinki, mustaqil O'zbekiston madaniyatining yangi mustahkam poydevori yaratildi.

Xullas, mustaqillik sharofati bilan xalq ijodining rang-barang turlarining tarkibini — xalqimizning tarixiy ongi, milliy ma'naviyatini shakllantirish va ravnaq toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

\* \* \*

Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida hayotning boshqa jahhalari kabi madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda islohotlar mamlakat prezidenti I.Karimov tomonidan taklif etilgan beshta tamoyil bo'yicha amalga oshirilmoqda. Madaniyat sohasida ham bosh islohotchi — bu davlat. O'zbekiston hukumati madaniyat va ma'naviyat sohasidagi islohotlarni ustuvor yo'naliш deb hisoblab, bu boradagi ishlarga jiddiy e'tibor bermoqda.

O'zbekiston xalqining maqsadi — kuchli davlat asosida kuchli jamiyat qurish. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz madaniyat sohasidagi islohotlarning ham asosiy yo'nalihi madaniyat va san'at muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, ularni nodavlat va jamiyat tashkilotlariga aylantirish, jamiyat va inson manfaati asosida xizmat qiluvchi yangi jamiyatlar, uyushmalar, markazlar va jamg'armalar tuzishdan iborat.

O'zbekiston madaniyat tashkilotlari va muassasalarini tizimida ikki yo'naliш paydo bo'lmoqda:

1. Davlat tashkiloti va muassasalarini.
2. Nodavlat va jamoat tashkilotlari.

#### Davlat tasarrufidagi tashkilotlar:

- a) Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi tashkilotlar;
- b) davlat aksionerlik jamiyatlar, kompaniyalar, birlashmalar: «O'zbekkino» Milliy agentligi, «O'zteleradio» kompaniyasi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, «O'zbeknavo» estrada birlashmasi, «O'zbekteatr» IIB, «O'zbekraqs», «Musavvir» ilmiy ijodiy ishlab chiqarish birlashmalar, «O'zbekmuzei» birlashmasi, «O'zbekturizm» aksionerlik kompaniyasi va boshqalar.

#### Nodavlat va jamoat tashkilotlari:

- a) jamg'armalar;
- b) ijodiy tashkilotlar, jamiyatlar va uyushmalar;
- c) madaniy-ma'rifiy markazlar.

O'zbekistonda quyidagi jamg'armalar mavjud: Imam al-Buxoriy nomidagi xalqaro xayriya jamg'armasi, Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg'armasi, Ibn Sino nomidagi xalqaro jamg'arma, «Oltin meros» xalqaro jamg'armasi, Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, Sodiqov nomidagi xalqaro

jamg'arma, «Sog'lom avlod uchun» xayriya jamg'armasi, «Kamolot» jamg'armasi, Bolalar jamg'armasi, «Iste'dod» jamg'armasi, «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, O'zbekiston ommaviy-axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi, O'zbekiston faxriyalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi, "Mahalla" jamg'armasi va boshqalar.

**Ijodiy tashkilotlar, jamiyat va uyushmalar:** O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston Me'morlar uyushmasi, O'zbekiston Faylasuflar jamiyati, O'zbekiston Tarixchilar jamiyati, O'zbekiston «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqalar.

**Madaniy-ma'rifiy markazlar:** Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va maskura ilmiy-amaliy markazi, O'zbekiston huquqiy madaniyat markazi, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, O'zbekiston ijtimoiy falsafa va milliy tiklanish markazi, O'zbekiston baynalmilal madaniyat markazi, Milliy-madaniy markazlar (rus, ukrain, qozoq, koreys kabi yuzga yaqin markazlar) va xalqaro aloqlar jamiyatları.

**Madaniyat tizimidagi davlat va jamoa tashkilotlari faoliyati.** O'zbekiston madaniyati tizimidagi tashkilotlarda hozirgi davrda:

a) tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, muhim tashkiliy ishlар hal etilmoqda, ish mazmuni va shakli yangilanmoqda;

b) jiddiy izlanishlar olib borilmoqda, jahon tajribasi o'rganilmoqda va tajribalar orttirilmoqda;

d) yangi sharoitda moddiy va iqtisodiy muammolar hal qilinmoqda.

Davlat tasarrufidagi ishlarga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bosh-qosh bo'lmoqda va ulkan ishlarni amalga oshirimoqda.

Davlat tizimida yangidan tuzilgan ko'pgina tashkilotlar, masalan. «O'zbekteleradio» kompaniyasi, «O'zbekkino», O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, «O'zbeknavo», «O'zbekteatr», «O'zbekturizm» kabilar samarali faoliyat ko'rsatishmoqda.

Yangi tuzilgan jamg'armalar orasida Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg'armasi, «Sog'lom avlod uchun» xayriya jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar jamg'armasi ijobjiy natijalarga erishmoqda.

Ijodiy tashkilotlar orasida esa yozuvchilar, bastakorlar, me'morlar uyushmalarining faoliyati diqqatga sazovor.

Madaniy-ma'rifiy markazlar ichida O'zbekiston baynalmilal markazi. Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, Huquqiy madaniyat markazi va boshqalar ibratli ishlarni amalga oshirishmoqda.

**Madaniyat tizimidagi muammolar.** Jamiyatimiz madaniyat va ma'rifat «bino»sinи baquvvat va go'zal bo'lishi uchun hali ko'p ishlarni amalg'a

oshirishimiz lozim bo'ladi. Bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ularning ba'zilariga to'xtalamiz:

1. Respublika va viloyatlar darajasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, ba'zi joylarda, jumladan, tuman, mahalla va qishloqlarda jiddiy e'tibor berish lozim bo'lgan ishlar mavjud. Ko'pgina joylardagi mahalliy rahbarlar hanuzgacha madaniyat sohasi yetarlicha e'tibor berishmayapti;

2. O'zbekiston hududlarining mushtarakligini ta'minlashda madaniyat va san'atning o'rni katta. Bu borada «Viloyatlar kuni», ya'ni viloyatlarda bir-birining kunlarini o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunday tadbirlarni tumanlararo ham o'tkazish mumkin;

3. Hozirgi davrda yoshlar ma'naviyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'lmoqda. Ba'zi yoshlar ongida va ma'naviy hayotida bo'shlinqning paydo bo'lishiga mahalliy madaniyat muassasalarining talab darajasida ishlamayotganligi sabab bo'lmoqda. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar, istirohat bog'lari mahalliy aholi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ularni g'oyaviy, ma'naviy kamol topishiga samarali xizmat qilishi lozim.

Madaniyat tizimining moddiy negizini yaxshilash muhim muammolarining biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali qator muammolar ham mavjud:

a) madaniyat sohasida tuzilgan yangi (davlat, jamoa va nodavlat) tashkilotlariga hukumatimiz katta mablag'lar ajratgan. Ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turilibdi, mablag'ini ko'paytirish maqsadida tijorat ishlarini olib borishga ruxsat berilgan, soliqdan ozod etilgan. Biroq ular ishni yo'lga qo'yish uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanishmayapti. Ishga eng zaruriy narsalar o'rniغا bu tashkilotlarning rahbarlari o'zlarini uchun qulayliklar yaratishmoqda. Shuningdek, madaniyat tizimi o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash ishlarini ham yaxshi yo'lga qo'yishi zarur;

b) madaniyat va san'at sanoati yo'lga qo'ymasdan bu sohani taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kino sanoati (ssenariy yaratish, kino olish, ularni targ'ib qilish, ijara ishlarini amalga oshirish), musiqa sanoati (musiqiy asarlarni yaratish, ijro qilish, ovoz yozib olish va ularni tarqatish), tasviriy san'at sanoati (tasviriy durdonalar yaratish, ularni targ'ib qilish, ko'rgazma-savdolar, auksionlar uyushtirish) kabilarni yanada yaxshi yo'lga qo'yish zarur bo'lmoqda.

d) madaniyat tizimi faoliyatini yaxshilash uchun unga, albatta, ko'proq taol qiziquvchi, tashabbuskor va izlanuvchi ijodkorlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina joylarda madaniyat sohasida hamma ishlayverishi maylum, degan tushuncha mavjud. Bunday tushuncha bilan madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Madaniyat jonkuyar, tashabbuskor tashkilotchilar bilan surʼik. Ularsiz madaniyat tizimi ishlay olmaydi va inqirozga uchraydi.

## **II BOB. MADANIYAT SOHASIDA MILLIY G'OYA IFODASI**

Bugungi globallashuv sharoitida milliy g'oya va mafkura muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g'oya – bu, jamiyatni birlashtiruvchi, ruhlantiruvchi va olg'a yetaklovchi kuchdir.

Milliy g'oyaga Prezidentimizning:

- yurt tinchligi;
- vatan taraqqiyoti;
- xalq manfaatiga oid fikrlari asos bo'ladi.

Milliy g'oya millatning maqsadi sifatida milliy mafkuraning o'zak tomirini tashkil etadi. Milliy mafkura jamiyatni belgilangan manzil tomon yetaklovchi fikrlar majmuyidir. Prezidentimiz fikri bilan aytganda, u «jamiatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor».

Milliy g'oya va mafkurani targ'ib qilish uchun unga xizmat qiluvchi barcha vosita, usul va shakklardan samarali foydalanishimiz zarur. Bu borada, ayniqsa, madaniyatning o'mni benihoya kattadir. Boshqacha qilib aytganda, madaniyatsiz, ya'ni, adabiyot, san'at (musiqa, kino, teatr, tasviriy ijod), ma'rifat, ilm-fan, odat, marosim, bayram kabilarsiz milliy mafkura o'z ifodasini topishi qiyin. O'z navbatida, milliy mafkura milliy madaniyatning ravnaq topishi va ezgu maqsadlar sari intilishiga yordam beradi.

Milliy mafkurasiz madaniyat ravnaq topishi mumkinmi, degan savol tug'iladi. Balki mumkindir. Biroq bunday madaniyat millatni ezgu maqsadlar sari yetaklay olmaydi. Odillik, halollik, imon-e'tiqodlilik, hurfikrlilik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyatparvarlik, olijanoblik, mehr-muruvvatlilik, saxovatlilik, insonparvarlik kabi ma'naviy omillarsiz milliy mafkura rivoj topa olmaydi. Bu omillarsiz madaniyat, jumladan, ilm-fan, adabiyot, san'at, ta'lim-tarbiya tizimi rivojlansa ham, jamiyat taraqqiyotida ijobji emas, balki salbiy rol o'ynaydi.

Ezgulikka xizmat qiladigan milliy g'oya, mafkura va milliy madaniyat uyg'unlashgandagina, ular jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi. Chunki:

– birinchidan, milliy mafkuraning shakllanishida madaniyat muhim o'rincutadi. Madaniyatning tarkibiy qismi bo'lmish ilm-fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, din, axloq, an'analar mazmunidagi eng yaxshi, xalqchil, ezgu fikr, g'oyalar saralanib, umumlashib, uyg'unlashib milliy mafkuraning shakllanishi va rivojlanishiga poydevor bo'ladi;

– ikkinchidan, madaniyat milliy g'oyani targ'ib qilishda samarali vosita hisoblanadi. Xalq ijodi (maqol, asotir, aforizm, afsona, ertak, doston), an'analar (xalq odatlari, marosimlari va bayramlari) adabiyot (poeziya, proza, publisistika, pyesa), san'at (musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy ijod) kabi madaniyat turlari mazmunida milliy g'oyaning asosini shakllantiruvchi

imon-e'tiqodlilik, hurfikrlilik, vatanparvarlik, halollik, ma'rifatparvarlik kabi insoniy fazilatlar targ'ib qilinadi.

To'g'ri, shunday asarlar ham borki, ular oddiy insoniy va milliy g'oyaga qarshi qusurlarni targ'ib qilmoqda. Masalan, chet eldan bizga kirib kelayotgan ba'zi adabiy asar va filmlar zo'ravonlik, urushqoqlik, xudbinlik, shuhratparastlik kabi o'zbek milliy mentalitetiga zid g'oyalarning yoyilishiga sabab bo'lmoqda. «...Yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlikni o'rganadi. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi sezmay qoladi» (I.Karimov). Bu filmlardan zaharlanib, xudbinlik balosiga giriftor bo'lgan «shaxs»lardan tashkil topgan millat yaxshi ravnaq topa olmaydi.

Milliy g'oya, mafkurani amaliyatda rivojlantirishda madaniyatning har bir turining o'ziga xos o'mni bor.

**Ilm-fan** milliy g'oya va mafkurani ravnaq topishida katta ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanda paydo bo'lgan g'oyalar, konsepsiylar, ta'limotlar hayotni taraqqiy ettiradi. Shuning uchun biz ilm-fan sohasida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan fikr, g'oya, ta'limotlar paydo bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratishimiz kerak.

To'g'ri, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm-fanni rivojlantirish tajribasi bizga yetishmayapti. Shu sababli, ko'pgina fanlar real hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlardan ortda qolmoqda. Eski davrda shakllangan bilimlar bilan yangi jamiyat qurib bo'lmaydi. Yangi jamiyatga yangi bilimlar, yangi fanlar zarur. «Buning uchun, bиринчи galda, taraqqiyotning har bir yo'nalishi — jamiyatimizdagи siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus darsliklar, qo'llanmalar, ommabop adabiyotlar yaratish zarur» (I.Karimov). Ayniqsa, falsafa fani bo'yicha fundamental darsliklar yaratish o'ta zarur bo'lmoqda. Axir, falsafa qadimgi davrdan buyon insoniyatning eng yaxshi g'oya-fikrlarini mujassamlashtirib kelgan fanlarning «ota»si. Buning ustiga, ajdodlarimiz yaratgan falsafiy fikrlar nafaqat vatanimiz, balki jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan. Demak, biz, eng avvalo, Vatanimizda paydo bo'lgan, ajdodlarimiz yaratgan falsafiy fikr, g'oyalar asosida (yunon, rim, chin, hind falsafasi qatori) o'z milliy falsafamizni yaratishimiz lozim. Shuningdek, jahon falsafasidagi eng ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishimiz zarur. Chunki uni bilmasdan jahon hamjamiatida munosib o'rinn egallay olmaymiz.

**San'at** (musiqa, raqs, teatr, tasviri san'at)da xalqning ongi va qalbini qamrab oluvchi sehrli kuch borligini inkor etib bo'lmaydi. Bu mo'jizaviy imkoniyatdan xalqimiz ongini o'stirish va ruhini tetiklashtirishda samarali foydalanish zarur.

San'at asarlarda tarixiy merosga, milliy qadriyatlarimizga murojaat etila boshlangani quvonchli hol. Biroq hozirgi yaratilayotgan san'at asarlarining

saviyasi yetarli darajada emas. Shuni bilish kerakki, buyuk qadriyatlar haqida past saviyada gapirib bo'lmaydi. Masalan, yuksak g'oyalarni ifoda etish uchun o'sha darajadagi ijodkor kerak. Agar Ahmad Farg'oniy haqida spektakl yaratayotgan dramaturg, rejissyor va aktyorning g'oyaviy, falsafiy, ma'naviy va madaniy saviyalari past bo'lsa, mantiq talab qilgan yuqori darajadagi teatr asari yaratilmaydi. Past darajadagi asarlar, aholining madaniy saviyasini yuqoriga ko'tara olmaydi.

Shuni unutmaylikki, nazariy jihatdan bitta qo'shiq yoki bitta badiiy film bilan jahonga tanilish mumkin. Qani endi, «O'zbek kino»da yaratilgan bir kinofilm, jahonning turli kino va teleekranlarda namoyish qilinish darajasiga loyiq bo'lsa! Yoki Vatanimizda yaratilgan ohangrabo qo'shiq jahonning ko'plab joylarida ham yangrashiga erishsak, agar milliy san'atni yuqori darajaga ko'tara olsak, bu asarlar bilan birga bizning fikr, g'oyalarimiz, fazilatlarimiz, bir so'z bilan aytganda, milliy ma'naviyatimiz ham jahonga chiqadi.

Endi musiqa san'atining bir muammosiga murojaat qilaylik. Ko'pgina xalqlarda oddiy, barcha sevib kuylaydigan qo'shiqlar (masalan, gruzinlarning «Suleyko», ruslarning «Podmoskovie vechera» kabilari) nafaqat ularning vatanida, balki butun dunyoda mashhur. Nega endi o'zbeklarda bunday ommabop qo'shiqlar yo'q. Demak, bizga ham nafaqat xalq eshitadigan, balki xalqning o'zi kuylaydigan qo'shiqlar zarur.

**Adabiyot** insoniyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan va hozir ham shunday. XX asrgacha asosiy g'oyalar faqat adabiy asarlar orqali xalqqa yetib borgan.

XX asr boshida milliy uyg'onish jarayonida ham, XX asr oxirida mustaqillikka erishishda ham qalam ahli katta rol o'ynadi. Biroq negadir mustaqillikka erishishimiz bilan yozuvchi va shoirlarimiz ham ijtimoiy, ham ijodiy jihatdan bir qadar sust bo'lib qolishdi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng yaratilgan yaxshi adabiy asarlarni barmoq bilan sanasa bo'ladi. Ba'zi adiblar «yozuvchiman!» deya turib, o'zi jiddiy asarlar yozmay, faqat «gapiruvchi»ga aylanib ketmoqda.

Musiqa, kino, teatr san'atlarining rivojlanishi ham ko'p jihatdan adiblarga bog'liq. Adiblar bu ijod turlarining asosi – qo'shiq, she'r, pyesa, ssenariy, librettolarni yaratadi. Ushbu adabiy janrlar yaxshi rivojlanmasa, san'at turlari negizan bo'sh bo'lib qolaveradi. Hozir aynan tele va kino, teatr san'atiga milliy g'oyalar bilan sug'orilgan yaxshi asarlar yetishmayapti.

**Xalq odatlari** milliy g'oya va istiqlol masifikurasini, ayniqsa, yosh avlod ongi va qalbiga singdirishda muhim vosita hisoblanadi.

Asrlar osha shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros bo'lib o'tib kelgan, biroq sho'rolar davrida ta'qibga uchragan xalq an'analari ajdodlarimizning eng yaxshi fazilatları, fikrlari, tajribalari, yutuqlari, qadriyatlarini bize yetkazib, jamiyatimizni axloqiy sog'lomlashtiruvchi, insonparvarlikni barqarorlashtiruvchi, ayniqsa, yosh avlodning g'oyaviy-ma'naviy kamol

topishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Xalq an'analari odamlar orasida odob-axloq, imon-e'tiqod, insof, insonparvarlik, mehr-muruvvat, saxovat,adolat, halollik, birodarlik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik kabi xislatlarni ravnaq topishida muhim o'rinn tutadi. Ayniqsa, millat, jamiyatni birlashtiruvchi an'analardan foydalanishimiz zarur. Jumladan, Navro'z, Gul sayili, Mehrjon, Hosil bayramlarida xafagarchilikni unutish, arazlashganlarni yarashtirish, tanishish, qarindosh tutinish, do'stlashish, mehmondorchilik fuqarolarni ezgu maqsadlar sari yetaklaydi, ularni g'oyaviy va ma'naviy jihatdan birlashtiradi. Qadimiylar va navqiron Navro'z esa xalqimizning ko'p ming yillik ijobjiy fazilatlarini mujassamlashtirib, bizni doimo bunyodkorlik, ezgulik, angilanishga chorlaydi.

Istiqlol davrida vujudga kelgan «Mustaqillik kuni», «O'qituvchi va murabbiylar kuni», «Xotira va qadrlash kuni» kabi bayramlar ozodlikning qadriga yetish, Vatanni e'zozlash, ota-onva ustozlarni hurmat qilish, ajdodlar an'analari sadiq bo'lish, o'tganlar xotirasini abadiylashtirish, yorqin kelajak sari intilish, el-yurt, millat uchun xizmat qilishga undashda samarali vositaga aylanmoqda.

Azaliy va yangi zamonaviy xalq an'analari o'rganish, targ'ib qilish bilan bir qatorda bu boradagi muammolarni bartaraf etish yo'llariga ham alohida e'tibor berish zarur. Jumladan, turarjoylarda xalq marosim va bayramlarini o'tkazish kengashlarini tuzish, ularning mavsumiy emas, doimiy faoliyatini olib borish, to'y-ma'rakalarni ixchamlashtirish, kam daromad oilalarga to'y va aza marosimlarini o'tkazishda ko'mak berish, diniy odatlar orasida payshanbalik, yakshanbalik, uchlik, yettilik, yigirmalik, qirqlik kabi islom shariatida bo'limgan udumlarni ixchamlashtirish; to'y marosimlarining moddiy tomonlariga emas, balki ma'naviy tomoniga alohida e'tibor berish kabi ko'plab muammolarni doimo hal qilib borish lozim.

O'z navbatida, millat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlarni an'analalarimiz qatoridan chiqarishimiz lozim. Masalan, bir tog'li qishloqda shunday odat bor ekanki, ikki kishi urishsa, ikkala tarafdagagi aka-ukalar o'rtasida ham bordi-keldi to'xtar ekan. Natijada, qishloq ikki araz tomoniga bo'linib qolar ekan. Bunday arazchilikni taraqqiy ettiradigan odatlar bizga kerak emas, albatte.

Biroq xalqimizda shunday odatlar ham borki, ular elni birlashtiradi. Masalan, bayram (Navro'z, Mehrjon, Ro'za va Qurbon hayiti) kunlari tinchlik kunlari hisoblanib, bu vaqtida nafaqat urushlar to'xtatilgan, balki xafagarchiliklar unutilgan, arazlashganlar yarashtirilgan, begonalar tanishgan, tanishilar do'stlashgan. Xullas, milliy bayramlarimizdagagi odamlarni g'oyaviy, ma'naviy, ijtimoiy birlashtiradigan ruhiy-ma'naviy holatni rivojlantirishimiz kerak.

Bu bayram an'analaridan hozirgi vaqtida samarali foydalanish millat vakillarini hamjihat qilib, birlashtiradi. Milliy g'oyaning ham asosiy maqsadi – millatni ezgu maqsad sari birlashtirish!

**Din** ham madaniyatning eng nozik va murakkab masalasiidir. Hozirgi davrda dinimizga aynan madaniyat yetishmayapti. Islom dini sobiq sho'rolar davrida taqilangani uchun mustaqillik sharoitida uning tiklanishiga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Atomdan atomelektrostansiyasi va atom bombasi tayyorlash mumkin. Dinni niqob qilib, vatanimizga nur emas, yovuzlik-terorchilik olib keladiganlar paydo bo'ldi. Bu kasallikning oldini olish uchun unga qarshi immunitet hosil qilish lozim bo'lmoida. Prezidentimiz aytganidek, «Biz farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ...ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga ta'sirini o'tkaza olmaydi».

Milliy g'oyaning shakllanishi va taraqqiy etishi, eng avvalo, madaniy-ma'rifiy xodimlarga, ziyorilar, jumladan, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar, ijodkorlar, tarbiyachilar, ma'rifatchilar (professor-o'qituvchilar) kabilarga bog'liq. Ular chin ko'ngildan, faol mehnat qilishsa, jamiyatda ezgulik g'oyalari g'alaba qozonadi. Bu ishda har kimning o'z vazifasi bor. Agar olimlar milliy g'oyani shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar, yozuvchilar millatni birlashtiruvchi g'oyalarni tarannum etuvchi badiiy asarlar, san'atkorlar ezgulikka, milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijod mahsullarini yaratishsa, madaniyat xodimlari, jumladan, kutubxonachilar, muzey, klub va istirohat bog'i xodimlari joylarda milliy mafkura targ'iboti, muktab o'qituvchilar o'quvchilar ongi va qalbiga insonparvarlik va millatparvarlik g'oya va tuyg'ularini singdirish bilan faol shug'ullanishsa, tabiiy tarzda jamiyat olg'a dadil qadam tashlaydi.

O'z moddiy muammolari bilan band bo'lib qolgan ziyorilar ma'naviy sohada, jumladan, milliy g'oya va mafkurani yaratish va targ'ib qilishda yaxshi natijalarga erisha olmay qoladilar. Ma'naviyatsiz, milliy g'oya, mafkurasiz esa jamiyat olg'a siljiy olmaydi.

Jamiyatni ezgu maqsadga yetaklovchi milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirish ziyorilarning muhim vazifasi ekan, davlat ularning faoliyatlarini qo'llab-quvvatlab turishi, ularga moddiy va ma'naviy sharoitlar, qulayliklar yaratmog'i katta ahamiyatga ega.

Xullas, milliy g'oya va mafkura tayangan o'zbek madaniyati o'z tarixiy tomirlaridan kuch olib, gullab-yashnab, ajoddolarimiz tajribasiga tayanib, jahon darajasiga chiqib, umuminsoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga yana xizmat qildi, degan umiddamiz.

### III BOB. O'ZBEK XALQI AN'ANAVIY MADANIYATI

Mustaqillikka erishgan har bir davlatning ma'naviy poydevori mustahkam bo'lgandagina, u baquvvat bo'lib, keng ko'lamda rivojlana oladi. Buning uchun esa ajdodlar ming yilliklar ichida yaratgan bebaho meros — xalq madaniyati an'analarini yanada jondorlantirish, taraqqiy ettirish va ulardan aql-idrok bilan foydalanish lozim bo'ladi. Biroq ma'naviy merosni chuqr, har tomonlama o'rjanmasdan turib, bu bebaho boylikni tiklash, ayniqsa, rivojlantirish aslo mumkin emas.

Ayonki, sobiq sho'ro hokimiyyati davrida, mamlakatda tezroq yagona sovet xalqini shakllantirish maqsadida milliy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlar, milliy ong, ruhiyat, xalq odatlari, an'anaviy madaniyat kabi hodisalar rasmiy-norasmiy taqiqlandi.

Mustaqillikka erishgan har bir millat, avvalo, o'zligini tiklashga harakat qiladi. Chunki istilochilar, eng avval, o'z mustamlakasidagi xalqning ma'naviy o'zligini yo'q qilishga intiladi. Millatning ma'naviy o'zligini esa milliy ong, ruh, an'analar, til, din, adabiyot, axloq, ilm-fan, ma'rifat kabi ma'naviy qadriyatlar vujudga keltiradi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng eng dastlabki ishlardan biri, bu — tarixiy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash bo'lди.

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi»<sup>1</sup>, deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli amalga oshirilgan tarixiy buyuk ishlardan biri — bu xalqimizning ma'naviy merosini tiklana boshlagani bo'lди.

**Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy islohotlar negizida milliy qadriyatlarning tiklanishi.** Ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta. U, eng avvalo, mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan tarixiy ehtiyojlar asosida ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlar zamirida sodir bo'lmoqda. Ma'naviy sohadagi islohotlar doirasida muhim ishlar amalga oshirila boshladи. Eng muhimi, Respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» Kengashi tuzildi va uning markazlariga yuklatilgan vazifalar yurtimizda ma'naviyat masalalarini yuksaltirishga qaratildi.

Ma'naviyatni rivojlantirish — davlatning bosh vazifasi deb qarash sohaning Jiddiy taraqqiy etishiga zamin bo'lди.

O'zbekiston Prezidentining avvaldagи «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish «o'g'risidagi» (1996-y) farmonida «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosi, ustuvor yo'nalishi deb hisoblansin», — deb qayd qilindi.

<sup>1</sup>Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston. 1997, 137-bet.

f) jamiyatning barkamol bo'lishiga xizmat qiladi.

**Etnomadaniyatning asosiy ko'rinishlari (shakllari).** An'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolutsiyasi va umum qabul qilgan «madaniyat» tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalarini aniqlashga intildik. Etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lган an'anaviy xalq madaniyatini tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyatni, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyatni kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqur bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo'lar ekan.

Xalq madaniyatining asosiy ko'rinishlarini aniqlash natijasida o'ziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniqlash ham katta ilmiy qiymatga egadir.

**Xalq pedagogikasi** ming yillar davomida qaror topib, yuzlab avlodlarni tarbiyalash jarayonida vujudga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalari, tajribalar va usullarni o'zida umumlashtirgani uchun, u faqat tarixiy madaniyat qadriyatlarini sifatida namoyon bo'libgina qolmay, balki hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, xalq pedagogikasi qadriyatlaridan foydalanish zamonaliviy ta'lim-tarbiya, madaniyat tizimi faoliyatining samaradorligini oshirib, ijtimoiy hayotda insonparvarlikning yanada kamol topishiga zarur imkoniyatlar yaratib beradi. Xalq pedagogikasiga oid tajribalar, an'analarni o'rganish natijasida tarbiyaviy jarayonning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi «Tag maqsad (tag ma'no), - podsel», salbiy tarbiyaviy jarayonni keltirib chiqaruvchi «Xufiya tarbiya» - «tenovaya pedagogika» hamda katta qimmatga ega asrlar osha sinalgan «ustoz-shogird» an'analariга alohida o'rin berish muhim sanaladi.

### **An'anaviy xalq ijodi**

Mustaqillik sharoitida xalq ommasining ijodiy an'analarni saqlash va rivojlanтирish, jumladan, xalqning og'zaki, musiqali, amaliy, teatr-tomoshavy deb atalgan ijod turlari va janrlarini tiklash va kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xalq og'zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgi-hikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula, marosim qo'shiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy ansambllar, folklor etnografik guruhlar, xalq havaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomosha ijodining masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik; xalq amaliy-bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, o'ymakorlik, zardo'zlik, zargarlik, to'qimachilik turlarini; tabiat bilan bog'liq bo'lgan ijodning rang-barang tur va janrlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelindiki, ular avlodlar ongini, badiiy tafakkurini, estetik qarashlarini taraqqiy ettiribgina qolmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqning o'z tarixi va taqdiri haqida o'ylashga, bunyodkorlik qilishga undagan. Shuning uchun ijodiy merosni tiklash va kamol toptirish xalqning barcha ijtimoiy-madaniy sohalaridagi faolligini oshirishda muhim omil bo'ladi.

Mustaqillik sharoitida o'zbek xalq ijodining tiklanish va ravnaq topish jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. O'zbekiston Respublikasida bu soha ishlarini rivojlantirishda «Respublika xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlар markazi»ning xizmati kattadir. Xalq ijodiga oid ma'naviyatimiz durdonalarini aniqlash va ularga tegishli ko'mak berish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan diqqatga sazovor tadbirlarga murojaat qilamiz:

— xalq hunarmandchiligi, amaliy va tasviriy san'at, havaskor ijodkorlar ko'rigi, savdo-ko'rgazmalari amaliy san'at ixlosmandlarini rag'batlantirib, ularning ilhomiga ilhom qo'shib yubordi.

— «Alla» ijrochilarining Respublika ko'rik-tanlovlari bola kamolotida muhim o'rinn tutadigan Ona shaxsini e'zozlashga oid ko'plab qo'shiqlarning yuzaga kelishiga imkon berdi.

— folklor jamoalari Respublika seminar-kengashi faoliyati xalq ijodiyoti sarchashmalarini aniqlash, tiklash va targ'ib qilishda folklor-etnografik ansambllarning muhim o'rinn tutishini namoyon etdi.

— oilaviy ansambllar, katta ashula, lapar ijrochilari Respublika ko'rik-tanlovlari o'zbek xalq ijodining barcha tur va janrlariga Xalqaro darajada ham katta qiziqish bilan qaralayotganligidan dalolat berdi.

— «Chashma» Respublika folklor ko'rik-tanlovi xalq ijodi bitmas-tuganmas va boy ma'naviy «bulloq» ekanligini ma'lum qildi va ayni chog'da bu sohadagi qator muammolarni davlat miqyosida ijobiy hal etilishiga turtki berdi.

— maqomchilar Respublika ko'rik-tanlovlari bu mumtoz san'at dovrug'ini yanada keng yoyib, ko'plab iqtidorli iste'doddarlari yuzaga chiqardi.

— mashhur xalq baxshilari yubileyлari baxshilik san'ati hozirgi kunda qaysi yo'llar, janrlar va qaysi ijodiy maktablar doirasida ravnaq topayotganligini namoyon qildi.

— «Oilaviy ansambllar Respublika ko'rik-tanlovlari» vatanimizda oilaviy ijodni targ'ib qilishda va ommalashishida muhim omil bo'ldi.

— «Turkiston — umumiylar uymiz!» ruknida Markaziy Osiyo baxshishoirlarining ko‘rik-tanlovi o‘z atrofiga 100 dan ortiq baxshilarini yig‘ib, mintaqaga ko‘lamida Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Qoraqalpog‘iston baxshilarining o‘zaro ijodiy boyishiga xizmat qildi.

— dorbozlar, an'anaviy sirk san‘ati va qo‘g‘irchoq teatri jamoalarining Respublika ko‘rik-festivali bu qadimiy san‘atga yanada jiddiyroq va har taraflama e‘tibor berishimiz lozimligi masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

— «qadimgi qo‘schiqlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlarni o‘rganish va targ‘ib qilish» bo‘yicha uyushtirilgan respublika ilmiy ekspeditsiyasi xalqimiz tarixiy-madaniy merosining ko‘pgina namunalarini saqlab qolishga ko‘mak berdi.

— Milliy qadriyatlarga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari bu soha muammolarining hal qilinishida muhim amaliy yo‘llarni belgilab berdi.

— «Oilaviy ansambllar»ning navbatdagi Respublika ko‘rik-tanlovi xalqimiz ruhiyatiga mos mazkur o‘ziga xos ijodiy yo‘lga katta e‘tibor berish zarurligini ko‘rsatdi.

— qadimgi qo‘schiqlar, urf-odatlar, an'analar va marosimlarni o‘rganish, targ‘ib qilish maqsadida Jizzax viloyatiga uyushtirilgan ilmiy-amaliy ekspeditsiya ham ko‘pgina ijodiy an'analarini asrash va targ‘ib qilishga ko‘mak berdi.

Xalq ijodini tiklash va ravnaq toptirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan bu tadbirlar mustaqillik sharoitida Respublikamiz miqyosida xalq ma‘naviyati, boy ijodiy an'analariga qay daraja e‘tibor berilayotganiga guvohlik beradi.

Xalq ijodi sohasida respublikamizda o‘tgan Xalqaro nufuzli anjumanlardan biri BMTning 50 yilligiga bag‘ishlangan Toshkentdag‘i Milliy bog‘da (1997, 24-25- oktabr) «Barhayot an'analar» nomli xalq amaliy san‘ati va hunarmandchiligi yarmarkasi bo‘ldi. Bu yarmarka o‘zbek xalq amaliy san‘atiga xalqaro darajada bo‘lgan qiziqishni yana bir marta namoyon qildi. Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona amaliy san‘at ustalari o‘ziga xos an'anaviy ijodlari bilan barcha kishilarni lol qoldirdi. Yarmarka yakunida xalqimizning amaliy ijod turlari barhayot an'analarga aylanishi uchun har bir noyob kasb egasi bo‘lgan iste‘dodli ustozga o‘ziga 5 tadan shogird tayyorlashga oid huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratib berildi.

YUNESKO tasarrufida uyushtirilgan «Boysun bahori» xalqaro folklor festivali o‘zbek og‘zaki va nomoddiy madaniyati durdonalarini jahon tan olganligining isboti bo‘ldi. Festival doirasida bo‘lib o‘tgan folklor jamoalar ko‘rigi, baxshi qo‘schiqchilar tanlovi, yosh modelerlar ko‘rigi, folklor ga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjuman va yakunlovchi folklor tomoshasi o‘zbek an'anaviy nomoddiy madaniyati boy va serqirra ekanligini yaqqol namoyish qildi.

O‘zbekistonda xalq amaliy san‘ati va hunarmandchiligini ravnaq toptirish uchun 1997-yil 31-martda Respublika Prezidentining maxsus farmoni chiqdi va unga binoan respublikamizda bu boradagi barcha ishlarni muvosiflashtiruvchi

maxsus markaz tuzildi. Bunday e'tibor natijasida xalqimizning ko'plab ijod turlari tiklanmoqda. Respublika xalq amaliy san'ati markazi rahbari Shoxalil Shoyoqubovning ta'kidlashicha, agar mustaqillikgacha xalq hunarmand-chiligining 10 ga yaqin turi saqlanib qolgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng hozirgi vaqtga kelib, uning 50 ga yaqin turlari qayta tiklangan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

O'z navbatida, o'zbek folklori jahonga tanilmogda, ko'plab folklor jamoalar xorijiy mamlakatlarga chiqib xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Quyida mustaqillik yillari xorijiy mamlakatlarga chiqib, o'zbek xalq ijodini jahonga tanitib kelgan ba'zi folklor jamoalari haqida qisqa ma'lumotlar keltiramiz:

Toshkentning «Kamalak» folklor-etnografik ansamblı, Andijonning «Sumalak» xalq raqs ansamblı, Xorazm viloyati xalq ijodiyoti markazi qoshidagi «Meros» bolalar namunali folklor-etnografik jamoasi, Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi "Chaman" folklor guruhi, Quvaning «Anor» xalq ashularaqs ansamblı, Navoiy viloyat qo'shma folklor jamoasi Misr, Turkiya, AQSH, Fransiya, Pokiston, Yaponiya kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro folklor festivallari va boshqa tadbirda ishtirok etib, vatanimizga ko'plab nufuzli sovrinlar olib kelishgan.

Chet ellarda o'zbek xalq ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmogda.

Keyingi yillar milliy madaniyatimiz o'tmishi va bugungi kunini uzviy bog'laydigan festivallar safi kengayib bormoqda. Madaniyat va san'at Forumining yangi keng qamrovli loyihasi — «Asrlar Sadosi» festivali ham xalqimizning an'analari, amaliy san'ati va milliy taomlari, xalq og'zaki ijodi kabilarning boy va rang-barang ekanligini namoyon etmoqda. Ushbu festival har yili mamlakatimizning turli madaniyi va tarixiy maskanlarida mutaxassislar, olimlar va xorijiy mehmonlar ishtirokida xalqaro darajada YUNESKO hamkorligida o'tkazildi.

2008- yilda Festival Kitob tumanida, 2009- yilda esa Parkent tumanida o'tkazilgan «Asrlar sadosi» festivalida folklor va teatr guruhlari, xonandalar, musiqachilar, raqqoslar, xalq baxshilari, masxarabozlar, liboschi dizaynerlar, rassomlar, amaliy san'atning atoqli vakillari, mohir oshpazlar ishtirok etishdi. Festival dasturi, shuningdek, xalq o'yinlari, ko'pkari (ulooq), kurash, dorbozlar chiqishi, mamlakatning turli viloyatlaridan kelgan oshpazlar tanlovini ham o'z ichiga olgan. Festival amaliy san'at yarmarkasi doirasida kulolchilik, kandakorlik, kashtachilik, miniatura, o'ymakorlik ustalari ham o'z mahoratlarini namoyish etdilar.

Festivalga 50 ming nafarga yaqin tomoshabin, 15 mingga yaqin mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular orasida Rossiya, Fransiya, AQSH, Turkiya, Koreya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Shveysariya, Bolgariya, Avstriya kabi davlatlardan

100 nafardan ortiq madaniyat va san'at arboblari, olim va tadqiqotchilar, nufuzli xalqaro OAV vakillari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar xodimlari bor edi.

Respublikamizda muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan turli xil ko'rik-tanlovlar, Respublika miqyosidagi tadbirlar o'zbek milliy san'at turlarining rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda. Milliy dorbozlar va an'anaviy sirk san'ati jamoalarining Respublika ko'rik-festivali, Askiyachi va qiziqchilarining an'anaviy Respublika ko'rik-festivali, "O'lan aytgani keldik" nomli an'anaviy folklor san'ati bayrami, Yosh kulollarning Respublika ko'rgazmasi, Qo'g'irchoqbozlik san'ati bayrami, Xalq ashula va raqs ansamblarining Respublika ko'rik-festivali, "Barhayot navolar" turkumidan milliy cholg'u sozlar ijrochilarining Respublika ko'rik-festivali mamlakatimizning ko'plab viloyatlariida iqtidorli ijrochi yoshlarni kashf etmoqda.

Joylarda milliy qadriyatlar, xalq ijodiyotini targ'ib qilish maqsadida 2006-yildan buyon "Xalq ijodiyoti poyezdi" tashkil etilmoqda. Bu poyezd yordamida respublika ko'rik-tanlovlar, festivallar g'oliblarining chekka qishloqlar aholisi bilan ijodiy uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Madaniyat poyezdi aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatib, xalq ijodiyotining noyob durdonalari (o'lan, lapar, askiya, baxshichilik va folklor san'ati turlari)ni keng omma o'rtasida targ'ib etib bormoqda.

### Xalq an'analar

Mustaqillikning birinchi yillardanoq milliy qadriyatlar, xalq an'analarini tiklash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifaga aylandi. Darhaqiqat, milliy an'analarini tiklash borasida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarimizning qamrovi juda kengdir. **An'analar** – xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebahvo ma'naviy boyligi hisoblanadi. Millatning asosiy belgilardan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchidir. Ajodolarimiz an'analarini barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari - yoshlarimiz ongida barqarorlashtirish lozim. Yoshlar tomonidan ajodolar an'analarini qadrlanmay qo'yilishi avlodlar o'rtasida ma'naviy uzilishni vujudga keltiradi.

Eng qadimiy xalqlardan biri hisoblangan o'zbeklarning an'analarini tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan, zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Biroq avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq an'analarini sobiq sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham, o'zbek xalqi mustaqillikka erishgandan so'ng, ularga ehtiyoj kuchayib, qayta tiklana boshlandi. Buning natijasida ilgari norasmiy nishonlangan an'analar jiddiy tadqiqot obyektlariga aylanib, milliy an'analar haqida qator kitoblar chop

etilmogda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki an'analar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyat, tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Xalq an'analarini, marosimlar jarayonida namoyon bo'layotgan odob-axloq, mehr-oqibat, izzat-ikrom kabi xislatlar yoshlar ma'naviyatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Etnos-millatning asosiy belgilardan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchiga aylangan. An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqeа bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istiklalini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarni shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida «Navro'z», «Ro'za hayiti», «Qurban hayat»lari rasman tiklanib, xalq o'rtaida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan bayramlar «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O'z navbatida, O'zbekiston rahbariyati sho'ro davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni taqiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonning asosiy davlat bayramlari asosan shakllangan bo'lsa-da, azaliy bayramlarni tiklash jarayoni tugagan, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bu borada hali bajariladigan ishlar ham kam emas. Bir tomonidan, azaliy bayramlar bilan birga ularga xos odatlar va an'analar tiklanishi darkor. Ikkinchisi tomonidan, mustaqillik davrida paydo bo'lgan tarixiy - ma'naviy qadriyatlar bilan ham boyitilmog'i lozim.

Xalq an'analariga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: insonning tabiiy-hayotiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlar asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulolalarining mahv etilishi, hukmdorlar, istilochilarining kelib-ketishlari, hattoki, hududdagi aholi tarkibiy o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchisi turkum bayram-marosimlar esa ma'lum vaqtdan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Uchinchi guruhi marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki hukmdorlarning xohish-irodasi sifatida vujudga keladi. o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng barham topadi.

**Oilaviy marosimlar.** Ma'lumki, oilaviy marosimlar o'zbek xalq an'analarining asosiy va muhim qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning aksariyati bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlangani uchun ham yoshlarning ma'naviy kamol topishida muhim o'rinni tutadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi — to'y parast xalq. U to'y qilaman, dasturxon yozib, el duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman, degan maqsadda yashaydi. Shuning uchun to'y o'zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi. Biroq sobiq sovet davrida o'zbek oilaviy marosimlarning bir qismi taqiqlandi, taqiqlash mumkin bo'limganlari (masalan, «Nikoh to'y») yangicha umumsovet an'analari asosida o'zgartirila boshlandi.

Mustaqillik sharoitida bu holatlarni to'g'rilash maqsadida oilaviy marosimlarning asosiy tadbirlari, chunonchi, «ismlash» odati, «chilla» udumlari, «soch to'y», «tish to'y», «beshik to'y», «sunnat to'y», «muchal yoshi», «nikoh to'y» kabilarni tiklash uchun yo'l ochildi. Oilaviy qadriyatlarning tiklanish jarayoni milliy-ma'naviy tiklanish jarayonidagi muhim hodisa bo'ldi. Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, bir iqtisodiy holatdan ikkinchisiga o'tish paytida oilaviy marosimlarga oid muammoli hodisalar ham ko'zga tashlanmoqda. Masalan, ko'pgina iqtisodiy baquvvat oilalar ortiqcha dabdbabali, haddan tashqari ko'p xarajatlar bilan isrofgarchilikka yo'l qo'yib to'y o'tkazsalar, kam xarajatlari oilalar bolalarning rizqini qiyib, qarzga botib to'y qilishmoqda. Ko'pgina marosimlar, masalan, «Beshik to'y», «Sunnat to'y» oila, qo'ni-qo'shni va qarindoshlar o'rtasida o'tkazilishi o'rniغا, dabdbabali bayramga aylantirib yuborilmoqda.

Nikoh to'yiga oid «non sindirish», «kelin ko'rdi», «kelin chorlar», «kuyov chaqirdi» kabi odatlar alohida-alohida tadbirga aylanib ketmoqda. Ular ortiqcha dabdaba va katta xarajatsiz, ixcham shaklda, oila a'zolari, yaqin qarindoshlar ishtirokida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Joylarda katta to'yga aylanib ketayotgan «Tug'ilgan kun», «Beshik to'y», «Sunnat to'y», «Payg'ambar yoshi» kabi marosimlar ham kichik, ixcham, oilaviy tadbir sifatida yaqin qarindosh va qo'ni-qo'shnilari ishtirokida nishonlashni taqozo etadi. Hozirgi davrda egalari o'z boyliklarini targ'ib qiladigan - «Kiyim ko'rdi», «Sarpo yozdi», «Tugun qaytdi», «Eshik ochdi» kabi ortiqcha marosimlardan voz kechish kerak bo'ladi. To'yning moddiy tomoniga emas, balki ma'naviy jihatlariga alohida urg'u berish lozim bo'ladi.

To'y-bazmlarni mazmunli, fayzli, yaxshi badiiy saviyada o'tkazishga ham jiddiy e'tibor bermoq lozim. Joylarda shahar, tuman, xo'jalik rahbarlari yosh kelin-kuyovlarga moddiy va ma'naviy yordam berish kerakligini sira ham unutmasligi lozim. Xullas, oilaviy marosimlarga oid muammolar ko'p. Ularni hal qilish uchun joylarda — tuman, shahar, qishloq mahallalarida nuroni otaxonlar, nufuzli va obro'li kishilardan tashkil topgan oilaviy to'y komissiyaları ishlab turgani ayni muddao bo'lmoqda. Bu kengashlar mahalliy sharoitdan va

iqtisodiy ahvoldan kelib chiqib, joylardagi oilaviy marosimlarni munosib rivojlanishiga yordam berishi tabiiydir.

So'nggi vaqtarda o'zbek odatlарining ijobiy tomonlariga ko'proq diqqat jalb etilib, bu sohada paydo bo'layotgan salbiy asoratlar e'tibordan chetda qola boshlagan edi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov bunday salbiy illatlarning oldini olish maqsadida (1998-yil 28-oktabr) maxsus farmon chiqardi. Unda aytishicha, keyingi vaqtarda to'y-hashamlar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda mamlakatimizning ko'p joylarida shuhratparastlik, dabdababozlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yish, el-yurt odatlari va an'analarini mensimaslik, o'zini ko'z-ko'z qilish, atrofda yashayotgan odamlarning holahvolini inobatga olmaslik kabi eskidan qolgan asoratlarga yo'l qo'yilmoqda, manmanlikka berilib ketgan havoyilarning nomaqbul harakatlari mahallalarda, istiqomat joylarida sog'lom muhit buzilishiga sabab bo'immoqda, oddiy odamlarning nafsoniyatiga tegmoqda, ularning adolatga, umuman, davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchiga ziyon yetkazmoqda.

Farmonda keng jamoatchilikning bu boradagi e'tirozlari hisobga olinib, bunday soxta xo'jako'rsinlik, shuhratparastlik odatlari o'rniga, ehtiyojlaridan ortiq maqlag'larini xalqimizning azalii odatlari amal qilib, xayr-ehson, mehr-muruvvat ko'rsatish, muhtojlarga, beva-bechoralarga yordam berish, turarjoylarini obod qilish, yo'llar, ko'priklar qurish, ishlab chiqarishga sarf qilish – shunday oliyanob sa'y-harakatlar orqali el-yurt oldida o'zlariga haqiqiy obro' orttirish kabi takliflar va maslahatlar berilgan.

Oddiy mehnatkash xalq ommasi madaniy-ijodi faoliyat bilan asosan ishdan tashqari, ya'ni bo'sh vaqtida mashg'ul bo'ladi. Endilikda hanuzgacha deyarli o'rganilmagan an'anaviy dam olish madaniyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'immoqda. Shu sababli xalq orasida mashhur bo'lgan mavsumiy dam olish an'analari («Gul sayili», «Suv sayili», «Tog' sayili», «Bog' sayili», «Gap-gashtak» kabilalar)ga hamda turli tarixiy jarayonlarda madaniy - ma'rifiy hordiq chiqarish maskanlari (Erkaklar uyi, Otashxona, Iydgoh, Sherda, Madaniy bog'lar, Tarobxona, Tomoshagoh, Sayilgoh, O'yingoh, Choyxona kabilalar) tajribasi diqqatga sazovordir.

**Xalq o'yinlari.** Xalq an'anaviy madaniyati borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rinn tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Buning sababi quyidagilardan iborat:

birinchidan, o'yinlar – ajdodlarimizning eng qadimiy tarixiy qadriyati. ko'pgina madaniyati shakllari chashmasi – raqs, teatr, sport, marosimlar kabilalar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda o'yinlar ajdod-avlodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan;

ikkinchidan, ota-bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan;

uchinchidan, o'yinlar ma'naviy merosgina bo'lib qolmasdan, zamondoshlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamol bo'lishida o'ta muhim o'rinni tutadigan manbadir.

Biz shunga alohida e'tibor berib, Forish tumanida 1985-yildan boshlab unutilgan xalq o'yinlarini o'rganish (1985-1986-yy.), tiklash (1987-1991-yy.) va targ'ib qilish (1991-1993-yy.) bo'yicha tajribalar olib bordik. Buning natijasida, 100 ga yaqin o'yinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an'anaga aylanib, har yili o'tkazilib kelinayotgan «Xalq o'yinlari» bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Tajriba asosida xalq o'yinlarini tiklash va rivojlantirish yo'llari belgilandi.

Respublikamizda xalq o'yinlarining tiklanishida ham aynan Jizzax viloyati Forish tumanining tajribasi diqqatga sazovor bo'ldi. Bu yerda avvaliga bir maktab, qishloq, keyin tuman, so'ngra viloyat va nihoyat, respublika darajasida tiklangan xalq o'yinlari bo'yicha musobaqalar uyuşhtirildi. Forishda 1994-1996-yillarda Respublika I-II Olimpiadalari o'tkazilishi o'lkamizning turli joylarida azaliy xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi.

1996-yil Tailand poytaxti Bangkokda bo'lib o'tgan Butun dunyo xalq o'yinlari festivalida O'zbekiston delegatsiyasining qatnashishi, o'zbek xalq o'yinlarining «jahon milliy o'yinlari» guldastasida o'zining munosib o'rinni olishiga imkon yaratdi.

Boysunda «Alpomish»ga bag'ishlangan anjumanlar doirasida o'zbek xalq o'yinlari Respublika musobaqa-tomoshalari festivalining uyuşhtirilishi Alpomish davridagi dostonlarga ko'chgan xalq o'yinlarini tiklanishida muhim voqeа bo'ldi.

Shu narsani quvonch bilan qayd etish kerakki, o'yinni jon-dildan sevadigan yoshlарimiz ajdodlarimizning o'yinlariga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Forishda o'tkazilgan olimpiada musobaqalarining ishtiroychilar, asosan, o'spirin-yoshlardan tashkil topdi. Bu esa XX asr o'rtalarida unutilgan an'analar asr oxirida tiklanganidan dalolat beradi.

Xalq o'yinlarini tiklash jarayonida ham o'ziga xos muammolar yo'q emas. Masalan, azaliy musobaqalarning sportga yaqin turlariga ko'p e'tibor berilmoqda. Biroq o'yinlarning harakatli tomoniga e'tiborni kuchaytirib, urg'u berib, ruhiy tomoni unutilib qo'yilmoqda. Holbuki, sharq o'yinlarida oldingi o'rinda ruhiyat, keyin jismoniyat turgan. Ajdodlarimiz foydalangan so'z o'yinlari, aqliy, raqsli o'yinlar, sujetli teatrlashtirilgan o'yinlar ham diqqat talab qiladi. Xalqimizda insonni har tomonlama barkamol qiladigan an'analar, o'yinlar, musobaqalar yaratilgan, ulardan nafaqat saralab, balki an'anaviy o'yinlar tizimidan yaxlit shaklda foydalanmoq ham kerak.

Madaniy merosimizning uzviy va ajralmas qismi bo'lgan, avlod-ajdodlarimizga asrlar mobaynida ruh, jon va sog'liq ato etib kelgan xalq o'yinlarini tiklash va ulardan foydalanish milliy qiyofamiz, ma'naviyatimiz va

qadriyatiimizni yuksaltirish demakdir. Ularni ko'z qorachig'idek asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydalanish — mamlakatimiz har bir fuqarosi uchun muqaddas ishdir.

\* \* \*

An'anaviy xalq madaniyati va uning asosiy ko'rinishlari (xalq donishmandligi, e'tiqodi, pedagogikasi, an'analarini, ijodi, dam olish madaniyati, o'yinlari kabilari) insoniyatning tarixiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, xalq hayotida o'zining munosib o'rnni topgan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan, takomillashib, ijtimoiy taraqqiyotda muhim o'rinn tutgan. Ular hozirgi zamonda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ajodolarimizning bu bebaho merosini yanada chuqurroq o'rganishimiz, tiklashimiz va kamol toptirishimiz uchun aql, kuch va g'ayratimizni ayamasligimiz lozim.

Xullas, asrlar osha shakllanib, avloddan avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib, rivojlanib kelgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni saqlamasdan milliy tiklanish jarayonini amalga oshirish qiyin. Shu sababli bu borada jiddiy ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, Respublika, viloyat, tuman, shaharlar miqyosida milliy an'analarini saqlash, tiklash va rivojlantirish kengashlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'lardi. Ular milliy an'analar muammolarini muntazam ravishda hal qilib borishga o'z hissalarini qo'shib boradilar.

**Xalq madaniyatiga oid vazifalar.** Ma'lumki, hayot o'z joyida bir maromda turmaydi. Taraqqiyot xohlaymizmi-yo'qmi, oldimizga muayyan muammolarni qo'yib turadi.

Albatta, ijtimoiy-ma'naviy sohalarning biri — xalq an'analarini doirasida ham yutuqlar bilan birga o'ziga xos muammolar mavjud. Ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan masalalarni hal qilmasak, ular borgan sari kattalashib va murakkablashib boraveradi va taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Quyida ma'naviyat sohasining eng muhim masalalariga to'xtalamiz.

Birinchisi: madaniyat amaliyotini ravnaq toptirish uchun, eng avvalo, bu sohaning ilmini rivojlantirish lozim. Shunday qilsak, madaniyat ilmi bu soha amaliyotida vujudga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilishga ko'mak beradi. Gap shundaki, madaniyat muammolarini bevosita tadqiq etadigan maxsus markaz hozirgacha respublikamizda yo'q. Bu sohaga yaqin tashkilotlar, massasalar (masalan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi markazlari, Respublika madaniy-ma'rifiy ishlari va xalq ijodi ilmiy-metodik markazi, Ta'lim markazi, San'atshunoslik instituti, Til va adabiyot instituti va boshqalar) asosan o'z yo'nalishida tashkiliy va targ'ibot ishlari, milliy g'oya va masfkura, ma'naviyat targ'iboti masalalari, san'at, adabiyot, til, xalq ijodi bo'yicha xususiy tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lib, ular bevosita madaniyat muammolari bilan

maxsus shug'ullanmaydilar. Bu ish ularning vazifalariga kirmaydi ham. Xullas, madaniyatning umumiy va o'ziga xos muammolari bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy-tadqiqot markazi tuzilsa, u xalq madaniyatining amaliy ravnaq topishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

Ikkinchisi: muammo ma'naviyatning moddiy zaminini mustahkamlash bilan bog'liq. Ayonki, madaniyatsiz (chunonchi, uning tarkibiy qismlari – ilm, fan, ma'rifikat, axloq, din, san'at kabilarsiz) moddiy hayotni taraqqiy etishi qiyin bo'ladi. O'z navbatida, madaniyat ham moddiy zaminsiz yashay olmaydi. Agar ma'naviyatning moddiy «tomiri» bo'sh bo'lsa, u yaxshi ravnaq topa olmaydi. Har bir ma'naviyat sohasidagi mutaxassis o'z kasbiga yengil qarasa, natijada ma'naviyat taraqqiy etmasligi ma'lum. Ma'naviyat yaxshi taraqqiy etmasa, moddiy sohada ham rivojlanish bo'lmaydi. Shunday ekan, ma'naviy qadriyatlar bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar moddiy va ruhan qadrlab turilsa, ularning asosiy vaqt va harakati ma'naviyat taraqqiyotiga sarflanadi.

Shuning uchun ham respublikamizda ma'naviyat sohasi mutaxassislarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Uchinchi muammo mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan bog'liq. Ma'lumki, fuqarolarni ma'naviy kamol toptirish uchun madaniyat maskanlari tizimidan mahorat bilan foydalanish kerak. Bunday tizim hali mukammal bo'lmasa-da, biroq mavjud teatr, konsert zallari, klub, madaniyat uylari, muzey, kutubxona, istirohat bog'lari kabi maskanlar insonni ma'naviy kamol toptirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Ammo joylarda ularga kerakli darajada e'tibor berilmayotganligi uchun ular faoliyatsizlanib qolmoqda. Ko'pgina teatr, klub, kutubxona va boshqa maskanlarga odamlar deyarli kirmay qo'ygan. Xullas, joylarda aholining ma'naviy kamol topishiga ko'maklashish uchun, bir tomonidan, madaniyat maskanlari tizimini mukammallashtirish, ikkinchidan, mavjud madaniy maskanlar imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz darkor.

Vazirliklar, hokimiyat kabi joylarda mutaxassislardan tashkil topgan maslahatchi kengashlar tuzilsa, ayni muddao bo'lar edi. Ayniqsa, bunday maslahatchi kengashlar ma'naviyat sohasiga juda zarur.

Tarixiy jarayonda ziyoli-mutaxassislar ijtimoiy hayotni taraqqiy ettirishda asosiy o'rinn tutgani barchaga ma'lum. Ajdod-bobokalonlarimiz – Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Fitrat kabi buyuk ma'naviyat darg'alari jahonga mashhur ishlarni amalga oshirib, nafaqat vatanimiz, balki butun insoniyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Bugungi kun ziyorilari ham mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga o'z munosib hissalarini qo'shadilar. deb umid qilamiz.

**An'anaviy xalq madaniyatini kamol toptirish yo'llari.** An'anaviy madaniyatni tadqiq qilishdan asosiy maqsad, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebafo merosni asrash va taraqqiy ettirishdan iborat. Shuning uchun tadqiqot natijalarini

asosida xalq madaniyati an'analarini tiklash va rivojlantirishga oid asosiy yo'nalishlar, shoxobchalar va ijtimoiy madaniy uslubiyatlardan tashkil topgan tendensiyalarni aniqlashga intildik.

An'anaviy xalq madaniyatini tiklash va taraqqiy ettirish tendensiyalari tarkibida uch bosh yo'nalish mavjud:

Birinchi yo'nalish – odamlar istiqomat qilayotgan joylarda, oilalarda bebaho qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish;

Ikkinci yo'nalish – davlat madaniyat muassasalarini - klub, madaniyat uyi, kutubxona, muzey, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniy markazlarda ma'naviy merosni tiklash va taraqqiy ettirish;

Uchinchi yo'nalish esa xalq madaniyati an'analarini yuqori pog'onalarda – tuman, viloyat, respublika va xalqaro miqyosda targ'ibot qilish yo'llarini takomillashtirish.

Uch yo'nalish ham, o'z navbatida, uch asosiy shoxobchaga bo'linadi. Ularning zaminida umumiy ijtimoiy-madaniy uslubiyat ishlab chiqildi. U to'rt pog'onali jarayondan tashkil topdi.

Xullas, an'anaviy xalq madaniyatini saqlash, tiklash va kamol topdirish uchun quyidagi pog'onalarda ish olib borish lozim:

1 Xalq madaniyati durdonalarini tarixiy-ma'naviy meros sifatida, asl holida, an'anaviy shaklda asrash;

2 Zamonaviy (jumladan, boshqa xalqlardan o'tgan) madaniy shakllarni an'anaviy elementlar hisobiga boyitish;

3 Xalq an'analarini asosida o'ziga xos zamonaviy milliy madaniyat shakllarini bunyod qilish;

4 Kelajakda xizmat qiladigan, istiqbolli, yangi etnomadaniyat durdonalarining yaratilishi uchun sharoitlar hozirlash.

Mazkur jarayon an'anaviy xalq madaniyatini keng ko'lamda taraqqiy ettirishga samarali xizmat qiladi.

#### **IV BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON BADIY MADANIYATI**

**Amaliy san'at.** Mustaqillik yillarda an'anaviy madaniyatga e'tibor kuchayib, O'zbekiston Prezidenti farmoni bilan bir qator yangi korxonalar vujudga keldi. 1997-yil «Musavvir» Ilmiy-tekshirish markazi qoshida «Hunarmand» Assotsiatsiyasi tashkil qilinib, respublikadagi turli hunarmandchilikda ijod qilib kelayotgan ustalarini qamrab oldi. Bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikning yo'qolish arafasida turgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketyapti. Hozirgi kunda badiiy kulolchilik, kandakorlik, za'igarlik, zardo'zlik, an'anaviy to'qimachilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppichilik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik kabi turlar juda

rivojlangan. Yetakchi kulollar A.Rahimov, S.Otajonov, Sh.Yusupov, R.Usmonov, A.Isoqov, Narzullayevlar, R.Zuhurov; kandakorlar M.Madaliyev, D.Holidova, G.Rahmatova, U.Aliyev, O.Umarov; zargarlar F.Dadamuhamedov, G.Yo'ldosheva, G.Tosheva; ganchkorlar M.Murodov, X.Abdullayev, A.Muxtorov; yog'och o'ymakorlar S.Xo'jayev, M.Ibrohimov, O.Fayzullayev, A.Azlarov, S.Rahmatullayev; zardo'z B.Jumayev; kashtachi Z.Obloberdiyeva va boshqalar samarali ijod qilmoqdalar.

Mustaqillik davrida noan'anaviy amaliy bezak san'at turlari ham rivojlanib kelyapti. Masalan, toshkentlik kulol N. Qo'ziyevaning asarlari shu uslubda mo'jazgina ishlangan. O'zbekiston zargarlik mакtabining vakillari orasida E.Gostyev, U.Xolmurodov, A.Ulumbekovalar hozirda zamona viy. noan'anaviy yo'nalishda ijod qilmoqdalar.

**Tasviriy san'at.** Mustaqillik davri rangtasvir san'ati turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Akademik realizm, dekorativizm, milliy romantizm, abstraksionizm, instalyatsiya ko'rinishlari ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning kengayishidan dalolat beradi. 1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi tasviriy san'atning turli sohalarini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillik davrida tasviriy san'atning turli sohalari va janrlari rivojlanib bordi. Masalan, ushbu davr haykaltaroshligida, asosan, tarixiy siymolar gavdalandi va ularning soni ko'payishi barobarida ushub jihatlarining yangilanishi ham bir qator asarlarda ko'zga tashlandi. A. Rahmatullayev, L. Ryabsev, I. Jabborov, R. Mirtojiyev, J. Kuttimurodov, K. Norxo'rozov kabi haykaltaroshlar mahobatli, A.Xotamov, E.Esanov, S.Sharirov kabi rassomlar esa dastgohli haykaltaroshlikni rivojlantirishga harakat qilishdi.

Mustaqillik yillarda uslubiy jihatdan o'ziga xos rassomlar guruhi shakllandi. Rassomlar ijodida jiddiy evrilishlar sodir bo'lmoqda. Yangi plastik izlanishlarda ertagu dostonlar, xalq og'zaki ijodiyoti, turli xil rasm-rusum va marosimlar bilan bog'liq belgililar hamda ramzlar ular rangtasvirining yangi bosqichini belgilab berdi. Ushbu davrda serqirra ijod qilgan rangtasvirchilardan R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, R. Choriyev, M. Nabiiev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, S. Raxmetov, A. Mirzayev, N. Shin, V. Oxunov, J. Umarbekov, S. Alibekov, A. Isayev, J. Usmonov, N. Shoabdurahimovlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bu davrdagi mahobatli san'atning rivojlanishi ijodiy erkinlik, badiiy merosimizni boy an'analariga murojaat qilish bilan bog'liq. Yangi ma'muriy-ijtimoiy inshootlar, ko'hna binolarni qayta ta'mirlash hamda yangi shahar ansamblilarini barpo etish ishlarining jadallashib ketishi bilan mahobatli rangtasvirchilar ijod vositalarining yangi imkoniyatlarini qidirib topishga bo'lgan yondashuvlari sezilarli darajada faollandashdi. Mahobatli san'at sohasida ijodiy izlanishlar olib borgan rassomlardan A. Aliqulov, O. Xabibullin. «Sanoyi-nafisa» guruhi, A. Buxorboyev, A. Axmedshin kabi rassomlarni aytishimiz mumkin.

Mustaqillik yillari ko'plab tadbirlar, xalqaro ko'rgazmalar, ko'rik-tanlov, festivallar o'tkazish an'anaga aylandi. 2001-, 2003-yillardan uyuşdırıla boshlangan Toshkent Xalqaro Badiiy ko'rgazması «Biyennale» ham katta ahamiyatga ega.

Ko'rgazmada o'zbekistonlik rangtasvir ustalari bilan birga dunyoning ko'plab mamlakatida ijod qilayotgan taniqli mo'yqalam ustalari o'z asarlari bilan qatnashishdi. Xalqaro anjumanda san'at tanqidchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Misr, Shveysariya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Estoniya, Gruziya, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlar rassomlari ishtirok etishdi.

Shuningdek, xorijlik san'atshunoslar, olimlar va tanqidchilar ishtirokida Toshkent Xalqaro badiiy ko'rgazması doirasida «Zamonaviy badiiy jarayon – dolzarb muammolar va yo'nalishlar» mavzusida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman tasviriy san'at muammolarini hal qilishga xizmat qildi. Toshkent «Biyennale»si XXI asr Sharq va G'arb san'ati uyg'unligidagi yangi g'oyalarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmaqda.

«Shu aziz Vatan – barchamizniki» mavzusidagi respublika festivalida respublikamizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi san'atkorlari o'zlarining san'at va madaniyat sohasida erishgan yutuqlarini namoyon etishdi. Respublikamiz jamoatchiligiga ayniqsa, Qashqadaryo, Andijon, Jizzax, Xorazm, Toshkent shahri va qoraqalpog'istonliklarning ko'rgazmalari manzur bo'ldi. Jumladan, Toshkent shahrining ilg'or xalq amaliy san'ati ustalari, haykaltarosh va rassomlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining namunalari taqdim etildi.

Mustaqillik yillardagi ko'rgazmalarda M. Nabihev, A. Ikromjonov, R. Choriyev, R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, N. Shin, B. Boboyev, J. Umarbekov, B. Jalolov, V. Burmakin, L. Ibrohimov, haykaltaroshlar A. Hotamov, T. Tojixo'jayev, D. Ro'ziboyev, M. Borodina, grafik rassomlar M. Kagarov, A. Mamajonov, M. Sodiqovlar, yosh rassomlar D. Oxunboboyev, A. Ivanova, A. Nikolayev, M. Aliyev, V. Nechayeva, X. Ziyoxonov, X. Inog'omova, G. Alimatova, A. Nurshina, K. Boboyev kabi ko'plab taniqli san'atkorlar ijodi barchaga manzur bo'lmoqda. Shuningdek, A. Nur, V. Oxunov, G. Qodirov, G. Boymatov, R. Gagloyeva, J. Usmonov, A. Isayev, E. Is'hoqovlarning yangi, qiziqarli asarlari tomoshabinda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Musavvirlarimiz yangi tarixiy bosqichda madaniy aloqalarni qayta tiklash, yagona ma'naviy makon yaratishga yo'naltirilgan uslub va yo'nalishlarni umuminsoniy tamoyillarga bo'ysundirishga intilmoqda.

So'nggi yillarda kelajak poydevorini bugundan barpo etish maqsadida, yoshlarga va o'sib kelayotgan yangi avlodga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularni bu lib o'tayotgan festivallar, tanlovlari, badiiy ko'rgazmalar misolida ko'rshimiz

mumkin. An'ana tusiga aylanib qolgan «San'at haftaligi», «Ustoz-shogird», «Xalqaro bolalar rasmlari biyennalesi» kabi qator ko'rgazmalar shular jumlasidandir.

Ushbu ko'rgazmalarning barchasida tanlovlар e'lon qilingan bo'lib, bir-birlari bilan ijodiy raqobatga kirishgan yoshlarni ma'naviy rag'batlantirish orgali iqtidorlar tanlab olinmoqda va ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuni guvoхи bo'lamizki, yosh rassomlar o'z qiziqishlari va intilishlariga ko'ra hamohang mavzu va o'z uslublarini tanlashlari mumkin bo'lsa-da. akademik san'at poydevor vazifasini o'tamoqda. Yosh rassomlar ijodida o'ziga xos milliy san'at rivojlanganligi kishini quvontiradi. Shuningdek, jahon zamonaviy san'atining yangi shakllari va konseptual g'oyalari bilan muloqotlarini faolligini yuqori baholash mumkin.

**Musiqa san'ati.** Mustaqillik yillarda o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlardan, urs-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqaning boy badiiy-tasviriy vositalari bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. O'zbek musiqa san'ati shu kunga qadar ikki asosiy qatlamda yetib kelgan bo'lib, biri «xalq musiqasi» yoki «musiqiy folklor», ikkinchisi «mumtoz-kasbiy» yoki «ustozona» musiqa deb yuritiladi.

Mustaqillik davridagi zamonaliv O'zbekiston musiqa san'ati o'ziga serqirra ijodiy izlanishlarni qamrab olgan. An'anaviy monodiya qadriyatları va yevropazamin ko'povozli musiqa yo'nalishlarini o'zlashtirish, ularga yanada yangi talqin berish – dolzarb masalalardan biri.

O'zbekistonda an'anaviy uslubdagi xonandalardan M. Uzoqov, J. Sultonov, K. Otaniyozov, O. Alimaxsumov, O. Otaxonov, O. Imomxo'jayev, F. Mamadaliyev, B. Davidova; zamonaviy-milliy yo'nalishda kuylovchilardan K. Rahimov, Sh. Jo'rayev, G'. Yoqubov; estrada xonandalaridan B. va F. Zokirovlar, N. Abdullayeva, O. Nazarbekov kabilar; sozandalardan – T. Alimatov, G'. Hojiqulov, A. Ismoilov va boshqalar; musiqali drama, opera va balet solistlari – L. Sarimsoqova, H. Nosirova, S. Qobulova, K. Zokirov, G'. Abdurahmonov, N. Ahmedova, S. Yarashev, E. Yo'ldoshev, N. Hoshimov, dirijyorlar – M. Ashrafiy, F. Shamsiddinov, D. Abdurahmonova, Z. Haqnazarov kabilar taniqli.

Musiqali anjumanlar mazkur san'at rivojiga munosib hissa qo'shmaqdagi 1996-yil 27-avgust kuni Yurtboshimizning «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami haqida maxsus Farmoni e'lon qilindi. Unda «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq ko'rik-tanloving xalqimiz madaniy-ma'naviy hayatida unutilmas voqeа bo'lgани, minglab vatandoshlarimiz tomonidan zo'r mammuniyat va ko'tarinki ruh bilan qo'llab-quvvatlanganligi qayd qilindi va har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb e'lon qilindi. Xalqning qo'shiqqa bo'lgan ehtiyoji

kuchli bo'lgani va respublika rahbariyatining qo'shiqchilik san'ati rivojiga e'tibori asosida bu bayram har yili nishonlanib kelinmoqda. Bu ko'rlik-tanlov bosqichma-bosqich: o'quv yurtlari va tashkilotlarda, mahalla, qishloq va shaharlarda, tuman va viloyatlarda, shuningdek, mamlakat poytaxtida ko'tarinki ruhda o'tkazilmoqda.

O'zbek musiqa madaniyati jahonga yuz tutmoqda. «Sharq taronalari» musiqa festivali, «Musiqiy-simfonik festival» xalq musiqa ijodiyotining turli janrlariga bag'ishlangan ko'rlik-tanlov, festivallar dunyoning turli mamlakatlardidan kelgan mehmonlarda ham katta taassurot goldirmoqda.

Mustaqillik yillari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida xalqaro an'anaviy san'at festivali, 2006-yilda Chirchiq shahrida musiqa festivali, 2009-yilda Surxondaryoda folklor festivali bo'lib o'tdi. Jahon estrada yulduzlari Yuriy Shatunov, Soso Pavliashvili, Kristina Orbakaye va boshqalar yurtimizga gastrol safarlarini uyuştirdilar.

Samarqandning yuragi hisoblangan ko'hna Registon maydonida bo'lib o'tadigan an'anaviy «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining obro'yi tobora oshmoqda. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan asos solingan, har ikki yilda bir marta o'tkazilayotgan mazkur an'anaviy festival o'zbek mumtoz musiqa madaniyatini jahonga yanada kengroq tanitish, ayni paytda dunyo musiqa madaniyatini yangiliklarini yurtimizda namoyish etishda katta xizmat qilmoqda. YUNESKO bu anjumanni o'z rahnamoligiga oldi. O'tgan davr ichida festival xalqaro hamjamiyatda katta obro', nufuzga ega bo'ldi. Festival xalqlar o'rtasida madaniy xilma-xillikni targ'ib etish vositasiga avlandi.

Jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan birida o'tayotgan «Sharq taronalari» musiqa festivali xalqaro miqyosda e'tibor qozonib, nafaqat Sharq, balki G'arb dunyosidagi ko'plab san'at namoyandalarini ham o'ziga jalb etayotgani mazkur anjumanning qisqa muddat ichida ajoyib an'ana va katta nufuzga ega bo'lib borayotganidan dalolat beradi.

Bu festival jahon ahlining o'zaro madaniy muloqotga bo'lgan hayotiy ehtiyojini, har bir xalq, har bir millat ruhidha azaldan yashab kelayotgan yaxshilik, go'zallik va nafosatga intilish hissini ro'yobga chiqarishda beqiyos vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

«Yangi avlod» festivali san'atga endi kirib kelayotgan yoshlarni kashf etdi a etmoqda. Yosh talantlarning «Nihol» ko'rik-tanlovi esa nafaqat musiqa olami, balki oddiy xalqning ham sevimli bayramlaridan biriga aylanib ulgurgan va atta mavqega ega. O'zbekiston davlat san'at instituti talabalari ishtirokida To'da», «Xonuma», «Halima», «Romeo va Juletta» kabi musiqali spektakllar sahnalashtirildi.

**Teatr san'ati.** Mustaqillik davrida o'zbek teatrining turlari va janrlari vojlanmoqda. Yoshlar, bolalar va qo'g'irchoq teatrлari alohida mavqega ega.

Mustaqillik sharofati bilan tiklangan milliy qadriyatlar, jamiyat ma'naviyati haqidagi yangilangan tushunchalar, tarix va zamonaviylik muammolari ushbu teatrlar diqqat-e'tiborida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi 1998-yil Farmoni milliy teatr san'atining istiqbolini belgilab bergen hujjat bo'ldi. «O'zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi o'z faoliyatini milliy tomosha va teatr san'atining eng yaxshi an'analarini asrab-avaylashga hamda boyitishga yo'naltirdi.

Mustaqillik davrida O'zbek teatr san'ati milliy qadriyatlarni tiklashga qo'l urdi. Bir zamonlar qoralangan asarlar teatrлarda sahnalashtirildi, yangi asarlar yaratish harakati boshlandi. Turli teatrлarda Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi, To'ra Mirzoning «Amir Temur» dramasi, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani, «Yorqinoy» dramasi, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlari asosida sahna asarlari yaratildi. Umuman, o'zbek teatr madaniyati yanada rivojlandi. O'zbek san'atkorlari xorijiy mamlakatlarga gastrollarga bormoqdalar. Zamonaviy o'zbek teatri san'atiga hissa qo'shgan namoyandalardan dramaturgilar – M. Boboyev, Sh. Boshbekov, E. Samandarov va boshqalar; rejissyorlardan – N. Abdurahmonov, R. Yoriyev, B. Yo'idoshev, N. Otaboyev, O. Salimov. V. Shapiro, R. Hamidov va boshqalar; rassomlardan – G. Brim, B. Kim. S. Salimov, B. To'rayev, T. Shorahimov va boshqalar; dirijyorlardan – D. Abdurahmonova, E. Toshmatov, N. Xalilov, H. Shamsiddinov va boshqalar; raqs ustalari – G. Izmaylova, M. Is'hoqova, I. Yusupov va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Teatr san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan aktyorlardan Ya. Abdullayeva, M. Abduqunduzov, T. Azizov, Sh. Azizova, Yo. Ahmedov. X. Boboxonova, Z. Davletmuradova, Ye. Dmitriyeva, G. Jamilova, J. Zokirov. G. Zokirova, D. Ismoilova, M. Ixtiyorova, E. Komilov, E. Malikboyeva, E. Nosirov. H. Nurmatov, M. Razzoqova, S. Rametova, A. Rafiqov, G. Rahimova. M. Teshaboyeva, N. Toshkenboyeva va boshqalarni aytishimiz mumkin.

Mustaqillikning 10 yilligi arafasida O'zbek Davlat Akademik drama teatrining yangi binosi ochildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan ushbu teatr «O'zbekiston Milliy akademik drama teatri»ga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga (1998-yil, 22-may) asosan Respublikadagi mavjud 37 ta teatrлarni birlashtiradigan yagona tizim vujudga keldi.

Respublika va Xalqaro miqyosda festivallar, tadbirlar, ijodiy va xotira kechalari. teatrлarning tashkil topgan sanalari tantanali ravishda o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli tarixiy qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, ma'naviy boyliklarga intilish o'zbek teatrining ham muhim vazifasiga aylandi. Sahnamizda buyuk Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy obrazlari yangicha talqin qilindi. Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Feruz kabi ulug' ajdodlarimizga bag'ishlangan asarlar keng shuhrat qozondi.

Respublika teatrlari har yili 130 dan ziyod turli mavzu va janrlarda spektakllar sahnalashtiradi. Bular asosan tarixiy, afsonaviy mavzulardagi spektakllardir. 1998-yili Xalqaro miqyosda keng nishonlangan buyuk vatandoshlarimiz hayoti va faoliyati hamda «Alpomish» dostonining 1000 yilligi munosabati bilan qator sahna asarlari yaratildi. O'zbekiston Milliy akademik drama teatrda sahnalashtirilgan dramaturg Hayitmat Rasulning «Piri koinot», Farg'on'a viloyati Yu. Shakarjonov nomidagi musiqali drama teatrda sahnalashtirilgan «Osmonga sig'magan muhabbat», Samarqand viloyati H. Olimjon nomidagi musiqali drama teatrda sahnalashtirilgan Usmon Qo'chqorning «Imom Buxoriy», Andijon viloyati Y. Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrda sahnalashtirilgan «Alpomishning qaytishi», Xorazm viloyati Ogahiy nomidagi musiqali drama teatrda sahnalashtirilgan Erkin Samandarovning «Jaloliddin Manguberdi» kabi asarlari Respublikamiz ma'naviy hayotida katta voqeа bo'ldi.

Toshkentda «Sharq va G'arb», «Humo» kabi yirik xalqaro teatr festivallari o'tkazilishi o'zbek rejissurasi, aktyorlik san'atining yirik yutuqlari, mahorat o'rganish, tajriba almashinish maktabi vazifasini o'tadi. «Humo» festivali marafoni Toshkentda muvaffaqiyatli o'tib, Germaniya, Gruziya, Rossiya va boshqa mamlakatlar teatr jamoalarining o'zaro ijodiy uchrashuvi maskaniga aylandi. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan «Navro'z» teatr festivalining muvaffaqiyati xalqaro ahamiyatga molik bo'ldi. «Andijon bahori», «37+1», «Debut» teatr festivallari san'at muxlislari uchun haqiqiy tuhfa bo'ldi. Havaskorlik teatrlari ham rivojlanmoqda. Talabalarni havaskorlik teatrlarining «Nihol» festivali katta qiziqish bilan o'tkazilmoqda.

Respublikamiz teatr sohasida ham yoshlar uchun ko'p ishlar qilindi, ular uchun maxsus tomoshalar qo'yilmoqda, qo'g'irchoq teatrlari barcha viloyatlarda ishlab turibdi. «Kattalar teatrlari bolalar uchun» festivali shunday teatrlarda bolalarga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash ishiga xizmat qiladi.

XXI asr o'zbek teatrining taraqqiyotida alohida sahifa ochdi. Qadimgi ko'ngilochar milliy tomoshalar va Yevropadan kirib kelgan maxsus teatrlar uyg'unligida shakllangan o'zbek teatri bu asrda haqiqiy o'zbek milliy teatrini vujudga keltirdi. O'zbekiston teatrlari o'z ijodiy-uslubiy izlanishlari, turli asarlari talqinlariga yangicha yondashuvlari bilan teatr san'ati uslubi va ifoda vositalarining takomillashuviga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik davrida teatrlarimiz faoliyatida ko'pgina diqqatga sazovor o'zgarishlar yuz berdi. Teatrlarning repertuar siyosati, rejissura va aktyorlik san'atidagi yangiliklar, spektakllarning prokati, tomoshabinlar bilan aloqalarning yangicha mazmun, shakllari va niyoyat, ushbu maxsus teatrlarning xalqaro san'at va madaniyat maydonida ortirgan tajribalari e'tiborga loyiq.

Mustaqillik davrida O'zbekiston teatrlari funksiyasi o'zgardi. Ular o'z faoliyatlarida tomoshabinlarga mazmundor, ta'sirli, qiziqarli spektakllar tayyorlashga ahamiyat berdilar.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan professional teatr va teatr-studiyalari xalqımız ma'naviy dunyosini, tafakkurini boyitadigan sahna asarları yaratmoqdalar. Ushbu dargohlarda minglab ijodiy va texnik xodimlar faoliyat olib boryapti. Mustaqillik davrida birorta ham teatr o'z faoliyatini to'xtatgani yo'q. Nodavlat va xususiy teatrlar paydo bo'lmоqda.

Teatrлarning xalqaro miqyosda yutuqlarga erishayotgani e'tiborni tortadi. Teatrlarimiz jamoalari AQSH, Turkiya, Pokiston, Germaniya, Polsha, Buyuk Britaniya, Isroil kabi xorij mamlakatlarida o'tkazilgan turli teatr festivallarida qatnashib, turli sovrin va mukofotlarga sazovor bo'lganligi quvonchlidir.

Teatr ijodkorlari mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida faol ishtirok etmoqdalar. Vatanimiz oliv organi – Oliy Majlisga, viloyat, tuman va shahar mahalliy Kengashlariga deputatlikka saylanmoqdalar. Bu esa teatr ijodkorlariga bo'lgan yuksak ishonchning dalilidir.

Teatr san'atimiz ayni kunlarda bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib bormoqda. O'z-o'zini boshqarish va ayni damda tomoshabinlarga sidqidildan xizmat qilish yo'lida tinmay izlanmoqda. O'zining shonli tarixiga va albatta, ertasiga ega o'zbek milliy teatr san'ati bugungi kunda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilish yo'lida tinmay mehnat qilmoqda.

**Raqs san'ati.** Mustaqillik davrida balet teatrlarida milliy mavzuga e'tibor kuchayib boryapti. Mahalliy bastakor va baletmeysterlar milliy baletlarni yevropacha klassik raqs shakkllari bilan boyitmoqda. Bu borada «Raqqosa», «Orzu», «Suhayl va Mehr», «Sevgi tumorı», «Afsonalar vodiysida», «To'maris» va boshqa milliy balet spektakllarini keltirib o'tishimiz mumkin.

**Kino san'ati.** Mustaqillik yillarda ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar tufayli o'zbek kinosida ham keskin burilishlar bo'ldi. Davlat kinokompaniyasi tashkil etildi. «Inson», «Yulduz», «Ilymon», «Vatan», «5-studiya» kabi mustaqil studiyalar yuzaga keldi. Natijada kinomahsulotlar ko'paydi. Bu davrda olingen filmlarga – «Temir erkak» (1991, rej. I.Ergashev), «Kammi» (1991, rej. J.Ayziyev), «Kim jinni» (1992, rej. A.Hamroyev), «Dallo» (1993, rej. B.Odilov), «Qariб quyulmagan» (1993, rej. M. Abzalov), «Taqdir eshigi» (1994, rej. L. Fayziyev). «Bomba» (1994, rej. Z. Musoqov) va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

O'zbek kinematografiyasida bolalar kinosi, ilmiy ommabop va hujjatlil filmlar, multiplikatsion kino ham muhim o'rinn egallaydi.

Mustaqillik davri o'zbek kinosida uslub va janr imkoniyatlarini kengaytirishi borasidagi muayyan izlanishlar ijobiy samaralar berayapti.

Jumladan:

- ijodkorlarimizda kino janrlari diapazoni, uslublar rang-barangligi, badiiy mahorat, an'ana va novatorlik masalalariga yondashuvda o'ziga xoslik yuzaga keldi;
- turli mavzular, detektiv, komediya, tragediya, melodrama, fantastika kabi janrlarda filmlar suratga olinib, kinoijodkorlarimiz uchun o'z mahoratini sinab ko'rishga qulay imkoniyat va sharoitlar yaratildi;

— yangi davrning o‘ziga xos milliy kinodramaturgiyasi shakllandi. O‘zbek filmlariga yangi mavzu, yangi qahramon kirib kelishi kuzatildi;

— kinoijodkorlarda milliy an’analarga munosabat va yangicha qarashlar paydo bo‘ldi.

— turli xil xususiy-tijorat kinostudiyalari tashkil topdi. Hozirgi kunda respublikamizda kinomahsulot ishlab chiqaruvchi 65 ga yaqin studiya mavjud.

Shuni e’tirof etishimiz lozimki, kino san’atimiz o‘zining milliy qiyofasi bilan dunyoga chiqqa oldi. Mahoratli san’atkorlarimiz Sh.Abbosov, R.Muhammadjonov, Yu.Roziqov, Z.Musoqov, J.Qosimov va boshqa rejissyorlarimizning kinofilmlari ko‘pgina xorij festivallarida mukofot va sovrinlarga sazovor bo‘ldi. «Abdullahon» (1991-yil, rejissyor Z.Musoqov) O‘zbekiston KFda «Eng yaxshi o‘zbek filmi» Oltin Grifoni bilan mukofotlangan. Yaponiyadagi chet davlatlar filmlari reytingida 7-o‘rinni egallagan, «Yulduzingni ber, osmon» (1995-yil, rejissyor F. Davletshin) 1995-yili Anqaradagi Xalqaro KFda «Musiqiy janri uchun» Billur globus sovriniga ega bo‘lgan, «Voiz» (1998-yil, ssenariy muallifi va rejissyor Yu. Roziqov) 1999-yili Anape shahrida o‘tkazilgan MDH va Boltiqbo‘yi davlatlari KFda Gran-pri bosh sovrini bilan taqdirlangan, «Fellini» (1999-yil, ssenariy muallifi va rejissyor N.Abbosov) 2000- yili «Eng yaxshi rejissyorlik ishi uchun» milliy mukofotiga ega bo‘lgan. 2001-yili Varshavada «Zolotoy krest» sovrini bilan taqdirlangan. 2003- yil Shveysariyadabosh di plomlardan birigasazovor bo‘ldi. 2003-yil Avstriyaning Izburg shahrida Gran-pri mukofoti bilan taqdirlangan.

«Qor qo‘ynida lola» (2003-yil, rejissyor A.Shahobiddinov, Yo. To‘ychiyev) filmi 2004-yilda «Ijodiy parvoz» festivalida Gran-pri mukofotini olgan. 2006-yilda «Orzu ortida» (2004-yil, ssenariy muallifi va rejissyor Yo.To‘ychiyev) filmi «Ijodiy parvoz» festivalida «Eng yaxshi operatorlik ishi uchun» mukofotlangan. 2006-yilda Fransiya KFda Gran-pri sovrinini olgan. 2006-yil Qozog‘istondagi «Shaken yulduzları» festivalida di plom olgan.

«Chashma» (2006-y. Ssenariy muallifi va rejissyor Yo.To‘ychiyev) Moskvadagi Xalqaro KFda «Perspektiva nominatsiya» bo‘limida Gran-pri sovrini bilan mukofotlangan.

Rejissyor Z. Musoqov Yaponiya, Germaniya mamlakatlari bilan ijodiy hamkorlik o‘rnatdi. Yu. Roziqovning «Dilxiroj» filmi dunyoning mashhur filmlarini to‘plovchi Yaponiya kino muzeysiiga qo‘yildi, mazkur asarni Germaniya, Fransiya telekompaniyalari sotib oldilar, Rossiya kinoshunoslari iqlidori o‘zbek ijodkori «Yusuf Roziqov rejissurasi fenomeni»ni o‘rganishga kirishdilar.

O‘zbek kino olamiga rejissyor-ssenaristlardan Ayub Shahobiddinov, Yolqin To‘ychiyev, yosh aktyorlar Ra’no Shodiyeva, Bobur Yo‘ldoshev, Farrux Soipov, Ulug‘bek Qodirov, Dilshod Kattabekov kabi iste’dodli yosh kadrlar kirib keldi.

**Sirk.** Mustaqillik davri zamonaviy o‘zbek sirk san’atida ikkita yo‘nalish mavjud: professional va an’anaviy sirk. Professional sirk namunalari Toshkent sirk

maydonida va «Sahnadagi sirk» ko'chma jamoalari tomonidan namoyish etilsa, an'anaviy sirk respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, asosan, oilaviy guruuhlar sifatida shakllangan va boy an'analarga ega. Milliy sirk san'ati qisqa vaqt ichida ravnaq topdi va xalqaro sirk maydonida munosib o'rinn egalladi.

«O'zbekdavlatsirk» birlashmasi, o'zbek milliy sirk san'ati ustalari qunt bilan mehnat qilganliklari ajoyib samara berdi. Tomoshabinlar talabiga to'la javob beradigan badiiy yuksak, raqobatbardosh sirk asarlari yaratilmoqda. Sirk dasturlarida asosiy o'rinn tutgan yirik shakldagi sirk asarlari, ya'ni attraksionlar sahnalashtirilib, tomoshabinlarga taqdim etilmoqda. F. Yunusovning «O'rgatilgan yo'lbarstar»i, N. Aliyevaning «Ikki pog'onali dor», K. Qarayevning «Chavandoz yigitlar», R. Sharabiddinovning «Tuya ustida akrobatlar» attraksionlari shular jumlasidan.

So'nggi yillarda «Sahnadagi sirk» repertuari bir necha yangi tomoshalar bilan boyidi. Ular orasida T. Tojiboyevning «Sehri shou», M. Toshkenboyevning «O'zbekiston dorbozları», B. va F. Axnazarovlarning «Polvonlik dostoni», T. Galimovning «O'rgatilgan ayiqlar»i kabilar mashhur.

## V BOB. O'ZBEKISTON – KO'P MILLATLI VA DINIY MADANIYAT DIYORI

O'zbekiston – ko'p millatli respublika. Bugun yurtimizda 16 ta diniy konfessiya, 136 millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Tabiiyi, har qanday ko'p millatli davlatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va istiqboli millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar barqarorligi bilan uzviy ravishda bog'liq. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab aytganlaridek, nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan yondashishni talab qiladigan bu masala ko'pmillatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O'zbekiston uchun ham juda dolzarbdir. Shu jihatdan mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning muhim omillaridan biri millatlararo totuvlik bo'lsa, ikkinchisi, diniy bag'rikenglik, desak xato bo'lmaydi. Zotan, mustaqil respublikamizning buyuk kelajagini ta'minlash yo'lidagi ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarish uchun ham yurtda barqaror vaziyat bo'lishi darkor. Tajriba barqaror vaziyatni izdan chiqarish, mamlakatni fuqarolararo va millatlararo nizolar, fitna-fasod girdobiga tortishga urinishlar, ya'ni mafkuraviy tahdid, mafkuraviy xuruj kun tartibining oldindi qatoriga chiqib qolganini qayta-qayta isbotlamoqda.

Yurtboshimiz takror va takror ogohlantirib aytganlaridek, XXI asrda biz yadro poligonlaridan emas, balki mafkuraviy poligonlardan ehtiyyot bo'lishimiz kerak, mavjud xavfning oldini olishimiz uchun jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni uzlucksiz ravishda atroficha o'rganib borishimiz, shuningdek, ilmiy asosda chuqur tadqiq va tahlil etishimiz lozim.

Bu jihatdan milliy va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashning barcha omillarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurilishi yo'lidagi ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishning hamda turli din va millatga mansub bo'lgan aholini yagona Vatan tuyg'usi asosida birlashtirish va ularni O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lidagi ijtimoiy-siyosiy faoliigini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

**O'zbekistonda ko'p millatli madaniyat.** Ma'lumki, sayyoramizda o'zining betakror madaniy va ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lgan 1600 dan ortiq etnik guruhlar yashaydi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida esa o'zbeklar bilan bir qatorda o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan 130 dan ziyod millat vakillari istiqomat qiladilar. Ular mamlakat aholisining 20 foizini tashkil etadi.

Shu boisdan ham mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi va qator amalii tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvar Qaroriga asosan Respublika baynalmilal madaniyat markazi (RBMM) tashkil etilishi milliy-madaniy markazlar faoliyatiga keng yo'l ochib berdi. Bu esa millatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim o'rinn tutmoqda.

RBMM tashkil etilgandan so'ng milliy-madaniy markazlar faoliyati tobora rivojlanib, ularning miqdori ham yildan yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 1992-yilda ularning soni atigi 10 tagina bo'lgan bo'lsa, 2000- yilga kelib 110 tadan oshdi. O'tgan yillar mobaynida milliy-madaniy markazlar nafaqat miqdor, balki samaradorlik jihatidan ham o'sib, mamlakatimizdagи mayjud jamoat tashkilotlari qatorida o'zlarining muayyan o'rinnlariga ega bo'ldilar.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- ko'p millatli respublikamizda milliy munosabatlarni uyg'unlashtirish, ya'ni vatanimiz tinchligi va osoyishtaligining juda muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;
- mayjud milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga yetakchilik qilish;
- mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning milliy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, ya'ni ularning har biriga xos bo'lgan milliy til, madaniyat, taomil, urf-odat va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga amalii va uslubiy jihatdan yordam berish;
- turli millatga mansub yoshlarimiz qalbida muqaddas vatan tuyg'usini rivojlantirish orqali vatanparvarlik, insonparvarlik va baynalmilallik tarbiyasini amalga oshirish;
- milliy madaniyatlarni rivojlantirish orqali respublika madaniyatining gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shish;
- Markaziy Osiyo respublikalari va MDH tarkibiga kiruvchi respublikalarda

faoliyat ko'rsatayotgan milliy-madaniy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish;

— mamlakatimizdagi turli millat vakillarining o'z tarixiy vatanlari bilan madaniy aloqalar o'rnatishlariga ko'maklashish.

RBMM o'zining ish yo'nalishlarini markaz huzurida tashkil etilgan maxsus Jamoatchilik Kengashi yo'riqlari asosida belgilaydi va amalga oshiradi. Mazkur Jamoatchilik kengashi tarkibiga Markaz rahbariyati, milliy-madaniy markazlar raislari, mutasaddi idoralar, vazirliklar va jamoat tashkilotlarining vakillari, shuningdek, milliy masala bilan shug'ullanuvchi yetakchi olimlar kiritilgan.

Respublikamiz ijtimoiy hayotidagi muhim voqealar, tantanalar va ommaviy bayramlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni nishonlashda turli millatga mansub yurtdoshlarimizning faol ishtirokini ta'minlash markaz faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Markazning bu boradagi sa'y-harakatlari tufayli eng aziz va eng ulug' ayyomimiz — Mustaqillik kuni, shuningdek, Navro'z bayrami, Konstitusiya kuni, tariximizda yorqin iz qoldirgan buyuk zotlar va ulug' allomalarimizning tavallud kunlari bilan bog'liq muhim sanalarning nishonlanishida, Prezidentimiz Islom Karimov asarlarining taqdimotiga bag'ishlangan tantanali marosimlar va yig'ilishlarni tashkil etish va o'tkazishda turli millatga mansub yurtdoshlarimiz katta mamnuniyat bilan faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Markaz tashabbusi bilan maxsus dasturlar asosida davrimizning dolzarb mavzulariga doir konferensiya, seminar va davra suhbatlari muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, umumxalq bayramlari, festival, ijodiy kechalar va ko'rgazmalarda hamda turli millatga mansub atoqli xalq namoyandalari hayoti bilan bog'liq muhim sanalarning nishonlanishida faol qatnashish markaz faoliyatining muhim sohalariga aylanib, tobora an'anaviy tus olmoqda.

Ularning orasida Amazon va Qurbon hayitlari, Rojdestvo, Pasxa, Maslenitsa, Purim, Xansiq, Hosil bayrami, Chusok, Yangi yil, Xotira va qadrlash kunlarining an'anaviy tarzda bayram qilinayotganligi hamda Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi, «Manas» eposining 1000 yilligi, buyuk ajdodimiz Amir Temurning 660 yilligi, Imam al-Buxoriy va Ahmad al-Farg'oniy, Navoiy, Jomiy, Abay, Pushkin, Mahtumquli, Shevchenko, Yesenin, Muxtor Avezov, Chingiz Aytmatov kabi mutafakkirlar yubileylarining keng nishonlanganligi alohida diqqatga sazovordir.

Hozirgi kunda RBMM, milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik va fuqarolar hamjihatligini mustahkamlashdek o'ta dolzarb masalaga boshqa qator davlat va jamoat tashkilotlarining ham diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda. Respublika kasaba uyushmlari federatsiyasi kengashi, O'zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi.

O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi, O'zbekiston Davlat fan va texnika qo'mitasi va boshqa qator tashkilotlar o'rtaida imzolangan shartnomalar asosida ular bilan o'zaro hamkorlikda ish olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Badiiy akademiyasi bilan birgalikda yuzlab ko'rgazmalar tashkil etilmoqda.

Markazning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan elchixonalar va diplomatik korpuslar bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan tadbirlari ham uning faoliyatida muhim o'rinnegallaydi.

O'zbekistonimizning buyuk kelajagi, vatanimiz ravnaqi yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan milliy-madaniy markazlar faoliyati keng jamoatchilik tomonidan yuksak baholanmoqda. Qator milliy-madaniy markazlar raislari hukumatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lganligi, ularning xizmatlari yuqori darajada e'tirof etilayotganligining dalolatidir.

**O'zbekistonda diniy madaniyat.** Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq diyorimizning barcha fuqarolari haqiqiy e'tiqod erkinligini his eta boshladilar. Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq sho'ro davrida respublikamizda bor-yo'g'i 89 ta masjid va ikkita madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir O'zbekiston musulmonlari idorasini boshqaruvi ostida rasmiy ro'yxatdan o'tgan, barcha qulayliklar yaratilgan 1700 dan ortiq masjid, 10 madrasa va Toshkent islom universiteti faoliyat ko'rsatib turibdi.

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat vakillari ham o'zları e'tiqod qilayotgan dinlarda emin-erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun respublikamizda 15 turdag'i 170 dan ziyod noislomiy diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmoqda.

1999-yil tashkil etilgan Toshkent islom universiteti islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga har yili talabalar qabul qilmoqda. Universitet qoshida Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, manbalar xazinasi hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda.

Taassufki, 100 yildan ortiq davom etgan mustabid tuzum davrida ma'naviy ildizlarimizdan ayirish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga urinishlar bo'ldi. Natijada ma'naviyat va ma'rifat o'mini ma'lum darajada jaholat egallab, yurtdoshlarimiz fiqh, tafsir, hadis, tasavvuf ilmlari haqida umumiy tushunchaga ham ega bo'lmay qoldilar. Hatto islom dini nima, musulmonchilik nima, degan savollariga jo'yali javob bera oladiganlarning soni ham ozchilikni tashkil etardi. Movarounnahr diyori azaldan dinu diyonat o'chog'i, fuzalo-ulamolar yurti ekanligini unutib qo'yidik.

Ana shunday sharoitda mintaqamizda, xususan, O'zbekistonda ba'zi kuchlar din niqobi ostida g'arazli maqsadlar bilan siyosiy hokimiyatni egallahsha intildilar. Alloh, islom kabi so'zlar qo'shib nomlangan, eshitilishi jarangdor partiya, tashkilot va jamoalar («Islom uyg'onish partiyasi», «Hizbulloh»,

«Hizbut-tahrir al-islomiy» va boshqalar) tuzib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlash, yaxlit jo'g'rofiy hududda islom davlati qurish, xalifalikni qayta o'rnatishga harakat qildilar.

Xalifalik – islomi davlat tizimi bo'lib, VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelgan. Arabcha «o'rnbosar» degan ma'noni anglatgan xalifa davlatning diniy va siyosiy yagona rahbari hisoblangan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning «Menden keyin xalifalik 30 yil davom etadi. Undan so'ng podshohliklar paydo bo'ladi», degan hadislari bor (Imom at-Termizi). Haqqiqatan, Payg'ambarimiz bashoratlarini tarix tasdiqladi. Xalifalar Abu Bakr as-Siddiq, Umar bin al-Xattob, Usmon bin Affon, Ali bin Abu Tolib 632-661-yillar davomida islom g'oyalarini asl holda saqlanib qolishiga bor kuchlarini baxshida etdilar. Demak, hozirgi asrimizda xalifalikni qayta tiklash g'oyasi islom dini ta'limotiga ziddir.

Vahobiylar hukumatni qo'lga olishda ochiq kurash, ekstremizm, terror yo'lini tutsalar, «hizbchilar» g'oyaviy, maskuraviy kurash uslubini qo'llaydilar. Ular besh kishidan iborat bo'lgan halqa-halqalarga bo'linib, maskuraviy targ'ibot ishlarini olib boradilar, yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy bo'shiqdandan foydalanib, ularning ongini zaharlashga urinadilar. Xalifalik asosidagi islom davlatini tiklashga urinib, hatto ibodatlarga ham ikkinchi darajali vazifa deb qaraydilar.

«Hizbut-tahrir al-islomiy» diniy tashkiloti ham vahobiylar kabi davlat siyosiy boshqaruviga aralashishga, hukumatni to'ntarish yo'li bilan qo'lga kiritib, islom davlati o'rnatishga intiladi.

«Akromiyalar» oqimi vakillari Allohgagina e'tiqod qiladilar va payg'ambarlarga imon keltirmaydilar, hozirgi kunda musulmonlarga namoz, ro'za, zakot, haj amallari farz emas, chunki biz go'yo kufr jamiyatda yashamoqdamiz, deb da'vo qiladilar.

Yugorida tavsiflari berilgan diniy oqimlarning nomlari turlicha bo'lsa-da, aslida ularning maqsadlari va g'oyalari bitta – dinni niqob qilib hokimiyatga intilish, tinch-osoyishta xalq orasida nifoq va ixtilof chiqarish. Eng achinarlisi shundaki, bu oqimlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Payg'ambarimiz: «Otiga itoat qilish – Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish – Tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir», deganlar. Yana marhamat qilib aytganlar: «Ota-onalarining keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannati bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin». Mazkur hadislardagi tarbiyaviy o'gitlarga qaramay, ba'zi g'arazli oqimlarga kirib qolgan yoshlarimiz ota-onalarini behurmat qilish darajasigacha bormoqdalar. Bu esa, islomning insonorparvarlik g'oyalarini obro'sizlantirishga sabab bo'lmoqda.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Dinda o'zi partiya tuzish, guruuhlarga bo'linish qanday baholanadi?

Qur'onda aytildi: «Va barchangiz Allohning arqoniga (Qur'onga) bog'laningiz va (sirqlarga) bo'linmangiz!...» (Oli-Imron, 103). Bu Allohning buyrug'i, shariat ahkomlariga ko'ra farz amal, ya'ni musulmonlar bajarishi shart bo'lgan harakat hisoblanadi. Demak, Islomda guruhlarga bo'linish, firqa, hizb tuzish Alloh tomonidan taqiqlangan va muqaddas dinimiz ta'limotiga zid ekanligi aniq-ravshan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida jumladan shunday deydi:

«Biz din bundan buyon ham aholini oliv ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdomiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashishi uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yamaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz».

Biz bugungi kundagi ma'naviy hayotimizni islom dunyosida cheksiz ehtirom qozongan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Zamaxshariy kabi allomalarimiz bilan bog'laymiz, chunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Biz dinimizni bu ulug' siymolarsiz va o'z navbatida, bu ulug' nomlarni dinimizsiz tasavvur qila olmaymiz.

O'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasining yuksak e'tirofi sifatida Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti – AYSESKO (ISESCO) tomonidan 2007-yilda "Toshkent shahri – Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi. Aziz poytaxtimizning bunday nomga sazovor bo'lganligi nafaqat xalqimizga, balki butun musulmon olamiga istixor tuyg'usini bag'ishladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bu asrlar davomida ajdodlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi mutafakkir zotlarning diniy ilmlar sohasida qilgan buyuk kashfiyotlari, islom madaniyati rivojiga qo'shgan hissasiga yuksak bahodur. Bunday sharafga yurtimizning islom dini bilan bog'liq tarixi, musulmon dini va madaniyatiga qo'shgan hissasi, ulug' ulamolarning qoldirgan ma'naviy merosi, o'z navbatida, ularni jahon miyosida targ'ib qilish borasidagi ishlar tufayli tuyassar bo'ldik.

Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi bilan bog'liq bosh tadbirlar sifatida Toshkent va Samarqand shaharlarida "O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzusida hamda Samarqand va Buxoro shaharlarida "O'zbekiston – islom dunyosining buyuk mutafakkirlari yurti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi. Anjumanga dunyoning turli burchaklaridan kelgan mehmonlar Vatanimizda mustaqillikning ilk yillardanoq Sharq durdonalari sanalmish Samarqand.

Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalarni saqlash, qayta tiklash va ta'mirlash, qadimiy va boy merosimizni asrab-avaylash ishlarini ko'rib lol qolishdi.

Toshkent shahriga «Islom madaniyati poytaxti» degan nomning berilishi xalqimizning farzandlarida g'urur uyg'otadi, ayni paytda yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Yurtboshimiz so'zlar bilan aytganda, «necha yuz yillar mobaynida yurtimiz hududida yaratilgan buyuk madaniy va ma'naviy merosning tub mohiyatini, uning ko'pchilikka ma'lum bo'limgan qirralarini nafaqat musulmon olamiga, balki butun jahon ahliga keng targ'ib qilish, shu tariqa islam dini tinchlik, ma'rifat, yuksak axloq-odob ifodachisi ekanini yana bir bor namoyon etish borasida ko'p ish qilishimiz zarurligini»<sup>1</sup> yaxshiroq anglash talab etiladi.

## VII BOB. MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALAR FAOLIYATI

Mustaqillik sharoitida ma'naviy islohotlar zamirida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati tubdan o'zgardi, yangi mazmun kashf etdi, shaklan kamol topdi. Bu o'zgarishlar istiqlol bergan imkoniyatlar asosida sodir bo'ldi. Zero, bu sohaning yangilanishi tarixiy zarurat edi. Sobiq sho'rolar davrida madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq manfaatlari xizmat qilish o'rniga, zo'raki ravishda kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish maskanlariga aylantirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa madaniy-ma'rifiy muassasalar xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an'analarini tiklash, xalq ijodini ravnaq toptirish. yangi milliy mafkurani targ'ib etish maskaniga aylandi. Mustaqillik tufayli respublikamizda milliy-ma'naviy tiklanish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandan so'ng, madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq ma'naviyati kamoloti yo'lida xizmat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Prezidentimiz Farmoni asosida respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi (hozirgi ma'naviyat va ma'rifat kengashi markazlari) va uning tarmoq tizimlarining vujudga kelishi madaniy-ma'rifiy muassasalar (jumladan, klublar, madaniyat uylari, madaniyat saroylari, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniy komplekslar, axborot-tehnologiya markazlari, kutubxonalar, muzeylar) faoliyati jiddiy yangilanishiga turki bo'ldi. Eng muhim, ma'naviyat va ma'rifat rivojiga davlatning bosh vazifasi deb qarash bu soha faoliyatini yangidan ravnaq topishiga asos bo'ldi.

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida milliy ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanish asosiy soha bo'lgani sababli, madaniyat

<sup>1</sup> «Xalq so'zi» gazetasi, 2007-yil, 23-fevral.

muassasalari komil insonni tarbiyalash jarayoniga o'zining munosib hissasini qo'shishga mas'ul hisoblanadi, chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, uni axloqiy jihatdan barkamol qilmasdan turib rivojlanish vazifalarini hal etish mumkin emas. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi. Xalq orasida, turarjoylarda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi muassasalarning bu ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos imkoniyatlar mavjud.

Shu narsani e'tiborda tutish kerakki, madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan joylarda va konkret aholi qatlamlariga xizmat ko'rsatadi. Shu boisdan ham madaniyat muassasalari muayyan regionning asosiy madaniyat markazi, ma'rifat va mazmunli dam olish maskani sifatida xalq ijodini kamol toptirishda, bayram va sayillarni uyuştirishda keng imkoniyatlarga ega ma'naviy-mafkuraviy tashkilotlar sifatida xizmat qilmoqdalar. Madaniyat muassasalari kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, shaxs ma'naviyatini har tomonlama rivojlantirish va ularning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish jarayonlarini uzluksiz ta'llim-tarbiya tizimi shaklida amalga oshiradi. Shuningdek, ular joylarda mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarni olib borishda ham davlat, partiyalar, yoshlar uyushmalari, kasaba tashkilotlari va ko'ngilli jamiyatlarning tayanch-tarbiyaviy markazi sifatida ham faoliyat olib boradilar.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat ko'p qirrali jarayon bo'lganligi sababli ijtimoiy hayot, ijtimoiy ong va jamoatchilik fikrining deyarli barcha sohalari bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyat muassasalari mehnatkashlarning asosan bo'sh vaqtleri jarayonda faoliyatlarni amalga oshirishlari sababli jamoatchilik fikrini tarkib toptirishda samarali natijalarga erishish imkoniyatlarga egadir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar ajodolarimiz yaratgan boy madaniy meros, xalq ma'naviyati durdonalari va an'analarini tiklash, rivojlantirish, targ'ib qilish ishlariiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Ular bir tomonidan aholi turli qatlamlarini madaniyat namunalardidan bahramand bo'lishga sharoit yaratib bersa, ikkinchi tomonidan, kishini madaniy hayotini bevosita yaratuvchisiga aylantirishga ham da'vat etadi, uchinchi tomondan esa insonning to'laqonli madaniy qiyofasi, xulq-atvori, odobi va axloqining umuminsoniy va milliy andaza, talablar doirasida shakllanishiga undaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnat jamoasi, ko'ngilli uyushmalar, oila va shaxs hayoti oldida turgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga va turli ijtimoiy-madaniy muammolarni yechishga ham imkoniyat izlaydi. Zero, mehnatkash xalq turmush tarzini boy ma'naviy mazmun bilan to'ldirish, badiiy bezashga ko'maklashish muhim ijtimoiy masalalardir.

Respublikamiz madaniyatshunos olimlari, madaniy-ma'rifiy soha nazariyotchilari, soha amaliyotchilari bilan hamkorlikda tarixiy an'analar mustaqillik mafkurasi, ma'naviy yangilanish ehtiyoji, bozor iqtisodiyoti

xususiyatlari, aholining talab va ehtiyojlari, amaliy tajribalar negizida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining nazariy asoslari, jumladan, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ishlab chiqmoqdalar. Unga muvofiq mustaqillik sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadilar:

- aholi o'rtasida muayyan ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- xalq havaskorlik ijodini ravnaq toptirish;
- ommaviy tadbirlar, marosimlar, bayramlar, sayillar o'tkazish vositasida yalpi ijtimoiy kayfiyat yaratish, jamoatchilik fikriga eltuvchi umumiyl holatni yuzaga keltirish;
- jamoaviy fikr generatorlari - lider shaxslar, baobro' kishilar, oqsoqollar faoliyatini istiqlol yo'llini mustahkamlash ishiga safarbar qilish;
- mehnatkashlarning madaniy dam olishini tashkil qilish;
- aholi turli qatlamlari vakillarini ijtimoiy foydali faoliyatlarni amalga oshirish uchun ularni estetik qiziqishlar asosida uyushma va tashkilotlarga birlashtirish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarining maqsadi — aholining bo'sh vaqtini uyushtirish jarayonida kishilarning madaniy ehtiyojlarini qondirish va ularni ma'naviy boyitishdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining bosh vazifasi — kishilarning madaniy, ma'rifiy, ijodiy faoliyatlari, hordiq olishlari uchun sharoit va imkoniyat yaratib berish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholining madaniy dam olishini uyushtirish;
- kishilarни ma'naviy-ma'rifiy boyitish, intellektual saviyasini oshirish;
- ommaning ijodkorligi va tashabbuskorligini taraqqiy ettirish;
- milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlarimizni e'zozlash, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizni avaylab-saqlash va yanada rivojlantirish;
- xalqning milliy ongini, o'z-o'zini anglash darajalarini oshirish;
- aholiga yangi va rang-barang axborotlar berib turish;
- nogironlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar va yolg'izlarga ma'naviy yordam ko'rsatish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar quyidagi prinsiplar (tamoyillar) asosida ish olib boradi:

- hayotiylik va haqqoniylilik;
- xalqchillik, milliylik va umuminsoniylik;
- ommaviylik va ixtiyoriylik;
- ilmiylik va ijodkorlik.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati mazmunida insonparvarlik, axloqiylik, imon-e'tiqodlilik, farosatlilik, ma'rifatparvarlik, halollik va odillik.

vatanparvarlik va millatsevarlik, birodarparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, hurfikrlilik, taraqqiyatparvarlik kabi insoniy fazilatlar o‘z aksini topadi.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar o‘z faoliyatida quyidagi ish shakllaridan foydalanadi: ma’ruza, ilmiy va ijodiy konferensiya, munozara, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy bahslar, dam olish kechalar, mavzuli kechalar, o’tkir zehnlilar bahslashuvlari, teatrlashgan konsert, ommaviy tomosha, marosim, sayil, bayram, festival, ko’rgazmalar, ko’rik-tanlovlari, sayohat, madaniy sayr, ekskursiyalar, olimpiada, qiziqarli o‘yinlar, badiiy-sport tadbirlari, targ’ibot-tashviqot guruhlari chiqishlari, badiiy havaskorlik to‘garaklari uyushmalari va hokazolar.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar o‘z ish faoliyatida quyidagi vositalardan foydalanadi:

- jonli so‘z, hujjatli manbalar, matbuot va hokazo;
- badiiy vositalar (badiiy so‘z, musiqa, raqs, teatr, adabiyot);
- tasviri vositalar (taklifnama, e’lon, dastur, afisha, buket, dastur, emblema, baner va hokazolar);
- texnik vositalar (radio, TV, audio, video, texnogen apparaturalar, elektron axborot vositalari) va boshqalar.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar o‘z faoliyatida quyidagi metodlar (usullar)dan foydalanadi:

- tarbiyaviy usullar — ibrat, ishontirish, namuna, taqdirlash, tanqid qilish metodlari;
- ma’rifiy usullar — o’rganish, bayon qilish, mashq, namoyish metodlari;
- tashkiliy va faollashtirish usullari.

Madaniy-ma’rifiy muassasalari:

- jamoa va davlat tashkilotlari, kasaba uyushmalari;
- ommaviy axborot vositalari;
- diniy tashkilotlar;
- o‘quv yurtlari;
- harbiy-mudofaa qismlari;
- san’at muassasalari;
- sport va dam olish maskanlari;
- turizm tashkilotlari kabilar bilan hamkorlikda madaniy-ma’rifiy faoliyat olib borishlari mumkin.

**Madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatining mustaqillik davridagi ijobiy o‘zgarishlari.** Ma’lumki, sobiq sho’rolar davridagi madaniy-ma’rifiy muassasa faoliyatining asosiy maqsadi kommunistik mafkurani keng xalq ommasiga singdirib borishdan iborat edi. Istilochilarning maqsadi o‘z mustamlakasidagi xalqlarning ma’naviy o‘zligini yo‘q qilish, uni siyosiy yakka mafkura — kommunistik g‘oyaga bo‘ysundirish bo‘lib, mustaqil fikrlovchi millat vakillarini qattiq qoralashdan iborat edi.

Mustaqillik sharofati bilan madaniy-ma'rifiy muassasalar milliy g'oya, o'zlikni anglash kabi masalalarga alohida e'tibor berishmoqda. Hozirgi kunda bu faoliyatning g'oyasi o'zligini anglagan, ma'naviy barkamol va ma'rifiy yetuk, komil insonni tarbiyalashga, milliy o'zligiga, erkiga va haq-huquqlariga to'laqonli ega bo'lgan millat va xalq ommasiga xizmat qilishdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar madaniy meros, milliy qadriyatlar, xalq an'analarini tiklashda Navro'z bayrami, Mustaqillik kuni, Hayit kunlari kabi diniy va xalq bayramlarini tashkil qilishda muhim o'rin tutmoqda. Xalqning orzu-intilishi, qiziqishini o'rganish, insonparvarlik, haqqoniylilik, milliylik kabi tamoyillar madaniy-ma'rifiy ishlар jiddiy e'tibor bera boshlashdi.

Keyingi yillarda respublikamizning qator viloyatlari (jumladan, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Xorazm) madaniy-ma'rifiy ishlarga jiddiy e'tibor bera boshlashdi.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasaları (klublar, kutubxonalar, muzeylar, istirohat bog'lari kabilar) aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda o'ziga xos xususiyatlar asosida turli usullar, shakllar va vositalar yordamida faoliyat olib boradilar.

**Klub muassasaları** (klublar, madaniyat uylari va saroylari) mahalliy joylarda aholining bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, madaniy faoliyat bilan shug'ullanish, ijodkorlikni oshirish, bilim saviyasini boyitish va ma'naviy kamol topishiga o'zining munosib hissasini qo'shamoqda.

O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalariga ilmiy-uslubiy yordam berish vazifasini «Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi» bajarmoqda. Bu markaz respublika darajasidagi yirik madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, festivallar o'tkazmoqda. Mazkur markaz boshchiligidagi madaniy-ma'rifiy muassasalar muammolariga oid ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar-yig'inlar, ilg'or tajriba targ'ibotlari, ijtimoiy tadqiqotlar, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda va bu sohaning ravnaqiga o'z hissasini qo'shamoqda. Mustaqillik sharoitida bu tizim vakillari joylarda sobiq sho'rolar davrida taqiqlangan xalq an'analarini, milliy marosimlar, bayramlar va xalq ijodi turlarini tiklash va targ'ib qilishga o'zining munosib hissalarini qo'shishmoqda. Shuningdek, ular zamonaviy havaskorlik san'ati namunalarini ravnaq topishiga faol yordam berishmoqda.

O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalar keyingi davrda bolalar ijodiga alohida e'tibor bermoqda. Respublika klub muassasalarida 6 mingga yaqin bolalar jamoalari ishlab, ularda 200 mingga yaqin yosh avlod vakillari qatnashishmoqda.

Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufida Respublika Bolalar badiiy ijodiyoti markazi mavjud. Markaz mintaqada yashab ijod qilayotgan qobiliyatli bolalarni izlab topish, ular ijodini targ'ib qilish, tasviriylar va xalq amaliy san'atining turli yo'naliislari bo'yicha kasb-hunar o'rgatish bilan shug'ullanadi.

**Madaniyat va istirohat bog'lari** Vatanimizda an'anaviy tabiiy-madaniy maskanlar sifatida azaldan mashhur bo'lib kelgan. Hozir ham bu go'zal maskanlar ko'pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi.

Mustaqillik yillari xalqimizning madaniy bog'dorchilik an'analarini tiklanmoqda. Madaniyat va istirohat bog'larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorborg' yaratish an'analaridan foydalanilmoxda. Respublikamizda nafaqat tarixda mashhur bo'lgan bog'lar, masalan, Samarqanddag'i Amir Temur bog'lari tiklanmoqda, shuningdek, Toshkentdag'i Alisher Navoiy nomidagi milliy bog' kabi mashhur yangi bog'lar barpo etilmoqda. An'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan yangi bog'lar Namangan, Farg'ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Respublikamizdag'i 120 dan ortiq istirohat bog'larining 3/4 qismi, ya'ni 90 tasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Axborot-teknologiya markazlari va kutubxonalar** aholini yangiliklar bilan tanishtirishga, ularning bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Kutubxonalar – Vatanimizda yozma yodgorliklar saqlanadigan joy sifatida qadim zamonlardan paydo bo'lib, hozirgi kunda bilimga chanqoq aholi qatlamlarini adabiyotlar bilan ta'minlovchi madaniy, ilmiy-ma'rifiy muassasalar sifatida xizmat qilmoqdalar. Kutubxonalar eng ezgu xizmat – ommaga kitoblar yordamida bilim tarqatish bilan shug'ullanishmoqda. Ularning asosiy vazifalari adabiyotlarni yig'ish, saqlash va targ'ib qilish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kutubxonalarning moddiy-teknik bazasi birmuncha zaiflashgan bo'lsa-da, keyingi yillarda respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar natijalarida ular sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi O'zbekistonning barcha kutubxonalari uchun ilmiy-uslubiy markaz hisoblanadi. U respublikamizdag'i eng katta kitob uyi hisoblanib, uning umumiy fondi 5 millionga yaqin nusxani tashkil qiladi. Kutubxonaning yangi muhtasham binoga ko'chib o'tishi. O'zbekiston madaniyati va ma'rifati tarixida o'ta muhim va quvonchli voqeа bo'ldi.

**Muzeylar** tarixiy, tabiiy, moddiy, ma'naviy yodgorliklarni maxsus e'tibor berib to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ilmiy-ma'rifiy muassasalari sifatida mustaqillik sharoitida munosib ravnaq topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi (1998-yil, 12-yanvar) Farmoni O'zbekistonda muzeylar faoliyati va tizimini yanada takomillashtirish, ularning kishilarni axloqiy kamolotidagi o'rmini oshirish, tarixiy merosni asrash, o'rganish va targ'ib qilish, muzeylardan milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish yo'lida foydalanish, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-teknika bazasini mustahkamlash kabi ishlarni amalga oshirishga zamin bo'limoqda.

Respublikamizda hozir 50 ga yaqin muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillik davrida Toshkentda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar davri davlat muzeyi, Andijonda «Bobur» yodgorlik kompleksi, Buxoroda Bahouddin Naqshband, Chelak tumanida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi, Quvada «Shahriston» tarixiy-me'morial majmuasi kabilar yaratildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona davlat muzey-qo'riqxonalari ta'mirlandi. Xalq amaliy san'ati muzeyi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylari boyitilmoqda. Bunday ishlar natijasida xalqimizning tarixiy xotirasi tiklanmoqda, millatimiz o'zligini anglamoqda.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining hozirgi shakllari va mazmunini istiqlol yo'lidan odimlayotgan O'zbekiston xalqi ma'naviy hayoti, tarixiy-madaniy tajribasi, turmush tarziga, xalq ma'naviy muhitiga yanada muvofiqlashtirish, mavjud imkoniyatlardan va jahon tajribasidan keng foydalananish ma'naviyatimizni yanada ravnaq toptirish yo'lidagi dolzarb vazifalardandir.

## VII BOB. O'ZBEKISTONDA FAN TARAQQIYOTI

O'zbekistonda ilm-fan qadimdan taraqqiy etib, unda astronomiya, matematika, tibbiyat, kimyo, to'qimachilik, me'morlik, ma'danshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. O'rta Osiyodan insoniyat tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Abbas ibn Sayd Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Mahmud Koshg'ariy, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ulug'bek, Ali Qushchi kabi ensiklopedist olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqqan. O'zbekiston olimlari o'z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. 1992-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi. Jamiyat taqozo etgan yangi institutlar ochildi, talablardan orqada qolayotganlari tugatildi. Fan tuzilmasi keskin o'zgardi: ma'naviy fanlar hisoblanuvchi tasavvuf ilmi tiklandi, hadis bilimlariga yo'l ochildi, ziyorilar, talabalarning ruhiy dunyosi ancha boyidi. yangi oliy o'quv yurtlari, universitetlar tashkil qilindi; ilm ahli chet eldag'i olimlar bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatdi. Bularning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlar ham jahon andazasi darajasiga ko'tarila boshladi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz ilm-fani va ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, ming yilliklar davomida ko'hna va qadimiylar zaminimizda yaratilgan boy ilmiy-madaniy merosni asrab-avaylash, uni yanada boyitish, milliy qadriyatlar va ana'analarni tiklash, xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarini ilg'or texnologiyalar, ilmiy zakovat natijalari bilan ta'minlash, yosh, iste'dodli olimlarni tarbiyalash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Fan va innovatsiya faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ilmiy-texnika va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirishda, shuningdek, mamlakatning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi zamон ilm-fanining bir qancha tarmoqlari bo'yicha ilmiy maktablar vujudga keldi, O'zbekiston olimlarining nomlari mamlakatimizdan tashqarida ham mashhur bo'ldi.

Ilmiy ishlar ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlar, shuningdek, universitetlar va boshqa oliv o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Respublikadagi 350 dan ortiq muassasani, jumladan, ilmiy tadqiqot institutlari, oliv o'quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqot bo'linmalari, loyiha konstrukturlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va tajriba korxonalari, axborot-hisoblash markazlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda 34 mingdan ortiq ilmiy xodim fanning turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqda; ulardan 2,4 mingi fan doktori va 8,4 ming kishi fan nomzodidir. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborishga alohida e'tibor berildi.

O'zbekiston Respublikasida bosh ilmiy tashkilot bu **Fanlar akademiyasi va uning tizimidir**.<sup>1</sup> Nukus va Samarqandda Fanlar akademiyasining bo'limlari, Buxoroda ilmiy markazi, Urganchda Xorazm Ma'mun akademiyasi ochilgan. Ilmiy kadrlar Fanlar akademiyalari tizimida, shuningdek, oliv o'quv yurtlari, xalq ta'limi tizimida tayyorlanadi.

Fanlar akademiyasi<sup>2</sup> fan, texnika, madaniyat va ma'rifat sohasida fundamental va amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni amalga oshiruvchi, ilmiy ishlanmalarni muvofiqlashtiruvchi va ularga samarali rahbarlikni ta'minlovchi, davlatning intellektual, iqtisodiy va ma'naviy salohiyatini yuksalishiga qaratilgan fan va keng qamrovli ilmiy yaratuvchini yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etuvchi mamlakatning oliv ilmiy tashkiloti. Fanlar akademiyasining 2020-yilgacha bo'lgan istiqbolli rivojlanish konsepsiysi va

<sup>1</sup> Mazkur qism uchun manbalar FA mas'ul xodimi A. Qayumov tomonidan ta'minlandi.

<sup>2</sup> Ushbu Akademiya 1943-yil tashkil qilingan. Uning birinchi prezidenti etib T. N. Qorin Niyoziy saylandi. T. A. Sarimsoqov – 1947-52-yillar; T. Z. Zohidov – 1952-56- yillar; H. M. Abdullayev – 1956-62- yillar; U. O. Oripov – 1962-66- yillar; O. S. Sodiqov – 1966-84- yillar; P. Q. Habibullayev – 1984-88- yillar; M. S. Salohiddinov – 1988-1994- yillar; T. J. Jo'rayev – 1995-2000- yillar; B. S. Yo'ldoshev – 2000-2006- yillar; Sh. I. Solihov – 2006-yildan.

ilmiy-tadqiqot institutlarida ishlangan fan sig‘imli texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga joriy etishni jadallashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.<sup>1</sup>

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan ilm-fan taraqqiyotining buyuk mutafakkirlari Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ismoil Buxoriy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliqu G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab buyuk allomalar ijodiga oid asarlar yaratilmoqda.

Eng noyob obyektlar sirasiga kirdigan Maydanak observatoriysi, o’n megavattli yadroviy tadqiqot reaktori, siklotronlar, qudratli lazer qurilmalari, katta quyosh sandoni, kimyoziy va biologik majmualari, botanika bog‘i, «Uzsci.net» axborot tarmog‘i va boshqalar olimlarga tabiat qonuniyatlarini o‘rganishda, materiya va modda sirlarini ochishda, dunyoviy hodisalarini tadqiq etishda beqiyos imkoniyat yaratmoqda. Ayniqsa, olimlarning tibbiyot va genetika yo‘nalishlaridagi muvaffaqiyatlari diqqatga sazovor. Xorijdan olinayotgan dordarmonlar o‘rnini to‘la bosadigan va bugungi kunda davolashda keng qo‘llanilayotgan tibbiyot preparatlari, jumladan, 40 ga yaqin turdagisi mahalliy dori vositalari, yangi asbob-uskunalar, serhosil va ertapishar g‘o‘za navlari, xususan, ilk bor gen muhandisligi usuli bilan transgen g‘o‘za o‘simgili yaratildi. Kimyo sohasida yangi tabiat qonuni ochildi va qattiq jismlar fizikasi sohasida optik solitonlar nazariyasi yaratildi. Quyosh energiyasidan foydalangan holda yuqori haroratga chidamli oksid materiallarni olish texnologiyasi, effektiv qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi kurashish vositalarini tayyorlash, yangi turdagisi o‘g‘itlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga xalqimizning ma‘naviyatini boyitishga, milliy istiqlol g‘oyasini tadqiq etishga salmoqli ulush qo‘shmoqda. Arxeologlarning qadimiy sivilizatsiya bevosita hududimizda ham bo‘lganligini isbotlovchi kashfiyotlarda, tarixchilarining asosli faktlar va ko‘plab manbalarga tayangan holda xalqimiz hamda davlatchiligidan tarixiy ildizlari ko‘p ming yilliklarga borib taqalishi haqidagi yangi-yangi tadqiqotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Ko‘p jiddli O’zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi, O’zbek tilining 5 jiddli fundamentali izohli lug‘ati yaratildi, 3 jiddli O’zbekistonning yangi

<sup>1</sup> O‘Z FA tizimida 35 ilmiy -tadqiqot muassasa, 2 ilmiy ishlab chiqarish birlashma va 2 markaz, 3 mintaqaviy bo‘lim (Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Samarqand), 4 mintaqaviy ilmiy markaz (Buxoro, Farg‘ona, Andijon-Namangan, Janubiy (Qashqadaryo-Surxondaryo)), 2 botanika bog‘i (Toshkent va Qoraqalpog‘iston), 4 muzey, «Fan» nashriyoti, asosiy kutubxona, arxiv, aspirantlar uyi va mehmonxona hamda madaniy-ma’rifiy, davolash-sog‘lomlashtirish va xo‘jalik tashkilotlari mujassamlangan. Fanlar akademiyasining tizimida jami 5464 xodim, ulardan 1985 ilmiy xodim, jumladan, 340 fan doktorlari va 893 fan nomzodlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda Fanlar akademiyasi O‘Z FA tarkibida 108 nafar akademik bo‘lib, ulardan 7 nafarini ayollar tashkil etadi.

tarixi nashr etildi. "O'zbekiston davlatchiligi tarixi"ning 1-jildi nihoyasiga yetkazildi. "O'zbekiston milliy davlatchilik tarixining huquqiy asoslari" va "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari" nomli monografiyalar chop etildi. Fanlar akademiyasi institutlari va muzeylarda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar fondi, folklor namunalari, yozuvchilar arxivlari, adabiyot, tarix, qadimiy geografiya, lingvistika, falsafa va iqtisodning muhim yo'nalishlari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish uchun katta manba sifatida xizmat qilmoqda.

Ilmiy-fan sohasi nashriyotchilik ishlari, asosan, «Fan» nashriyoti orqali amalga oshiriladi. Hozirda nashr etilayotgan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ma'ruzalar", "Geliotexnika", "Tabiiy birikmalar kimyosi", "Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali", "Mexanika muammolari O'zbekiston jurnali", "O'zbek tili va adabiyoti", "O'zbekiston biologiya jurnali", "O'zbekiston kimyo jurnali", "O'zbekiston matematika jurnali", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston fizika jurnali", "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" ilmiy jurnali, "Fan va turmush" ilmiy-ommabop jurnallari shular jumlasidan.

Mamlakat olimlari zamonaviy fanning ko'p yo'nalishlari bo'yicha muhim va amaliy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Juhon darajasidagi ilmiy maktablar tashkil etilgan va ular fanning yirik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdalar. Matematika, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellash, informatika, fizika kabi fanlar bo'yicha qator yutuqlarga erishilmoxda. O'zbek olimlarining astronomiya, osmon yoritqichlari harakatini o'rganish bo'yicha ishlari butun dunyoda e'tirof etildi. Ular tomonidan birinchi marta yulduzli osmonning eng aniq xaritasi tuzildi. Kitob xalqaro kenglik stansiyasida ishlayotgan olimlar Italiya hamda Yaponiya olim va mutaxassislari bilan birgalikda Yer qutblari o'rning o'zgarishini o'rganmoqdalar. Mineral xomashyo zaxiralari hosil bo'lishiga olib keladigan geologik jarayonlar qonuniyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar, shuningdek, tektonika, geofizika, seysmologiya va Yer to'g'risidagi fanning boshqa sohalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahsinga sazovor. Respublika geologlarining yer qatlamini geol.-geofizika va geokimyo nuqtayi nazaridan kompleks o'rganish bo'yicha olib borgan ishlari O'zbekistonda kuchli mineral xomashyo bazasini vujudga keltirish imkoniyatini yaratdi. Geolog olimlar yirik foydali qazilma konlarini qidirib topish, o'rganish va o'zlashtirishda bevosita ishtirot etdilar.

Respublikada yadro va elementar zarralar fizikasi, radiatsion fizika va materialshunoslik bo'yicha yirik tadqiqotlar keng taraqqiy etdi. O'zbekiston hozirgi vaqtida radiatsion materialshunoslik va geliomaterialshunoslik yo'nalishlari bo'yicha jahon miqyosida yuqori mavqega ega. Respublika radioaktiv izotoplari, jumladan, farmatsevtika preparatlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi markaz hisoblanadi. O'zbekistonda yuqori energiyalar fizikasi bo'yicha ilmiy maktab

vujudga keldi. Bu maktab doirasida yuqori darajadagi o'tga chidamli juda sof materiallar olish, yejilishga o'ta chidamli, qimmatbaho konstruksion materiallarning o'mini bosish xossasiga ega bo'lgan yuqori haroratli materiallarni ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yaratish bo'yicha ilmiy asos vujudga kelgan. Energiyaning noan'anaviy turini yaratish — Quyosh energiyasini kompleks va samarali energiyaga aylantirish hamda o'zlashtirish bo'yicha ishlar faol olib borilmoqda. Fanning yangi sohasi — nanotexnologiya bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston FA Issiqlik fizikasi bo'limida nanotexnologiya markazi, Axborot texnologiyalari universitetida nanolaboratoriya faoliyat ko'rsatmoqda.

Jahon va Vatan tarixi, madaniy va ma'nnaviy meros, o'zbek tili, adabiyoti, xalq og'zaki ijodining tarixi hamda ularning hozirgi taraqqiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Respublika intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish, xalqaro ilmiy-madaniy aloqalarni kengaytirishda tarixchi, arxeolog, etnograf, tilshunos va adabiyotshunos olimlar o'zlarining muayyan hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Markaziy Osiyoda eng nufuzli, eng yirik ilm-fan markazi hisoblangan hamda o'zining ilmiy salohiyati bilan xalqaro doirada katta obro'-e'tibor qozongan O'zbekiston Fanlar akademiyasi xodimlaridan 200 dan ortig'i respublikaning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan. O'zR FA akademigi M.S.Abdul-laxo'jayeva 2006-yilda va Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti bo'lim boshlig'i G'.Xojaniyazov 2008-yilda "O'zbekiston Qahramoni" oliv unvoni va "Oltin yulduz" medaliga sazovor bo'lishgan. Ilm-fan sohasida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan olimlar Al-Xorazmiy (1992-yilda ta'sis etilgan), Zahiriddin Muhammad Bobur (1993-yilda ta'sis etilgan), H.Abdullayev (1993-yilda ta'sis etilgan) nomidagi medallar bilan taqdirlanmoqdalar.

## XULOSA

Ma'lumingizkim, kitobda madaniyat nazariysi, o'zbek madaniyati tarixi, mustaqillik yillardagi madaniy yutuqlarga to'xtaldik. "Sutdan qaymoq ajratib olinganidek", endi ishning xulosa qismida bayon qilingan qaydlarimizning eng muhimlarini e'tiboringizga havola etmoqchimiz.

Ildizi uzoq tarix qa'ridan boshlanadigan Vatanimiz madaniyati nihoyatda boy va rang-barangdir. O'lkamiz eng qadimgi davrlardan boshlab jahon madaniyati o'choqlaridan biriga aylangan. Tarixda o'chmas iz qoldirgan olimu fuzalolar, davlat arboblariyu sarkardalar dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgani bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Vatanimiz hududidagi minglab arxeologiya, madaniyat va san'at yodgorliklari jahonda mashhur ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham Vatanimiz madaniyat xazinasini qancha

ko'p o'rgansak, shunchalik kamlik qiladi. Keyingi vaqlarda ko'p jildli tarix kitoblari bilan bir qatorda qisqa tarixlar yozish odat tusiga kirmoqda. Shularni hisobga olgan holda minglab yillarni o'z ichiga olgan tarixiy madaniyatimizni qisqa bo'lsa-da, davrlarga ajratib o'rganishga harakat qildik.

Birinchi davr — paleolit (tosh) davri. O'zbekiston hududida ilk paleolit davri odamlari yashagan manzilgohlar Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi Selung'ur g'oridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko'lbuloq makonidan topilgan va o'rganilgan. Olimlar Selung'ur g'orida bundan 1,5 million yillar ilgari odamlar yashagan degan xulosaga keldilar.

O'rta paleolit - Muste davri bundan 100-40 ming yillar avvalda Teshiktosh (Surxondaryo)dan topilgan juda ko'p tosh qurollar, turli hayvon suyaklari hamda neandertal bolaning skeleti g'orda yashovchi odamlarda o'ziga xos sodda madaniyat asoslari vujudga kela boshlaganidan dalolat beradi. Ibtidoi teshiktoshliklar olovdan samarali foydalana olganlar. 9 yoshli neandertal bola dafn etilgan qabrdan har xil buyumlar va tog' echkisi shoxining topilishi o'sha davrlarda diniy tasavvurlar paydo bo'lganini tasdiqlaydi. Teshiktoshliklar e'tiqodi bo'yicha tosh va shox murdani himoya qilgan. Omonqo'ton g'ori, Qo'tirbuloq (Samarqand viloyati), Obirahmat va Xo'jakent (Toshkent viloyati), Boqirg'on darasi (Farg'ona vodiysi), Uchtut (Navoiy viloyati)ga oid topilmalar odamlar to'da bo'lib yashab, ovchilik bilan hayot kechirgani, ov quollaridan foydalangani, shu bilan birga ovchilik o'yinlari (ovga tayyorgarlik ko'rish mashqlari) ham paydo bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Qoya va g'or devorlarida ibtidoi odamlar chizgan tasvir-rasmlardan ma'lum bo'ladiki, bu davrdan boshlab odamlar o'simlik va hayvonot dunyosini tushunishga harakat qilganlar, ularning ongi, harakatlari, marosimlarida fetishizm — odam uchun kerakli narsalar (masalan, yog'och va tosh quollar)ning muqaddasligiga ishonish; animizm — tabiatdagi barcha hodisalar, jismlar, hayvonlarning joni borligi va ruhga ishonish, ularning ilohiy kuchiga sig'inish; totemizm — hayvon va o'simliklar bilan kelib chiqishimiz bir, deb ularni muqaddaslashtirish va sig'inish; ma g i ya — ilohiy kuch yordamida atrofdagi barcha hodisalar, predmet va jontzlarga ta'sir g'oyalari paydo bo'ldi.

So'nggi paleolit miloddan taxminan 40-12 ming yillar avvalgi davrda Samarqand makoni, Krasnovodsk (Turkmaniston), Ohangaronдан topilgan ashyolar (mehnat quollari)da esa san'at (badiiy bezak) izlari, belgilari ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shu davrdan boshlab ayollar urug'i hukmdorligi (matriarxat) boshlangan bo'lib, ayollar katta mavqega ega bo'lgan, mansab, nasl (avlod) va mulk ona urug'i bo'yicha meros bo'lib o'tgan. Erkaklar ayollarga bo'ysungan. Matriarxat davrida ayollar turmushiga xos madaniyat ustuvor bo'lgan. Shu bilan birga, o'sha davrlardan boshlab bola tarbiyalash, ro'zg'or yuritish, taom tayyorlash kabi vazifalarni bajarishda ayollar asosiy

o'rin tutgan. Ov qilish erkaklar vazifasi bo'lsa-da, ovdan keyingi barcha tadbirlarda ayollar asosiy o'rin tutgan. Ayollar boshchiligidagi ovchi erkaklar ishtirotkida ov, hayvonlarga bag'ishlangan maxsus marosimlar, tomoshalar uyushtirilgan.

Mezolit davri (mil. av. 12-7 mingyilliklar). Machay g'ori (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona vodiysi)ga oid madaniy topilmalar diqqatga sazovordir. Bu davrda ov va mehnat qurollari takomillashib, kamon va yoydan samarali foydalanilgan, termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanish ravnaq topdi va bu mashg'ulotlarga oid odatlar paydo bo'ldi.

Neolit «yangi tosh» davri (mil.av. 6-4 mingyilliklar)da Markaziy Osiyo xalqlari hayoti va madaniyatida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi: qabilalar termachilik, ovchilik, baliqchilik kabi o'zlashtiruvchi xo'jalikda band bo'lishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish xo'jaligiga ham o'tdi: hayvonlar xonakilashtirildi, dehqonchilik paydo bo'ldi. Mazkur davrdagi Kaltaminor (Xorazm) madaniyati alohida ahamiyatga egadir. Uzunko'l, Tayloqko'l (Farg'ona vodiysi), Jonbosqal'a (Qoraqalpog'iston), Tuzkon (Buxoro) va boshqa joylardagi yodgorliklar tahlili shuni ko'ssatadiki, bu davrda ikki daryo oralig'iда odamlarning turmush tarzi ancha taraqqiy etib, rivoj topdi, to'qimachilik, kemachilik paydo bo'ldi, soddha dehqonchilik shakllandi, qabila uyushmalari vujudga keldi.

Eneolit (mis) davri (mil. av. 4-3 mingyilliklar yodgorliklari: Zamombobo (Buxoro), Tozabog'yob, Amirobod (Xorazm), Chust (Namangan), Sopollitepa (Surxondaryo) topilmalari bu davrga kelib Markaziy Osiyo xalqlari hayotida qator o'zgarishlar bo'lidan, jumladan, odamlarning turmush tarzi va madaniyati ravnaq topganidan guvohlik beradi. Bu davrda chorvachilik rivojlanadi, o'troq dehqonchilik shakllanadi, sun'iy sug'orishga asoslangan yerlar o'zlashtiriladi, bug'doy, arpa, tariq, suli kabilalar ekiladi.

Ikkinci davr – eramizgacha I ming yillikning birinchi yarmi. Miloddan oldingi VII-IV asrlarda O'rta Osiyoda yangi tipdagi shahar madaniyati shakllana boshladi. Jumladan, Sopollitepa, Jarqo'ton (Surxondaryo); Anov, Namozgoh, Oltintepa (Turkmaniston); Xorazm, Marokanda, Kiroshota kabi joylarda qal'a-shaharlarning qurilishi o'sha davrga xos yuksak madaniyat manzilgohlarini vujudga keltirdi. Qal'alar atrofining o'ralishi, shaharlarda o'ziga xos memorlikning bunyod etilishi, dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi, turli kasb-hunarlarning ravnaq topishi, soddha savdo-sotiqning taraqqiy etishi, bozor atrofida turli madaniy-maishiy maskanlar, tomoshagohlarning paydo bo'lishi, aholining uy-ro'zg'orga, kiyinishga alohida e'tibor berishi – bularning hammasi shahar madaniyatining kamol topishiga jiddiy zamin yaratdi.

Miloddan oldingi II asrda O'rta Osiyodan yirik karvon yo'llari o'ta boshladi, keyinchalik u «Buyuk Ipak yo'li» deb nom oldi. Buning natijasida dala-cho'l

yo'llarida sardobalar, shaharlarda rabotlar (mehmonxona), karvonsaroylar qad ko'tara boshladi.

Markaziy Osiyo xalqlarida qadimdan mavjud bo'lgan turli diniy qarashlar (totemistik, politeistik, magik kabilar) zamirida Zardushtiylik dini keng tarqaldi. Bu dinning muqaddas kitobi «Avesto» o'sha davning muhim manbasiga aylandi. Old Osiyoda paydo bo'lgan Oromiy yozuvi ta'sirida Xorazm, So'g'd va Baqtriy yozuvlari paydo bo'ldi.

Xalq ijodi (baxshichilik, dostonchilik, ertakxonlik), amaliy ijod turlari, xalq o'yinlari, san'at turlari (tomosha, raqs, musiqa), mavsumiy marosim-bayramlar keng rivoj topdi.

Markaziy Osiyo tarixidagi siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar hududdagi madaniy taraqqiyotga ham jiddiy ta'sir qildi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlar davomida O'rta Osiyo yerlarining ko'pchilik qismida eronlik Ahamoniylar sulolasi hukmronlik qilgan. Qadimi eron madaniyatining mahalliy madaniyatga ta'sirini kuchaytirdi. Bu davrdan boshlab O'rta Osiyoda qadimi eron tili, odatlari, e'tiqodlari keng tarqaldi.

Uchinchi davr – eramizgacha IV asr oxiri – eramizning IV asri. Miloddan avvalgi 329-327-yillarda O'rta Osiyo janubi-g'arbiy qismini Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) bosib oldi va grek-makedon hukmdorligi 150 yil davom etdi. Grek-makedonlar ham O'rta Osiyo madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan, hududda ham yunon arxitekturasi, haykaltaroshlik san'ati, teatr tomoshalari paydo bo'ldi. Bu ta'sirni O'rta Osiyo janubida paydo bo'lgan Yunon-Baqtriy davlatida yaqqol sezsa bo'ladi. Natijada, janubda yunon va baktriya madaniyatları uyg'unlashuvidan Yunon-Baqtriy madaniyatı vujudga keldi.

Milodiy asr boshlanishi arafasida Kushon podsholigi (1-IV asrlar) vujudga keldi va u borgan sari kengayib (O'rta Osiyo, Afg'oniston, Shimoliy Hindistonni o'z ichiga oladi), o'sha davrda dunyodagi 3 yirik imperiya qatoriga qo'shildi. Kushon davri madaniyatı insoniyat tarixida o'zining munosib o'rniiga ega. Me'morchilik, haykaltaroshlik, devoriy rangtasvir, temir, tosh, suyakdan yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratish Kushon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

V-VI asrlarda turkiy jangovar ko'chmanchi qabilalar birlashmasi asosida vujudga kelgan Eftalitlar davlatida dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatiga alohida e'tibor berilgan, ulkan me'morchilik inshootlari bunyod qilingan, rangli shishadan turli idish va san'at asarlari yaratilgan, tanga pul zarb etish yuqori darajaga ko'tarilgan.

To'rtinchi davr – VII asrning ikkinchi yarmidan – VIII asr. Bu asrlarda arablar O'rta Osiyoni bosib olganda so'ng islomiy madaniyat – arab yozuvi, islom dini, odatlari va bayramlari O'rta Osiyo madaniyatiga aylandi. Madaniy obidalar (masjid, madrasa, maqbara, namozgoh kabilar) qurildi va ularda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlar olib borish tajribasi hamda usullari yo'lga qo'yildi.

Islomgacha mavjud bo'lgan madaniyat yodgorliklari, otashparastlik va boshqa dinlar bilan bog'liq rasm-rusumlarga qarshi kurash olib borildi.

Madaniyat arablar kelgunga qadar yuqori darajada rivojlangan bo'lsa-da, biroq bu ulkan hudud aholisini birlashtiradigan yagona hokimiyat va yagona maskura yetishmas edi. Islom Markaziy Osipo xalqlarini ma'naviy jihatdan birlashtirib, bu hududda yangi dunyoviy madaniyatning ravnaq topishiga asos soldi.

Beshinchi davr – IX-XII asr. Bu davrda Movarounnahrda ilm-fan taraqqiy etdi. Jahonga mashhur tasavvuf ilmi vujudga keldi. Yassaviya, Naqshbandiya, Kubroviya, Bektoshiya, Uvaysiya, Suhravardiya kabi tariqatlar keng tarqaldi. IX-XII asrlar mobaynida ma'naviy madaniyat gullab-yashnadi. Falsafa, riyoziyat (matematika), falakiyat (astronomiya), jug'rofiya (geografiya), tibbiyat (meditsina) kabi fanlar ravnaq topdi. Dunyoviy kashfiyotlar (algebra-al-jabr asoslari, yerning sharsimonligi, tibbiyat qonunlari kabilalar) yurtimizda yaratildi. Buyuk matematik, astronom va geograf, aljabr ilmining otasi - Muhammad al-Xorazmiy, «Shayx ur-raisi», «Donishmandlar sultonasi», «Tabiblar shohi» kabi buyuk va mo'tabar nomlarga sazovor Abu Ali ibn Sino, qomusiy bilimlar sohibi, umumjahon fani va madaniyatiga bebafo hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, ikkinchi Arastu nomi bilan mashhur, jahon falsafa, musiqa va matematika ilmlari poydevorini tiklagan Abu Nasr Forobiy, Navoiy ta'biri bilan aytganda, ko'zi oldida osmon past bo'lgan Mirzo Ulug'bek, islom madaniyati va ilmida juda katta o'r'in tutgan Xoja Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, turkiy adabiyot sultonasi Hazrat Alisher Navoiy, ham qalam, ham jang maydonida ko'rsatgan jasorati bilan mashhur Bobur Mirzo shu tuproq farzandlaridir.

Oltinchi davr – XIV-XVI asr boshi. XIV-XVI asrlar Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda yuksak dunyoviy madaniyat vujudga keldi. Temur yordami bilan «Karvon yo'llari»ning tiklanishi hamda Samarqandda olamga mashhur olimu fuzalolar, shoirlar, me'moru hunarmandlarning to'planishi natijasida yurtimiz jahon madaniy markazlaridan biriga aylandi. Temur davrida me'morchilik, naqqoshlik, zargarlik, o'ymakorlik, kulolchilik, oynasozlik, xattotlik, adabiyot hamda ilm-fan rivoj topdi. Samarqand va uning atrofida jahonga mashhur bog'lar vujudga keldi. Kutubxonalar, rasadxonalar, madrasa, maqbaralar qurildi. Temur nevarasi Ulug'bek yaratgan «Yulduzlar xaritasi» jahon falakiyat ilmiga munosib hissa bo'ldi. Ulug'bek observatoriysi dunyodagi eng ilg'or ilmiy inshootlarning biriga aylandi. Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ijodi va faoliyati tufayli o'zbek adabiyoti va adabiy tilining martabasi yuksak darajaga ko'tarildi.

Yettinchi davr – XVII-XIX asr boshi. Xonliklar davrida san'at, adabiyot va ilm-fan rivojlandi. Har bir xonlik madaniyati o'ziga xos tarzda, ko'rinishda va shakllarda namoyon bo'ldi. Qo'qon xonligida jo'shqin adabiy muhitning

vujudga kelganligi jahonga mashhur ko'plab shoir va shoiralarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Bu davrda o'zbek teatr san'atining asosiy turlari: masxarabozlik, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik va dorbozlik rivoj topdi. Raqs san'ati sohasida Farg'ona, Xorazm va Buxoroning o'ziga xos uslublari yaratildi. Ayniqsa, Farg'onada «Katta o'yin», «O't o'yin», Buxoro-Samarqandda «Chavki» kabilar xalq orasida keng shuhrat qozongan. O'zbek musiqa san'atining maishiy, marosimiy, tarixiy kabi turlari keng tarqaldi. Muayyan vaqtida ijro etiladigan to'y («Yor-yor»), mehnat («Mayda», «Yozi»), motam («Yig'i», «Sadr») qo'shiqlari hamda istalgan vaqtida kuylanadigan terma, qo'shiq, lapar, alla, ashula, yalla kabilar xalq orasida mashhur bo'lgan. Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Toshkent maqomlari yuqori mumtoz san'at turiga aylandi. Xalq cholg'u asbloblari ichida g'ijjak, sato, qo'biz, do'mbira, dutor, tanbur, rubob, ganch, sibizg'a, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora kabilar musiqa ijrochilik san'atining ravnaq topishida asosiy o'rinn tutdi.

Sakkizinchı davr – XIX asr oxiri va XX asr. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi o'zbek madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Istilochilar o'z madaniyatini joriy etishga intildilar. Biroq bu hodisaga nisbatan mahalliy ziyyolilar orasida turli qarashlar, siyosiy-madaniy oqimlar paydo bo'ldi. Din arboblari sof islom an'analarini va qadriyatlarini boshqa madaniyat ta'siridan saqlashga va Yevropa madaniyatiga qarshi kurashga intildilar. Mahalliy ziyyolilar orasida paydo bo'lgan jadidchilik harakati namoyandalari madaniyat va ma'rifat usullarini milliy asoslarda yangilash va boyitishga harakat qildilar. Oktabr to'ntarishidan so'ng nigelistik qarashga ega vakillar «proletkult» oqimini vujudga keltirdilar. Proletkultchilar milliy madaniyatni tag-tomiri bilan qo'porib, mutlaqo yangi madaniyat barpo etish g'oyasini ilgari surdilar.

XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmida o'zbek madaniyatiga qator yangiliklar kirib keldi. Yevropa tipidagi klub, muzei, teatr, sirk, opera, balet, xor, orkestr, estrada kabi shakllar mahalliy madaniy hayotda o'z o'mini topa boshladi. Joylarda ko'p janrlı havaskorlik ijodi taraqqiy etdi. Madaniyat va san'atni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalari – radio, matbuot, televideniye muhim o'rinn egallay boshladi.

Sobiq sovet hokimiysi davrida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, biroq milliy ong, xalq an'analarini, ma'nnaviy qadriyatlarga qarshi kurash olib borildi. Natijada o'zbek xalq an'anaviy madaniyatini o'z «tomirlari»dan kerakli kuch ololmay, yaxshi taraqqiy eta olmadidi.

To'qqizinchı davr – 1991-yildan to bugungi kungacha. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng ajdodlarimiz tomonidan ming yilliklar ichida yaratilgan bebaaho meros xalq an'anaviy madaniyatini tiklash, saqlash va taraqqiy ettirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridayoq O'zbekiston xalqaro subyektga aylanib, 1992-yilda BMTga,

1993-yilda YUNESKOga a'zo bo'ldi. YUNESKO qaroriga muvofiq Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi, Qarshi shahrining 2700 yilligi, Marg'ilonning 2000 yilligi, Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlandi. Milliy bayramlar, urf-odatlar va diniy qadriyatlar qayta tiklanmoqda, zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk tarixiy shaxslar va mutafakkirlarning meroslari o'rganilib, nomlari e'zozlanmoqda. Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy kabi mutafakkirlarning yubileylari o'tkazildi. Yangi ma'naviy-g'oyaviy yo'nalishlar shakllandi. Bu ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojining yanada jadallahishiga olib kelmoqda. Tarixiy-falsafiy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, musiqa va tomosha san'atlarida, badiiy va hujjatli kino, televide niye tizimida yaqqol namoyon bo'immoqda.

Xalqimiz tarixlar silsilasida o'zining irodaliligi, barqarorligi, bir butunligi bilan katta bosqinlar, mustabidchilik, zulm iskanjasidan mardonavor o'z imone'e'tiqodiga suyanib omon chiqib kela oldi.

Bu jasur, matonatli xalq o'z metin irodasini, bardoshini avlodlarga yuksak milliy qadriyatları, me'moriy obidalari, urf-odatlari qatorida meros qoldirib kelgan. Istiqlol yorug' tong kabi milliy qadriyatlar ravnaqiga keng yo'l ochmoqda.

Bugun O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga dadil qadamlar bilan kirib borishida, yoshlarimiz dunyoga o'zlarini namoyon qilishida ko'hna tariximizning, ajdodlar mumtoz ma'naviy va ma'rifiy merosining o'rni nihoyatda kattadir.

\* \* \*

Faxrlanishimiz mumkinki, tarixda ajdodlarimiz madaniy taraqqiyot jihatidan jahon xalqlaridan ancha ilgarilab ketgan davrlari ko'p bo'lgan. Jumladan, dastlab miloddan avvalgi 1-mingyilliklar o'rtalarida Vatanimizda o'sha davrga mos qadimiy sivilizatsiya, ya'ni o'ziga xos shaharsozlik madaniyati, So'g'd, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlar madaniyati, zardushtiylik va boshqa e'tiqodlar, o'nlab antiqa yozuv turlari, amaliy san'at namunalari ravnaq topdi va mashhur bo'ldi. Bu davrdagi ajdodlarimiz yutuqlari Sharq (Xitoy, Hindiston) va G'arb (Rum, Yunon) madaniyatlariga ham ma'lum edi va ularga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinci marta – IX-XII asrlarda islom dini ta'sirida ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo (Buxoro, Samarqand) islom dinining o'ziga xos markaziga aylandi va bu o'lkada muhaddislik ilmi (imom Buxoriy, at-Termiziyy), tasavvuf ilmi (Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlari) ravnaq topdi. Ahmad Farg'oniy, al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino, al-

Beruniy kabi vatandoshlarimiz jahon ilm-fani va taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar. Ajdodlarimiz asarlarining G'arb mamlakatlarida tarqalishi Yevropa uyg'onishi-renessansini vujudga keltirdi, ya'ni Yevropani ming yillik «uyqu»dan uyg'otdi.

Uchinchi bor – XIV-XV asrlarda Temuriylar davrida Movarounnahrda ilm-fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, me'morlik jadal rivoj topib, Buyuk sultanat poytaxti – Samarcand dunyoning madaniy markazlaridan biriga aylandi. Demak, tarixda ajdodlarimiz o'z yuksak madaniy darajasi bilan (vaqt-i-vaqt bilan bo'lsa ham), vatanimizda vujudga keltirgan eng ilg'or madaniyat tufayli jahon sivilizatsiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Tarixiy tajribada (jumladan, IX-XII asrlarda ham) ma'rifatga e'tibor berish – taraqqiyot «g'ildiragi»ni aylantirib yuborganidek, hozirgi davrda ta'lif to'g'risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida boshlangan ma'rifiy islohotlar millatimiz ma'naviy darajasini ko'tarishda poydevor bo'lmoqda. Demak, ma'naviy omil (ilm-fan, ma'rifat, mafkura, siyosat, adabiyot, san'at, din kabilar) millatimizni yana yuksaklarga ko'tarishiga ishonchimiz komil.

Millat madaniyatini yanada yuksaltirish uchun jamiyatda mavjud bo'lgan salohiyat, layoqat, qobiliyatlardan foydalanish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Millatning ichki ma'naviy imkoniyatlaridan foydalanish bilan bir qatorda millat vakillarining tashabbuskorlik, ijodkorlik faolligini oshirmoq zarur. Eng muhimi, ziyorolar ongi va ruhidagi yaratuvchilik salohiyatini jonlantirib, uning millat kamolotiga xizmat qildirish darkor. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Xalq — bamisolli ulug' va sharafli yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch — ma'naviyat bor. ...Har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi».

Mustaqillik aynan shunday ezgu ishlarni amalga oshirishga, madaniy rivojlanishga imkoniyat yaratib bermoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan madaniy islohotlarning barchasi inson kelajagiga, ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Aynan madaniyat insoniyat taraqqiyotini ta'minlovchi bosh omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T., 1994.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T., 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kasolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000.
7. Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar) – T.: O'zbekiston, 1997.
8. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari. – Farg'ona, 1998.
9. Abdullayev U.S. Farg'ona vodiysisidagi etnoslararo jarayonlar. – T.: Yangi asr avlod, 2005.
10. Абдуллаев Р.С. Обрядовая музыка Центральной Азии. – Т., 1994.
11. Абу-л-Фазл Бейхаки. История Масуда. – Т., 1962.
12. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy. Qabr azobi. – Т., 1994.
13. Abdurahimov T. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari. – Т., 1997.
14. Абдурахимов Б. Культура как объект инвестирования. – Т., 1998.
15. Abduraxmonov A. Ulug'bek akademiyasi. – Т., 1993.
16. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning masalasi. – Т.: Fan, 1992.
17. Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf-odatlar. – Т.: Fan, 1990.
18. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-tom. – Т., 1998.
19. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. – Т.: Cho'lon, 1992.
20. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorliklar. /Asqar Mahkam tarjimasi. – Т., 2001.
21. Avesto. – Т., 2001.
22. «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – Toshkent-Urganch, 2001.
23. Ajdodlar o'giti. – Т., 1993.
24. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Т., 2000.
25. Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. – Т.: Nur, 1992.
26. Amir Temur o'gitlari. – Т., 1992.
27. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. – Т.,....
28. Античное наследия в культуре Возрождения. – М., 1994.
29. Anarbayev A.A., Maksudov F.A. Drevniy Margilan. Т.: Fan, 2007.
30. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – Т.: O'qituvchi, 1994.
31. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Т.: Universitet, 2007.

32. Atamuradov S., Husanov S., Rametov J.. Ma'naviyat asoslari. Ma'ruba matnlari. – T., 2000.
33. Ashirov A. "Avesto"dan meros marosimlar. – T.: Meros, 2001.
34. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
35. Ashirov A., Ahmadjonov Sh. Etnologiya. – T., 2007.
36. Ахунбабаев Х.Г. Об одном согдийском обычай //История материальной культуры Узбекистана. Вып.23 – Т., 1990.
37. Ахунджанов Э.А. Письменная культура Средней Азии. – Т.: Изд.народ.наслед.им. А.Кадыри, 2000.
38. Ahmedov B. O'zbek ulusi. –T.: A Qodiriy nom. Xalq merosi nashr., 1992.
39. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar 13-tom. – T., 1966.
40. Axmedova E., Gabidulin R. Kulturologiya. – T., 2001.
41. A.Erkayev. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: Ma'naviyat, 1997;
42. Бартолд В.В. История культурной жизни Туркестана //Сочинения. т.1. – М.: Наука, 1978.
43. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. – T.: Cho'lpox 1995.
44. Богусловская С.М. Механизм культурной преемственности. – М., 1989.
45. Boynazarov F. Antik dunyo. – T.: Mehnat, 1983.
46. Boltaboyev S. Mustamlaka Turkistonda islom dinining ahvoli. – T., 1994.
47. Бромлей Ю. Создана человечество. – М., 1984.
48. Bo'riyev O., Xoliqov D. Turkona an'ana va udumlar – millat ko'rki. – T., 1998.
49. Bo'riyev O.B. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusumlar. //O'zbek xalqi boqiy qadriyatları. – Qarshi, 2005.
50. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T., 1990.
51. Vatan madaniyati tarixi. – T., 1995.
52. Восток и Запад. – М., 1988.
53. Валиев А.К. Проблемы развития духовной культуры. – Т.: Узбекистан, 1992.
54. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. – T.: Fan, 1998.
55. Gulmetov E., Qobiljonova T., Ermazarov Sh., Mavtulov A. Madaniyat-shunoslik. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
56. Гельдиев А.Ч. Национальная культура и личность. – Т.: Узбекистан, 1993.
57. Джабборов И. Древянская Г. Духи, святые, боги Средней Азии. – Т.: Узбекистан, 1993.
58. Davlatova S.T. O'zbek milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik. – T.: Yangi asr avlod, 2006.
59. Древние цивилизации. – М., 1987.
60. Древний Восток и мировая культура. – М., 1981.

61. Ерасов В.С. Культура, религия и цивилизация на Востоке. – М., 1990.
62. Jabborov I. Ruhiy olam: jaholat va kamolot. – Т.: O'zbekiston, 1986.
63. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. – Т., 1994.
64. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. – Т.: O'zbekiston, 1999.
65. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – Т.: O'qituvchi, 2003.
66. Jalolov A. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti. – Т.: Fan, 1991.
67. Jumaniyozov R. Xalq ijodiyoti – xaq ijod. – Т.: O'zbekiston, 1992.
68. Jo'rayev B.X. Madaniyat: axloq va inson. – Т.: Fan, 1992.
69. Jo'rayev M. Ipak yo'li afsonalar – Т.: Fan, 1993.
70. Захидов В. Три Титана. – Т.: Фан, 1973.
71. Зиёев А. Узбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2000.
72. Иконникова С. Диалоги о культуре. – Л., 1987.
73. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Т.: O'zbekiston, 1990.
74. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – Т., 1998.
75. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. Т. 2001
76. Ismoilov X. O'zbek to'ylari. – Т.: O'zbekiston, 1992.
77. История первобытного общества. – М.: Наука, 1988.
78. История Узбекистана в источниках. – Т.: Фан, 1984.
79. Искусства стран Востока. – М.: Просвещение, 1986.
80. Искусства стран народов мира. Энциклопедия. – М., 1956-78.
81. Кавутович О. Вечный Египет. – М., 1989.
82. Каган М.С. Искусства и систем культуры. – М., 1979.
83. Karamatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. – Т.: Fan, 1993.
84. Karimov B.R. Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari. – Qarshi: Nasaf, 2003.
85. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976.
86. Karomatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – Т.: 2008y.
87. Касамби Д. Культура цивилизации древней Индии. – М., 1986.
88. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. – М., 1977.
89. Косвен И. Очерки истории первобытной культуры. – М., 1957.
90. Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan. – Т.: 1960.
91. Куббелъ Л. Страна золота-веха, культура. – М., 1990.
92. Кузьмина Е.Е. Конь в религии искусстве саков и скифов // Скифы и сарматы. – Киев, 1977.
93. Культура Древнего Египта. – М., 1986.

94. Культура эпохи Возрождения. — М., 1986.
95. Куманецкий К. История культуры древней Греции и Рима. — М., 1990.
96. Ликошин Н.С. Пол жизни в Туркестане. Т. 1916
97. Mavrusov A. Ma'naviyatni sog'lomlashdirish davri. — Т.: O'zbekiston, 1996.
98. Madaniy va ma'rifiy ishlar (lug'at). — Т.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.
99. Madaniyat va jamiyat. — Т.: O'zbekiston, 1993.
100. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. Т. 2000;
101. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. — Т., 1976.
102. Маркарьян Э.С. Теория культуры и современная наука. — М., 1989.
103. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. — М., Наука, 1964.
104. Mahmudov T. «Avesto» haqida. — Т.: 2000
105. Mahkamov I. Axloq-odob saboqlari. — Т.: Fan, 1994.
106. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Т. 1963.
107. Mahmudov R. Huquq va madaniyat. — Т.: O'zbekiston, 1964.
108. Mahmudov T. «Avesto» haqida. — Т.: Sharq, 2000.
109. Mahmudov Sattor. O'zbek udumlari. — Т.: 2007.
110. Ma'naviyat asoslari. Т. 2000
111. Ma'naviyat yulduzları. Т. 1999;
112. Milliy urf-odat, marosim va an'analarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni. Т. 1999
113. Moziydan taralgan ziyo. Т. 1998
114. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-kitob. Т. 2001
115. Мусулманские праздники. М. 1990
116. Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. — Т.: Adolat, 2003.
117. Mustaqillik, ilmiy-ommabop lug'at. — Т., 1998.
118. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. — Т.: O'qituvchi, 1994.
119. «Muxtasar». — Т.: Cho'lpon, 1992.
120. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. — Т.: Fan, 1994
121. Наджимов Г.Н. Народные традиции и культура. — Т.: Ўзбекистон, 1992.
122. Nazarov. K Akseologiya (Qadriyatlar falsafasi). Т. 1999;
123. Narshaxiy. Buxoro tarixi. — Т.: 1999.
124. Nasriddinov Q. O'zbek dafn va ta'ziya marosimlari. — Т.: Meros, 1996.
125. Nozilov D.A. O'rta Osiyo dizayni tarixidan. — Т.: O'zbekiston, 1998.
126. Огудин В.Л. Страна Фергана. — М., 2002
127. Оппенхейм А. Древняя Месопотамия. — М., 1990.
128. Основы теории культуры. — М., 1986.
129. Очерки истории искусства. — М., 1987.
130. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati. — Т.: Fan, 1990.

131. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. — Т., 1987.
132. Pugachenkova G. Temurning me'moriy merosi. — Т., 1996.
133. Пугаченкова Г., Ремпель Л. Очерки истории искусства Средний Азии. — М., 1982.
134. Пугаченкова Г. Миниатюры Средней Азии. — М., 1974.
135. Пугаченкова Г. Шедевры Средней Азии. — М., 1986.
136. Ro'zmetov A. Madaniyatda menejment va iqtisodiyot asoslari. Т.: O'qituvchi, 1998.
137. Разумович Н. Политическая и правовая культура. — М., 1989.
138. Rahmatulloh Turkistoniy. Ilm va Ilyon. — М.: Mavarounnahr, 1993.
139. Rahmonov M. O'zbek teatri. 1-tom. Т. 1975
140. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. — Т.: Universitet, 2004
141. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov U., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. — Т.: Akademiya, 2000
142. Sagdullayev A., Mavlonov U. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. — Т.: Akademiya, 2006
143. Сагдуллаев А. Поход Александра Македонского в Сагдиану. — Т.: 2007.
144. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. — Т.: Fan, 1986.
145. Safarov O. O'zbek bo'lalar poetik folklori. — «O'qituvchi», 1985
146. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. — Т.: Fan, 1997.
147. Сухарева О.А. Бухара: XIX – начало XX в. М. 1966
148. Sodiqova N. XIX-XX asrlarda o'zbek milliy kiyimlari. — Т.: Sharq, 2001.
149. Soatov G. Madaniyatshunoslik. Karshi 2000;
150. Тайлор Э. Первобытная культура. — М., 1989.
151. Тимошинов В.И. Культурология - Алматы 1997;
152. Токарев С. Ранние формы религии. — М., 1990.
153. Толстов С.П. Древняя культура Узбекистана — Т.: Фан, 1943.
154. Толстов С.П. Древний Хорезм. — М., МГУ, 1948.
155. Temur tuzuklari. — Т.: Sharq, 1991.
156. Теория и история культуры. — Т., 1992.
157. Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi. — Т., 1995.
158. O'zbekiston tarixi va madaniyati. — Т.: O'qituvchi, 1992.
159. O'zbekiston san'ati. — Т. 2001
160. O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. — Т., 2006.
161. Usmon O. Bahouddin Naqshband va uning tariqati haqida. — Т., 1993
162. Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Т., 1993.
163. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. — Т., 1985.
164. Firdavsiy. Shohnoma. Т. 1986
165. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda Ilk Uyg'onish davri madaniyati. — Т.: Fan, 1994.

166. Hakimova O. Mantiq va nutq madaniyati. T.: A Qodiriy nom. Xalq merosi nashr., 2002.
167. Xiva – ming gumbaz shahri. – T.: Sharq, 1997.
168. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar ma'naviyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
169. Хрестоматия по истории древнего мира. – М.: Просвещение, 1991.
170. Художественная культура Средней Азии IX-XIII веков. – Т.: Изд. Литература и искусства им Г.Гуляма, 1983.
171. Хук. С.Ф. Мифология Ближнего Востока. – М., 1992.
172. Husayn Voiz Koshifly, Futuvotnomai Sultoniy. – Т., 1994.
173. Sharofuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Т.: 1997
174. Shayxova X. Inson va uning ma'naviy dunyosi. – Т., 1993.
175. Shermuxamedov S., Ochilidiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Farg'ona, 2000.
176. Shoniyoзов K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Т.: Sharq, 2001.
177. Шониёзов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX – начало XX в. – Т.: Фан, 1981.
178. Yusupov E. Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti. – Xo'jand, 1996.
179. Yusupov E., Ismoilov F. Inson barkamolligi. – Т., 1990.
180. Yusupov E. Komil insonning ma'naviy asoslari T. 1988.;
181. Yassaviy A. Hikmatlar. – Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
182. Карабаев У. Этнокультура. – Т., 2005.
183. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Т., 2002.
184. Qoraboyev U. Madaniyat tadbirlar. – Т.: 2004.
185. Qur'oni Karim. T. 2001
186. G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. – Т. 2001
187. G'ofurov 3. Mustaqillikning ma'naviy zaminlari. – Qarshi, 1994.
188. Xayrullayev M. Shoraxmedov D. Madaniyat va meros. – Т.: 1973.
189. Геродот. История в девяти книгах. Книга четвёртая. В 2 томах, Т.1. – М., 1985.

## M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
<b>I qism. MADANIYAT NAZARIYASI</b>	
I bob. MADANIYAT TUSHUNCHASI.....	5
II bob. MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYAT.....	11
III bob. MADANIYATNING VAZIFALARI.....	16
IV bob. MADANIYAT VA MADANIY MEROΣ.....	18
V bob. MADANIYAT VA SIVILIZATSIYA.....	21
<b>II qism. O'ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI</b>	
I bob. IBTIDOIY MADANIYAT.....	24
1-§. Paleolit davri madaniyati.....	24
2-§. Neolit davri madaniyati.....	27
3-§. Bronza davri madaniyati.....	28
II bob. QADIMGI DAVR MADANIYATI.....	31
1-§. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati haqida.....	31
2-§. Qadimgi xorazmliklarning madaniyati, san'ati va diniy qarashlari.....	36
3-§. Qadimgi Baqtriya madaniyati va san'ati.....	40
4-§. Qadimgi so'g'diyonaliklarning madaniyati, san'ati va diniy qarashlari.....	44
5-§. Avesto – ajodolarimizning qadimgi bebahoy yozma yodgorligi .....	48
III bob. QADIMGI SULOLALAR DAVRI MADANIYATI.....	56
1-§. Kushonlar davri madaniyati.....	56
2-§. Eftalitlar davri madaniyati.....	59
3-§. Turk xoqonligi davri madaniyati, san'ati va diniy qarashlari .....	62
IV bob. SHARQ UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI.....	72
1-§. Sharq va G'arb Uyg'onish davrlari madaniyatları va ularning xususiyatlari....	72
2-§. Ilm-fan taraqqiyoti.....	75
3-§. Islom ta'lomi va hadisshunoslik ilmining rivoji.....	77
4-§. Tilshunoslik va axloqshunoslik.....	80
5-§. Me'morchilik va musiqa san'ati.....	82
V bob. TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI.....	87
1-§. Amir Temur davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari .....	87
2-§. Ilm-fan ravnaqi.....	91

3-§. Me'morlik san'ati.....	93
4-§. Miniatura va musiqa san'ati.....	96
5-§. Adabiy-badiiy jarayon.....	98
VI bob. XVI-XIX ASRLAR MADANIYATI.....	100
1-§. Ijtimoiy-madaniy hayot va uning asosiy xususiyatlari .....	100
2-§. Falsafiy tafakkur va tarix fanlari rivoji.....	103
3-§. Adabiy-badiiy jarayon .....	104
4-§. Me'morlik va musiqa madaniyati.....	106
5-§. Markaziy Osiyo hududidagi uch xonlik va madaniy hayot.....	108
VII bob. MUSTAMLAKACHILIK DAVRI MADANIYATI.....	110
1-§. Rossiya imperiyasi istilosи va uning milliy madaniyatga ta'siri.....	110
2-§. Turkiston o'lkasida ta'lim tizimi va uning o'ziga xos jihatlari.....	115
3-§. Ilmiy jamiyatlar va ularning milliy madaniyatga ko'rsatgan ta'siri.....	118
4-§. Me'morlik va musiqa san'ati.....	119
5-§. Sho'rolar davri madaniyati.....	123
<b>III qism. MUSTAQILLIK DAVRI MADANIYATI</b>	
I bob. MUSTAQILLIK VA MADANIY ISLOHOTLAR.....	130
II bob. MADANIYAT SOHASIDA MILLIY G'OYA IFODASI.....	136
III bob. O'ZBEK XALQI AN'ANAVIY MADANIYATI.....	141
IV bob. MUSTAQIL O'ZBEKİSTON BADIY MADANIYATI.....	155
V bob. O'ZBEKİSTON – KO'P MILLATLI VA DINIY MADANIYAT DIYORI.....	164
VI bob. MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALAR FAOLIYATI.....	170
VII bob. O'ZBEKİSTONDA FAN TARAQQIYOTI.....	176
XULOSA.....	180
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	188

**Usmon Qoraboyev, G‘ayrat Soatov**

**O‘ZBEKISTON MADANIYATI**

*Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan  
ta‘lim muassasalarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida  
tavsiya etilgan*

Muharrir *A.Akbarov*  
Sahifalovchi *H.Safaraliyev*

Litsenziya AI N190. 10.05.2011y.  
Bosishga ruxsat etildi 3.07.2011. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .  
Ofset qog‘ози. TimesUz garniturasи. Shartli bosma t. 12,25.  
Nashr t. 12,25. Adadi 500 nusxa. Buyurtma 05/05.

«Tafakkur-Bo‘stoni» nashriyoti.  
Toshkent, Yunusobod, 9-mavz, 13-uy.

«Tafakkur» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.

15300



ISBN 978-9943-362-26-0

9 789943 362260